

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
YURIDIK FAKULTETI
DAVLAT HUQUQI VA BOSHQARUVI KAFEDRASI



DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI FANI
MODULI

Namangan – 2023

1-MAVZU.

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASINING PREDMETI VA METODLARI

Mavzuning asosiy yo'nalishlari:

1. Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Davlat va huquq nazariyasi fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi.
3. Davlat va huquq nazariyasining yuridik fanlar tizimidagi o'rni.
4. Davlat va huquq nazariyasi fanining metodlari.
5. Davlat va huquq nazariyasi fanining funksiyalari.
6. O'quv moduli sifatida davlat va huquq nazariyasining tuzilishi.
7. Davlat va huquq nazariyasi fanining bo'lg'usi huquqshunoslarni tayyorlashdagi ahamiyati.
8. Jamiyat hayotini demokratik yangilashda davlat va huquq nazariyasi fanining roli.

1.1. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ma'lumki, muayyan fanni o'rganishni boshlashda, avvalo, uning predmetini va o'rganiladigan ob'ektini aniqlash zarur. Zero "*fan* – tabiat, jamiyat va inson tafakkuri to'g'risidagi tushunchalarda, kategoriyalarda, qonunlarda aks ettirilgan va haqqoniyligi amaliyotda tasdiqlangan bilimlar tizimidir. Har bir fan o'ziga xos o'rganish ob'ekti va unga mos keluvchi predmeti bilan ajralib turadi"¹. Davlat va huquq nazariyasi shaxs faoliyat doirasini ifodalab beruvchi fan sifatida o'z oldiga davlat va huquq hodisalarini, ularning jamiyatdagi o'rni haqidagi fikrlarning ob'ektivligi borasidagi bilimlarni ishlab chiqish va uni nazariy jihatdan ma'lum bir tizimga solish vazifasini ko'zlaydi.

Davlat va huquq nazariyasi huquqshunoslik fanlari tizimida markaziy o'ringa ega. U yuridik fanlarning metodologik poydevorini tashkil etib, davlat va huquqning nazariy muammolarini o'rganadi.

"Nazariya" so'zi "ko'rib chiqmoq", "tadqiq etmoq", "tahlil qilmoq" degan ma'nolarni anglatadi. "*Nazariya*" – keng ma'noda voqea-hodisalarning o'zaro aloqasi va qonuniyatlari haqida yaxlit tasavvur hosil qiluvchi ilmiy bilim shaklidir. Tor ma'noda esa u yoki bu sohadagi bilimning asosiy g'oyalari, tushunchalari va qonunlari tizimidir².

Davlat va huquq nazariyasi – bu davlat-huquqiy hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va amal qilishini o'rganuvchi umumnazariy yuridik qonuniyatlar haqidagi bilimlar tizimidir.

Давлат ва ҳуқуқ назариясининг предмети – *давлат ва ҳуқуқнинг вужудга келиши, ривожланиши, ҳаракатда бўлиши (фаолият кўрсатиши) ва истиқболи тўғрисидаги энг умумий қонуниятларни ўрганади.*

Shu nuqtai nazardan, davlat va huquq nazariyasining predmetini quyidagicha izohlash mumkin:

¹ Davlat va huquq nazariyasi. Ikki jildli. 1-jild. – T., 2001. –B.8.

² Davlat va huquq nazariyasi: Darслик / X.T.Oдилқориев таҳрири остида. – Тошкент: Sharq, 2009. – B.7.

Uning predmetiga faqat amaldagi davlat, huquq munosabatlari, jarayonlari, hodisalarning eng umumiy jihatlarigina emas, balki ular haqidagi tasavvurlar ham kiradi.

Davlat va huquq nazariyasi fani davlat va huquq haqidagi qarashlar, g'oyalar, fikrlar va bilimlar tizimi bo'lib, u davlat-huquq hodisalariga tegishli bo'lgan umumiy qonuniyatlarni o'rganadi, davlat va huquqni yaxlit institut sifatida ko'rib chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi fanining o'ziga xos xususiyatlari:

- *davlat va huquq nazariyasi – ijtimoiy fan. Uning o'rganadigan sohasi muhim ijtimoiy hodisalar bo'lmish davlat va huquqdir;*

- *davlat va huquq nazariyasi – nazariy fan. U davlat va huquq taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini ochib beradi;*

- *davlat va huquq nazariyasi – falsafiy xususiyatga ega bo'lgan fan;*

- *davlat va huquq nazariyasi – metodologik fan. yurisprudensiyaning barcha sohalarini huquqiy metodologiya bilan qurollantiradi;*

- *davlat va huquq nazariyasi – amaliyotga yo'naltirilgan fan. YUridik amaliyotdagi bo'shliqlar, muammolar, ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish usullarini ishlab chiqadi, davlat va huquq rivojining yo'nalishlarini belgilab beradi;*

- *davlat va huquq nazariyasi – o'quv-tarbiyaviy ahamiyatga molik fan.*

Davlat va huquq nazariyasi fanida asosiy rolni umumiy tushunchalar bajaradi. Ushbu tushunchalar kategoriyalar deb yuritilib, bular qatoriga “davlat”, “davlat mohiyati”, “davlatning shakli”, “davlatning tipi”, “davlatning funksiyalari”, “davlat mexanizmi”, “huquq”, “huquqning mohiyati”, “huquq shakli”, “huquqiy munosabatlar”, “huquq tizimi”, “huquq normasi”, “huquqiy ong”, “huquqiy madaniyat” kabilarni kiritish mumkin.

Davlat va huquq hodisalari o'zaro mustahkam aloqada bo'lib, ular bir-birini ifoda etadi. SHuning uchun ham davlat va huquq nazariyasining barcha institutlari birgalikda o'rganiladi va ular uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Ta'kidlash joizki, davlat va huquq hodisalari alohida-alohida soha bo'lmasdan, balki u yagona fan hisoblanadi va nisbatan mustaqil bo'lgan ikkita qismga, ya'ni **davlat nazariyasi va huquq nazariyasiga** ajratiladi.

Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqning barcha jihatlarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, u ushbu hodisalarning umumiy va asosiy qonuniyatlarini o'rganadi.

Davlat va huquq nazariyasi – davlat va huquqda o'z ifodasini topgan jamiyat rivojining ob'ektiv qonunlarini, ularning ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini tushuntiradi, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning va huquqiy munosabatlar rivojlanish yo'nalishlarining butun bir mexanizmini ko'rsatib beradi.

1.2. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI FANINING BOSHQA IJTIMOIIY FANLAR BILAN ALOQASI

Ijtimoiy fanlarning markazida jamiyat, shaxs, uning huquq va erkinligi turadi. Ijtimoiy hayot asosida davlat va huquq to'g'risidagi, uning jamiyat hayotidagi roli va o'rni haqidagi masalalar yotadi. Ushbu masalalarni barcha ijtimoiy fanlar muayyan darajada o'rganadi. SHu bois, davlat va huquq nazariyasining falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, sotsiologiya, politologiya va boshqa fanlar bilan mustahkam bog'liqligini ko'rish mumkin. Davlat va huquq nazariyasi o'z predmetini tadqiq etish jarayonida boshqa ijtimoiy fanlarning metodologiyasiga va ular tomonidan yaratilgan turli ma'lumotlar, axborotlar, nazariyalarga tayanadi.

Falsafa fani bilan bog'liqligi. Falsafa tabiat va jamiyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. U jamiyat, shaxs, davlat va huquq masalalariga *ijtimoiy hodisa sifatida yondashadi* va ularni umumiy tarzda ko'rib chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi esa falsafa qonuniyatlariga tayangan holda jamiyatda davlat va huquqning vujudga kelishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadi. Ushbu fanlar bir-birini takrorlamaydi, balki to'ldiradi. Falsafa davlat va huquq hodisalarini bilishning asosidir. Davlat va huquq nazariyasi esa falsafani ushbu hodisalarga oid muayyan qonuniyatlar bilan boyitadi.

Davlat va huquq nazariyasi falsafa fani bilan chuqur va mustahkam aloqadadir. Falsafiy dunyoqarash davlat va huquq nazariyasini kengroq o'rganishga yordam beradi. Dialektik nuqtai nazardan dunyoni anglash davlat va huquqning ichki qarama-qarshiliklarini to'g'ri tushunish va baholashga yo'l ochadi hamda ijtimoiy jarayonlarga ta'sir etishga yordam beradi.

Sotsiologiya fani bilan bog'liqligi. Sotsiologiya fani *jamiyatni yaxlit, uyushgan tizim sifatida tadqiq etadi*. U jamiyat a'zolarining huquqqa, huquqiy amaliyotga, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga bo'lgan munosabatini hamda ularning davlat va huquq hodisalarining bugungi holati va istiqboliga oid qarashlari va istaklarini o'rganuvchi fandir. Mazkur fan davlat va huquq nazariyasi fani uchun tegishli ma'lumot va xulosalarni beradi. O'z navbatida, davlat va huquq nazariyasi fani ushbu ma'lumot va xulosalarni umumlashtiradi hamda muayyan nazariy-ilmiiy taklif va tavsiyalarni shakllantiradi.

Siyosatshunoslik fani bilan bog'liqligi. Siyosatshunoslik fani jamiyat siyosiy tizimini, siyosiy institutlar, siyosiy partiyalar, davlat hokimiyati, jamoat tashkilotlari va ularning faoliyatini, davlat va shaxsning siyosiy-huquqiy munosabatlarini o'rganadi. *Har ikkala fanning ham o'rganish ob'ekti jamiyatni boshqarish bilan bog'liq masalalar hisoblanadi.*

Iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi. Mazkur fanlar jamiyatning iqtisodiy tizimini, ya'ni ishlab chiqarish munosabatlari, moliya, kredit, tadbirkorlik va boshqa shu kabi masalalarni o'rgansa, davlat va huquq nazariyasi fani esa jamiyat siyosiy tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan davlat va huquq hodisalariga o'zining asosiy predmeti sifatida qaraydi. Ushbu fanlarning o'zaro ta'siri va aloqasi davlat va huquqning iqtisodiyotga qanchalik bog'liq ekanligini o'rganishga va aniqlashga xizmat qiladi.

1.3. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASINING YURIDIK FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI

Davlat va huquq nazariyasi barcha yuridik fanlar bilan uzviy bog‘liq va u bevosita o‘z predmeti bilan ulardan ajralib turadi.

Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida umumiy, fundamental va metodologik fan sifatida e‘tirof etiladi. Davlat va huquq nazariyasining boshqa huquqiy fanlar bilan aloqasi aynan shundan kelib chiqadi. Davlat va huquq nazariyasi maxsus va amaliy huquqiy fanlarning aniq materiallariga tayanadi, ularni nazariy jihatdan umumlashtiradi. Umumiy va fundamental fan sifatida huquqshunoslikning asosiy tushuncha va qoidalarini ishlab chiqadi, masalan, jamiyat, davlat, huquq, davlat mexanizmi, davlat organi, demokratiya, qonunchilik, huquqiy ong, huquqiy tartibot, huquqbuzarlik, yuridik javobgarlik, huquqiy munosabatlar va boshqalar shular jumlasidandir.

U **metodologik** fan sifatida boshqa yuridik fanlar uchun xususiy yuridik metodlarni va rahbariy prinsiplarni ishlab chiqadi.

Ta’kidlash joizki, davlat va huquq to‘g‘risidagi asosiy va umumnazariy bilimlarni egallamasdan turib boshqa yuridik fanlar muammolarini o‘rganish murakkabdir. Tarmoq va maxsus yuridik fanlar davlat va huquq nazariyasining xulosalariga asoslanadi. Demak, davlat va huquq nazariyasi boshqa barcha yuridik fanlar bilan o‘zaro bog‘liq, ya’ni ular bir-birlarini boyitib va to‘ldirib boradi.

Har bir huquqshunoslik fani davlat va huquq masalasiga o‘ziga xos yondashadi, ularning har biri o‘zining predmetiga ega.

Yuridik fanlar quyidagicha tasniflanadi:

1) *tarixiy-nazariy yuridik fanlar (Davlat va huquq nazariyasi, Davlat va huquq tarixi, Siyosiy va huquqiy ta’limotlar tarixi, Huquq falsafasi, Huquq sotsiologiyasi va boshqalar);*

2) *sohaviy (yoki maxsus, tarmoq) yuridik fanlar (Konstitutsiyaviy huquq, Fuqarolik huquqi, Mehnat huquqi, Ma’muriy huquq, Moliya huquqi, Soliq huquqi, Er huquqi, Jinoyat huquqi, Jinoyat-protsessual huquqi, Fuqarolik protsessual huquqi va boshqalar);*

3) *amaliy yuridik fanlar (Kriminalistika, Sud buxgalteriyasi, Sud meditsinasi, Sud psixiatriyasi);*

4) *xalqaro huquqiy fanlar (Xalqaro huquq, Xalqaro xususiy huquq, Xalqaro jinoyat huquqi va boshqalar).*

Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida **umumiy, fundamental va metodologik** fan sifatida namoyon bo‘ladi.

Davlat va huquq nazariyasi bilan Davlat va huquq tarixi fani bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning har ikkalasi ham davlat va huquq haqida bahs yuritadi. Davlat va huquq nazariyasi boshqa yuridik fanlar bilan ham xuddi shunday ikki yoqlama aloqadadir.

Demak, davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida markaziy, umumlashtiruvchi ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga barcha yuridik fanlar yutuqlarini umumlashtiradi va ularning o‘zaro boyishga yordam beradi.

1.4. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI FANINING METODLARI

Davlat va huquq nazariyasi fanining metodlari davlat va huquq hodisalarini o'rganish usullari hisoblanadi. Ular davlat va huquqning turli sohalari va jihatlarini ochib berishga ko'maklashadi. Davlat va huquq to'g'risidagi bilimlarni o'rganish, to'plash, umumlashtirish va muayyan tizimga keltirishga yordam beradi.

Davlat va huquq nazariyasining metodlari uning predmeti bilan chambarchas bog'liqdir. Agarda fanning predmeti u nimani o'rganadi degan savolga javob bersa, metod (usul)lari esa fanni qanday o'rganilishi haqidagi savolga javob beradi.

Fanning usuli asosida uning predmeti yotadi, chunki nazariyasiz usul predmetsiz qoladi, fan esa – mazmun va mohiyatsiz hisoblanadi. Nazariya va metod bir paytda yuzaga kelgan. Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq hodisalarini o'rganish uchun o'zining xususiy metodlarini ishlab chiqadi, lekin shu bilan birga ijtimoiy va tabiiy fanlarning umumiy usullarni ham qo'llaydi.

Falsafiy qonun va kategoriyalarga bevosita bog'lanib ketadigan usullardan biri – mavhumlik (abstrakt)dan aniqlikka va aniqlikdan mavhumlikga o'tish usulidir.

Shuningdek, davlat va huquq haqidagi hodisalarni o'rganishda tarixiy usul ham qo'llaniladi. Chunki fan davlat va huquqning ildizini bilish uchun tarixiy an'analarni bilishi zarur bo'ladi.

Davlat va huquqni o'rganishning yana bir usuli tizimli usul hisoblanadi. Davlat va huquq mohiyatiga, tuzilishiga ko'ra – murakkab tizimli hodisadir.

Yuqoridagi usullarning barchasi *umumilmiy* usullar jumlasiga kiradi.

Davlat va huquq nazariyasi xususiy ilmiy metodlardan ham foydalanadi. Bu metodlarga quyidagilar kiradi: formal-mantiqiy; formal-yuridik; qiyoslash; davlat va huquqni modellashtirish; sotsial-eksperiment va boshqalar.

Formal-mantiqiy usul – davlat va huquq ob'ektining mohiyatini, asosiy mazmunini nazariy shaklda, mavhumlik va mantiqiy qonuniyatlarga asosan o'rganadi.

Formal-yuridik usul – huquq nomalarini va huquqning ichki tuzilishini o'rganadi, huquqning shakllari va manbalarini tahlil qiladi. Umuman, bu usul davlat va huquqning tabiatidan kelib chiqqan holda davlat va huquqning fenomenini ochib berishga va ma'lum tizimga solishga yordam beradi.

Qiyoslash usuli orqali davlat va huquq haqidagi hodisa va qarashlar (fikrlar) qiyoslab o'rganiladi.

Davlat va huquqni modellashtirish usulining mohiyati shundaki, turli davlat va huquq hodisalari o'rtasida ma'lum bir o'xshashlik mavjudligi bois ulardan birining xususiy belgilari (modeli)ni o'rgangan holda boshqalari haqida etarlicha fikr yuritish mumkin bo'ladi.

Sotsial-eksperiment usuli – davlat va huquqqa doir biror norma qo'llanishining maqsadga muvofiqligini tajriba (eksperiment) yo'li bilan muayyan hududlarda sinab ko'rish.

1.5. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI FANINING FUNKSIYALARI

Davlat va huquq nazariyasi fundamental fan sifatida bir qator funksiyalarni bajaradi.

Ontologik funksiya. Ontologiya – bu ijtimoiy hayot haqidagi qarashlar. Bunda uning prinsiplari, tuzilishi va qonuniyatlari o‘rganiladi. Davlat va huquq nazariyasi ushbu funktsiyani bajara turib, davlat va huquq qanday va nima uchun yuzaga keldi, bugungi kunda ushbu hodisalar qanday qonuniyatlar asosida namoyon bo‘lmoqda va kelajakda ularning rivojlanish tendensiyalari qanday kechadi degan savollarga javob beradi.

Gnoseologik funksiya. Ushbu funksiya bilishning tabiatiga va uning real muhitga munosabatini o‘rganishga qaratilgan.

Evristik funksiya (nazariy bilish). Evristika – bu haqiqatni, yangiliklarni izlab topish san’ati. Ushbu funksiya yordamida davlat-huquq hodisalarini o‘rganibgina qolmasdan, balki uning bugungi kundagi rivojlanish qonuniyatlariga oid yangi bilimlarni ham ochish mumkin bo‘ladi.

Metodologik funksiya. Yurisprudensiya uchun fundamental fan hisoblanadigan davlat va huquq nazariyasi sohaviy yuridik fanlarga nisbatan metodologik funksiyasini bajaradi. Bunda ushbu fanlarni zaruriy tushuncha va kategoriyalar bilan qurollantiradi, ularning o‘rganish ob’ekti va predmeti doirasini chegaralab beradi.

Siyosiy-boshqaruvlik funksiyasi. Davlat va huquq nazariyasi davlat ichki va tashqi siyosatining ilmiy asosini shakllantirishga hamda davlat boshqaruvining ilmiyligini ta’minlashga, davlat qurilishidagi ko‘pgina muammolarni echishga oid taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Mafkuraviy funksiya. Davlat va huquq nazariyasi ushbu funksiya orqali ijtimoiy hayotga, kishilarning xulqiga nafaqat davlat va huquq orqali, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazadi, huquq sub’ektlarining huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishda hamda ijtimoiy hayotni tartibga solishda g‘oyaviy omil sifatida yuzaga chiqadi.

Prognozlash funksiyasi. Davlat va huquq sohasining kelajakdagi holatini ilmiy o‘rganish va bashoratlash muhim ahamiyatga ega. Chunki buning natijasida davlat va huquqning istiqboliga oid ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

1.6. O‘QUV MODULI SIFATIDA DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASINING TUZILISHI

Davlat va huquqqa oid hodisalar, jarayonlar xilma-xil va ko‘p qirralidir. Biroq ularning barchasiga xos bo‘lgan umumiy, muhim, doimiy, uzviy bog‘lanishda bo‘lgan tomonlari va jihatlari ham mavjuddir. Ana shu jihat va tomonlarni bilish mavjud voqelik to‘g‘risida yaxlit tasavvurlarni keltirib chiqaradi, ushbu voqelikning umumiy qonuniyatlarini ochish va shu asosda uni boshqarish imkoniyatini yaratadi.

Davlat va huquq nazariyasining predmetiga an’anaviy ravishda fanning umumiy tavsifi (predmet va metod, ijtimoiy va yuridik fanlar tizimidagi o‘rni, davlat va huquqning kelib chiqishi, o‘zgarishi) bilan bog‘liq masalalar kiradi.

Umumiy **davlat nazariyasiga** taalluqli masalalarga quyidagilar kiradi:

- davlat va uning belgilari;
- davlat mexanizmi;
- davlat shakllari (boshqaruv shakli, davlat tuzilishi, siyosiy rejim);

– davlatning funksiyalari, mexanizmi va shu kabilar.

Umumiy **huquq nazariyasiga** taalluqli masalalar juda keng bo‘lib, bularga:

- ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tizimida huquqning o‘rni;
- huquq prinsiplari, shakllari, manbalari, ijtimoiy mohiyati;
- huquqiy ong va huquqiy madaniyat;
- huquq normalari tushunchasi, belgilari, tuzilishi, turlari;
- normativ-huquqiy hujjatlar;
- huquqiy tizim va huquq tizimi;
- huquqiy munosabatlar;
- huquq ijodkorligi, huquqni amalga oshirish va shu kabilar kiradi.

Bir guruh **mustaqil** o‘rganiladigan masalalarga:

- huquqiy xulq-atvor va huquqbuzarlik, uning tushunchasi, turlari, tarkibi;
- yuridik javobgarlikning (tushunchasi, belgilari, turlari va boshqalar)

asosiy jihatlariga tavsif berilgan.

1.7. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI FANINING BO‘LG‘USI HUQUQSHUNOSLARNI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI

Davlat va huquq nazariyasi fanini o‘qitishdan maqsad talabalarda davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi, harakatda bo‘lishi (faoliyat ko‘rsatishi) va istiqboli to‘g‘risidagi eng umumiy qonuniyatlar yuzasidan tushunchalarni shakllantirishdir.

Davlat va huquq nazariyasi fanining vazifalari talabalarda davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi bilan bog‘liq umumnazariy bilimlarni shakllantirishdan, ijtimoiy muammolarni shaxs va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda davlat-huquqiy nuqtai nazardan turib hal etish uquvini vujudga keltirishdan iborat.

Bu boradagi ta‘lim tizimining asosiy maqsadi davlatning huquqiy hayotida ijodiy faol qatnasha oladigan, yuqori malaka va chuqur bilimga hamda **normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash va qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lgan** mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan.

Bunda tor doiradagi bilim o‘rinli bo‘lmaydi, bu nafaqat yuristning intellektual qobiliyatini susaytiribgina qolmasdan, balki uning professional faoliyati xarakteriga ham to‘g‘ri kelmaydi. Huquqshunos mutaxassislardan turli xil yuridik ishlarni bajarishlarida qonunlarni va ularni qo‘llash tartiblarini yaxshi bilishlari talab qilinadi. SHu bilan birga, bo‘lajak huquqshunoslar uchun huquq va qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ustun ekanligini, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi doimo yuqori darajada bo‘lishi lozimligini ham to‘la anglashda mazkur fan muhim ahamiyat kasb etadi.

1.8. JAMIYAT HAYOTINI DEMOKRATIK YANGILASHDA DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI FANINING ROLI

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarini isloh qilish jarayonida yangi zamonaviy g‘oyalar va yangicha yondashuvlar shakllanmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik huquqiy islohotlar, o‘zgarishlar, yondashuvlar davlat va huquq tushunchalari, mohiyati, vazifasini yangicha talqin qilishni taqozo etmoqda.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev xaqli ravishda ta’kidlab o‘tganidek, “Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. **“Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”** degan g‘oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda”³.

Suu jihatdan olganda, mamlakatimizda davlatchilikning huquqiy asoslarini rivojlanib borishi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, fuqarolarning huquq va erkinliklari, huquqiy ta’lim, shu jumladan yuridik ta’lim ham rivoj topib borishi bilan davlat va huquq nazariyasining hamda boshqa yuridik fanlarning ijtimoiy fanlar tizimidagi ahamiyati ortib boradi. Bu ijtimoiy taraqqiyotning muhim talabidir.

Nazorat uchun savollar

1. Davlat va huquq nazariyasi fanini o‘rganishda umumiy, umumiy-ilmiy, xususiy-ilmiy va maxsus-yuridik metodlarning ahamiyatini ko‘rsatib bering.
2. Davlat va huquq nazariyasi funksiyalarini muhokama qilish orqali fanning nazariy va amaliy ahamiyatini izohlang.
3. Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida umumiy, fundamental va metodologik fan sifatidagi o‘rnini atroflicha yoritib bering.
4. Davlat va huquq nazariyasining amaliyotga yo‘naltirilgan fan sifatidagi xususiyatlarini atroflicha muhokama eting.
5. Davlat va huquq nazariyasi fanining maqsad va vazifalarini muhokama qiling.

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // president.uz/uz/lists/view/1371

MAVZU YUZASIDAN TEST SAVOLLARI

1) Давлат ва ҳуқуқ назарияси фан сифатида нимани ўрганади?

- A) Бу ҳуқуқ тарихи, давлат тарихи ҳамда ҳуқуқ фалсафаси қонуниятларини назарий жиҳатдан ўрганувчи методологик фан
- B) Бу давлат ва сиёсат масалаларини хронологик тарзда ўрганувчи методологик фан
- C) Бу давлат ва ҳуқуқнинг вужудга келиши, ривожланиши ва ҳозирги кундаги фаолиятига оид энг умумий қонуниятларни назарий жиҳатдан умумлаштирган ҳолда ўрганувчи фан
- D) Бу давлат ва ҳуқуқнинг пайдо бўлиши ва инқирозга учрашини тарихий жиҳатдан ўрганувчи юридик фан
- E) Бу ҳуқуқ ва тарих қонуниятларини тизимли тарзда ўрганувчи фундаментал фан

2) Қуйидаги жавоблардан қайси бирида фақат амалий юридик фанлар кўрсатилган?

- A) суд тиббиёти, криминалистика, криминология, маъмурий ҳуқуқ ва суд психиатрияси
- B) Криминалистика, криминология, юридик психология, ҳуқуқий статистика, суд тиббиёти, суд психиатрияси, ҳалқаро ҳуқуқ
- C) Тўғри жавоб берилмаган
- D) Суд психиатрияси, суд баллистикаси, суд бухгалтерияси, суд экспертизаси, криминалистика, суд тиббиёти
- E) Фуқаролик ҳуқуқи, криминология, юридик психология, ҳуқуқий статистика, жиноят ҳуқуқи

3) Қуйидаги қаторларнинг қайси бирида фақат соҳавий юридик фанлар келтирилган?

- A) Суд психиатрияси, суд баллистикаси, суд бухгалтерияси, маъмурий фаолият
- B) Тўғри жавоб берилмаган
- C) Суд тиббиёти, криминалистика, криминология ва суд психиатрияси
- D) Криминалистика, ҳуқуқий статистика, суд тиббиёти, ҳалқаро оммавий ҳуқуқ
- E) Фуқаролик ҳуқуқи, жиноят ҳуқуқи, маъмурий ҳуқуқ, молия ҳуқуқи, ер ҳуқуқи

4) Қуйидагилардан қайси бири ижтимоий фанлар қаторига киради?

- A) тарих, химия, сиёсатшунослик, биология
- B) физика, иқтисодий назария, криминалистика, тарих
- C) физика, химия, биология, зоология
- D) математика, география, давлат ва ҳуқуқ назарияси
- E) сиёсатшунослик, иқтисодий назария, социология, тарих

5) Қуйидаги қаторлардан қайси бирида фақат хусусий методлар келтирилган?

- A) диалектика, қиёсий, тажриба, мантиқий, идеалистик
- B) метафизик, анализ, синтез, тарихий, материалистик
- C) қиёсий, тарихий, анализ, диалектик, функционал ёндашув
- D) тажриба, кибернетик, тарихий, синтез, тизимли ёндашув
- E) қиёсий-ҳуқуқий, тажриба, социологик, статистик, кибернетик

6) Давлат ва ҳуқуқ назарияси фанининг асосий принципи...

- A) тарихийлик ва мантиқийлик принципи
- B) барча жавоблар тўғри
- C) объективлик принципи
- D) ижтимоий ёндашиш принципи
- E) миллий ва маҳаллий хусусиятларни ҳисобга олиш принципи

7) Давлат ва ҳуқуқ назарияси ўқув фанининг методлари...

- A) давлат ва ҳуқуқни бошқа ижтимоий ҳодисалар билан узвий боғлиқликда, ҳаракатда, миқдорий ва сифат ўзгаришда ўрганишни тақозо қилади
- B) барча жавоблар тўғри
- C) давлат ва ҳуқуқни шаклланиши ва ривожланишининг қонуниятларини билишга хизмат қилади
- D) давлат ва ҳуқуқнинг кўп қиррали ва турли қатламларини очиқ беришга ёрдам беради
- E) давлат ва ҳуқуқни ўрганиш усуллари ва воситалари йиғиндиси ҳисобланади

8) Қиёсий-ҳуқуқий, социологик, тажриба, кибернетик, статистик методлар қайси туркум методлар сирасига киради?

- A) хусусий
- B) умумилмий
- C) энг умумий
- D) аниқ методлар
- E) тўғри жавоб берилмаган

9) Давлат ва ҳуқуқ назариясининг предметини нима ташкил қилади?

- A) Ҳар ҳил шаклдаги давлат ва ҳуқуқ муносабатларини ўрганиш
- B) Давлат ва ҳуқуқнинг пайдо бўлиши ва ривожланишининг асосий ва умумий қонуниятларини ўрганиш
- C) Фақатгина давлатнинг вужудга келиш қонуниятларини умумлаштирган ҳолда ўрганиш
- D) Давлат ва ҳуқуқ тарихи ва фалсафасини қонуниятларини ўрганиш
- E) Ўз ичига бутун давлат, жамият ва шахслар ўртасидаги ижтимоий муносабатларни тартибга солиш қонуниятларини ўрганиш

10) Умумназарий юридик фанлар нималарни ўрганади?

- A) Ҳуқуқ соҳаларини техник юридик мазмунини таҳлилий тарзда ўрганади

- В) Давлат ва ҳуқуқ қонуниятларини назарий жиҳатдан умумлаштирган ҳолда ўрганади
- С) Ҳуқуқ соҳаларидаги муаммоли ҳолатларни илмий тарзда умумлаштирилган ҳолда ўрганади
- Д) Давлат ва ҳуқуқ соҳаларини сиёсий жиҳатларини хронологик тарзда ўрганади
- Е) Барча жавоблар тўғри

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ГЛОССАРИЙЛАР

ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИНING ПРЕДМЕТИ – давлат ва ҳуқуқнинг вужудга келиши, ривожланиши, ҳаракатда бўлиши (фаолият кўрсатиши) ва истикболи тўғрисидаги энг умумий қонуниятларни ўрганади.

ФОРМАЛ-МАНТИҚИЙ УСУЛ – давлат ва ҳуқуқ объектининг моҳиятини, асосий мазмунини назарий шаклда, мавҳумлик ва мантиқий қонуниятларга асосан ўрганади.

ФОРМАЛ-ЮРИДИК УСУЛ – ҳуқуқ номаларини ва ҳуқуқнинг ички тузилишини ўрганади, ҳуқуқнинг шакллари ва манбаларини таҳлил қилади. Умуман, бу усул давлат ва ҳуқуқнинг табиатидан келиб чиққан ҳолда давлат ва ҳуқуқнинг феноменини очиқ беришга ва маълум тизимга солишга ёрдам беради.

ҚИЁСЛАШ УСУЛИ орқали давлат ва ҳуқуқ ҳақидаги ҳодиса ва қарашлар (фикрлар) қиёслаб ўрганилади.

ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ *усулининг* моҳияти шундаки, турли давлат ва ҳуқуқ ҳодисалари ўртасида маълум бир ўхшашлик мавжудлиги боис улардан бирининг хусусий белгилари (модел)ни ўрганган ҳолда бошқалари ҳақида етарлича фикр юритиш мумкин бўлади.

СОЦИАЛ-ЭКСПЕРИМЕНТ УСУЛИ – давлат ва ҳуқуққа доир бирор норма қўлланишининг мақсадга мувофиқлигини тажриба (эксперимент) йўли билан муайян ҳудудларда синаб кўриш.

2-MAVZU.

DAVLAT VA HUQUQNING KELIB CHIQISHI

Mavzuning asosiy yo‘nalishlari:

1. Jamiyat tushunchasi.
2. Jamiyat mavjud bo‘lishi shakllarining xilma-xilligi.
3. Jamiyat rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.
4. Davlatgacha bo‘lgan jamiyatlarda ijtimoiy normalar va ijtimoiy hokimiyat.
5. Davlat – jamiyat mavjud bo‘lishining bir shakli sifatida.
6. Davlat va huquqning vujudga kelishi to‘g‘risidagi nazariyalar.
7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida jamiyat, davlat va huquq masalalari.

2.1. JAMIYAT TUSHUNCHASI

Davlat va huquq hodisalari jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi mahsuli hisoblanadi. Davlat va huquq jamiyat ichida yuzaga keladi va rivojlanadi. SHu bois davlat va huquq hodisalarini o'rganishda jamiyat va uning rivojlanish bosqichlari, turli hududlarda namoyon bo'lish shakllari, uning rivojiga ta'sir qiluvchi omillar, jamiyat siyosiy tizimi bilan bog'liq masalalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat so'zining lug'aviy ma'nosini tahlil qiladigan bo'lsak, u "jam bo'lish", "uyushish" kabi tushunchalarni anglatadi. O'z navbatida, jamiyat tushunchasiga tor va keng ma'noda yondashish mumkin. Tor ma'noda jamiyat – bu kishilarning ma'lum bir maqsad yo'lida birlashgan uyushmasidir. Masalan, oila, siyosiy partiyalar, mehnat jamoalari, ijodiy uyushmalar va boshqalar.

Jamiyat – bu kishilar o'rtasidagi o'zaro turli xil (iqtisodiy, oilaviy, ma'naviy, jamoaviy, diniy va boshqa) munosabatlar va aloqalarning murakkab tizimi. O'zbek tilining izohli lug'atida jamiyatga quyidagicha ta'rif beriladi, ya'ni jamiyat – bu tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida moddiy boyliklar yaratishning muayyan usullari va muayyan ishlab chiqarish munosabatlari bilan xarakterlanadigan ijtimoiy munosabatlar majmuidir. Har qanday jamiyat o'ziga xos bir butun ijtimoiy tizim bo'lib, u muayyan darajada ijtimoiy munosabatlarning uyushganligi, tartibga solinganligi bilan farqlanadi. Jamiyat uchun boshqaruv (ijtimoiy hokimiyat)ning va kishilar xulq-atvorini umumiy qoidalar yordamida tartibga solish (ijtimoiy normalar)ning muayyan tizimi xos ekanligini aytib o'tish mumkin.

Жамият – бу тарихий тараққиётнинг муайян босқичида вужудга келган ижтимоий муносабатлар маҳсули.

Jamiyatda, avvalambor, biologik qonunlar emas, balki ijtimoiy qonunlar harakatda bo'ladi⁴.

Aytish lozimki, jamiyatning o'zi individlarning oddiy majmuasi emas. Jamiyat – bu moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish bilan bog'liq kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va munosabatlarning mahsuli, murakkab ijtimoiy tizimdir.

Jamiyatga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlar mahsuli sifatida qarash quyidagilarni tushunishga yordam beradi:

birinchidan, unga tarixiy-huquqiy nuqtai nazardan yondashish turli xil ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarni ajratib ko'rsatishga;

ikkinchidan, ijtimoiy hayotning o'ziga xos (iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy) tomonlarini aniqlashga;

uchinchidan, ijtimoiy munosabat sub'ektlari (shaxs, oila, millat, davlat va boshqalar)ni aniq ifodalashga.

Jamiyatning muhim jihati shundan iboratki, u insonlarning o'zaro aloqalar tizimini ifodalaydi.

Inson jamiyat bilan o'zaro aloqada bo'la turib rivojlanadi, o'zining ijtimoiy mohiyatiga ega bo'lgan xususiyatlarini rivojlantiradi (kengaytiradi, o'stiradi) hamda jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

⁴ Scott Veitch, Emiliios Christodoulidis, Lindsay Farmer. Jurisprudence: Themes and Concepts. Second edition. – London – New York, Routledge, 2012. –P.283.

2.2. JAMIYAT MAVJUD BO‘LISHI SHAKLLARINING XILMA-XILLIGI

Ijtimoiy va siyosiy institutlar ob'ektiv zaruriyatdan kelib chiqqan holda biologik, ijtimoiy, siyosiy va boshqa sabablarga ko'ra shakllanadi. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy institutlardan tashkil topadi va shunga mos ravishda turli ijtimoiy yoki siyosiy vazifani bajaruvchi tashkilotlar, organlar, muassasalar, birlashmalar shakllanadi.

Jamiyatning birinchi tabiiy bo'g'inini tashkil etuvchi institut – bu oiladir. Oila tabiat qonunlariga ko'ra yuzaga keladi va qon-qarindoshchilik asosida uyushgan kishilardan tashkil topadi. Urug' esa bir nechta oilaning qon-qarindoshchilik asosida birlashishi va mulkni idora qilishi, umumiy, qarindoshchilik qoidalari asosida shakllanadi. Bir necha urug'larning qo'shilishi oqibatida qabila, keyinchalik umumiy til, urf-odat kabi birlik asosida millat kelib chiqqan.

Siyosiy institutlarning eng dastlabkisi davlat hisoblanadi. Davlat bilan bir vaqtda huquq ham yuzaga kelgan. Jamiyat taraqqiyoti natijasida davlat bilan birga nodavlat tashkilotlar: kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, turli-tuman ijtimoiy birlashmalar shakllanib borgan.

Kishilik jamiyatining ajralmas qismi va muhim elementi ijtimoiy hokimiyat hisoblanadi. Hokimiyat jamiyatga hayot baxsh etib turuvchi, tizimga solib turuvchi elementdir. Hokimiyat – bu ikki yoki undan ko'p sub'ektlar o'rtasida buysunuvga asoslangan munosabatlar tizimidir. Hokimiyat jamiyatda shakllangani bois ijtimoiy hokimiyat deb ham yuritiladi. Ijtimoiy hokimiyatning sub'ektlari sifatida oilada ota hokimiyati, urug'da oqsoqol, qabilada sardorlar hokimiyati haqida aytib o'tish mumkin.

Jamiyat shaxslarsiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Kishilar jamiyatning tuzilishida va uning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Jamiyat kishilarning bir-birlari bilan jamoa sifatida yashashga bo'lgan tabiiy ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan. Jamiyat o'zining vujudga kelgandan boshlab bugungi kunga qadar rivojlanishida murakkab, turli shakllar va tarixiy bosqichlardan o'tgan. Uning etuklik darajasi, ichki tuzilishi (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tizimi) o'zgarib borgan.

Ibtidoiy jamoa uzoq davr mobaynida urug'chilik ko'rinishida bo'lgan va rivojlanishining mazkur bosqichida u ijtimoiy yoki boshqa qatlamlarga bo'linmagan. Asta-sekin jamiyat tuzilishi murakkablasha borgan sari, ya'ni iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi bilan o'zlarining manfaatlari, qiziqishlari va xususiyatlariga ega bo'lgan ijtimoiy birlashmalar, guruhlar shakllana boshlagan.

Jamiyatni ijtimoiy, siyosiy institutlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kishilar – ijtimoiy mavjudot bo'lib, ular ehtiyoj, manfaat va maqsadlariga ko'ra birikmasdan yashay yoki mehnat qila olmaydi. Bugungi kundagi jamiyat o'ta murakkab ko'rinishda bo'lib, ularning ko'pchiligi muayyan bir davlat asosida kishilarni birlashtirgan.

2.3. JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Ishlab chiqarish kuchlarining rivoji, mulkiy va ijtimoiy tengsizlik, shubhasiz, ibtidoiy jamoa tuzumining inqirozi va urug'-qabilachilik hokimiyatining davlatga aylanishida birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan. Biroq davlatning vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlari faqat shu omillar bilangina cheklanmaydi. Urug'chilik jamoasining alohida oilalarga bo'linib ketishi, aholining hududiy joylashuvga o'ta borishi, urushlarning tez-tez sodir bo'lib turishi, qabilalar harbiy tashkilotlarining kuchayishi, din ta'sirini ham ular qatoriga kiritish lozim.

Jamiyat doimo rivojlanishda bo'ladigan tizimdir. Jamiyatning rivojlanishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Adabiyotlarda ushbu omillarni sub'ektiv va ob'ektivga ajratish keng tarqalgan. Ob'ektiv omillar kishilarning ongli faoliyati va irodasiga bevosita bog'liq bo'lmaydi, sub'ektiv omillar esa kishilar va turli ijtimoiy guruhlarining irodasi, manfaat va qiziqishlaridan kelib chiqadi.

Ob'ektiv omillar sifatida tabiatni, unda kechadigan jarayonlarni, aholining qaysi hududda yoki iqlim sharoitida yashashligini ko'rsatib o'tish mumkin. Ilk jamiyatlar va sivilizatsiyalar yirik suv havzalari bo'yida yuzaga kelgan (Misr, Katta Xorazm va boshqalar), shuningdek dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi ham aynan hududiy va iqlim omili bilan bevosita bog'liq.

Shu bilan birga, tabiiy omillar jamiyat hayotida texnologik jarayonlarni ham yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Tabiat resurslaridan foydalanishning murakkabligi va tabiiy muhitning o'zgarib borishi, o'z navbatida, xo'jalik yuritishning yangi shakllarini yuzaga kelishiga va madaniyatning yuksalishiga olib kelgan. Ko'pchilik olimlar ayrim xalqlarda davlatning kelib chiqishini ommaviy tarzda suv inshootlarini barpo etish bilan bog'lagan holda izohlaydi.

Sub'ektiv omillar sifatida xalq, ijtimoiy guruhlar va tarixiy shaxslarning ongli faoliyatini ko'rsatib o'tish mumkin. Muayyan bir siyosiy partiya va kuchlarning hokimiyat tepasiga kelishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishiga yoki tanazzulga uchrashiga sabab bo'ladi. Masalan, fashistlarning Germaniyada hokimiyat tepasiga kelishi nafaqat ushbu mamlakat, balki dunyo hamjamiyati uchun ham juda katta talafotlarni keltirib chiqardi. Aksincha, progressiv kuchlarning hokimiyat tepasiga kelishi jamiyatning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'z navbatida, muayyan shaxslar ham jamiyatning tanazzulida, ham rivojlanishida muhim rol o'ynashi mumkin. Masalan, Yuliy Sezar, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Napoleon va boshqalarning faoliyati nafaqat o'z mamlakatlariga, balki dunyo miqyosida ham tarixning keyingi rivojlanishiga ta'sir o'tkazgan.

SHuningdek, keng xalq ommasi ham jamiyat rivojida muhim rol o'ynashi mumkin. Turli xil qo'zg'olonlar, xalqning boshqa ko'rinisdagi chiqishlari jamiyat hayotida muayyan o'zgarishlarning ro'y berishiga olib keladi. Masalan, Buyuk fransuz inqilobi va boshqalar.

2.4. DAVLATGACHA BO'LGAN JAMIYATLARDI IJTIMOIIY NORMALAR VA IJTIMOIIY HOKIMIYAT

Jamiyat shakllanishi davomida uni boshqarish ehtiyoji ham vujudga kelgan. Jamiyatning har bir a'zosi o'z manfaatlariga ega bo'ladiki, ularni kelishtirmasdan,

muvofiglashtirmasdan turib, jamiyat mavjud bo'la olmagan, bunda aynan manfaatlar muhim regulyator sifatida namoyon bo'lgan. Ijtimoiy aloqalarning tadrijiy rivojlanishini hamda jamiyatda barqaror hayot tarzini ta'minlash uchun ushbu manfaatlarni umumiy farovonlik yo'lida uyg'unlashtirish talab etiladi. Bunday uyg'unlashtirishga esa ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalarni shakllantirish hamda ushbu qoidalarning bajarilishini ta'minlovchi ijtimoiy hokimiyatni joriy etish orqaligina erishiladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumida shakllangan ijtimoiy normalarning xususiyati shundaki, ular oila, urug' va qabilaning ijtimoiy-iqtisodiy birligini ifodalash va ta'minlash bilan birga, kishilarning kundalik hayot tarziga ham chuqur singib ketgan.

Tabiatdagi jonzotlar biologik, tabiat qonunlari asosida hayot kechiradi. Jamiyat a'zolari esa tabiiy va biologik qonunlar bilan bir qatorda ongli faoliyatlari natijasida muayyan qoidalarni yaratganliklari bois shaxs sifatida shakllanganlar. Jamiyat shakllanishining dastlabki bosqichida diniy marosimlar va udumlar kabi ijtimoiy normalar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ibtidoiy jamiyatdagi ijtimoiy qoidalar odamlarga atrof tabiiy muhitdan xavotirlanish va qo'rqishdan xoli bo'lishga va uni ishlab chiqarish faoliyatiga yo'naltirishga imkon bergan, bu esa jamiyatda barqaror munosabatlarni o'rnatishda muhim omil bo'lgan.

Ijtimoiy normalar o'zlashtiruvchi xo'jalikning mavjud bo'lishi va urug'ni davom etishini ta'minlagan, ozuqani topishning muayyan usullarini tartibga solgan va oila-nikoh munosabatlarini mustahkamlagan. Adabiyotlarda ushbu normalar mononormalar deb ataladi. Ular jamiyatdagi insonlarning asosiy manfaati – yashash uchun kurashishini ifoda etgan. Ushbu manfaat tabiat kuchlariga, turli xavf-xatarga qarshi turish uchun jamiyatdagi kuchlarni birlashtirgan.

Jamiyat shakllanishining dastlabki davrida amalda bo'lgan ijtimoiy normalar quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1) mazmunan sodda va murakkab bo'lmagan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solgan. Masalan, urug'doshlar ichida kimga olovni uzatish vazifasining yuklatilishi masalasi yoki ov natijasida qo'lga kiritilgan o'ljani qanday taqsimlash ijtimoiy normalar asosida hal qilingan;

2) ijtimoiy normalar asosan odatlar ko'rinishida bo'lgan (ya'ni uzoq vaqt davomida ko'p marotaba qo'llash natijasida odatga aylangan tarixiy shakllangan xulq-atvor qoidalari);

3) hali yozuv shakllanmaganligi bois yurish-turish qoidalari kishilar xulq-atvorida va ongida mavjud bo'lgan;

4) jamiyat a'zolari tomonidan amal qilinishi ishontirish va majburlash (urug'dan quvish) choralari bilan ta'minlangan;

5) qoidalar man etish tavsifi (tabu tizimi)ga ega bo'lgan, normalarning mazmunida huquq va majburiyatlar qat'iy belgilanmagan va boshqalar.

Ijtimoiy normalar bilan jamiyat hayotini tartibga solish insoniyat hayotida eng muhim yutuqlardan biri hisoblanadi. Ularning barcha uchun qat'iy qilib o'rnatilganligi va unga amal qilishning ta'minlanishi jamiyatni tartibga keltiradi. Qoidalar qanchalik hayotiy, adolatli bo'lsa va ularni amalga oshirilishi ta'minlansa, bunday jamiyatda ijtimoiy tartib yuksak darajada bo'ladi. Aksincha, qoidalarga

rioya etilmasa, normalar buzilsa, jamiyat hayotida tartibsizlik yuz beradi. Tartibsizlik jamiyatni oxir-oqibatda halokatga olib kelishi mumkin.

Ibtidoiy jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy hokimiyat oilaviy munosabatlarga asoslangan, chunki jamiyat tashkil topishining negizini urug' (urug' jamoasi), ya'ni haqiqiy yoki taxminiy qon-qarindoshlikka, shuningdek umumiy mulk va mehnatga asoslangan kishilarning jamoasi tashkil etgan. Har bir urug' alohida xo'jalik yuritishi, ishlab chiqarish vositalarining egasi bo'lishi, umumiy mehnat jarayonining tashkilotchisi sifatida namoyon bo'lgan. Urug'lar yanada yirik bo'lgan tuzilmalar – fratriya, qabila, qabilalar ittifoqini tashkil qilgan. Hokimiyat butun jamoa (urug' yig'inlari), shuningdek ibtidoiy jamiyat hayotining muhim masalalarini hal qiluvchi urug' vakillari (oqsoqollar, oqsoqollar yig'ini, harbiy boshliqlar, kohinlar) tomonidan ham amalga oshirilgan.

Ijtimoiy hokimiyat va boshqaruv jihatidan ibtidoiy jamiyatning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

– ibtidoiy jamoa tuzumida kishilarning urug' yoki qabilaga mansubligi ularning qon-qarindoshligiga qarab aniqlangan;

– ijtimoiy hokimiyat to'laligicha jamiyatning o'ziga tegishli bo'lgan, bunda urug' uchun eng muhim bo'lgan masalalar yuzasidan boshqaruv qarorlari urug' a'zolarining umumiy yig'inida qabul qilingan. Boshqaruv ishlarida urug'ning barcha katta yoshli a'zolari – erkaklar ham, ayollar ham teng ishtirok etganlar;

– ibtidoiy jamoa tuzumida davlatga xos bo'lgan xususiyatlar (hokimiyat tuzilmalari, armiya, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa muassasalar) mavjud bo'lmagan. Ijtimoiy boshqaruv urug' oqsoqollari, sarkardalar, umumiy yig'in doirasida amalga oshirilgan;

– ijtimoiy faoliyat ustidan joriy rahbarlikni jamoa tomonidan saylangan urug' oqsoqoli amalga oshirgan. Favqulodda muhim ishlarni hal qilish uchun oqsoqollar kengashi chaqirilgan. Oqsoqollar hokimiyati urug'ning keksa a'zolarining mutlaq obro'si, chuqur hurmat-e'tibori, tajribasi va aql-zakovatiga asoslangan;

– urf-odatlar ibtidoiy jamoa hayotiy faoliyatining qat'iy tartibga bo'ysunishini ta'minlagan. Urf-odatlar avloddan-avlodga o'tib borgan. Urf-odatlarga taqiq (tabu), axloq, afsona, marosimlar kirgan;

– ijtimoiy normalarga amal qilish asosan ko'nikmalar va ixtiyoriylik asosida bo'lib, uni buzgan shaxslarga jamoatchilik ta'siri va boshqa turdagi jazolar qo'llanilgan (masalan, urug'-qabiladan haydash).

Urug'chilik tuzumida o'z-o'zini boshqarishning quyidagi tuzilmalari mavjud bo'lgan:

1. Oqsoqollar kengashi. U boshqaruvning asosiy masalalarini va muayyan ziddiyatli holatlarni hal etgan.

2. Harbiy boshliqlar. Ular urug'ning yosh a'zolari o'rtasida harbiy tayyorgarlikni tashqil qilgan hamda urush vaqtlarida ular ustidan qo'mondonlikni amalga oshirgan.

3. Umumiy (urug') yig'in. Unda urug'ning voyaga etgan barcha ayol va erkak a'zolari teng ravishda ishtirok etgan. Urug' yig'inida dohiylar va harbiy boshliqlar saylangan hamda urug' hayotining eng muhim masalalari hal etilgan.

Urug' yig'inida, shuningdek urush va sulh masalalari, ommaviy ko'chish va ziddiyatlarni hal etishga qaratilgan qarorlar qabul qilingan.

4. Kohinlar. Ular turli xil diniy rasm-rusumlar va marosimlarni o'tkazish tartiblarini hamda diniy tusdagi qoidalarni shakllantirgan. SHuningdek, diniy sudlovni amalga oshirganlar.

2.5. DAVLAT – JAMIYAT MAVJUD BO‘LISHINING MUHIM SHAKLI SIFATIDA

Davlat shakllanishi jarayoni qancha muddat bo'lishidan qat'i nazar, barcha hollarda bu ob'ektiv jarayon bo'lib, eng avvalo, u jamiyatning ichki rivojlanishi, uning turli ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy, madaniy-tarixiy, etnik, ruhiy, axloqiy-diniy, ekologik-geografik va boshqa shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Ushbu jarayonning muayyan sabablarga ko'ra qayd etilgan omillar doirasi o'zgargan, biroq doimo bu sharoitlarning muayyan jamlanishi va omillardan birining etakchi rol o'ynashi bilan kechgan.

Davlat jamiyat rivojining muayyan bosqichida undan ajralib chiqqan. O'z navbatida, "jamiyat" va "davlat" tushunchalari aynan bir tushunchalar emas va ularni, albatta, farqlash lozim. Jamiyat tushunchasi davlat tushunchasidan kengroq, negaki jamiyatda davlatdan boshqa tashkilotlar, ya'ni siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar va boshqa jamoat birlashmalari mavjud bo'ladi. Davlat jamiyatning faqat siyosiy qismi, uning bir elementidir.

Jamiyat bilan davlatning tarixiy davrlari ham farqlanadi. Jamiyat davlatga nisbatan ancha oldin shakllangan va o'z rivojining boy tarixiga ega. Davlat vujudga kelishi bilan uning jamiyat bilan o'zaro ta'sirining murakkab va ziddiyatli tarixi boshlanadi.

Jamiyatni tashkil etish shakli va boshqaruvchi tizim sifatida davlat ko'pchilik fuqarolar manfaati yo'lida muayyan funksiyalarni bajarish, ular o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni hal qilish, manfaatlarni muvofiqlashtirish, inqirozli vaziyatlarni hal qilish xususiyatiga ega.

Davlatning jamiyat mavjud bo'lishining bir shakli sifatidagi o'rnini belgilashda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

davlat jamiyat bilan bir vaqtda yuzaga kelgan emas;
davlat ijtimoiy rivojlanishning mahsuli sifatida vujudga kelgan;
davlat tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida shakllangan;
davlatning yuzaga kelishiga bir qator omillar, xususan, geografik, diniy, ruhiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar sabab bo'lgan.

2.6. DAVLAT VA HUQUQNING VUJUDGA KELISHI TO'G'RIDAGI NAZARIYALAR

Adabiyotlarda davlatning kelib chiqish sabablari to'g'risida turli nazariyalar ilgari suriladi. Bu boradagi fikrlarning xilma-xilligi quyidagilar bilan izohlanadi:

birinchidan, davlatning kelib chiqish jarayoniga ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy, tabiiy-iqlimiy, axloqiy-diniy, milliy-tarixiy, ma'naviy-madaniy, ruhiy, ekologik va boshqa omillar ta'sir etgan;

ikkinchidan, mazkur masala yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olimlar turli tarixiy davrlarda yashagan va, tabiiyki, insoniyat tomonidan to'plangan turli hajmdagi bilimlardan foydalangan;

uchinchidan, davlatning vujudga kelish jarayonini tushuntirishda olimlar o‘z qarashlarining isboti sifatida ko‘pincha dunyoning o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan hududlarinigina misol tariqasida keltirgan. Masalan, german qabilalarida davlatning kelib chiqishida harbiy omil muhim bo‘lsa, SHarq xalqlarida esa davlatko‘proq suv inshootlarini barpo etish jarayonida shakllangan.

to‘rtinchidan, boshqa fanlar yutuqlaridan ruhlangan mutafakkirlar ko‘pincha bu natijalarni ijtimoiy fanlarga qo‘llashga uringan, xususan, u yoki bu fan yutuqlariga asoslanib, davlatning vujudga kelish jarayoniga boshqacha qaray boshlagan va shu bilan jamiyat rivojlanishiga boshqa omillarning ta‘sir ko‘rsatishini e‘tibordan chetda qoldirgan;

beshinchidan, nazariyalar mualliflarining qarashlariga ularning falsafiy va g‘oyaviy yondashuvlari ham muayyan darajada ta‘sir qilganligini aytib o‘tish joiz.

Demak, muayyan nazariya orqali barcha xalqlarda davlatning yuzaga kelishini izohlash mumkin emas.

O‘z navbatida, davlat kelib chiqishining “osiyocha” va “evropacha” yo‘llari mavjudligini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

“Osiyocha” yo‘l. Osiyoda dastlabki davlatlar bundan besh ming yillar oldin Nil, Tigr, Hind, Ganga, YAnsi, Evfrat kabi yirik daryolarning havzalarida yuzaga kelgan.

Ushbu hududlarda davlat vujudga kelishining asosiy omillari sifatida quyidagilar e‘tirof etiladi:

- sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi natijasida yirik irrigatsion tarmoqlarni tashkil etish yuzasidan ommaviy ishlarni yo‘lga qo‘yishning zarurati;
- mazkur ishlarga aholini keng miqyosda jalb etilishi;
- irrigatsion ishlarga jalb etilgan kishilar ustidan yagona va markazlashgan rahbarlikni amalga oshirishning zarurati va boshqalar;

“Evropacha” yo‘l. Evropada davlatlarning vujudga kelishida asosiy omil bo‘lgan xususiy mulkning shakllanishi jamiyatda mulkiy tengsizlikning va shu asosda turli xil tabaqalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

SHu bilan birga, turli xalqlarda davlatning vujudga kelishida yuqoridagi omillar bilan bir qatorda boshqa omillar ham muhim o‘rin tutgan. Davlatlarning kelib chiqishi quyida ko‘rsatib o‘tiladigan turli xil nazariyalar doirasida tadqiq etiladi.

Teologik nazariya. Teologik (diniy) nazariya (yunoncha theos – xudo, logos – tushuncha, ta‘limot, xudo to‘g‘risidagi ta‘limotni anglatadi. Diniy ta‘limotlar davlat va huquqning vujudga kelishi to‘g‘risidagi ilk ta‘limotlardir. Davlatchilik va huquq shakllanishi bilan uni diniy, ilohiy tarzda tushunish yuzaga kelgan.

Avreliy Avgustin (354–430), Al-Mavardi (974–1058), Ibn Rushd (1126–1198), Foma Akvinskiy (1225–1274), Ibn Xaldun (1332–1406) kabi mutafakkirlar

hamda yahudiylik, xristianlik va islom dini vakillari tomonidan davlat va huquqning kelib chiqishi diniy asosda tushuntiriladi⁵.

Ushbu nazariya vakillarining fikricha, butun olam, shu jumladan davlat va huquqning kelib chiqishi ham xudoning irodasi bilan bog'liq. Podsho va din vakillari xudoning irodasini ifodalovchilardir. SHuning uchun ham fuqarolar ularning amriga so'zsiz bo'ysunishlari lozim bo'ladi.

Ushbu nazariya XII–XIII asrlarda yuqori mavqega ega bo'ldi. Bu davrda G'arbiy Evropada esa “ikki qilich” nazariyasi keng ommalashgan. Unga ko'ra cherkov bitta qilichni o'zida saqlagan bo'lsa, ikkinchi qilichdan foydalanish huquqini hukmdorlarga jamiyatdagi masalalarni hal qilish uchun taqdim etadi. SHu bois Evropa davlatlari monarxlari hokimiyati qonuniy bo'lishi uchun katolik cherkovi boshlig'i Rim papasidan yorliq olishlari lozim bo'lgan. SHu bilan diniy tashkilot bo'lgan cherkovning dunyoviy davlat ustidan ustunligi ta'minlangan.

Patriarxal nazariya. Mazkur nazariyaning asoschilari Aristotel, Aflotun va Konfutsiy hisoblanadi. Lekin ushbu nazariya XVII–XVIII asrlarda Genri Men, Mixaylovskiy kabi olimlarning asarlari orqali keng tarqaldi. Mazkur nazariya namoyandalarning fikricha, davlat oilaning rivojlanishi asosida vujudga kelgan. Ibtidoiy oilaga ota boshchilik qilib, keyinchalik davlat vujudga keladi va ota hokimiyati merosiy bo'ladi. Aflotun o'zining “Davlat” deb nomlangan mashhur asarida oiladan o'sib chiqqan yuksak adolatli davlatni tasvirlaydi. Unda podsho hokimiyati otaning o'z oila a'zolari ustidan hukmronligiga o'xshatiladi.

Patriarxal nazariya g'oyalari XVII asrda ingliz olimi Filmerning “Patriarx” asarida rivojlantirildi. U mazkur asarida hokimiyatning xudodan olingani, keyin uning to'ng'ich o'g'li – Patriarxga, undan keyingina o'z avlodlari – qirollarga berilganini isbotlaydi. Mazkur nazariyada davlat katta oila sifatida tavsiflanadi. Hukmdorning hokimiyatiga millat otasining hokimiyati sifatida qaraladi. Hukmdor xuddi oila boshlig'i kabi jamiyat a'zolari haqida qayg'urishi, o'z navbatida, oila a'zolari otaga qanday bo'ysungan bo'lsa, davlat boshlig'iga ham shunday sodiq va itoatkor bo'lishlari lozim.

Ijtimoiy shartnoma nazariyasi. Mazkur nazariya XVII–XVIII asrlardan boshlab keng tarqalgan bo'lsada, u dastlab Hindiston va qadimgi Xitoy mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan. Ushbu nazariya vakillarining (J.Lokk, T.Gobbs, B.Spinoza, A.Radishchev, J.Russo, G.Grotsiy) fikricha, davlat hokimiyati kishilarning o'zaro birlashib ixtiyoriy shartlashganliklarining ifodasidir. Bunda davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlar tizimi vujudga kelib, o'z navbatida, ularda shartnoma majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgarlik tug'iladi.

Davlatning vujudga kelishi to'g'risidagi shartnoma nazariyasi tabiiy huquq nazariyasi negizida vujudga kelib, o'rta asrlarda shakllanib kelayotgan yangi tabaqa uchun hukmdorning mutlaq hokimiyatini cheklash, insonning hokimiyatdan mustaqil erkin iroda egasi ekanligini asoslashga xizmat qildi.

⁵ Давлат ва ҳуқуқ назарияси: Дарслик / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тулътеев ва бошқ.; проф. Х.Т.Одилқориев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. – Б.44.

Mazkur nazariyaning mazmuni inson huquqlari ular tug'ilganidan yuzaga keladi degan g'oyani o'z ichiga qamrab oladi. Rim huquqshunoslari fuqarolar huquqlari va xalqlar huquqlari bilan birga tabiiy huquqni ham ajratib ko'rsatgan. Bugungi kunda tabiiy huquqlar har qanday davlat uchun umummajburiy norma sifatida e'tirof etiladi va ularning bu boradagi majburiyatlari xalqaro huquq normalari bilan belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy shartnoma nazariyasining ko'pgina g'oyalari demokratik davlatlarning konstitutsiyalarida o'z ifodasini topgan. SHu ma'noda davlatning asosiy qonuni hisoblanadigan konstitutsiyalarni muayyan darajada ijtimoiy shartnoma deb ta'riflash mumkin. CHunki unda inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari bilan bir qatorda ularning burchlari ko'rsatib o'tiladi. O'z navbatida, davlatning jamiyat va fuqarolarga nisbatan huquq va majburiyatlari ham konstitutsiyalarda mustahkamlanadi. Bir so'z bilan aytganda, demokratik davlatda davlat va fuqaro o'zaro huquq va majburiyat orqali bog'langan bo'ladi.

Materialistik nazariya. Ushbu nazariyaning asosiy qoidalari F.Engels ("Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi" asari) K.Marksning asarlari masalan, "Kapital"da ifodalangan. Ularning fikricha, davlat, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, bir-biriga qarama-qarshi sinflarning yuzaga kelishi natijasida vujudga kelgan. Bunda davlat iqtisodiy va siyosiy jihatdan hukmron bo'lgan tabaqalarning quyi tabaqalarni bostirib turish vositasi sifatida maydonga chiqadi. Mazkur nazariyaga ko'ra murosasiz sinfiy qarama-qarshiliklar faqat muayyan tarixiy sharoitlardagina davlat vujudga kelishi sababi sifatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. SHuningdek, umumiy ishlarni ado etish, jamiyatni boshqarishni takomillashtirish, mehnat taqsimotining bir shakli sifatida ushbu boshqaruvni ixtisoslashtirish zarurati davlatning vujudga kelishi sabablari sifatida keltirib o'tiladi.

Zo'ravonlik nazariyasi. Mazkur nazariya vakillari (E.Dyuring, L.Gumplovich, K.Kautskiy (XIX asr)) davlatning vujudga kelishiga harbiy-siyosiy omillar sabab bo'lgan deb hisoblaydi. YA'ni zo'ravonlik nazariyasining asosida davlat va huquqni kelib chiqishining bosh sababi – bosqinchilik, zo'ravonlik va bir qabilani ikkinchi qabila tomonidan zulmga duchor etish degan g'oya yotadi. Bunda davlat bosib olingan hududlar (xalqlar)ni boshqarish uchun zo'rlov apparati vazifasini o'taydi. Ta'kidlash joizki, Evropadagi ayrim xalqlar, xususan, german qabilalari va vengerlarda davlatning kelib chiqishida aynan harbiy-siyosiy omillar muhim rol o'ynagan.

Psixologik (ruhiy) nazariya. Mazkur nazariya XIX asrlarda yuzaga kelgan bo'lib, uning asosiy g'oyalari G.Tard, L.Petrajitskiy va boshqalarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Ularning fikricha, kishilarning ruhiyati jamiyatning, shu jumladan axloq, huquq, davlatning rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omildir.

Psixologik nazariya vakillari jamiyat va davlatni insonlarning ruhiy uyushmasi sifatida ham talqin etadilar. Unga ko'ra, huquqning negizi bo'lib individual ong hisoblanadi. Ularning fikricha, davlat hokimiyati biror-bir kishining irodasi emas, balki fuqarolarning davlatga bog'liqligi to'g'risidagi ruhiy tasavvurlaridan kelib chiquvchi kuchdir.

Irrigatsion nazariya. Ushbu nazariyaning asosiy namoyandasi nemis olimi K.Vittfogel hisoblanadi. Uning fikricha, davlat SHarq xalqlarida yirik irrigatsion inshootlarini barpo etish zarurati asosida kelib chiqqan. Mesopatamiya, Misr, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlarda yirik irrigatsion qurilish ishlarini tashkil etish uchun kuchli, markazlashgan boshqaruv apparati tashkil etilgan. Mazkur nazariya vakillarining fikricha, geografik va iqlim omillari ham davlatning kelib chiqishiga ta'sir o'tkazadi. SHu bois noqulay bo'lgan shart-sharoitlarda qishloq xo'jaligini tashkil etish muammolarini hal etish SHarqdagi ayrim hududlarda davlatning kelib chiqish jarayonini tezlashtirgan.

Nazorat uchun savollar

1. Davlat va huquqning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalarning xilma-xilligini asoslang. Ularning o'xshash va o'zaro farqli jihatlarini atroflicha muhokama qiling.

2. Davlatning vujudga kelishi to'g'risidagi ijtimoiy shartnoma nazariyasining mohiyatini tushuntiring va uning ijobiy va salbiy tomonlarini muhokama qiling.

3. Davlatning vujudga kelishi to'g'risidagi psixologik nazariyaning mohiyatini tushuntiring, uning ijobiy va salbiy tomonlarini muhokama qiling.

4. Davlatning vujudga kelishi haqidagi turli yondashuvlar mavjudligi sabablarini bayon eting. Fikringizni misollar yordamida mustahkamlang.

5. Davlatning vujudga kelishiga olib kelgan shart-sharoitlar va sabablarni muhokama qiling va ularning o'zaro aloqadorligini yoriting.

MAVZU YUZASIDAN TEST SAVOLLARI

1) Давлат ижтимоий шартнома натижасида юзага келган деган таълимот қайси назарияда ўз аксини топган?

- A) давлатнинг пайдо булиши тўғрисидаги органик назариясида
- B) давлатнинг пайдо булиши тўғрисидаги зўрлик назариясида
- C) давлатнинг пайдо булиши тўғрисидаги ирригацион назарияда
- D) давлатнинг пайдо булиши тўғрисидаги шартнома назариясида
- E) давлатнинг пайдо булиши тўғрисидаги психологик назарияда

2) Давлатнинг вужудга келишини ўрганишда қандай ёндашувлар мавжуд?

- A) барча жавоблар тўғри
- B) формацион ва цивилизацион
- C) деспотик ва авторитар
- D) формацион ва эвристик
- E) сиёсий ва иқтисодий

3) Ирригацион назария вакиллари давлатни пайдо бўлиши ҳақида қандай ғояни илгари суришган?

- A) Давлат бу аҳолини йирик сув иншоотларини қуриш ва сувни бошқариш учун маълум жойга йиғилиш ва бошқарувни амалга оширилганлиги оқибатида юзага келган

- В) давлат бир жамоани иккинчи жамоа томонидан босиб олиши орқали, яъни зўрлик асосида тузилган
- С) давлат худо иродаси билан яратилган бўлиб, у фақат инсонларни ҳуқуқлари учун хизмат қилади
- Д) тўғри жавоб берилмаган
- Е) давлат бу ўзаро келишув асосида инсонлар томонидан яратилган

4) Қуйидагилардан қайси бири ибтидоий жамиятдаги ижтимоий ҳокимиятнинг олий органи ҳисобланган?

- А) тўғри жавоб берилмаган
- В) Жамоа қурултойи
- С) Олий кенгаш
- Э) Жамоа кенгаши
- Е) Оқсоқоллар кенгаши

5) Қадимда Ўзбекистон ҳудудида давлатнинг пайдо бўлиши қайси назарияга тўғри келади?

- А) шартнома назариясига
- В) синфий назарияга
- С) психологик назарияга
- Э) ирригация назариясига
- Е) зўрлик назариясига

6) Давлат бу синфий кураш махсули дейиш қайси назарияга хосдир?

- А) диний назария
- В) зўрлик назарияси
- С) шартнома назарияси
- В) синфий назария
- Е) шартномавий назария

7) Жамиятдаги энг қадимги тенгсизлик тури нима деб аталган (Ҳиндистон)?

- А) касталар ва табақалар
- В) деҳқонлар, чорвадорлар ва хунармандлар
- С) кулдорлар, куллар ва деҳқонлар
- Д) брахманлар ва кшатрийлар
- Е) элотлар, бой деҳқонлар ва қарам деҳқонлар

8) Энг қадимги одамларнинг уюшмаси мавжуд бўлган давр қандай номланган?

- А) Ибтидоий жамоа тузуми даври
- В) Ибтидоий одамлар тўдаси даври
- С) Ибтидоий уруғчилик тузуми даври
- Д) Қабилалар иттифоқи тузуми даври
- Е) тўғри жавоб берилмаган

9) Қуйидаги қаторлардан қайси бирида тўғри жавоб берилган?

- А) Шартнома назарияси - ҳалқ ва монарх ўртасида ўзаро келишув асосида давлат пайдо бўлган деган ғоя илгари сурилади ва ушбу назария вакиллари - Платон, Т.Гоббс, Ж.Ж.Руссо, Аристотель, А.Н.Радищев ҳисобланади
- В) Зўрлик назарияси - бунда бир жамоанинг иккинчи жамоани зўрлик асосида босиб олиши натижасида давлат вужудга келган деган ғоя илгари сурилади, ушбу назария вакиллари - Арасту, Гумпилович, Г.Гроций, Б.Спиноза ва Ш.Монтескье ҳисобланади
- С) Марксистик назария - бу фақатгина синфий ва ижтимоий тенгсизликнинг ва ортиқча маҳсулотнинг вужудга келиши оқибатида давлат пайдо бўлган деган ғоя илгари сурилади, ушбу назария вакиллари - К.Маркс, Ф.Энгельс ва В.И.Ленинлар ҳисобланади.
- Д) Диний назария - бунда давлат худонинг амри билан яралган бўлиб, у худонинг ердаги вакили орқали бошқарилган деган ғоя илгари сурилади, ушбу назария вакиллари - А.Августин, Ф.Аквинский, Е.Дюринг, Маристен ва Ша Янлар ҳисобланади
- Е) Тўғри жавоб берилмаган

10) Жамиятга таъриф беринг?

- А) бу индивидларнинг оддий бирикмаси
- В) Жамият - бу давлат учун хизмат қилувчи асосий ташкилот ҳисобланади
- С) бу фуқаролик жамиятидир
- В) Жамият - кишиларнинг мураккаб динамик тизими бўлиб, улар гуруҳий, табақали ва оилавий муносабатлар орқали бир-бири билан боғланган
- Е) Жамият - бу индивидларнинг оддий бирикмаси бўлиб, турли хил ижтимоий институтларини ўзида бириктиради

МАНЗУ ЮЗАСИДАН ГЛОССАРИЙЛАР

ЖАМИЯТ – бу тарихий тараққиётнинг муайян босқичида вужудга келган ижтимоий муносабатлар маҳсули.

ОҚСОҚОЛЛАР КЕНГАШИ. У бошқарувнинг асосий масалаларини ва муайян зиддиятли ҳолатларни ҳал этган.

ҲАРБИЙ БОШЛИҚЛАР. Улар уруғнинг ёш аъзолари ўртасида ҳарбий тайёргарликни ташкил қилган ҳамда уруш вақтларида улар устидан кўмондонликни амалга оширган.

УМУМИЙ (УРУҒ) ЙИҒИН. Унда уруғнинг вояга етган барча аёл ва эркак аъзолари тенг равишда иштирок этган. Уруғ йиғинида дохийлар ва ҳарбий бошлиқлар сайланган ҳамда уруғ ҳаётининг энг муҳим масалалари ҳал этилган. Уруғ йиғинида, шунингдек уруш ва сулҳ масалалари, оммавий кўчиш ва зиддиятларни ҳал этишга қаратилган қарорлар қабул қилинган.

КОҲИНЛАР. Улар турли хил диний расм-русумлар ва маросимларни ўтказиш тартибларини ҳамда диний тусдаги қоидаларни шакллантирган. Шунингдек, диний судловни амалга оширганлар.

ТЕОЛОГИК НАЗАРИЯ. Теологик (диний) назария (юнонча theos – худо, logos – тушунча, таълимот, худо тўғрисидаги таълимотни англатади. Диний таълимотлар давлат ва ҳуқуқнинг вужудга келиши тўғрисидаги илк таълимотлардир. Давлатчилик ва ҳуқуқ шаклланиши билан уни диний, илоҳий тарзда тушуниш юзага келган.

ПАТРИАРХАЛ НАЗАРИЯ. Мазкур назариянинг асосчилари Аристотель, Афлотун ва Конфуций ҳисобланади. Лекин ушбу назария XVII–XVIII асрларда Генри Мен, Михайловский каби олимларнинг асарлари орқали кенг тарқалди. Мазкур назария намояндаларининг фикрича, давлат оиланинг ривожланиши асосида вужудга келган.

3-MAVZU. DAVLAT TUSHUNCHASI, BELGILARI, MOHIYATI VA TIPLARI

Mavzuning asosiy yo‘nalishlari:

1. Davlat tushunchasi.
2. Davlat belgilari.
3. Davlatning mohiyati va tiplari.

“Davlat”ning to‘la ma‘nosi quyidagi ijtimoiy hodisalarning uyg‘unligi va bir butunligida namoyon bo‘ladi: a) hokimiyat va bo‘ysunish munosabatlarining mavjudligi; b) hokimiyat majburlov choralarini qo‘llashda tanho (suveren) huquqqa ega bo‘lishi; v) yuridik mazmun va tartibning mavjudligi; g) boshqaruv va u tufayli nisbiy barqarorlikning ta‘minlanishi; d) tashkiliy uyushganlik.

Davlat tushunchasiga ta‘rif berishda quyidagi umumlashgan (ijtimoiy, sinfiy va sof yuridik nuqtai nazardan) yondashuvlar mavjud:

– **davlat** (umumijtimoiy) – bu muayyan hududda oliy hokimiyatni amalga oshiruvchi, maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo‘lgan, jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy guruhlarining manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni birlashtirib va muvofiqlashtirib turadigan siyosiy tashkilot.

– **davlat** (sinfiy) – bu iqtisodiy va siyosiy jihatdan hukmron bo‘lgan sinfning manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy tashkilot.

– **davlat** (yuridik) – bu muayyan hududda ommaviy hokimiyatni amalga oshiruvchi siyosiy tashkilot.

• **Davlat sezgi organlari yordamida bilish mumkin bo‘lgan moddiy hodisami yoki jamiyat a‘zolarining yuridik jihatdan tartibga solingan, o‘zaro bo‘ysunish va boshqarilishini ifodalaydigan aloqalarini nazarda tutuvchi ijtimoiy voqelikmi?**

– davlat vakolatli organlar tomonidan odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi;

– davlat odamlar xulq-atvorini qat‘i huquqiy normalar yordamida majburiy tartibga solishdan iborat funksiyani bajaruvchi.

• **Davlatning mohiyatini ochib beruvchi belgilarni tahlil qiling?**

Davlatning asosiy belgilari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

Aholining hududiy asosga ko‘ra birlashganligi.

Maxsus boshqaruv apparatining mavjudligi.

Huquq tizimining mavjudligi.

Soliq tizimiga egaligi.

Suverenitetga egaligi.

Davlatning mohiyati – bu uning mazmuni, maqsadi, davlat hokimiyatining qaysi ijtimoiy-siyosiy guruhlariga mansubligi va u kimning manfaatlariga xizmat qilishi hisoblanadi.

Davlatning mohiyati va uning ijtimoiy ahamiyati yuzasidan davlat va huquq nazariyasi fani doirasida shakllangan nazariyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Elita nazariyasi.

Texnokratik nazariya.

Plyuralistik demokratiya nazariyasi.

“Umumiy farovonlik davlati” nazariyasi.

Konvergensiya nazariyasi.

• **Davlat hokimiyati – ijtimoiy hokimiyatning muhim shakli sifatida nimalarda ko‘rinadi?**

Hokimiyat deganda, umumiy ma‘noda muayyan sub‘ektning (individ, jamoa, tashkilot) boshqa sub‘ekt (individ, jamoa, tashkilot) irodasini va yurish turishini shaxsiy yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini yuzasidan bo‘ysundirishi tushuniladi.

Muayyan hodisa sifatida hokimiyat quyidagi belgilarga ega:

1. Hokimiyat ijtimoiy hodisa hisoblanadi;

2. Hokimiyat jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlariga xos bo‘lgan hodisadir;

3. Hokimiyat faqat ijtimoiy munosabatlar doirasidagina amalda bo‘ladi;

4. Hokimiyat munosabatlari ikki tomonlama ko‘rinishga ega bo‘lib, uning muayyan bir sub‘ekti hokimiyat sub‘ekti bo‘lsa, ikkinchi tomoni esa hokimiyatga bo‘ysunuvchi sub‘ekt hisoblanadi;

5. Hokimiyatning eng muhim belgilaridan biri, bu uning muayyan kuchga egaligidadir. Bunday kuch turli xil shaklda bo‘lishi mumkin, ya‘ni jismoniy kuch, harbiy kuch, avtoritet kuchi, ishonch, estetik ta‘sir va boshqalar.

Hokimiyatni turli xil mezonlar bo‘yicha tasniflash mumkin. Xususan, ijtimoiy darajalariga ko‘ra u quyidagicha tasniflanadi:

a) butun jamiyat doirasidagi hokimiyat;

b) u yoki bu jamoa doirasidagi hokimiyat;

v) ikki individ munosabatlari o‘rtasidagi hokimiyat.

Davlat hokimiyatini xarakterlovchi quyidagi belgilar mavjud:

– davlat hokimiyati universal xarakterga ega bo‘lib, u mamlakatning butun hududi va aholisiga nisbatan tadbiiq etiladi;

– davlat hokimiyati ommaviy-siyosiy xarakterga ega, ya‘ni unda hokimiyat hokimiyat ob‘ekti sifatida jamiyatdan alohida ajratilgan professional apparat tomonidan amalga oshiriladi;

– davlat hokimiyati umummajburiy tusdagi yurish-turish qoidalarini, ya‘ni huquq normalarini yaratishda qat‘iy vakolatga ega;

– davlatning majburlov kuchiga tayanadi;

– davlat hokimiyati vaqt doirasida doimiy va uzluksiz amalda bo‘ladi.

MAVZU YUZASIDAN TEST SAVOLLARI

- 1) Давлатларнинг типологияси қандай таснифланади?**
- A) Давлатларнинг ҳудудлари миқёсига кўра
 - B) маърифийлик (цивилизация) тавсифига кўра
 - C) давлатга тарихий ёндашув асосида
 - D) барча жавоблар тўғри
 - E) иқтисодий ривожланиш даражасига кўра
- 2) Қуйидаги қатордаги давлатларнинг қайси бирида инсон ҳуқуқлари олий қадрият сифатида тан олинади?**
- A) либерал ва демократик
 - B) авторитар ва либерал, эвристик
 - C) тоталитар ва социалистик
 - D) капиталистик ва социалистик
 - E) буржуа ва феодал
- 3) Либерал давлат қандай бўлади?**
- A) барча жавоблар тўғри
 - B) фуқаролар ҳуқуқ ва эркинликлари тан олинади ва уларнинг давлат ишларида қатнашувларига имконият берилади
 - C) Бутун ҳокимият раҳбар ҳукмрон элита қўлида бўлиб, бошқалар давлатни бошқаришдан четлаштирилади
 - D) Сиёсий соҳада ижозат этилганидан ташқари барча нарсаларнинг тақиқланиш тамойили амал қилади
 - E) фуқароларнинг давлат ва жамоат ишларини бошқаришга оид ҳуқуқлари фақат қоғозда амал қилади
- 4) Жамиятнинг сиёсий тизими деганда нимани тушунаси?**
- A) ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг мураккаб уюшмасини
 - B) сиёсий ҳокимиятнинг амалга оширишда қатнашаётган жамоат ташкилотлари мажмуини
 - C) давлат ва сиёсий партиялар ўз манфаатларини ҳимоя қилиш учун фойдаланадиган турли тарздаги ҳуқуқ ва ваколатларини
 - D) фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг ўзаро тартибли мажмуасини
 - E) давлат, сиёсий партиялар, жамоат ва бошқа ташкилотларнинг йиғиндисини
- 5) Тарихий ёндашувга кўра давлатлар қандай турларга бўлинади?**
- A) кулдорлик, феодал, буржуа ва социалистик давлатларга
 - B) қадимги, ўрта аср ва ҳозирги давлатларга
 - C) шарқий, ғарбий ва аралаш давлатларга
 - D) аграр ва индустриал давлатларга
 - E) юксак ривожланган, ўртача ривожланган ва ривожланаётган давлатларга

6) Сиёсий тизимни нималар ташкил қилади?

- A) жамоат бирлашмалари, сиёсий партиялар, диний ташкилотлар
- B) ноҳукумат, диний бирлашмалар ва сиёсий партиялар
- C) сиёсий партиялар, жамоат бирлашмалари, ноҳукумат ташкилотлари
- D) нодавлат ва ноижорат ташкилотлари ҳамда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари
- E) давлат, сиёсий партиялар, сиёсий ҳаракатлар, жамоат бирлашмалари

7) Демократик жамият нима?

- A) Бундай жамиятда фақат ишчи ва деҳқонларни ҳуқуқлари олий кадрият сифатида тан олинади
- B) Бу жамиятда йирик фабрика ва завод эгалари иқтисодий ва ҳуқуқий жиҳатдан ҳимоя қилинади
- C) Бундай жамиятда иқтисодий жиҳатдан ҳукмрон шахсларнинг манфаатлари олий кадрият сифатида тан олинади
- D) Бу жамиятда инсон ҳуқуқ ва эркинликлари олий кадрият сифатида тан олинади ҳамда ҳокимият халқ томонидан амалга оширилади
- E) Бу жамиятда давлат манфаатлари инсон манфаатларидан юқори туради

8) Қуйидагилардан қайси бирлари давлатнинг технократик назарияси вакиллари ҳисобланади?

- A) Т Веблен, Д.Барнхейм, Г.Саймон, Д.Белл
- B) Д.Мюрдал, А Цигу, К.Боулдинг, В.Мунд
- C) Д.Сартори, Т Дай, Х Лассуэл
- D) Р.Арон, Д.Гэлбрейт, П.Сорокин
- E) Г.Ласки, М.Дюверже, Р.Дарендорф, Р.Далл

9) Давлатга берилган замонавий таърифни аниқланг?

- A) давлат манфаатларини шахс манфаатларидан устун қўювчи ҳамда ўзининг мажбурлов аппаратига эга бўлган сиёсий-ҳуқуқий ташкилот
- B) молиявий жиҳатдан ҳукмрон бўлган ҳамда барча фуқароларга иқтисодий жиҳатдан ёрдам берувчи сиёсий ташкилот
- C) ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги муносабатларни мувофиқлаштириб турувчи, ҳамма учун мажбурий бўлган ҳуқуқий нормалар чиқарувчи ва мажбурлов аппаратига эга бўлган сиёсий ташкилотдир
- D) иқтисодий жиҳатдан ҳукмрон синфнинг манфаатини ҳимоя қилувчи сиёсий партиялар ва бошқа ташкилотларнинг йиғиндиси
- E) жамиятда адолатни ўрнатувчи, сиёсий арбобларни давлатни бошқаришда бирлаштирувчи мураккаб сиёсий ва юридик ташкилот

10) Давлатнинг моҳиятини тушунишда қандай назарий ёндашувлар мавжуд?

- A) Ижтимоий, иқтисодий, маънавий ва тарихий
- B) Сиёсий, иқтисодий, мафкуравий ва эвристик
- C) Ижтимоий, синфий ва сиёсий - ҳуқуқий

D) Ижтимоий, ҳуқуқий, иқтисодий, маданий ва сиёсий

E) Маънавий, моддий, сиёсий ва ҳуқуқий

МАВЗУ ЮЗАСИДАН НАЗОРАТ САВОЛЛАРИ

1. Давлат тушунчаси ва белгилари.
2. Давлат моҳияти ва унинг ижтимоий аҳамияти тўғрисидаги турли назариялар.
3. Давлат ҳокимияти – ижтимоий ҳокимиятнинг муҳим шакли сифатида.
4. Давлат ҳокимиятининг белгилари.
5. Давлат типологияси. Давлат типологияси муаммосига формациявий ва цивилизациявий ёндашувлар.
6. Ўзбекистон Республикаси Шавкат Мирзиёев асарларида давлат ҳокимиятини либераллаштириш масалаларининг ёритилиши.

4-MAVZU. DAVLAT FUNKSIYALARI

Mavzuning asosiy yo'nalishlari:

1. Davlat funksiyalari tushunchasi.
2. Davlat funksiyasining davlat maqsadi va vazifalari bilan o'zaro nisbati.
3. Davlat funksiyalarini turli asoslarga ko'ra tasniflash.
4. Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllari.
5. Davlat funksiyalarining rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar.

4.1. DAVLAT FUNKSIYALARI TUSHUNCHASI

Ma'lumki, davlat funksiyalari bilan bog'liq masalalarni o'rganish uning mazmun-mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni va ijtimoiy vazifasini yanada chuqurroq anglab olishga xizmat qiladi. Har qanday davlatning mohiyati, eng avvalo, uning faoliyatida, funksiyalarida namoyon bo'ladi. Davlatning faoliyat sohalari xilma-xil bo'lganligini hisobga olib, uning faoliyati bosh yo'nalishlarini alohida ajratish zarurati kelib chiqqan. Ana shu bosh yo'nalishlar bo'yicha olib boriladigan faoliyatda davlatning mohiyati mujassam bo'ladi, amalga oshiriladi va rivoj topadi hamda ular davlatning mavjud bo'lish tarzini ifoda etadi.

Давлат функциялари – бу давлатнинг мақсад ва вазифаларини амалга оширишга қаратилган давлат фаолиятининг асосий (баш) йўналишларидир.

Davlat funksiyalari uning vazifalari va mohiyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, davlatning mohiyati o'zgarib borgan sari funksiyalari ham shunga mos ravishda o'zgarib boradi.

Davlat o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishi uchun ma'lum bir vazifalarni hal qilishi lozim, bu esa, o'z navbatida, ushbu vazifalarni bajarishga qaratilgan tegishli funksiyalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Falsafada **funksiya** deganda biron-bir ob'ekt xususiyatlarini ma'lum munosabatlar tizimidagi tashqi ifodasi tushuniladi. Funksiya – vakolat doirasidan kelib chiquvchi faoliyatdir. Chunki "funksiya" lotin tilidan olingan bo'lib, "faoliyat" degan ma'noni anglatadi.

Давлат funksiyalarining quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin: davlat funksiyalarida mamlakat ichki va xalqaro maydondagi amaliy faoliyati namoyon bo'ladi; davlat funksiyalari uning tarixiy taraqqiyotidagi maqsad va vazifalariga mos ravishda yuzaga keladi va rivojlanib boradi; davlat funksiyalarida jamiyat hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalardagi o'zgarishlar va islohotlar aks etadi.

O'z navbatida, davlat funksiyasini uning alohida organlari funksiyalaridan farqlash lozim. Davlat mexanizmiga kiruvchi barcha davlat organlari va tashkilotlarining har biri o'z vakolatlari doirasida davlat faoliyatining muayyan sohalarda o'z funksiyalarini amalga oshiradi.

4.2. DAVLAT FUNKSIYASINING DAVLAT MAQSADI VA VAZIFALARI BILAN O'ZARO NISBATI

Davlat funksiyalari haqida gapirganda uning maqsadi va vazifalariga ham alohida to'xtalib o'tish lozim. Chunki davlat funksiyalari davlat maqsadi va

vazifalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, davlat o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishishi uchun ma‘lum bir vazifalarni hal qilishi lozim, bu esa tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liqdir.

SHuni qayd etish lozimki, “maqsad”, “vazifa”, “funksiya” tushunchalari bir-biridan ajralmas bo‘lib, ular davlatning mohiyatiga mos ravishda shakllanadi.

Мақсад бу муайян давлатнинг тараққиётидаги кейинги босқичда эришмоқчи бўлган ҳолати бўлса (масалан: фуқаролик жамиятини шакллантириш, ҳуқуқий демократик давлат барпо этиш), **вазифа** эса ушбу мақсадга эришиш учун ҳал этилиши лозим бўлган масалалар, **функция** – вазифалар ечимига йўналтирилган фаолият йўналишидир.

Davlat maqsadining quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

– davlat faoliyatini yo‘naltiruvchi va tartibga soluvchi, uning bajarishi lozim bo‘lgan vazifalari ketma-ketligi va xarakterini belgilab beruvchi bevosita motivi bo‘lib maydonga chiqadi;

– muayyan vazifalarni bajargandan keyin kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan davlatning obrazi va modeli sifatida namoyon bo‘ladi;

– davlat faoliyatini rejalashtirish va taraqqiyotning muqobil yo‘nalishlarini tanlash imkonini beradi;

– davlat faoliyatini mantiqiylik va tizimlilik asosida amalga oshishini ta‘minlaydi;

– maqsadga erishish amaldagi hayotiy vaziyat va maqsad o‘rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish jarayoni hisoblanadi.

Davlatning vazifalari quyidagi xususiyatlarga ega:

– funksiyaning mavjud bo‘lishi (amalga oshishi)ni taqozo etadi;

– uning amalga oshishidan oldin yuzaga keladi;

– funksiyaga nisbatan ob‘ektiv xarakterga ega;

– funksiyaning mazmunini belgilab beradi;

– funksiyaning shakl va metodlariga ta‘sir qiladi;

– funksiyasiz davlatning birorta ham vazifasi hal etilmaydi;

– bitta funksiya orqali davlatning bir qator vazifalari bajarilishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin.

Davlat va jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida ular oldiga ma‘lum bir vazifalarning qo‘yilishi tegishli funksiyalarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi, chunki davlatning funksiyalari amalga oshirilmagan taqdirda uning vazifalari ham amalga oshmay qoladi. Vazifa bir tomondan ma‘lum xususiyatga ega bo‘lmagan biror-bir maqsadga erishish zaruratini, ikkinchi tomondan esa ma‘lum faoliyat turini amalga oshirish zaruratini taqozo etadi.

Vazifa va funksiyalarning o‘zaro nisbatida funksiyalar emas, balki vazifalar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Vazifa bir tomondan biror-bir maqsadga erishish, ikkinchi tomondan esa ma‘lum faoliyat turini amalga oshirish zaruratini o‘z ichiga oladi. Davlatning funksiyalari uning vazifalariga bog‘liq bo‘ladi, chunki vazifalar funksiyalarning mavjudligini va ularning mazmunini belgilaydi, ularni amalga oshirish shakl va usullariga ta‘sir ko‘rsatadi. Funksiyalar mazmuni davlatning qanday faoliyat olib borayotganligi, shu muhitda boshqaruv

harakatlarini qay yo'sinda yuritayotganligi, uning tegishli organlari nima bilan shug'ullanayotganligini ko'rsatadi.

4.3. DAVLAT FUNKSIYALARINI TURLI ASOSLARGA KO'RA TASNIFLASH

Yuridik adabiyotlarda davlat funksiyalarini tasniflashda bir xil yondashuv mavjud emas. Bunga sabab taraqqiyotning turli bosqichlarida turgan davlatlar mavjud ob'ektiv sharoitdan kelib chiqqan holda o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarning mohiyatiga mos ravishda faoliyat yuritishidir.

Davlat funksiyalari asosan quyidagi to'rt asosiy guruhga tasniflanishini ko'rsatib o'tish mumkin:

- a) faoliyat doirasi bo'yicha;
- b) amal qilishining davomiyligi bo'yicha;
- v) ijtimoiy ahamiyati bo'yicha;
- g) amalga oshirish shakllari bo'yicha

Ichki funksiyalar davlatning ichki vazifalarini echishga yo'naltirilgan bo'lib, davlatning jamiyat hayoti ustidan rahbarligini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatining asosiy yo'nalishlarini namoyon qiladi.

Tashqi funksiyalar esa xalqaro-huquqiy munosabatlarning sub'ekti sifatida ishtirok etayotgan davlatning davlatlararo miqyosdagi vazifalarni hal qilishi bilan bog'liqdir.

Davlatning asosiy ichki funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Iqtisodiy funksiya – bu davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish borasida asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, ushbu sohada boshqaruvni amalga oshirish va tartibga solib turishdan iboratdir. Bundan tashqari, davlat byudjetini shakllantirish, jamiyatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini aniqlash, turli xil mulk shakllarini tenglik sharoitida amal qilinishini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash kabilar davlatning iqtisodiy sohadagi funksiyasi doirasiga kiradi.

Ijtimoiy funksiya – bu aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, insonlarga munosib turmush tarzini yaratish, ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash va madaniyatni rivojlantirish va boshqalar.

Siyosiy funksiya – bu davlat (jamiyat)ning siyosiy hayotini boshqarish, davlat organlarini shakllantirish hamda ularning faoliyatini tashkil etishdan iborat.

Huquqiy tartibotni muhofaza qilish funksiyasi –davlatning jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlash, inson va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kabilarga qaratilgan.

Tinchlikni ta'minlash funksiyasi – bu davlat tomonidan aholining tinchtotuv yashashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, turli millatlarni va ijtimoiy guruhlarni murosai madorada saqlab turish, ularning orasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olish hamda bartaraf etishdan iborat.

Davlatning ekologik funksiyasi – uning jamiyat talab va ehtiyojlarini yanada to'liqroq ta'minlash va jamiyat a'zolarining yashash, mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish vazifalarini hal etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tiklash va ko'paytirish borasidagi

faoliyatidir. Ichki tuzilishiga ko'ra, davlatning ekologik funksiyasi o'zaro bog'liq uch yo'nalishda amalga oshiriladi: a) atrof tabiiy muhit ob'ektlarini saqlash; b) tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; v) tabiiy resurslarni tiklash. Davlatning ekologik funksiyasi jamiyatning iqtisodiy va ekologik manfaatlarini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy resurslarni tiklash, ko'paytirish, fuqarolar uchun qulay tabiiy atrof muhitni yaratish maqsadlariga qaratilgan.

Davlatning asosiy tashqi funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik funksiyasi;
- mudofaa funksiyasi.

Boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik funksiyasi – bu davlatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatidir. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy darajasi barcha taraqqiy etgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmushini integratsiyalashtirish, har bir davlatning alohida ichki muammolari hamda butun jahon hamjamiyatiga xos bo'lgan global muammolarni yanada samarali hal qilish uchun ularning umumiy sa'y-harakatlarini birlashtirishni ob'ektiv ravishda taqozo etadi. Bunday hamkorlik integratsiya masalalariga keng va o'zaro foydali yondashuvni, nafaqat muayyan bir mamlakat, balki hamkorlikning boshqa ishtirokchilari manfaatlariga ham javob beradigan oqilona echimlarni umumiy harakatlar bilan topa bilishni nazarda tutadi.

Davlatlararo iqtisodiy hamkorlikda xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni kooperatsiyalashtirish va ixtisoslashtirish, eng yangi texnologiyalarni ayirboshlash va joriy etish, tovar aylanishini muvofiqlashtirish, moliya-kredit aloqalarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni umumiy muvofiqlashtirish Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashtirilgan muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. SHuningdek, iqtisodiy hamkorlik davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar asosida ham yo'lga qo'yiladi.

Davlatlarning siyosiy sohadagi hamkorligi davlat hokimiyatining barcha tarmoqlarida, ya'ni parlamentlararo, hukumatlararo miqyosda amalga oshiriladi. BMT hozirgi zamon davlatlarining siyosiy manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi asosiy xalqaro organ hisoblanadi. Nizolarni, shu jumladan qurolli mojarolarni tartibga solish masalalari bilan BMTning doimiy faoliyat yurituvchi organi – Xavfsizlik kengashi shug'ullanadi. Unga xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, davlatlararo munosabatlarning turli sohalarida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng huquqlar berilgan.

Jahonda siyosiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash ishiga mintaqaviy xalqaro tashkilotlar Shanxay hamkorlik tashkiloti, Amerika davlatlari tashkiloti va boshqalar ham munosib hissa qo'shmoqda. Siyosiy xususiyatga ega bo'lgan ko'pgina masalalarni davlatlar bevosita diplomatik yo'l bilan ikki yoki ko'p tomonlama muzokaralar asosida hal qiladilar.

Madaniy va ilmiy-texnik hamkorlik turli shakllarda va davlatlararo miqyosda amalga oshiriladi. BMTda bunday hamkorlikni muvofiqlashtirish bilan ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan muassasalar

(YUNESKO), Xalqaro atom energetikasi xalqaro agentligi (MAGATE) va boshqa tashkilotlar shug'ullanadi. Madaniy va ilmiy-texnik rivojlanishning alohida masalalari esa davlatlar va nohukumat tashkilotlari o'rtasidagi ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalar asosida hal qilinadi. Xalqaro va ilmiy-texnik hamkorlik doirasida ilmiy ma'lumotlar, san'at asarlari, musiqa va sahna madaniyati yutuqlarini almashish, o'zaro mutaxassislar tayyorlash, fan va madaniyat masalalariga doir turli konferensiyalar va festivallar, olimlar, madaniyat arboblari va sportchilar o'rtasida bevosita aloqalar o'rnatiladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik er yuzida normal ekologik vaziyatni saqlash bo'yicha ko'pgina davlatlarning sa'y-harakatlarini birlashtiradi. Ushbu faoliyat keng qamrovli xususiyatga ega bo'lib, insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ekologik sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. U BMTning ixtisoslashgan muassasalari yo'nalishida hamda mintaqaviy va boshqa davlatlararo organlar doirasida faol amalga oshiriladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun davlatlarning tibbiyot, biologiya, kosmonavtika va elektronika sohalaridagi eng so'nggi yutuqlari qo'llaniladi. Davlatlarning tashqi faoliyati xalqaro huquqiy normalarga asoslanadi hamda jahon hamjamiyatiga kiruvchi barcha xalqlarning tub manfaatlarini va milliy xususiyatlarini hisobga oladi.

Mudofaa funksiyasi. Davlatning mamlakatni tashqi tazyiqlardan mudofaa qilish funksiyasi davlat faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Davlatning mudofaa funksiyasi iqtisodiy, siyosiy, diplomatik va harbiy usullar bilan amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon davlatlarining aksariyati mudofaa doktrinasini qabul qilgan bo'lib, uning mohiyati boshqa davlat yoki davlatlar guruhi tomonidan uyushtirilishi mumkin bo'lgan agressiyani bartaraf etish uchun maqbul darajada etarli bo'lgan kuch va vositalarni yaratishdan iborat. Harbiy qarshilik masalalariga bunday yondashuv xalqlar hayotida urushlar ro'y berishi ehtimolini jiddiy kamaytiradi va kelgusida ularning sekin-asta yo'qolib borishi istiqbolini nazarda tutadi. Mamlakat mudofaasi funksiyasi tushunchasi keng qamrovli va ko'p qirralidir. U mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, tinchlik davri va harbiy davrda qurolli kuchlarning jangovar qudratini saqlash bo'yicha davlat tadbirlarining butun tizimini o'z ichiga oladi.

Davlatning mudofaa faoliyati uning mudofaa doktrinasiga asoslanadi va quyidagi asosiy yo'nalishlardan tashkil topadi: mamlakatning mudofaa qudratini mustahkamlash, qurolli kuchlarni muntazam takomillashtirish, ularning jangovar qobiliyati va tayyorgarligi darajasini oshirib borish, davlat chegaralarini qo'riqlash, fuqarolar mudofaasini tashkil qilish, qurolli kuchlar zaxirasini harbiy tayyorlash va boshqalar.

Davlat funksiyalari amal qilish davomiyligi bo'yicha doimiy va muvaqqat (vaqtinchalik)ga bo'linadi.

Doimiy funksiyalar qatoriga davlat mavjudligining va rivojlanishining barcha bosqichlariga xos bo'lgan funksiyalar (masalan: iqtisodiy funksiya, soliq funksiyasi) kiritilsa, **muvaqqat funksiyalarga** esa davlat o'z oldiga qo'ygan muayyan maqsad va vazifalarni amalga oshirishi bilan o'z ahamiyatini

yo‘qotadigan funksiyalar kiritiladi (masalan, tabiiy yoki texnogen halokat va ularning oqibatlarini bartaraf etish va boshqalar).

Ijtimoiy ahamiyatiga ko‘ra davlat funksiyalari asosiy va asosiy bo‘lmagan funksiyalarga bo‘linadi.

Davlatning asosiy va asosiy bo‘lmagan funksiyalari o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, davlat taraqqiyotining muayyan bosqichida u yoki bu funksiyalar ijtimoiy ahamiyati yuzasidan ustuvor ahamiyat kasb etadi. Albatta, bunday tasniflash shartli ahamiyat kasb etadi. Muayyan davlatning har bir funksiyasi shu davlat uchun ob‘ektiv zaruratdir. Davlat faoliyatining barcha turlari teng darajada muhim, biroq bu fikr, turli bosqichlarda birinchi navbatda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olish imkoniyatini istisno qilmaydi. Mana shu ustuvor yo‘nalishlar davlatning asosiy faoliyat yo‘nalishlari, funksiyalariga aylanadi.

Amalga oshirishning huquqiy shakllari bo‘yicha davlat funksiyalarini quyidagicha tasniflash mumkin: huquq ijodkorligi; ijro etish; huquqni muhofaza qilish.

4.1. DAVLAT FUNKSIYALARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI

Davlat o‘z funksiyalarini amalga oshirishda muayyan shakl va usullardan foydalanadi. Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllarining huquqiy va huquqiy xarakterga ega bo‘lmagan turlari mavjud.

Davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy shakllari bo‘yicha quyidagilarga bo‘lish mumkin:

- huquq ijodkorligi;
- ijro etish;
- huquqni muhofaza qilish.

Huquq ijodkorligi bu normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va ularni qabul qilish bo‘lib, mazkur faoliyatsiz davlatning boshqa funksiyalarini amalga oshirib bo‘lmaydi.

Huquqni ijro etish funksiyasi normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan qoidalarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatdir. Bunda qonunchilikda belgilangan talablarni kundalik hayotda bajarishga va boshqaruv xarakteriga ega bo‘lgan turli xil masalalarni hal qilishga qaratilgan ishlar amalga oshiriladi.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatiga huquq-tartibotni saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha chora ko‘rish, yuridik ishlarni ko‘rib chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish kabilarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari, davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy bo‘lmagan shakllari ham mavjud.

Davlat funksiyalarini amalga oshirishning ushbu shakllariga quyidagilar kiradi:

1) tashkiliy-tartibga soluvchi – davlat organlarining hujjatlar loyihalarini tayyorlash, saylovlarni tashkil etish, rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat bilan bog‘liq faoliyat;

2) tashkiliy-xo‘jalik – kreditlash, ta‘minot, statistika, buxgalterlik hisobi bilan bog‘liq bo‘lgan tezkor-texnik va xo‘jalik ishlari;

3) tashkiliy-mafkuraviy – yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni tushuntirish, ijtimoiy fikrni shakllantirish, aholiga murojaat qilish kabi davlat organlarining turli funksiyalarini mafkuraviy jihatdan ta‘minlash bilan bog‘liq faoliyat.

Davlat funksiyalari muayyan usullarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Ushbu usullar sifatida ishontirish va majburlov, tavsiya va rag‘batlantirishlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin⁶.

Ishontirish sub’ektlarni ularning irodasiga mos ravishda tanlash erkinligini ta‘minlagan holda muayyan faoliyat yuritishga undashdir. Ishontirish sub’ektiv huquq, qonuniy manfaatlar, imtiyozlar va boshqa ijobiy yuridik vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Davlat asosiy usul sifatida, avvalo, ishontirish usulidan maksimal tarzda foydalanishi lozim. Ishontirish manfaatdorlikka, qonuniylikning isbotlanishiga va huquq normalariga mos keladigan ongli yurish-turishning maqsadga muvofiqliligiga asoslanadi.

Majburlash – kishilarni tanlov huquqini cheklagan holda kuch ishlatish orqali muayyan faoliyat yuritishga undashni nazarda tutadi. Majburlov to‘xtatib qo‘yish, jazolash, mahrum qilish kabi yuridik vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Rag‘batlantirish – kishilarni rag‘batlantirish tizimi orqali jamiyat va davlat manfaatdor bo‘lgan ijtimoiy foydali faoliyat yuritishga undashdir.

Tavsiya qilish – kishilarni jamiyat va davlat nuqtai nazaridan istalgan va ijobiy xatti-harakatni amalga oshirishga yo‘naltirishdir.

Yuqoridagilar bilan birga boshqa huquqiy adabiyotlarda davlat funksiyalarini amalga oshirishning iqtisodiy va ma‘muriy usullari haqida ham aytib o‘tiladi.

Iqtisodiy usullar sifatida davlat boshqaruvini amalga oshirishda quyidagi iqtisodiy vositalardan foydalanish nazarda tutiladi: muayyan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar uchun soliqlarni kamaytirish; iqtisodiyotning u yoki bu tarmog‘iga investitsiya kiritish va boshqalar.

Ma‘muriy usullar davlat organlarining qonuniy ko‘rsatmalarini bajarish majburiyati bilan bog‘liqdir. Bunday usullar qatoriga davlat rag‘batlantiruvchi va man etish usullarini kiritish mumkin. Davlat tomonidan rag‘batlantirishga, masalan, chet el investitsiyalarini rag‘batlantirish maqsadida chet el kapitali bilan faoliyat yuritadigan korxonalarni bir necha yilga soliqlardan ozod qilishni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Man etishga qaratilgan usulni qo‘llash orqali davlat u yoki bu faoliyat yuritishga o‘zining salbiy munosabatini bildiradi. Bunda davlat jamiyat manfaatlari uchun zararli va mos kelmaydigan faoliyat olib borilishiga to‘sqinlik qiladi.

4.5. DAVLAT FUNKSIYALARINING RIVOJLANISHI VA O‘ZGARISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR

⁶ Нажимов М.К. Давлат функциялари. –Т.: ТДЮУ, 2018.–Б.28.

Taraqqiyotning muayyan bosqichida turgan turli davlatlar bir xil funktsiya (masalan, ijtimoiy funktsiya)ga ega bo'lmaydi, ularni amalga oshirish mazmuni va usullari bir-biridan farq qiladi. Har bir bosqichga qat'iy belgilangan funktsiyalar mos keladi, deb o'ylash to'g'ri emas. Albatta, davlat taraqqiyoti davomida vaqti-vaqti bilan yangi funktsiyalar yuzaga keladi, lekin eskilari ham izziz yo'qolib ketmaydi. Faqat ularning ko'rinishi o'zgarishi, yangi mazmun bilan boyishi mumkin.

Davlatning funktsiyalari u mavjud bo'lgan butun tarixiy davr mobaynida doimiy ravishda xos bo'ladi. Agar hokimiyat tepasiga boshqa siyosiy kuchlar kelsa, u holda davlatning vazifalari va o'z o'zidan shunga mos ravishda uning funktsiyalari ham o'zgaradi. SHu bilan birga, ma'lum davrlarda ustuvor manfaatlarning o'zgarishi ham ro'y berishi mumkin. Bu, o'z navbatida, funktsiyalarning ham o'zgarishiga olib keladi. Bunda birinchi o'ringa birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan funktsiyalar chiqishi tabiiydir. Ijtimoiy va tabiiy borliqning turli sohalarida global o'zgarishlar ro'y berayotgan bugungi kunda ayrim funktsiyalarning ahamiyati yanada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga misol tarzida ekologik muvozanatni saqlash zarurati; turli xil kasalliklar (shu jumladan, OITS)ga qarshi kurash; alohida mamlakatlarning manfaatlari doirasiga sig'maydigan muammolarni hal qilishda xalqaro madaniy va ilmiy-texnik hamkorlik (koinotni o'zlashtirish, dunyo okeani resurslarini o'rganish va ulardan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, transport vositalarini rivojlantirish, milliy, etnik, diniy nizolarni hal etish va boshqalar)ni ko'rsatib o'tish joiz.

Nazorat uchun savollar

1. Davlat funktsiyalari bilan uning maqsad va vazifalari o'rtasida aloqadorlikni yoritib bering. Fikringizni misollar bilan asoslang.

2. Davlat funktsiyalarini amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy shakllarini tahlil eting hamda ularni o'zaro taqqoslang.

3. Davlat funktsiyalarini tasniflashga asos bo'luvchi mezonlarni muhokama qiling. Fikringizni misollar bilan asoslang.

4. Davlatning ichki funktsiyalari ichki vazifalarni echishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, davlatning jamiyatga ta'sirining faollik darajasini ko'rsatadi. Davlatning asosiy ichki funktsiyalarini muhokama eting.

5. Davlatning tashqi funktsiyalari davlatlararo miqyosdagi vazifalarni xal qilish bilan bog'liq. SHunga bog'liq holda davlatning asosiy tashqi funktsiyalarini muhokama eting.

MAVZU YUZASIDAN TEST SAVOLLARI

1) **Давлат функциясига тўғри таъриф берилган қаторни кўрсатинг?**

A) Бунда давлатнинг ҳуқуқ ижодкорлиги фаолияти билан шуғулланиши тушунилади

B) Бу давлат фаолиятининг бош йўналишлари бўлиб, у жамиятнинг вазифасидан келиб чиқади

C) жамият олдида турган мақсад ва вазифаларни амалга ошириш усуллари

- D) Давлат ҳокимиятини шакллантириш шакли ҳисобланади
- E) Бу сиёсий ҳокимиятни амалга оширишнинг мураккаб тури ҳисобланади

2) Давлатнинг ички ижтимоий функцияларига қуйидагилардан қайси бири кирмайди?

- A) ижтимоий ёрдамга муҳтож жамият аъзоларига ёрдам бериш функцияси
- B) молиявий назорат функцияси, маданий мерос ва барча бойликларни асраш функцияси
- C) фуқароларнинг ўз меҳнат ва ақлий имкониятларини амалга оширишлари, қилган меҳнатларига муносиб ҳақ олишлари учун тенг ижтимоий кафолатлар ва имкониятларни таъминлаш функцияси
- D) чет давлатлар билан дипломатик алоқаларни ўрнатиш функцияси
- E) таълим, соғлиқни сақлаш, маориф ва маданий муассасалар тизимини яратиш функцияси

3) Қуйидагилардан қайси бири давлатнинг ҳуқуқий-тартиботни амалга ошириш функциясига кирмайди?

- A) фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлайдиган қонунчиликни яратиш
- B) аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини шакллантириш
- C) ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари тизимини шакллантириш
- D) қонунлар ижросини таъминлаш ва улар устидан назорат ўрнатиш
- E) ижтимоий ёрдамга муҳтож бўлган фуқароларга ёрдам бериш функцияси

4) Қуйидагилардан қайси бири Ўзбекистон ташқи сиёсатининг асосий фаолият йўналишлари ҳисобланмайди?

- A) ҳалқаро ҳуқуқ нормаларининг миллий қонунлардан устунлигини тан олиши
- B) Ўзбекистоннинг ташқи сиёсати бошқа мамлакатларнинг ички ишларига аралашмаслик қоидалари асосида қурилади
- C) ҳалқаро майдонда тинчлик ва хавфсизликни мустаҳкамлаш учун можароларни тинч йўл билан ҳал этиш учун курашиш
- D) фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлайдиган қонунчиликни яратиш
- E) Ўзбекистон ташқи сиёсатининг асосий мақсади миллат ва давлат манфаатларини қатъий ҳимоя қилиш

5) Қуйидагилардан қайси бири қулдорлик давлатларининг ички функцияларига кирмайди?

- A) Давлатнинг хўжалик юритиш фаолияти, мамлакатнинг, уруғ ёки қабиланинг умумий манфаатларини назарда тутиб олиб бориш
- B) Қулдорлик давлатларида қуллар ва бошқа эзилган омма қаршилигини бостириш функцияси
- C) бошқа мамлакатлар аҳолисини босиб олиш, талаш, эзиш, солиқ йиғиш функцияси
- D) Ҳалқ оммасини ғоявий томондан давр руҳида тарбиялаш функцияси

Е) Кулдорлар мулки ва манфаатларини кўриқлаш функцияси

6) Давлатнинг ички функциялари қандай таснифланади?

- А) Сиёсий, ижтимоий, иқтисодий ва маънавий
- В) Ахлоқий, сиёсий, маънавий ва ижтимоий
- С) Фақат соғлиқни сақлаш ва ижтимоий
- Д) Маданий, ахлоқий, қиёсий ва жиноий
- Е) Тўғри жавоб берилмаган

7) Қуйидагилардан қайси бири кулдорлик давлатларининг ташқи функцияларига кирмайди?

- А) халқ оммасини мафкуравий томондан тарбиялаш функцияси
- В) ўз аҳолиси ва ҳудудларини ташқи душманлардан ҳимоя қилиш функцияси
- С) ўз ҳудудини бошқа мамлакатлар ҳисобига кенгайтириш функцияси
- Д) ишлаб чиқариш куруллари ва воситаларига бўлган феодал мулкчилигини устун даражада кўриқлаш функцияси
- Е) мамлакатни ташқи душманлардан мудофаа қилиш, кўшни давлатлар билан алоқалар олиб бориш функцияси

8) Давлатнинг ташқи функциясини белгиланг?

- А) бошқа давлатлар билан маданий тадбирларни амалга ошириш
- В) бошқа давлатлар билан ҳамдўстлик алоқаларини ўрнатиш
- С) мамлакат мудофаси ва бошқа давлатлар билан ҳамдўстлик алоқаларини ўрнатиш
- Д) барча жавоблар тўғри
- Е) мамлакат мудофаси ва хавфсизлиги

9) Давлат функцияси давомийлигига қараб қандай турларга бўлинади?

- А) ички ва ташқи
- В) доимий ва вақтинча
- С) қисқа ва узун
- Д) умрбод ва маълум бир муддатга
- Е) фавқулодда ҳолатларга қарши курашиш ва эпидемияни олдини олиш

10) Қуйидаги функциялардан қайси бири ташқи функцияга кирмайди?

- А) Ташқи иқтисодий ва сиёсий
- В) Мудофаа ва хавфсизлик
- С) Ҳуқуқ ижодкорлиги ва ҳуқуқни татбиқ қилиш
- Д) Ташқи сиёсий ва ташқи ижтимоий
- Е) Барча жавоблар тўғри

5-MAVZU. DAVLAT SHAKLLARI

Mavzuning asosiy yo'nalishlari:

1. Davlat shakli tushunchasi va uning tarkibiy elementlari.
2. Davlat shakllarining rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Davlatning boshqaruv shakllari: respublika va monarxiya.
4. Davlatning tuzilish shakllari: unitar, federativ va konfederativ.
5. Siyosiy rejim tushunchasi va turlari.
6. O'zbekiston Respublikasi davlat shaklining o'ziga xos xususiyatlari.

5.1. DAVLAT SHAKLI TUSHUNCHASI

Davlat shakli davlatning mohiyati bilan bevosita bog'liqdir. Chunki davlat shakli tushunchasini o'rganish orqali davlat hokimiyati qanday uyushtirilganligi, uning qaysi idoralar orqali amalga oshirilishi, ushbu idoralarning tashkil etilish tartibi, tuzilishi, o'zaro munosabatlari, markaziy organlar bilan ma'muriy-hududiy birliklardagi mahalliy davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabat, davlat hokimiyatining amalga oshirish usullari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

5.2. DAVLAT SHAKLLARINING RIVOJLANISHI VA O'ZGARISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Давлат шакли – бу ўз ичига давлат бошқаруви, давлат тузилиши ва сиёсий (давлат) режимни қамраб олувчи сиёсий ҳокимиятни ташкил этиш усуллари йиғиндисидир.

Davlat shakllarining rivojlanishi va o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy, ma'rifiy-madaniy muhit;
- tarixiy, milliy va diniy an'analar, urf-odatlar;
- tabiiy, geografik va iqlimiy shart-sharoitlar;
- siyosiy kuchlarning o'zaro nisbati;
- jamiyatni g'oyaviylashtirish va siyosiylashtirish darajasi.

Давлат бошқарув шакли – бу давлат ҳокимиятининг олий органларини ташкил этиш ҳамда ушбу органларнинг ўзаро ва аҳоли билан бўлган муносабатларини белгиловчи давлат шаклининг таркибий қисми. Шунингдек, муайян мамлакатда давлат бошлиғи (монарх ёки президент)нинг ҳуқуқий мақоми билан боғлиқ масалалар ҳам давлат бошқарув шаклининг мазмуни таркибига киради.

5.3. DAVLATNING BOSHQARUV SHAKLI

Monarxiya (lotincha monos – yakka, arxe – hokimiyat ma'nosini anglatadi) – bunda, qoida tariqasida, oliy davlat hokimiyati yakka shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Odatda hokimiyat meros orqali o'tadi.

Monarxiyaning belgilari:

- monarx hokimiyati muqaddas (teokratik monarxiyalarda) va daxlsiz deb e'lon qilinadi;
- hokimiyatni o'rnatish va qabul qilishning alohida tartibi mavjud, qoida tariqasida, hokimiyat meros orqali o'tadi;

- o‘z hokimiyatidan umrbod foydalanadigan davlat boshlig‘ining (podsho, qirol, imperator, shoh, xon, knyaz, gersog va boshqalar) mavjudligi;
- monarxning o‘z boshqaruv faoliyati natijasi yuzasidan yuridik javobgar emasligi;
- ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishda bevosita o‘z nomidan ish ko‘rishi va boshqalar.

Monarxiya boshqaruvining ko‘rinishlari: mutlaq (absolyut), cheklangan, dualistik (aralash), teokratik.

1. Mutlaq (absolyut) monarxiya. Bunda, davlat suverenitetining birdan-bir egasi monarx bo‘lib, u o‘z qo‘lida butun hokimiyat (qonunchilik, ijro va sud)ni to‘plagan bo‘ladi va uning hokimiyati aholi yoki birorta organ tomonidan cheklanmagan bo‘ladi (bugungi kunda Baxrayn, Bruney, Qatar va boshqalarda mavjud).

2. Cheklangan monarxiya (parlamentar, konstitutsion). Bunda monarx hokimiyati vakillik organi tomonidan muayyan darajada cheklangan va monarxning huquqiy maqomi konstitutsiya bilan chegaralab qo‘yilgan bo‘ladi. Uning quyidagi turlari mavjud:

Parlamentar monarxiya mamlakatlari (hozirgi Buyuk Britaniya)da qirol davlat boshlig‘i vazifasini o‘tasada, amalda mamlakatni to‘la ma’noda boshqara olmaydi. Parlamentar monarxiyaning quyidagi belgilari mavjud: a) monarx hokimiyati deyarli barcha sohalar bo‘yicha cheklangan bo‘ladi; b) ijro hokimiyati hukumat tomonidan amalga oshiriladi, hukumat o‘z navbatida konstitutsiyaga ko‘ra monarx oldida emas, balki parlament oldida javobgar bo‘ladi; v) hukumat parlamentga bo‘lgan saylovlarda g‘olib chiqqan partiyalar vakillari orasidan shakllantiriladi; g) hukumat boshlig‘i lavozimiga parlamentda ko‘pchilik deputatlik o‘rniga ega bo‘lgan partiya rahbari tayinlanadi; d) qonunlarni parlament qabul qiladi, monarxning qonunlarni imzolashi esa asosan formal xarakterga ega bo‘ladi.

Konstitutsiyaviy monarxiya davlat boshqaruvining shunday shakli, bunda monarxning hokimiyati konstitutsiya bo‘yicha vakillik organi tomonidan chegaralangan bo‘ladi. Konstitutsiyaviy monarxiya o‘rta asrlarda Evropada ro‘y bergan burjua inqiloblari natijasida yuzaga kelgan. Hozirgi kunda Daniya, Belgiya, Ispaniya, Norvegiya, SHvetsiya, YAponiya kabi mamlakatlarda davlat boshqaruvi konstitutsiyaviy monarxiya shaklida tashkil etilgan. Davlat boshqaruvining bunday shaklida demokratik siyosiy rejim mavjud bo‘lishi mumkin.

3. Dualistik (aralash) monarxiya. Dualistik monarxiyada davlat hokimiyatini tashkil etish ikki tomonlama xarakterga ega, ya’ni monarx ijro hokimiyatiga boshchilik qiladi, o‘zi oldida javobgar bo‘lgan hukumatni shakllantiradi, qonunchilik hokimiyati esa parlamentga tegishli bo‘ladi (Iordaniya, Marokash, Malayziya kabi davlatlarda mavjud). SHu bilan birga, monarx parlament tomonidan qabul qilingan qonunlarga mutlaq veto qo‘yish huquqiga ega.

4. Teokratik monarxiya. Bunday boshqaruv shakli mavjud bo‘lgan davlatlarda monarx ham dunyoviy, ham diniy hokimiyatga ega bo‘ladi (Vatikan, Saudiya Arabistoni).

Respublika – davlat boshqaruvining shunday shakli, bunda davlat hokimiyati aholi tomonidan muayyan muddatga saylab qo‘yiladigan organlar va davlat boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqaruvning respublika shakliga xos bo‘lgan quyidagi belgilar mavjud:

– davlat boshlig‘i va boshqa oliy hokimiyat organlarining muayyan muddatga saylab qo‘yilishi;

– davlat boshlig‘i va boshqa saylab qo‘yiladigan organlarning saylovchilar oldida mas‘ulligi hamda ularning muayyan muddatga saylanishi va tayinlanishi;

– davlat boshlig‘ining qonunda belgilab qo‘yilgan holatlarda yuridik jihatdan javobgarligi;

– davlat hokimiyatini davlat boshlig‘i nomidan emas, balki xalq nomidan amalga oshirilishi;

– fuqarolar huquq va erkinliklarining davlat tomonidan himoya qilinishi, davlat va shaxs o‘rtasida o‘zaro mas‘ullikning mavjudligi va boshqalar.

Respublikaning quyidagi tarixiy shakllari mavjud bo‘lgan: Afina demokratik respublikasi (er. av. V–IV asrlarda Afina); Rim aristokratik respublikasi (er. av. V–II asrlarda Rim); Sparta aristokratik respublikasi (er. av. V–IV asrlarda Sparta); o‘rta asr shahar (feodal) respublikalari (Venetsiya, Novgorod, Pskov, Florensiya, Genuya, Ganza va boshqa erkin shaharlar).

Sotsialistik respublikalar. Parij kommunasi (1871); Sovetlar respublikasi (1917–1991 yillarda sobiq Sovet Ittifoqi); Xalq demokratik respublikalari (XXR, VSR, Kuba).

Hozirgi kunda respublika shaklining asosan quyidagi turlari ajratib ko‘rsatiladi: parlamentar respublika, prezidentlik respublikasi, aralash (dualistik) respublika.

Parlamentar respublika. Hozirgi zamon davlat boshqaruvining bir turi bo‘lib, bunday respublikada hukumat parlamentga o‘tkazilgan saylovlarda ko‘pchilik o‘rin olgan partiyalarga tegishli deputatlar tomonidan shakllantiriladi (Italiya, Isroil, Germaniya va boshqalar). Bundan tashqari, davlat boshlig‘i – prezident odatda parlament a‘zolari yoki maxsus kengash tomonidan saylanadi. Hukumat parlament oldida javobgar bo‘lib, uning faoliyat muddati parlamentga bo‘lgan saylovlargacha amalda bo‘ladi.

Prezidentlik respublikasi. Bunda prezident, qoida tariqasida, davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanadi. Prezident hukumatni shakllantiradi va hukumat uning oldida javobgar bo‘ladi (AQSH, Rossiya, Braziliya, Argentina, Meksika va boshqalar). Prezident umumxalq saylovlari asosida o‘z lavozimiga saylanadi.

Aralash respublika. Bunday boshqaruv shaklida davlat boshlig‘i – prezident xalq tomonidan saylanadi. U hukumat boshlig‘ini tayinlashda rasman ishtirok etadi, lekin hukumat boshlig‘i va a‘zolari parlamentdagi ko‘pchilik tomonidan shakllantiriladi (Fransiya, Finlyandiya). Boshqaruvning bunday shaklida prezident konstitutsiya asosida ijro hokimiyati va hukumat o‘rtasida hal qilib bo‘lmaydigan ziddiyatlar kelib chiqqan holatda parlamentni tarqatib yuborish vakolatiga ega bo‘ladi.

5.4. DAVLATNING TUZILISH SHAKLI

Давлатнинг тuzилиш шакли – бу давлатнинг сиёсий ва маъмурий-ҳудудий тuzилиши бўлиб, марказий ва маҳаллий органлар ўртасидаги ўзаро алоқаларни тавсифлайдиган давлат шаклининг таркибий қисмидир.

Davlatning tuzilish shakliga ko‘ra: oddiy (unitar) va murakkab (federativ va konfederativ) ko‘rinishlari mavjud.

Unitar tuzilishdagi davlat yagona bo‘lib, u tarkibiy qismlari suverenitet belgilariga ega bo‘lmagan ma‘muriy-hududiy birliklardan iborat bo‘ladi.

Unitar davlatga xos belgilar:

– qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyati organlari yagona tizimining mavjudligi;

–yagona konstitutsiya, qonunchilik, soliq, moliya tizimlarining mavjudligi;

–yagona fuqarolikning joriy etilganligi;

–barcha tashqi munosabatlar markaziy organlar tomonidan amalga oshirilishi.

Federativ tuzilishga ega bo‘lgan davlat – bu mustaqil bo‘lgan bir necha davlat tuzilmalarining ixtiyoriy asosda birlashgan yagona ittifoqi. Federativ davlatning **milliy, hududiy** (AQSH, Meksika, Hindiston) va **milliy-hududiy** (Rossiya Federatsiyasi) shakllari mavjud.

Federativ davlatning umumiy belgilari:

• federatsiya hududi uning alohida sub‘ektlari (shtatlar, kantonlar, respublikalar, o‘lkalar va boshqalar) hududlaridan tashkil topgan bo‘ladi;

• davlat hokimiyati organlari – oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati federatsiya va sub‘ektlar miqyosida ikki pog‘onali bo‘ladi;

• federatsiya va uning sub‘ektlari vakolatlari konstitutsiyasida, ittifoq shartnomasi yoki o‘zaro vakolatlarni chegaralash to‘g‘risidagi ikki tomonlama shartnomalarda belgilab qo‘yilgan bo‘ladi;

• federatsiya sub‘ektlari o‘zlarining konstitutsiyalari va qonunchilik tizimiga, oliy qonunchilik, ijro, sud hokimiyatlari tizimiga ega bo‘ladi;

• federativ davlatda ittifoq fuqaroligi bilan bir qatorda sub‘ektlarning ham fuqaroligi bo‘lishi mumkin;

• federativ davlat parlamenti asosan ikki palatali bo‘lib, yuqori palata asosan federatsiya sub‘ektlarining manfaatlarini ifodalaydi, himoya qiladi;

• tashqi siyosat, qurolli kuchlarga yagona qo‘mondonlik, mudofaa, moliya, soliq tizimlariga rahbarlikni asosan federal davlat organlari amalga oshiradi.

Konfederatsiya – bu siyosiy, harbiy, iqtisodiy va boshqa sohalarda muayyan maqsadlarga erishish uchun tashkil qilinadigan davlatlarning muvaqqat ittifoqi.

Konfederatsiyaning belgilari:

• konfederatsiya suverenitetga ega bo‘lmaydi, chunki ushbu tuzilma to‘la ichki va tashqi suverenitetga ega bo‘lgan mustaqil davlatlarning ittifoqidir;

- konfederatsiyada markaziy davlat apparati va yagona qonunchilik tizimi mavjud bo‘lmaydi;
- konfederatsiya doirasida muayyan muammolarni hal qilish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida ittifoq organlari tashkil etilishi mumkin;
- konfederatsiyaga birlashgan davlatlarning o‘z fuqaroligi saqlanib qolinadi, lekin bu davlatlarning fuqarolari konfederatsiya hududida erkin harakatlanish (viza va boshqa rasmiyatchiliklarsiz) huquqiga ega bo‘ladilar;
- konfederatsiyada yagona soliq tizimi, byudjet va armiya mavjud bo‘lmaydi, lekin konfederatsiya sub’ektlari muayyan muddatga yagona pul tizimi, bojxona qoidalari, davlatlararo kredit siyosati, konfederatsiya maqsadlari uchun byudjet tizimini tashkil qilishlari mumkin;
- konfederativ davlatlar uzoq muddatga saqlanib qolmaydi, bunda ular keyinchalik federatsiyaga aylanishi yoki umuman tarqalib ketishi mumkin.

5.5. SIYOSIY REJIM

Сиёсий (давлат) режим(и) – бу сиёсий (давлат) ҳокимиятни амалга оширишда қўлланиладиган усул, услуб ва воситалар йиғиндиси. Сиёсий режим давлат ҳокимиятининг аҳоли билан ўзаро муносабатлари қандай усуллар ёрдамида амалга оширилади, ижтимоий қатламларнинг сиёсий соҳадаги ҳақиқий нисбати қандай намоён бўлади, турли жамоат ташкилотларининг сиёсий мақоми қандай, давлат органлари ўз ҳудудларида яшовчи аҳолини бошқариш бўйича амалда қандай роль ўйнайди деган саволларга жавоб беради.

Davlat va huquq nazariyasi davlatchilikning ko‘p asrlik tarixida ma‘lum bo‘lgan siyosiy rejimlarning bir qator turlarini ajratib ko‘rsatadi. Barcha siyosiy rejimlar birinchi navbatda ikki xil ko‘rinishdagi, ya‘ni **demokratik va nodemokratik** turlarga bo‘linadi.

Demokratik rejim. Davlat hokimiyatini amalga oshirishning mazkur turiga quyidagi belgilar xos:

- iqtisodiy faoliyat sohasida shaxsning erkinligi;
- davlat hokimiyati faoliyatiga xalq tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qilishning samarali mexanizmlarining mavjudligi;
- jamiyat hayotiga oid bo‘lgan eng muhim masalalar yuzasidan qarorlarning ko‘pchilik tomonidan ozchilikning manfaatlari maksimal darajada e‘tiborga olingan holda qabul qilinishi;
- shaxsiy huquq va erkinliklarning kafolatlanganligi;
- shaxsning qonunsizlik va hokimiyatning har xil suiiste‘mol qilishliklaridan himoyalanganligi;
- oshkoralik, ommaviy axborot vositalarining erkinligi va senzurdan xoli ekanligi;
- barcha davlat organlari faoliyatining qonuniylik tamoyiliga asoslanishi;
- hokimiyat vakolatlarining taqsimlanganligi va boshqalar.

Demokratik rejimning quyidagi turlari mavjud: sotsial-demokratik (tenglik, davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan shaxslarga nisbatan kuchli ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi va boshqalar); liberal-demokratik (erkinlik, birodarlik, tenglik kabi umuminsoniy qadriyatlarning ta'minlanishi bilan birga davlatning iqtisodiyotga ta'siri minimal darajada bo'lishi va boshqalar).

Nodemokratik siyosiy rejim. Davlat hokimiyatini amalga oshirishning mazkur turiga quyidagi belgilar xos:

- ijtimoiy hayotning barcha sohalari ustidan davlatning to'la nazorati o'rnatilganligi;
- fuqarolar huquq va erkinliklarining amalga tatbiq etilmasligi va etarli darajada kafolatlanmaganligi;
- yagona partiya diktaturasining o'rnatilganligi;
- hokimiyatning qat'iy markazlashganligi va davlat boshlig'i shaxsining haddan tashqari ulug'lanishi;
- jamoat tashkilotlari faoliyatining davlat tomonidan qat'iy nazorat ostiga olinishi;
- fuqarolar va ijtimoiy-siyosiy kuchlarning rasmiy mafkuraga mos kelmaydigan diniy, siyosiy va boshqa qarashlar uchun ta'qib ostiga olinishi;
- ommaviy axborot vositalari ustidan to'la nazoratning o'rnatilishi, senzuraning mavjudligi va boshqalar.

Nodemokratik rejimning totalitar, fashistik va avtokratik kabi turlari mavjud. Avtokratik rejimga jamoa avtokratiyasi va yagona shaxs avtokratiyasi kiradi. Jamoa avtokratiyasi, o'z navbatida, aristokratiya va oligarxiya deb nom olgan boshqaruv shakllariga bo'linadi. Yagona shaxs avtokratiyasi despotiya, mustabidlik, shaxsiy hokimiyat shakllariga ega. Yuqoridagilar bilan birga tegishli adabiyotlarda nodemokratik rejimning harbiy xunta va irqchilik shakllari ham ko'rsatib o'tiladi.

5.6. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SHAKLINING

O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi shakli bo'yicha unitar respublikadir. Shu bilan birga, O'zbekiston davlat tuzilishda federalizmning ayrim xususiyatlari ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy jihatdan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullardan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishining quyidagi xususiyatlari mavjud:

- O'zbekiston Respublikasi hududiy tuzilishi yaxlit birlikni tashkil qiladi;
- O'zbekistonda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi;

- davlat hokimiyati organlari tizimi O‘zbekiston hududida yagonadir;
- O‘zbekistonda tashqi siyosatni O‘zbekiston xalqining manfaatini ko‘zlab va uning nomidan faqat u saylab qo‘ygan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti amalga oshiradi;
- O‘zbekistonda moliya, soliq, bojxona tuzilishi va qurolli kuchlari, milliy xavfsizlik va ichki ishlar organlari markazlashtirilgan holda tashkil etilgan;
- O‘zbekiston hududida yagona fuqarolik joriy qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining boshqaruv shakli. O‘zbekistonning respublika shaklidagi davlat ekanligi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o‘zining teran ifodasini topgan. Jumladan, Konstitutsiyaning 1-moddasida O‘zbekiston – suveren demokratik respublika ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanishi, O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, u qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirishi hamda ikki palatadan, ya’ni Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iboratligi mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘i hisoblanib, u davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi – O‘zbekiston Respublikasining Hukumati ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi. Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organ va tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasining siyosiy rejimi demokratik taraqqiyotning strategik yo‘nalishlarini, insonning siyosiy huquqlarini xalqaro andozalar miqyosida belgilab beradi, xalqaro huquq ustunligini, hokimiyatlar taqsimlanishini, davlatning asosiy organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish idoralarining saylanishini, ko‘ppartiyaviylikni, mafkuraviy plyuralizmni o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasining siyosiy rejimi demokratik siyosiy rejim bo‘lib, unga quyidagi belgilar xosdir: demokratizm; respublika boshqaruv shaklining mavjudligi; hokimiyat vakolatlarining taqsimlanganligi; siyosiy va mafkuraviy sohada fikrlar xilma-xilligi; o‘zini o‘zi boshqarishning samarali tizimlari mavjudligi; davlat siyosatining ijtimoiy yo‘naltirilganligi; fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanganligi va boshqalar.

YUqoridagilar asosida O‘zbekiston Respublikasi boshqaruv shakli bo‘yicha respublika, tuzilish shakli bo‘yicha unitar, siyosiy rejimiga ko‘ra demokratik davlat ekanligini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Davlat boshqaruv shakliga ko‘ra monarxiya va respublikaga bo‘linadi. Ularning farqli va o‘xshash jihatlarini muhokama qiling.

2. Davlat tuzilish shakli bo‘lgan unitar davlat, uning turlari va boshqa davlat tuzilishi shakllaridan farqli xususiyatlarini tushuntirib bering.

3. Federatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsating va davlat tuzilish shaklini tavsiflang.

4. Davlat tuzilishi shakli sifatida konfederatsiyani tavsiflang va uning belgilarini ko‘rsating.

5. Demokratik siyosiy rejim turlarini ko‘rsating va ularning alohida o‘ziga xos jihatlarini yoritib.

MAVZU YUZASIDAN TEST SAVOLLARI

1) Монархиянинг қайси турлари мавжуд эмас?

- A) авторитар монархия ва тоталитар монархия
- B) конституциявий ва парламентар
- C) чекланган ва чекланмаган
- D) барча жавоблар тўғри
- E) дуалистик ва табақа вакиллик монархияси

2) Давлат бошқарув шакли сифатида республиканинг турлари ...

- A) халқ республикаси ва президентлик республикаси
- B) парламентар ва авторитар республика
- C) парламентар республика ва президентлик республикаси
- D) демократик республика ва авторитар республика
- E) парламентар республика ва демократик республика

3) Конфедерациянинг таърифини аниқланг?

- A) барча жавоблар тўғри
- B) давлатларнинг шартнома ва қонуний тартибга солинган бирлашувини таъсис этишга асосланган иттифоқига айтилади
- C) давлатларнинг муайян иттифоқи бўлиб, сиёсий, ҳарбий, иқтисодий мақсадлар учун шартнома ёки битим асосида тузилади
- D) бундай давлатда ягона қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимияти амал қилади
- E) давлатнинг ягона тизимдаги ҳокимият ва бошқариш органларига эга бўлишидир

4) Президентлик республикасида Президент ким томонидан сайланади?

- A) сиёсий партиялар ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари томонидан
- B) парламент томонидан яширин овоз бериш йўли орқали
- C) қасамёд этилган судьялар ҳайъати томонидан
- D) умумхалқ сайлови асосида
- E) ҳукумат томонидан тўғридан-тўғри

5) Парламентар республикада Президент ким томонидан сайланади?

- A) референдум
- B) барча жавоблар тўғри
- C) парламент
- D) ҳукумат
- E) суд ҳокимияти

6) Парламентар республикадаги ҳукумат қайси орган олдида ҳисобот беради?

- A) Бош прокурор олдида

- В) Олий суд олдида
- С) Президент олдида
- Д) Конституциявий суд олдида
- Е) Парламент олдида

7) Федератив давлатнинг таърифини аниқланг?

- А) барча жавоблар тўғри
- В) бу давлатнинг ягона конституцияга, фуқароликка, муайян ҳудудга ва ўз қонунчилигига эга бўлишидир
- С) бу давлатларнинг муайян иттифоқи бўлиб, сиёсий, ҳарбий, иқтисодий мақсадлар учун шартнома ёки битим асосида тузилади
- Б) бу шундай давлатга айтиладики, унда давлат ягона қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимияти амал қилади
- Е) давлатларнинг шартнома ва қонуний тартибга солинган бирлашувини таъсис этишга асосланган иттифоқидир

8) Қуйидагилардан қайси бири монархиянинг асосий белгисига кирмайди?

- А) барча жавоблар тўғри
- В) монарх ҳокимияти авлоддан авлодга мерос бўлиб ўтмайди
- С) монарх ташқи ва ички сиёсатда давлат номидан иш кўради
- Д) монарх халқ вакили, миллат отаси, яъни фуқароларнинг бошларини қовуштириб, давлатга бирлаштирадиган шахс сифатида фаолият юритади
- Е) монарх давлатни шахсийлаштиради

9) Республика бошқарув шаклининг асосий белгиларини кўрсатинг?

- А) ҳокимият органлари доимий муддатга давлат томонидан тайинланиш орқали ташкил қилинади
- В) ҳокимият фақат давлат манфаатлари учун хизмат қилиш учун сайлов орқали маълум бир муддатга ташкил қилинади
- С) ҳокимият халқнинг иродасига боғлиқ бўлмайди
- Д) ҳокимият аъзолари сайланади, ҳокимият сайловчиларга боғлиқ бўлади, ҳокимият маълум бир муддатга ташкил қилинади
- Е) ҳокимият аъзолари давлат томонидан тайинланиш орқали ташкил этилади

10) Демократиянинг қандай шакллари мавжуд?

- А) Вакиллик ва бевосита демократия
- В) Ижтимоий демократия ва сиёсий демократия
- С) Сиёсий демократия ва иқтисодий демократия
- Д) Вакиллик демократияси ва жамоавий демократия
- Е) Қонуний демократия ва бевосита демократия

6-MAVZU. DAVLAT MEXANIZMI

Mavzuning asosiy yo‘nalishlari:

1. Davlat mexanizmi va uning tarkibiy elementlari
2. Davlat organlarining turlari: markaziy va boshqaruv organlari; oliy va mahalliy vakillik organlari
3. Hokimiyatlar bo‘linishi – davlat hokimiyatini tashkil etishning huquqiy shakli sifatida

6.1. DAVLAT MEXANIZMI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI

Davlat hokimiyatini amalga oshirish mexanizmi murakkab va keng qamrovli kategoriya (bosh tushuncha) bo‘lib, u o‘z ichiga davlatga oid barcha tuzilmalarni oladi. Davlat mexanizmi tarkibiga nafaqat davlat hokimiyati va funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlari, balki, davlat korxonalari, muassasalari, davlatga oid boshqa turli tuzilmalar ham kiradi.

Давлат механизми бу – давлат ҳокимиятини, вазифа ва функцияларини амалга оширадиган давлат органлари, муассасалари, корхоналари, давлатга оид тузилмаларнинг яхлит иерархик (поғонавий жойлашган) тизимидир.

Davlat mexanizmining tarkibiy elementlari o‘rtasida o‘zaro ierarxik (pog‘onaviy) bo‘ysunish mavjud. Davlat mexanizmining muhim qismini davlat apparati tashkil etadi, davlat apparati tarkibiga faqat davlat-hokimiy vakolatga ega bo‘lgan davlat organlarigina kiradi. Masalan, O‘zbekistonning **davlat apparati** deganda, biz Prezidentlik institutini, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi (vazirliklar, davlat qo‘mitalari, qo‘mitalar, agentliklar, markazlar, inspeksiyalar va boshqa.), sud hokimiyati (Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud hamda ma‘muriy-hududiy bo‘linmalardagi quyi sudlar (jinoiy, fuqarolik, ma‘muriy, iqtisodiy va harbiy), prokuratura organlari va ularning tarkibiga kiradigan boshqa tuzilmalarni tushunamiz.

Davlat mexanizmi yaxlit bir tizim bo‘lib, u quyidagi xususiyatlarga ega:

Davlat mexanizmi bu davlat organlari va muassasalarining yaxlit ierarxik (pog‘onaviy) tizimidir. Davlat mexanizmining yaxlitligi uni tashkil etish va faoliyatining prinsiplari, faoliyatining maqsad va vazifalari mushtarakligi, umumiyliги orqali ta‘minlanadi;

Davlat mexanizmining birlamchi tarkibiy elementlari bo‘lib, davlat organlari va davlat muassasalari hisoblanadi va ularda maxsus ma‘lumotga ega bo‘lgan xodimlar – davlat xizmatchilari faoliyat yuritadilar. Davlat organlari o‘zaro bo‘ysunish munosabatlari bilan bog‘langandir;

Давлат аппарати бу – давлат механизмининг давлат-ҳуқуқий ваколатга эга бўлган ва муайян давлат функцияларини амалга оширувчи давлат органлари мажмуи.

Davlat mexanizmi orqali bevosita davlat hokimiyati amalga oshiriladi, davlatning vazifa va funksiyalarining bajarilishi ta‘minlanadi.

Ayni paytda, davlat apparati bilan davlat muassasalarini bir-biridan farqlash zarur. Davlat muassasalari, jumladan, ilmiy, ma‘rifiy, tibbiy va boshqa ijtimoiy-

madaniy muassasalar, shuningdek, xo‘jalik birlashmalari, kommunikatsiyalar tizimi, ommaviy axborot vositalari, transport, bevosita davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etishmasada, biroq davlatning o‘z oldida turgan vazifalari bajarilishiga har tomonlama yordam ko‘rsatadilar (masalan, ta‘lim, tibbiyot muassasalari va boshqa.).

Ta‘kidlash kerakki, davlat mexanizmi tarkibiga kiruvchi tuzilmalar har davrda har xil bo‘lishi tabiiy. Binobarin, davlat vujudga kelgan davrdan buyon davlat organlari va davlatga oid boshqa tuzilmalar mavjuddir. Ushbu tuzilmalar to hozirga qadar uzoq va murakkab tarixiy taraqqiyot davrini boshdan kechirgan. Dastlab davlat organlari tizimi oddiy, tuzilmaviy jihatdan uncha murakkab bo‘lmagan bo‘lsa, jamiyat rivojlanishi bilan davlat apparati ham mazmunan, ham shaklan o‘zgarib, takomillashib borib, hozirgi kunda u ko‘p tarmoqli bir tizimni tashkil etadi. Agar bir davlatning mexanizmini yirik bir tizim, deb oladigan bo‘lsak, u o‘z ichiga bir necha tizimlarni oladi. Masalan, O‘zbekistonning davlat mexanizmi yaxlit bir tizim bo‘lsa, uning tarkibiga kiruvchi tizim sifatida ijro etuvchi, sud yoki prokuratura organlari tizimini ko‘rsatish mumkin.

SHu tariqa, hozirgi zamon davlatlari mexanizmi xilma-xil organ va idoralardan iborat bo‘lib, ularda ko‘p sonli davlat xizmatchilari muayyan haq evaziga faoliyat ko‘rsatishadi.

Davlat mexanizmi bilan uning funksiyalari o‘rtasida o‘zaro uzviy bog‘liqlik mavjud. Ijtimoiy munosabatlarning shiddatli rivoji, yuksak texnologiyalar hozirgi zamon davlat oldiga yangi-yangi vazifalarini qo‘ymoqdaki, ushbu vazifalarning ijrosini ta‘minlash maqsadida tegishli davlat organlari tashkil etiladi. Masalan, mamlakatimizda davlat boshqaruvi, ijtimoiy hayotda innovatsiyalarni rivojlantirish ehtiyoji va zarurati ushbu vazifaning ijrosini tashkil etishga mas‘ul organning, ya‘ni Innovatsion rivojlanish vazirligining tashkil etilishiga olib keldi.

Har bir mamlakatning rivoji, aholi turmush farovonligi darajasi, davlatning oldida turgan vazifalarning amalga oshirilishi ko‘p jihatdan davlat organlari faoliyati samaradorligiga bog‘liq. Binobarin, har bir davlat organi bevosita davlatning ma‘lum bir funksiyasini amalga oshiradi, masalan, Sog‘liqni saqlash Vazirligi va uning tizimi O‘zbekistonda aholining sog‘lig‘ini saqlash, Ta‘lim sohasidagi vazirliklar esa mamlakatda aholining ta‘lim olish huquqini amalga oshirish borasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi. Demak, har bir davlat organining samarali ishlashidan davlatning jamiyatni boshqarish, uning bir maromda faoliyat olib borishini ta‘minlash vazifasi bog‘liq bo‘lib qoladi. SHunday qilib, davlatning vazifa va funksiyalari uning mexanizmi vositasi amalga oshadi/

6.2. DAVLAT ORGANLARINING TURLARI: MARKAZIY VA BOSHQARUV ORGANLARI; OLIY VA MAHALLIY VAKILLIK ORGANLARI

Davlat organi bu davlat mexanizmining bir bo‘g‘ini bo‘lib, u muayyan xususiyatlarga ega.

Давлат органи – бу давлатнинг вазифа ва функцияларини амалга оширадиган давлат аппаратининг таркибий бўғинидир.

Davlat apparatining tarkibiy bo'g'ini bo'lgan davlat organi davlat – hokimiy vakolatlarga egadir, ya'ni amaldagi qonunchilikda mustahkamlangan davlat hokimiyatini amalga oshirish, davlat nomidan yuridik ahamiyatga molik qarorlar qabul qilish va bu qarorlarning bajarilishini ta'minlash imkoniyatiga ega. Davlat organini jamiyatdagi boshqa tashkilot va tuzilmalardan asosiy farq qiluvchi jihati bo'lib, uning davlat – hokimiy xarakterdagi vakolatlarga ega ekanligi hisoblanadi.

Davlat – hokimiy vakolatning mazmuni quyidagilarda ifodalanadi:

davlat organining tashkil etilishi va faoliyati tartibi, uning ichki tuzilmasi, huquq va majburiyatlar yig'indisi, ya'ni kompetensiyasi huquq normalari orqali mustahkamlangan;

davlat organi umumiy qoidalarni va individual ko'rsatmalarni ifodalaydigan yuridik aktlar chiqarish huquqiga ega;

yuridik aktlar orqali o'rnatilgan qoidalar, asosan, ishontirish, tarbiyalash, rag'batlantirish choralari orqali ta'minlanadi, va ular ayni paytda davlatning majburluv kuchini qo'llash imkoniyatini buzishdan qo'riqlanadi;

davlat organi o'zi chiqargan qarorlarning bajarilishini ta'minlash uchun davlat byudjetidan ma'lum hajmda moliyalashtiriladi. Demak, davlat organining eng muhim belgisi – bu uning davlat-hokimiy vakolatga ega ekanligidir.

Davlat organi muayyan iqtisodiy, tashkiliy alohidalik va mustaqillik bilan tavsiflanadi. Demak, har bir organ uchun uning o'z oldiga qo'ygan vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan hajmda davlatning mablag'i ajratiladi va u bu mablag'dan qonunda belgilangan tartib va doirada foydalanadi.

Har bir davlat organi o'z kompetensiyasiga muvofiq tarzda yuklatilgan funktsiya va vazifalarni ado etadi, shu tariqa bevosita davlatning ham vazifa va funksiyalari amalga oshiriladi. Chunki, davlat o'z organlari orqali vazifalarini amalga oshiradi. Masalan, Mudofaa vazirligi o'zining oldida turgan vazifalarini to'la ado eta borsa, demakki davlatning mudofaa funksiyasi ham samarali amalga oshishi ta'minlanadi.

Davlat organining jismoniy ifodasi bo'lib, unda ishlaydigan insonlar hisoblanadi. Davlat organi alohida shaxsdan, bir guruh odamlardan yoki jamoadan iborat bo'lishi mumkin. Biroq davlat organida ishlaydigan odamlar oddiy xodimlar bo'lmay, balki davlat xizmatchilaridir. Davlat xizmatchilari – bu ushbu davlatning fuqarolari bo'lgan, tegishli qonunda belgilangan tartibga muvofiq, belgilangan haq evaziga davlat xizmati majburiyatini bajarayotgan shaxslardir.

Shunday qilib, **davlat organi bu** – davlat mexanizmining yuridik jihatdan rasmiylashgan, davlat - huquqiy vakolatlarga ega bo'lgan va davlat xizmatchilaridan tashkil topgan, davlatning muayyan vazifa va funksiyalarini o'z vakolati doirasida amalga oshirish uchun tegishli vositalarga ega bo'lgan hamda tashkiliy va xo'jalik jihatidan alohida bo'lgan qismidir.

Davlat organlari, davlat faoliyatining ko'p qirraligiga bog'liq xolda turlicha va ko'p sonli bo'lib shakllangan. SHu bois ham, davlat organlari turlicha asos va mezonlar bo'yicha turli guruhlarga ajraladi.

Davlat organlari **tashkil etilish tartibiga qarab**, birlamchi va hosila, ya'ni ikkilamchi organlarga ajraladi.

Birlamchi davlat organlari deb shunday davlat organlariga aytiladiki, ular boshqa bironta organ tomonidan tashkil etilmaydi, ular yo meros qoldirish tartibi bo'yicha yoki belgilangan tartibga ko'ra saylab qo'yiladi va o'z vakolatlarini bevosita saylovchilardan olishadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi umumxalq saylovi natijasida saylab qo'yiladi yoki masalan, merosiy monarxiya. Hosila, ya'ni ikkilamchi turiga shunday organlar kiradiki, ular birlamchi organlar tomonidan shakllantiriladi. Ular sirasiga xukumat, vazirliklar va hokimliklarni kiritish mumkin.

Davlat organlari o'zlariga tegishli bo'lgan **hokimiy vakolatlar hajmiga va ushbu vakolatlar amal qiladigan hududga qarab**, markaziy va mahalliy organlarga bo'linadi. Davlatning markaziy organlari o'z faoliyatida bevosita davlat hokimiyatini ifoda etishadi va bunda hokimiyatini butun mamlakat miqyosida amalga oshiradi, mahalliy organlar esa tegishlicha ma'muriy hududiy bo'linmalarda tashkil etilib, o'z faoliyatlarini o'sha mahalliy hududga tarqatadi, xolos. Masalan, Viloyat sog'liqni saqlash Boshqarmasi faoliyati ushbu viloyat, tuman hokimiyati faoliyatini shu tuman hududiga tarqaladi.

Davlat organlari kompetensiyalarining kengligiga qarab,

- umumiy kompetensiyali davlat organlari,
- maxsus kompetensiyali davlat organlariga bo'linadi. Umumiy kompetensiyaga ega bo'lgan davlat organlari keng masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi, masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat va jamiyat hayotining barcha muhim masalalari bo'yicha qonunlar qabul qilish vakolatiga ega bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi – Hukumat esa qonunlar, Prezident Farmonlari va qarorlarining bajarilishini ta'minlash maqsadida barcha sohalarga oid normativ-huquqiy tusdagi qarorlar qabul qiladi.

Davlat organlarining maxsus kompetensiyaga ega bo'lgan qismi esa muayyan bir tarmoq, yoki muayyan bir masala yuzasidan, aniqrog'i davlatning ma'lum bir funksiyasini amalga oshirishga ixtisoslashadi: masalan, ta'lim, madaniyat, mehnat va ijtimoiy ta'minot, mudofaa vazirliklari davlatning tegishlicha, ma'rifiy, madaniy, ijtimoiy himoya, mudofaa funksiyalarini amalga oshirishga o'z faoliyatini qaratgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, viloyat tuman moliya boshqarmasi va shu kabilar.

Bundan tashqari davlat organlarini yana **saylab qo'yiladigan** va **tayinlanadigan** davlat organlariga ajratsa bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining saylab qo'yiladigan davlat organlari jumlasiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi – Parlamenti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman Kengashlarini kiritish mumkin.

Davlat organlarini hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga muvofiq, qonun chiqaruvchi davlat organlari, ijro etuvchi davlat organlari, sud hokimiyati organlariga ham ajratiladi.

Davlat organlarini harakati davomiyligiga qarab, doimiy va muvaqqat organlarga bo'lish mumkin. Davlatning asosiy organlari doimiy asosda amal qiladi, biroq ma'lum bir favqulodda holatlar ta'siri ostida (masalan, tabiiy ofatlar) muayyan muvaqqat organlar ham tashkil etilishi mumkin. Bundan tashqari, davlat

organlarini o'z oldida turgan masalalarni hal etish va rahbarning mas'uliyatligiga ko'ra, yakkaboshchilik va hay'at tartibidagilarga ajratiladi. Masalan, Vazirliklar masalalarni yakkabosh tarzda, Davlat qo'mitalari esa kollegial, ya'ni hay'at tarzida hal etadigan organlarga misol bo'ladi. Ayni paytda, davlat organlarini tarkibiga ko'ra ham jamoaviy va yakkaboshchilik asosida boshqariladigan davlat organlariga ham ajratish mumkin. Ko'pincha, davlat organlari jamoaviy tarkibda bo'lishadi, masalan Oliy Majlis (deputatalar va senatorlar), Vazirlar Mahkamasi (hukumat a'zolari), Oliy Sud (sud kollegiyalari) va boshqalar. Shu bilan birga, faqat bir shaxs orqaligina ifodalangan davlat organlari ham mavjud, masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori va boshqalar.

Shunday qilib, davlat organi bu davlat mexanizmining tarkibiy bir mustaqil bo'g'ini bo'lib, uning faoliyati orqali davlatning ma'lum bir funksiyasi amalga oshiriladi.

Har bir davlat organi qonunda belgilangan tartib va asoslarda, tegishli vakolatlar majmuasiga, ya'ni kompetensiyasiga ega, va shu kompetensiya doirasida u faoliyat olib boradi va davlat nomidan ish yurgizadi, o'ziga yuklatilgan funksiyalarni ado etadi.

6.3. HOKIMIYATLAR BO'LINISHI – DAVLAT HOKIMIYATINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY SHAKLI SIFATIDA

O'zbekistonda davlat hokimiyatini tashkil etish hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga asoslanadi. Bu prinsip O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zining konstitutsiyaviy ifodasini topgan bo'lib, unga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi", deb mustahkamlab qo'yilgan.

Hokimiyatlar bo'linishi o'z manbasiga ko'ra yaxlit va yagona bo'lgan davlat hokimiyatining uch tarmoqqa – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishini, har bir hokimiyat tarmog'i boshqalarga nisbatan mustaqil holda faoliyat yurgizishini taqozo etadi. Ayni paytda, hokimiyatlar bo'linishi, har bir hokimiyat tarmog'i boshqasining o'z vakolat doirasidan chiqmasligini, boshqa tarmoq vakolati doirasiga o'tib ketmasligini nazorat qilib turadi, shu tariqa, hokimiyatning suiiste'mol qilinishini oldi olinadi.

Hokimiyatlar bo'linishi chinakam bo'lishi uchun, unda "bir-birini tiyib turish va o'zaro muvozanatda ushlab turish" tizimi amal qilishi kerak. Bu tizim nafaqat hokimiyatlar bo'linishini, balki ularning bir-birini o'zaro tiyib turishini va bir-birining faoliyat doirasiga daxl qilmasligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida hokimiyatlar bo'linishi prinsipi shunda ko'rinadiki, mamlakatda qonun chiqaruvchi hokimiyat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi; ijro hokimiyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi; Sud hokimiyati – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi boshchilik qiladigan tegishli sudlar tizimi tomonidan amalga oshiriladi.

Hokimiyat tarmoqlarining o'zaro bir-birini tiyib turishiga Konstitutsiyaviy Sud tomonidan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining

Konstitutsiyaga mosligini tekshirish vakolatini ko'rsatish mumkin (konstitutsiyaviy nazorat). Sud hokimiyatining tizimiga kiradigan ushbu sud qonun chiqaruvchi hokimiyat hujjatlarining konstitutsiya asosida, uning doirasidan chiqmagan holda hujjatlar qabul qilinishini tekshiradi, va shu tariqa, bu hokimiyatni "tiyib" turadi.

Aytish joizki, umuman, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi, va uning haqiqiylikini ta'minlovchi "bir-birini tiyib turish va muvozanatda ushlash" mexanizmining real amal qilishi, olimlar ta'kidlaganidek, juda ko'p siyosiy, iqtisodiy, madaniy, tashkiliy omillarga bog'liq, biroq bir holat aniqki, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi demokratiyaning ajralmas bir jihati, uning huquqiy shaklidir, zero, qaerda haqiqiy demokratiya mavjud bo'lsa, o'sha joyda chinakam hokimiyatlar bo'linishi mavjud bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. Davlat mexanizmini uning elementlaridan kelib chiqqan holda yoriting.
2. Davlat organi nima? Davlat organlarini tasniflashga qanday mezonlar asos bo'ladi?
3. Davlat organi va davlat tashkilotlarining farqli jihatlarini ko'rsatgan holda, ularni atroflicha muhokama qiling.
4. O'zbekiston davlat mexanizmida ijro etuvchi hokimiyat organlarining tutgan o'rnini izohlang.
5. O'zbekistonda sud hokimiyati islohotlarining hozirgi bosqichi xususiyatlarini tavsiflang.

MAVZU YUZASIDAN TEST SAVOLLARI

1) Ҳокимиятнинг тақсимланиши нима?

- A) ҳокимиятнинг судлов, милиция ва ташқи ишлар вазирлиги функцияларига тақсимланиши
- B) ҳокимият ваколатларининг қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва судлов органларига тақсимланиши
- C) ҳокимиятнинг Вазирлар Маҳкамаси, прокуратура ва судлов органларига бўлиниши
- D) ҳокимиятни олий ва маҳаллий органларга тақсимланиши
- E) ҳокимиятни қонун чиқарувчи, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва суд органларига тақсимланиши

2) Ўзбекистонда ижроия ҳокимият органлари тизимига қайси органлар киради?

- A) Президент, судлар, вазирликлар
- B) Олий Мажлис, Конституциявий суд ва прокуратура
- C) Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ва нодавлат-нотижорат ташкилотлари
- D) Вазирлар Маҳкамаси, ҳокимликлар ва Қонунчилик палатаси Кенгаши
- E) Президент, Вазирлар Маҳкамаси, ҳокимликлар

3) Қуйида кўрсатиб ўтилган қайси бирлашмалар давлат механизмига киради?

- A) ички ишлар органлари, илмий муассасалар
- B) қонунчилик, ижроия, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари
- C) нодавлат ва нотижорат ташкилотлари
- D) сиёсий партиялар, қонунчилик органлари
- E) судлов органлари, жамоат бирлашмалари

4) Қуйидагилардан қайси бири Вазирлар Маҳкамасининг ваколатига киради?

- A) Давлат бошқарув идоралари тизимига ва ўзи ташкил этадиган хўжалик бошқаруви муассасаларига бошчилик қилиш
- B) Иқтисодиётнинг ижтимоий ва маънавий соҳаларнинг самарали фаолиятига раҳбарлик қилиш
- C) Инсон ва жамият фаровонлигини кўзлаб, ижтимоий адолат, коллегиялик, қонунийлик принципларига амал қилган ҳолда давлатни бошқариш
- D) Барча жавоблар тўғри
- E) Қонунларни, Президент фармонларини ижро этиш ва мамлакатни бошқариш

5) Қуйидагилардан қайси бири ички ишлар органлари вазифаларига кирмайди?

- A) жамоат тартиби ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш
- B) қонунларни бажарилишини назорат қилиш

- С) аҳолининг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтиришда тарғибот ва ташвиқот ишларини олиб бориш
- Д) жиноятчиликни олдини олиш ва унга қарши кураш
- Е) фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш

6) Қуйидагилардан қайси бири давлат аппарати фаолиятини ташкил этиш принципларига кирмайди?

- А) демократизм принципи
- В) назоратчилик принципи
- С) қонунийлик принципи
- Д) ошкоралик принципи
- Е) ҳокимиятни тақсимланиш принципи

7) Давлат ҳокимиятини қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятларига бўлиниши таълимотини яратган мутафаккир ким?

- А) Спиноза
- В) Т.Гоббс
- С) Спенсер
- Д) Ш.Монтескье
- Е) Конфуций

8) Ижроия давлат органлари бу...

- А) давлат бошқарувини амалга оширувчи ва қонунларни бажаришга йўналтирилган органлар мажмуаси
- В) олий вакиллик органлари ва маҳаллий ҳокимият органларининг йиғиндиси
- С) қонунларни қабул қилувчи ва уларнинг бажарилишини назорат этувчи давлат органларининг йиғиндиси
- Д) одил судловни амалга оширувчи давлат муассасалари ва ташкилотларининг мураккаб тузилмаси
- Е) барча жавоблар тўғри

9) Давлат аппаратини асосий белгиларини аниқланг?

- А) Таъриқи-бошқарув фаолияти билан шуғулланадиган одамлар йиғиндиси
- В) Мақсади-фуқароларни ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш ва кафолатлаш
- С) Давлатнинг функцияларини бажаришда молиявий воситалар билан, зарур бўлганда мажбурият чоралари билан таъминланади
- Д) Бир-бирлари билан ўзаро алоқадорликда ва муносабатда бўлган идоралар ва муассасаларнинг мураккаб тизими
- Е) Барча жавоблар тўғри

10) Давлатнинг вазифа ва функцияларини амалга оширувчи давлат органлари тизими - бу...

- А) давлат аппарати
- В) ижро этувчи - фармойиш берувчи

- C) қонун чиқарувчи органлар
- D) ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар
- E) суд органлари

7-MAVZU. IJTIMOIY MUNOSABATLAR VA HUQUQ

Mavzuning asosiy yoʻnalishlari:

1. Ijtimoiy munosabatlar tushunchasi.
2. Ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solishning obʻektiv zaruriyati.
3. Ijtimoiy normalar tizimi: urf-odat, diniy, axloqiy normalar, jamoat tashkilotlari qoidalari va boshqa ijtimoiy normalar.
4. Ijtimoiy va huquq normalarning umumiy va oʻziga xos xususiyatlari.
5. Huquq-ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solishning turi sifatida.
6. Huquq prinsiplari.
7. Huquqning funksiyalari.
8. Huquqning mohiyati haqidagi nazariyalar.

7.1. IJTIMOIY MUNOSABATLAR TUSHUNCHASI

Maʼlumki, jamiyat – bu kishilar oʻrtasidagi oʻzaro harakatlarning mahsuli, ular hayotining maʼlum bir tashkiliyligi, mohiyati jihatidan kishilar va ularning guruhlari oʻrtasidagi turli xil (iqtisodiy, fuqarolik, oilaviy, maʼnaviy, mehnat, diniy va boshqa) munosabatlar va aloqalar yigʻindisidir.

Ijtimoiy munosabatlar – ijtimoiy subʻektlar oʻrtasidagi hayotiy neʼmatlarni taqsimlash, moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarni qondirish yuzasidan kelib chiqadigan aloqalardir.

Ижтимоий муносабатлар деганда жамиятда кишилар ўртасида юзага келадиган онгли, мақсадга йўналтирилган алоқалар тушунилади.

Ijtimoiy munosabatlarning quyidagi turlari mavjud: milliy, etnik, guruhiy, shaxsiy va boshqalar. Ijtimoiy munosabatlar faqat ijtimoiy subʻektlar, yaʼni shaxslar va ularning uyushmalari oʻrtasida yuzaga keladi. SHu jihatdan olganda, insonning oʻzi yaratgan sunʼiy obʻektlari va tabiat neʼmatlari (oʻsimlik va hayvonot dunyosi)dan foydalanishini ijtimoiy aloqalar sifatida tavsiflab boʻlmaydi.

Ijtimoiy munosabatlar kishilarning oʻzaro mavhum aloqalari emas. U moddiy va maʼnaviy madaniyatda oʻz ifodasini topgan kishilarning bir-biriga taʼsiri, muloqoti, qiziqish va ehtiyojlarining uygʻunlashuvi, fikr va eʼtiqodlarining qiyoslashuvi, faoliyat va tajriba almashuvi natijasidir. Muloqotda kishilarning ratsional, emotsional va erkin tarzda bir-biriga taʼsiri, kayfiyatlari va qarashlari shakllanadi, turmush va xulq-atvor tarzi, odatlar, qiliqlar oʻzlashtiriladi, ahillik, hamkorlik kabi guruhiy yoki ijtimoiy faoliyatini ifodalovchi xislatlar yuzaga keladi.

“Ijtimoiy munosabatlar”, “normativ tartibga solish”, “ijtimoiy normalar” kabi kategoriyalar davlat va huquq hodisalarini, xususan, huquqning funksiyalari va vazifalarini yanada teranroq anglashda muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyat a’zolari o’rtasidagi munosabatlar nafaqat huquq normalari bilan, balki boshqa ijtimoiy normalar bilan ham tartibga solinadi. Ayni paytda shaxslarning texnik ob’ektlardan, hayvonot va o’simlik dunyosidan foydalanishi bilan bog’liq masalalar sof ijtimoiy normalar bilan tartibga solinmaydi.

7.2. IJTIMOIIY MUNOSABATLARNI NORMATIV TARTIBGA SOLISHNING OB’EKTIV ZARURIYATI

Har qanday jamiyatda uning a’zolari munosabatlarini tartibga solish jamiyat mavjudligining zaruriy shartidir. Ijtimoiy hayotda tartibga solish – odamlar va ular jamoalari xatti-harakatlarini belgilash, ushbu xatti-harakatlarning doimiyligi va rivoji uchun zarur yo‘nalishlar berish, uni aniq maqsadni ko‘zlagan holda muayyan bir qolipga tushirish demakdir. Ijtimoiy tartibga solish ikki xil – normativ va individual ko‘rinishga ega.

Normativ tartibga solish umumiy xususiyatga ega bo‘lib, bunda norma (qoida)lar jamiyatning barcha a’zolariga yoxud uning muayyan qismiga tegishli bo‘ladi. Shu o‘rinda normativ tartibga solishning yuzaga kelishi – ijtimoiy tartibga solishning eng muhim burilish nuqtalaridan biri bo‘lib, uning taraqqiyotida yirik sifat o‘zgarishlarini, tub burilishlarini boshlab berganligini alohida ta’kidlash joiz.

Individual tartibga solish esa aniq sub’ektga taalluqli hisoblanadi, ya’ni tegishli tarzda harakat qilish uchun berilgan individual ko‘rsatmalardan iborat bo‘ladi. Bunda normativ tavsifga ega bo‘lgan normalar aniq vaziyatlarda ikki yoki undan ortiq shaxslar yohud ularning uyushmalari o‘rtasida yuzaga keladigan muayyan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘ladi.

Tartibga solishning har ikki turi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular o‘zaro bir-biriga ta’sir qiladi, bir-birining mavjudligini taqozo etadi.

7.3. IJTIMOIIY NORMALAR TIZIMI

Jamiyatda amal qiladigan barcha normalarni ikki katta guruh, ya’ni ijtimoiy va texnik normalarga bo‘lish mumkin. Mazkur bo‘linish normalarning tartibga solish predmetiga ko‘ra tasniflanadi. Agar norma kishilar xulq-atvori va ular o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan bo‘lsa uni ijtimoiy norma sifatida tavsiflash mumkin. Agar norma shaxsning tabiat va texnika vositalaridan foydalanishi bilan bog‘liq munosabatlarga doir bo‘lsa, unga texnik normalar sifatida qarash lozim. SHu jihatdan olganda, texnik normalar “inson va mashina”, “inson va mehnat quroli”, “inson va ishlab chiqarish” tipidagi, ya’ni inson bilan uni o‘rab turuvchi jonsiz predmetlarga oid munosabatlarni tartibga soladi deyish mumkin.

Ижтимоий норма – бу кишилар ҳамда уларнинг жамоалари ўртасидаги муайян муносабатни тартибга солувчи хулқ-атвор қондасидир.

Ijtimoiy normalar tizimi – bu jamiyatda kishilar xulq-atvorini, muayyan guruh va jamoalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar majmuidir.

Axloq normalari – adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, maqtoov va isnod, jamiyat tomonidan rag‘batlantiriladigan yoki qoralanadigan xatti-harakatlar, or-nomus, vijdon, burch, qadr-qimmat kabilar ko‘rinishida ijtimoiy hayot sharoitlarining bevosita ta’siri sifatida kishilar ongida shakllanadigan qarashlar, tasavvurlar va qoidalardir.

Siyosiy normalar – jamiyatni boshqarish jarayonida siyosiy hokimiyat sub’ektlarining o‘zaro va shaxslar bilan bo‘ladigan munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalar.

Ayni paytda jamiyatda yuz beradigan siyosiy tortishuvlarni hal etishda siyosiy normalar bilan birga huquq normalarining ham o‘rni va roli muhimdir. SHu bilan birga, bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari ta’siri ostida insonlarning fikrlari, qarashlari o‘zgarib bormoqda. Huquq ham siyosiy mazmun kasb etib qolmoqda. Biroq siyosiy va huquqiy normalar o‘rtasida muvozanat bo‘lishi zarur”⁷.

Diniy normalar – shaxslarning ibodatga, muayyan din hukmron mafkura bo‘lgan mamlakatlarda esa o‘zaro muomalasiga oid munosabatlarni ham tartibga solishga qaratilgan qoidalar.

Korporativ normalar – shaxslarning muayyan uyushmalari, guruhlari doirasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan xulq-atvor qoidalari. Xususan, jamoat tashkilotlari ichki vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish va o‘z faoliyatlarini samarali tashkil etish maqsadida korporativ normalarni ishlab chiqadi. Korporativ normalar muayyan bir jamoat tashkilotining rahbar organlarini shakllantirish va ularning faoliyat ko‘rsatish tartibi, vakolatlari, tashkilot a‘zolarining huquqlari, majburiyatlari va boshqalar to‘g‘risidagi normalar bo‘lib, ular faqat o‘sha tashkilot a‘zolariga nisbatan joriy etiladi va faqat ular uchun majburiy ahamiyat kasb etadi.

Urf-odat normalari – kishilar o‘rtasida ko‘p marta takrorlanganligi sababli odatga aylangan va shu tariqa avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan xulq-atvor qoidalari. Urf-odatlar muayyan ijtimoiy muhitda tarkib topib, avloddan-avlodga o‘tib yuradigan xulq-atvor qoidalari sifatida kishilarning tabiiy-hayotiy ehtiyoji ko‘rinishida maydonga chiqadi va qayta-qayta takrorlanish natijasida ular uchun odatiy hol bo‘lib qoladi.

An’anaviy normalar – jamiyatda qaror topgan ilg‘or, ijobiy an’analarni asrash munosabati bilan yuzaga keladigan umumlashgan va barqaror xulq-atvor qoidalari. An’analar kishilar avlodlari o‘rtasidagi vorisiylikning xilma-xil bog‘lanish yo‘nalishlari sifatida, kattalar tajribasi yoshlar tomonidan o‘zlashtiriladigan uzatish mexanizmi sifatida maydonga chiqadi.

7.4. IJTIMOIIY NORMALARNING UMUMIY VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

⁷ Қаpaнr: Scott Veitch, Emilios Christodoulidis, Lindsay Farmer. Jurisprudence: Themes and Concepts. Second edition. – London – New York, Routledge, 2012. –P.32.

Ijtimoiy normalar o‘zaro umumiy jihatlar bilan birgalikda o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Buni huquq va axloq normalarining o‘zaro nisbatida ham ko‘rib chiqish mumkin.

Huquq va axloqning umumiyliги quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– ular birgalikda normativ tartibga solish tizimini tashkil etuvchi ijtimoiy normalardan iboratdir;

– falsafiy nuqtai nazardan huquq va axloq – ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va boshqa omillar bilan bir xil darajada bog‘liq bo‘lgan ustqurma kategoriyalardir;

– huquq va axloq mavjud ijtimoiy munosabatlardan iborat birdan-bir boshqarish ob‘ektiga ega hamda ularning har ikkalasi ham shaxslar va ularning jamoalariga yo‘naltirilgan;

– huquq va axloq normativ hodisalar sifatida shaxslarning zarur va mumkin bo‘lgan xatti-harakatlari chegaralarini belgilaydi hamda shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni uyg‘unlashtirish vositasi sifatida maydonga chiqadi;

– inson faoliyatini tartibga soluvchi omil sifatida ular shaxs irodasining erkinligi va xatti-harakatlarini tanlash imkoniyatlariga asoslanadi;

– huquq va axloq oxir-oqibatda bir xil vazifa, ya‘ni ijtimoiy hayotni tartibga solish va takomillashtirish, unga tashkiliy asoslarni kiritish, adolat va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish vazifalarini ko‘zda tutadi.

Huquq va axloq normalari bir-biridan quyidagi jihatlar bo‘yicha farqlanadi:

1. Huquq va axloq bir-biridan, eng avvalo, o‘rnatilishi, shakllanish usullari va manbalari bo‘yicha farq qiladi. Huquq normalari davlat tomonidan yaratiladi yoki tasdiqlanadi. O‘z navbatida, huquq normalari davlat tomonidan bekor qilinadi, to‘ldiriladi va o‘zgartiriladi. Axloq normalari esa boshqacha tarzda tarkib topadi, ya‘ni ular butun jamiyat tomonidan yaratiladi. Bu normalar doimiy ravishda kishilar amaliy faoliyati, ularning o‘zaro aloqalari jarayonida yuzaga keladi va rivojlanib boradi.

2. Huquq va axloq normalari ta‘minlash usullari bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Huquq normalari davlat tomonidan yaratilib, joriy etilar ekan, o‘z navbatida, davlat tomonidan ta‘minlanadi, muhofaza etiladi va himoya qilinadi. SHu ma‘noda huquq normalarining mazmuni umummajburiy mohiyatga ega. Jamoatchilik fikri, kuchiga tayanuvchi axloq, majburiy tahdiddan farqli o‘laroq, butunlay boshqa tarzda amal qiladi. Bunda davlatning aralashishi, yuridik jazolar qo‘llashi taqozo etilmaydi. Chunki axloq qoidalariga amal qilmagan shaxslarga nisbatan qanday ta‘sir ko‘rsatishni jamiyatning o‘zi hal qiladi. Bunday ta‘sir chorasi ba‘zan huquqiy jazodan ham qattiqroq va ta‘sirliroq bo‘lishi mumkin.

3. Huquq va axloq normalari ifoda etish shakliga ko‘ra farq qiladi. Agar huquq normalari davlatning maxsus yuridik hujjatlari (qonunlar, farmonlar, qarorlar)da mustahkamlanib, umuman keng ko‘lamli va keng tarmoqli qonunchilikni tashkil etuvchi tegishli kodekslar, to‘plamlar, nizomlarda guruhlarga ajratilib, tartibga solinsa, axloqiy normalar esa bunday aniq ifodaga ega bo‘lmaydi. Axloq

normalari va qoidalari jamiyat turli qatlamlari va guruhlarida muayyan ijtimoiy shart-sharoitlar ta'sirida vujudga kelar ekan, keyinchalik u keng tarqaladi hamda barqaror xulq-atvor qoidalarga aylanadi. Bunda biron-bir axloq normasining yuzaga kelish vaqtini ham, sababini ham, tartibini ham va uning amal qilish muddatini ham aniq ko'rsatish mumkin emas.

4. Axloq va huquq normalari kishilar ongiga ta'sir etish xususiyati va usullariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Agar huquq normalari sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ularning yuridik huquq va majburiyatlari – haqqoniylik va nohaqlik, qonuniylik va g'ayriqonuniylik, jazolanish va jazolanmaslik nuqtai nazaridan tartibga soladigan bo'lsa, axloq inson qilmishlariga ezgulik va yovuzlik, maqto'v va qoralash, halollik va nopoklik, oliyjanoblik va pastkashlik, vijdon, or-nomus, burch nuqtai nazaridan yondashadi.

5. Huquq va axloq normalari ularni buzganlik uchun javobgarlik mohiyati va tartibi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Huquqbuzarlik harakatlari oddiy javobgarlikni keltirib chiqaribgina qolmay, balki maxsus-yuridik javobgarlikni ham yuzaga keltiradi. Ayni paytda jazo tayinlash tartibi qonun bilan qat'iy belgilab qo'yiladi. Axloq qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik mutlaqo boshqa oqibatlariga olib keladi. Bu erda aniq bir jazo chorasi ko'zda tutilmaydi. Beriladigan jazo qoidabuzarni axloqiy qoralash, unga tanbeh berish, jamoatchilik ta'siri choralarini qo'llashda ifodalanadi.

6. Huquq va axloq normalari amal qilish sohalari bo'yicha farq qiladi. Axloqiy makon huquqiy makondan ancha kengdir. Ma'lumki, huquq ijtimoiy hayotning ko'p qirralarini chetda qoldirib, uning eng muhim sohalarinigina tartibga solib boradi. Huquqdan farqli o'laroq, axloq jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga taalluqli bo'ladi.

7.5. HUQUQ – IJTIMOIIY MUNOSABATLARNI NORMATIV TARTIBGA SOLISHNING TURI SIFATIDA

Ma'lumki, jamiyat kishilar o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidan iborat. Ushbu tizim o'z doirasiga turfa xil munosabatlarni qamrab olgan murakkab jamlanmadir. Bunday murakkablik va turfa xillik ijtimoiy munosabatlar bilan o'zaro ta'sirli aloqada bo'lgan hodisalardan ham xuddi shunday mutanosiblikni talab etadi. SHunday ijtimoiy hodisalardan biri huquqdir.

Хуқук (юрідик маънода) – бу давлат томонидан ҳимоя қилинадиган, ўзида эркинлик, тенглик ва адолат тамойилларини ифодалайдиган, ижтимоий муносабатларни тартибга солишга қаратилган, умуммажбурий хулқ-атвор қоидалари йиғиндиси.

Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulyator bo'lib, uning bu xususiyati ijtimoiy munosabatlar bilan bo'ladigan muntazam aloqadorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy munosabatlar xilma-xil, biroq shunga qaramay ular ma'lum darajada ixtisoslashadi, mazmunan muayyan guruhlarga birlashadi. Ushbu ob'ektiv jarayonni parallel ravishda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq ham o'z boshidan kechirishini kuzatishimiz mumkin. YA'ni umummajburiy xulq-atvor,

yurish-turish qoidalari ham tegishincha guruhlanadi, tizimlanadi va yaxlit huquqni tashkil etadi.

7.6. HUQUQ PRINSIPLARI

Huquq prinsiplari – bu huquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatidagi mohiyatini ifodalovchi boshlang‘ich normativ asoslar, eng asosiy qarashlar, g‘oyalar va qoidalardir. Huquq prinsiplari, avvalambor, huquq qonuniyatlarini ifodalaydi, qolaversa, butun huquqiy tartibga solish sohasida amal qiladigan va barcha sub‘ektlarga nisbatan qo‘llanadigan eng umumiy normalardan iborat bo‘ladi. Huquq prinsiplari huquq ijodkori uchun dasturiy g‘oyalar sifatida maydonga chiqarkan, huquq normalarini takomillashtirish yo‘llarini belgilab beradi. Huquq prinsiplari, qoida tariqasida, Konstitutsiyada, qonunlar va kodekslarning muqaddima yoki umumiy qoidalar qismida maxsus tartibda belgilab qo‘yiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmunidan quyidagi huquqiy prinsiplarni, ya‘ni huquq ustunligi, demokratizm, inson huquqlari va erkinliklarining oliy qadriyat ekanligi, xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan qoidalari va normalarining amal qilishi, Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligi, teng huquqlilik, barcha mulk shakllarining tengligi, odil sudlov prinsiplarini anglash mumkin.

Huquq prinsiplari ta‘sir etish doirasiga ko‘ra umumhuquqiy, sohalararo va sohaviy tamoyillarga bo‘linadi.

Umumhuquqiy prinsiplar huquq tizimining barcha sohalariga tegishli bo‘lib, jumladan adolatlilik, fuqarolarning qonun oldida huquqiy jihatdan tengligi, insonparvarlik, qonuniylik, demokratizm, huquq va majburiyatlar birligi kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin;

Sohalararo prinsiplar huquq tizimining ikki yoki undan ortiq sohalariga oid bo‘lib, ular quyidagilar: javobgarlikning muqarrarligi, oshkoralik, fuqarolik protsessual va jinoiy-protsessual huquqdagi tortishuvlilik tamoyili va boshqalar;

Sohaviy prinsiplar huquq tizimining muayyan bir sohasi mazmun-mohiyatining rahbariy qoidasi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, mulkiy munosabatlarda tomonlarning tengligi (fuqarolik huquqi); jinoyat jarayoni huquqida aybsizlik prezumpsiyasi va boshqalar.

7.7. HUQUQNING FUNKSIYALARI

Huquqning funksiyalari – bu jamiyatda ijtimoiy munosabatlarga va kishilarning yurish-turishlariga huquqiy ta‘sir qilishning asosiy yo‘nalishlaridir.

Huquq funksiyalarining ijtimoiy munosabatlarga ta‘sir o‘tkazish yo‘nalishi sifatidagi rolini tavsiflovchi quyidagi belgilari mavjud:

1. Huquq funksiyasi uning mohiyatidan kelib chiqadi va huquqning jamiyatdagi vazifasi bilan belgilanadi.

2. Huquqning funksiyasi uning ijtimoiy munosabatlarga ta‘sirining shunday yo‘nalishiki, bunda uning amalga oshirilishiga bo‘lgan ehtiyoj ijtimoiy hodisa sifatida huquqning zaruratini taqozo etadi.

3. Funksiya huquqning eng muhim xususiyatlarini ifodalaydi va u huquq taraqqiyotining muayyan bosqichida uning oldida turgan tub masalalarni hal etishga yo‘naltiriladi.

4. Huquq funksiyasi faol harakat yo‘nalishidan iborat bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soladi. Aynan shuning uchun ham jo‘shqinlik, harakat, faoliyat kabilar huquq funksiyasining eng muhim xususiyatlari hisoblanadi.

5. Huquq funksiyasi o‘zining muntazamliligi bilan ajralib turadi. Uni qo‘llashning uzluksizligi va davomiyligi aynan ushbu jihat bilan tavsiflanadi.

Huquq funksiyalarini **maxsus yuridik** (tor ma‘noda) va **umumijtimoiy** (keng ma‘noda) turga tasniflash mumkin.

1. **Maxsus yuridik funksiyalarning quyidagi turlari mavjud:** tartibga soluvchi (regulyativ) va qo‘riqlovchi.

• **Tartibga soluvchi funksiya** – bu shunday huquqiy ta‘sir qilish yo‘nalishi bo‘lib, unda jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlariga mos keladigan ijtimoiy munosabatlar amalda bo‘lishi ta‘minlanadi va rivojlantiriladi. Tartibga solish funksiyasi doirasida **ikki kichik funksiya** – **statik** tartibga solish va **dinamik** tartibga solish funksiyalari ajralib turadi. Huquqning statik tartibga solish funksiyasi ijtimoiy munosabatlarni muayyan huquqiy institutda mustahkamlash yo‘li bilan ta‘sir o‘tkazishida namoyon bo‘ladi. Dinamik tartibga solish funksiyasi huquqning ijtimoiy munosabatlar harakatini, ya‘ni dinamikasini rasmiylashtirish yo‘li bilan ularga ta‘sir o‘tkazishida ifodalanadi.

• **Qo‘riqlovchi funksiya** – bu umumahamiyatga molik eng muhim iqtisodiy, siyosiy, milliy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni, ularning daxlsizligini muhofaza qilish, shuningdek mazkur jamiyatga yot bo‘lgan munosabatlarni siqib chiqarishni maqsad qilib olgan huquqning ijtimoiy vazifasi bilan bog‘liq huquqiy ta‘sir yo‘nalishidir.

2. **Umumijtimoiy funksiyalar** orqali jamiyat hayotining turli xil yo‘nalishlarida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta‘sir o‘tkaziladi. Huquqning umumijtimoiy funksiyalariga quyidagilar kiradi: **iqtisodiy, siyosiy, tarbiyaviy, ekologik** va boshqalar. Huquqning ijtimoiy funksiyalarini ijtimoiy hayotning tegishli sohalariga huquqiy ta‘sir o‘tkazish yo‘nalishi sifatida ta‘riflash mumkin. Jumladan, iqtisodiy funksiya iqtisodiy sohaga, siyosiy funksiya siyosiy sohaga, tarbiyaviy funksiya ma‘naviy sohaga huquqiy ta‘sir o‘tkazadi.

7.8. HUQUQNING MOHIYATI HAQIDAGI NAZARIYALAR

Huquqning mohiyati deganda uning mazmuni va maqsadi tushuniladi. Huquqning mazmuni va mohiyati uning asosiy va barqaror xususiyatlarini namoyon etadi. Shu bilan birga, huquqning mohiyatini belgilashda quyidagi ikkita jihat, ya‘ni har qanday huquq, eng avvalo, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatidagi vazifasini bajarishi va mazkur vosita kimning manfaatlariga xizmat qilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Huquqning mohiyati davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi, siyosati, axloq, madaniyat va boshqa hodisalar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra huquq umumijtimoiy xarakterga ega. Bu demokratik davlatlarning mohiyatida quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- o‘zaro kelishilgan umumijtimoiy irodani ifoda etadi;
- aholining barcha qatlamlari manfaatlariga xizmat qiladi;

- ijtimoiy aloqalarning tashkiliyligi va rivojlanib borishini ta'minlaydi;
- huquqiy munosabatlar sub'ektlarining erkinligi va javobgarligining o'lchovi hisoblanadi;
- turli-tuman ehtiyoj va manfaatlarni qondirish vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Yuridik fanda huquqning mohiyati yuzasidan turli xil nazariyalar mavjud.

Tabiiy huquq nazariyasi (Lokk, Russo, Monteske, Radishchev (XVII–XVIII asrlar)). Ilmiy yo‘nalish sifatida ushbu nazariya uzoq tarixga ega. Uning asosiy qoidalari qadimgi davridayoq shakllanib ulgurgan. Ushbu nazariyaning mohiyati shundan iboratki, davlat tomonidan yaratiladigan pozitiv (ijobiy) huquqdan tashqari barcha uchun umumiy bo‘lgan va pozitiv huquqdan ustun turuvchi tabiiy huquq ham mavjud. Pozitiv huquq tabiiy huquq talablariga, ya’ni yashash huquqi, erkin rivojlanish, mehnat qilish, jamiyat va davlat ishlarida qatnashish va boshqa huquqlarga asoslanadi. Qadimgi Rim huquqshunoslari tabiiy huquqni fuqarolik huquqlari hamda xalqlar huquqlari bilan bir qatorda tabiat qonunlari va narsa-hodisalarning tabiiy tartibi ifodasi sifatida alohida ajratib ko‘rsatgan. SHuningdek, insonning tabiiy, tug‘ma huquqlari ko‘pchilik davlatlarda konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yashash huquqi “har bir insonning uzviy huquqi” sifatida mustahkamlangan. YUksak madaniyatli jamiyatda tabiiy va pozitiv huquqlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishga hech qanday asos yo‘q. Chunki, tabiiy huquq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning yagona umuminsoniy tizimini tashkil etib, insonning tabiiy huquqlarini mustahkamlaydi va muhofaza qiladi.

Realistik huquq maktabi (R.Iering, S.Muromsev v.b.). Mazkur yo‘nalish vakillari huquqning tadrijiy tarzda rivojlanishi haqidagi tarixiy tasavvurlardan farqli o‘laroq, huquq tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladi va rivojlanadi, deb hisoblaydi. Huquqshunos Rudolf Iering ushbu nazariyaning mazmun-mohiyatini o‘zining “Rim huquqi ruhi”, “Huquq uchun kurash”, “Huquqda maqsad” kabi asarlarida bayon qilgan. Ieringning ta’biricha, huquq – himoyalangan davlat manfaatidir. U shaxs manfaatlarini kafolatlaydi, odamlarning turli xil ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Huquqning vazifasi huquqdan foydalanishni kafolatlashdan iborat. Huquqning mazmun-mohiyati zamirida qonunsizlikka qarshi xalqlar kurashi, davlat hokimiyati, individlar kurashi yotadi. SHu munosabat bilan Iering huquq tarixidagi barcha ulkan yutuqlar – qullikning, krepostnoylikning barham toptirilishi, er mulki erkinligi, hunarmandchilik, e’tiqod va hokazolar erkinligi – bularning hammasi shafqatsiz, ko‘pincha asrlar osha davom etadigan kurashlarda qo‘lga kiritilishi lozimligini, bunday hollarda huquqning yo‘li hamisha huquqlar qoldiqlari orqali belgilanishini alohida ta’kidlagan.

Uning e’tirof etishicha, mutlaq adolatli huquq yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas, huquqning qimmati uning asosida yotgan maqsadni amalga oshirishdan iboratdir. Manfaatlarni kurashi asosida dunyoga kelgan huquq jamiyat hayotida adolat prinsipiga, albatta, rioya qilish sharti bilan muayyan bir shaxslar irodasini boshqalarning manfaatlariga bo‘ysundiruvchi kuch sifatida maydonga chiqadi.

Mazkur ilmiy yo‘nalish namoyandalari huquq uchun kurashish qonuniy huquqqa ega bo‘lgan shaxsning o‘z oldidagi majburiyatidir, zero huquqni himoya qilish, ya‘ni huquqbuzarlikka qarshi harakat qilish esa faqat o‘z-o‘ziga nisbatangina emas, balki umuman jamiyatga, davlatga nisbatan ham majburiyatdir: har bir shaxs huquqni himoya qilar ekan, avvalo, o‘zining sub‘ektiv huquqi asosi bo‘lgan ob‘ektiv huquq normalarini muhofaza etadi deb hisoblaydi.

Psixologik huquq maktabi (Petrajitskiy, Ross, Reysner, Dyugi, Merill). Ushbu nazariya XX asr boshlarida keng tarqalgan. Mazkur nazariya vakillarining fikricha, kishilarning ruhiyati jamiyat, axloq, huquq va davlatning rivojlanishini belgilab beradigan omildir, haqiqiy huquq kishilarning o‘z huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi ruhiy kechinmalaridir. L.Petrajitskiyning ta‘kidlashicha, tajribalarga asoslanuvchi fan turmushning ikki ko‘rinishi – moddiy va ruhiy tomonlarini o‘rganadi. Ijtimoiy voqelik hodisalarining biri sifatida huquq ruhiy dunyoga taalluqli bo‘lib, u odamlarning imperativ-atributiv (majburiylik-da‘vogarlik) kechinmalaridan tashkil topadi. Inson xatti-harakatlari erkin va o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin. Uning fikricha, normalar, buyruq va taqiqlar shaxsning ichki kechinmalari va hissiyotlari ifodasidir.

Huquqni tushunishda normativlik nazariyasi (G.Kelzen, R.Shtammler, P.Novgorodsev (XX asr)). Ushbu yo‘nalish bir qarashda huquq va uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqidagi turli qarashlarni jamlaganday tuyuladi. Biroq sinchiklab qaralganda ulardagi muayyan birlik ham ko‘zga tashlanadi. Normativlikning nazariy qoidalari R.Shtammlerning “Xo‘jalik va huquq” kitobida bayon qilingan. U o‘z qarashlarida huquqning asosiy maqsadi shaxslar ehtiyojini qondirishdan iborat bo‘lgan ijtimoiy hayotni tashqi tartibga solish deb ta‘riflaydi. Jamiyatda o‘zaro aloqada bo‘lgan shaxslarning birgalikdagi harakatlarini u ijtimoiy materiya yoki xo‘jalik deb ataydi. Huquq bilan xo‘jalikning o‘zaro nisbatini belgilar ekan, Shtammler huquqni ijtimoiy hayot shakli va shaxslarning moddiy ne‘matga oid munosabatini tartibga soluvchi vosita sifatida ifodalaydi.

Huquqning sotsiologik maktabi. Ushbu nazariya XX asr huquqshunosligining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Yuridik fanlar vazifasini amaldagi huquqni rasmiy mantiqiy o‘rganishdan iborat deb ko‘rsatuvchi huquqiy pozitivizmdan farqli o‘laroq, sotsiologik maktab diqqat markazini “jonli huquq”, ya‘ni huquqiy munosabatlar tizimini, huquq doirasidagi odamlar xulq-atvorini o‘rganishga ko‘chirish kerak degan fikr tashkil qiladi. Erlix ushbu yo‘nalishning asoschisi bo‘lib, uning “Huquq sotsiologiyasi” (1911) kitobida mazkur yo‘nalishning asosiy g‘oyalari tartibli bayon qilingan. Rossiyalik olim G.F.Shershenovich ham sotsiologik maktab vakilidir.

Huquqning tarixiy maktabi. Ushbu nazariya XIX asr yuridik fanida sezilarli darajada rivojlangan yo‘nalish hisoblanadi. Huquqning tarixiy maktabi namoyandalari (G.Gugo, F.Savini, G.Puxta v.b.) tabiiy huquq g‘oyalariga qarshi chiqqan. Mazkur nazariyaga ko‘ra urf-odat va an‘analar huquqning muhim manbaidir. Kodifikatsiya va boshqa “sun‘iy” usullar rad etilgan, huquq esa “xalq ruhi”ning izchil rivojlanishi natijasi sifatida ifodalangan va huquqning rivojlanishi tilning rivojlanishiga o‘xshatilgan. Tarixiy maktab vakillari urf-odatlarni qonundan yuqori qo‘yib, real mavjud huquqni qonunchilik yo‘li bilan o‘zgartirish

mumkinligini inkor etadi. Ular ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solish tizimida urf-odatlar ahamiyatini g'oyatda bo'rttirib ko'rsatadi. Biroq ushbu nazariyaning ijobiy tomonlarini ham ta'kidlamaslik adolatdan bo'lmaydi. Aytaylik, mazkur nazariyaga ko'ra qonun chiqaruvchi o'zining sub'ektiv xohishi bo'yicha normalarni yarata olmaydi. Buning uchun u ijtimoiy rivojlanishning ob'ektiv ehtiyojlarini, alohida odamlar manfaatlarini bilishi va anglashi hamda ularni huquq normalarida to'g'ri ifodalashlari lozim bo'ladi.

Islom huquq doktrinasini. Muayyan darajada ruxsat beriladigan va qo'llab-quvvatlanadigan shaklda diniy shaklda ifodalanuvchi normalar tizimi sifatida islom huquqi VII–X asrlarda arab mamlakatlarida shakllangan va u islom diniga asoslangan. Islom huquq doktrinasiga ko'ra huquq Alloh tomonidan belgilanadi. Ammo islom huquqining shakllanishida Qur'on oyatlarining Payg'ambar (s.a.v.), sahobalar, ulamolar tomonidan talqin etilishi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Islom huquqshunoslari bo'lgan faqihlarning mehnatlari asrlar davomida mana shu ulkan mas'uliyatli ishga sarflangan. Ularning sa'y-harakatlari yangi huquqni yaratishga emas, balki Alloh tomonidan berilgan huquqni amalda foydalanishga moslashtirishga yo'naltirilgan. Islom huquqini belgilovchi fiqh sohasi faqatgina Allohning insonlarga qo'ygan o'zaro huquqiy qonun-qoidalarini aks ettirish bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi.

Mazkur nazariya vakillarining fikricha har bir huquqni qo'llovchi, muayyan masalani hal qilishda asosan quyidagi manbalarga tayanishi lozim: **Qur'oni karim** – musulmonlarning muqaddas kitobi, musulmon huquqi uchun rahbariy qoidalar to'plami (Alloh tomonidan Muhammad payg'ambar(s.a.v.)ga nozil qilingan); **hadis yoki sunna** Muhammad payg'ambar to'g'risidagi hamda uning pand-nasihatlarini, o'g'itlari va ko'rsatmalari bilan bog'liq axloqiy, diniy me'yorlar bo'lib, ular Qur'oni karimni aniqlashtirishga yordam beruvchi, huquqiy munosabatlarni tartibga solishga ko'maklashuvchi qoidalar to'plami hisoblanadi; **ijmo'** – xalifalar, bilimdon kishilarning Qur'on qoidalarini asosida turli munosabatlar bo'yicha chiqargan hukmlari, qarorlari; **qiyos** – analogiya, o'xshatish yo'li bilan chiqarilgan hukm (oldingi manbalarda o'z ifodasini topmagan fikr-mulohazalarni qamrab oladi). Qur'on, sunna, ijmo' va qiyosdan tashqari fiqhning boshqa yordamchi manbalaridan foydalanish ham mustasno etilmagan. Ularga huquqiy odatlar, qonunlar va fatvolar kiradi.

Yuqorida qayd etilgan manbalar bilan birga, yangi bir fan – usuli fiqh, ya'ni musulmon huquqshunosligi vujudga kelgan. Fiqh o'z ichiga shaxsning diniy rasm-rusmlarni bajarish bilan bog'liq masalalarni tartibga soladigan ibodat normalari va shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning qoidasi sifatida muomalot normalarini qamrab oladi. Islom nazariyasiga ko'ra huquqiy masalalar shariatning muomalot qismiga tegishli hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

1. "Odat", "huquqiy odat" va "huquq" tushunchalarining mohiyatini muhokama qiling, ularning bir-biridan farqini tushuntirib bering. Misol keltiring.
2. Ijtimoiy normalar va huquq o'rtasidagi o'zaro farqli va o'xshash jihatlarni muhokama eting.

3. Huquq prinsipi tushunchasi va turlarini izohlang. Mazkur prinsiplarning huquqni shakllanishidagi ta'sirini misollar yordamida izohlang.

4. Huquq funksiyalarini muhokama qilish orqali uning davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyatini yoritib bering.

5. Huquqning belgilarini aniqlash orqali uning huquqiy tabiatiga baho bering.

MAVZU YUZASIDAN TEST SAVOLLARI

1) Қуйидагилардан қайси бири ҳуқуқнинг асосий белгиларига кирмайди?

- A) Бажарилишининг шартлиги
- B) Давлат томонидан таъминланганлиги
- C) Жамоатчилик томонидан ҳимоя қилиниши
- D) Давлат томонидан ўрнатилганлиги
- E) Барча учун мажбурийлиги

2) Ахлоқ нормаларига хос бўлган хусусиятларни кўрсатинг?

- A) улар давлат томонидан ишлаб чиқилади
- B) улар аҳолининг белгиланган қатлами хоҳиши ва истагини билдиради
- C) норматив актларда белгиланади
- D) умуммажбурий аҳамиятга эга
- E) улар фақат жисмоний шахслар ўртасидаги муносабатларни тартибга солади ва жамоатчилик фикри кучи билан ҳимояланади

3) Ифодаланиш шаклига кўра қандай нормалар мавжуд?

- A) ёзма шаклдаги ва оғзаки шаклдаги нормалар
- B) ҳуқуқ, ахлоқ, одат, корпоратив ва бошқа нормалар
- C) тўғри жавоб берилмаган
- D) сиёсий, ташкилий, этик, эстетик ва бошқа нормалар
- E) ғавқулдда вужудга келган нормалар ва онгли нормалар

4) Ўрнатилиши ва таъминланиши усулига кўра қандай нормалар мавжуд?

- A) сиёсий, ташкилий, этик, эстетик ва бошқа нормалар
- B) ғавқулдда вужудга келган нормалар ва онгли нормалар
- C) ҳуқуқ, ахлоқ, одат, корпоратив ва бошқа нормалар
- D) тўғри жавоб берилмаган
- E) ёзма ва оғзаки шаклдаги нормалар

5) Қуйидагилардан қайси бири ҳуқуқ принципларига кирмайди?

- A) эвристик принцип
- B) қонунийлик принципи
- C) фуқароларнинг қонун олдида тенглиги принципи
- D) инсонпарварлик принципи
- E) демократизм принципи

6) Ҳуқуқнинг функцияси кўрсатилмаган вариантни аниқланг?

- A) гуманистик функция
- B) тартибга солиш функцияси
- C) мафкуравий ва тарбиявий функция
- D) умуммажбурий бўлмаган функция
- E) кўриқлаш функцияси

7) Ҳуқуқнинг асосий белгиларини аниқланг?

- A) барча жавоблар тўғри
- B) муайян жараён жиҳатига эгаллиги ва шахсийлаштирилмаганлиги
- C) мажбурийлиги ва расмийлиги
- D) норматив хусусиятга эгаллиги
- E) ижтимоийлиги

8) Кўп қайтарилиш йўли билан тарихий таркиб топган хатти-ҳаракат қоидаси - бу

- A) ҳуқуқ нормаси
- B) ахлоқ нормаси
- C) диний нормалар
- D) ташкилотлар нормалари
- E) одатлар, анъаналар

9) Қуйидаги белгилардан қайси бири ҳуқуққа хос эмас?

- A) одатланиш кучидан фойдаланиш
- B) бажарилишининг мажбурийлиги
- C) давлат томонидан ўрнатилганлиги ва кафолатланганлиги
- D) формаллиги(шаклийлиги)
- E) нормативлиги

10) Ҳуқуқни ҳозирги замонда тушуниш қандай?

- A) давлат томонидан ўрнатилган ёки санкцияланган ва унинг мажбурлов кучи билан таъминланган умуммажбурий хатти-ҳаракат қоидалари тизими
- B) юридик нормалар билан тартибга солинувчи одамларнинг реал хатти-ҳаракати, ҳуқуқий муносабатлар тизими
- C) мазмуни жамият ҳаётининг иқтисодий шароитлари билан белгиланадиган ва ҳукмрон синфларнинг қонун даражасига кўтарилган эрки ифодаси
- D) кишиларнинг ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларига бўлган руҳий муносабати
- E) шахснинг ғайри-қонуний ҳаракатларини чеклаш усули

8-MAVZU.

HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT

Mavzuning asosiy yo‘nalishlari

1. Huquqiy ong tushunchasi, tarkibiy qismlari.
2. Huquqiy psixologiya va huquqiy mafkura.
3. Huquqiy ongning turlari va darajalari.
4. Huquqiy ongning funksiyalari.
5. Huquqiy madaniyat tushunchasi, tuzilishi, darajalari.
6. Huquqiy tarbiya – huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning zarur sharti.
7. Huquqiy nigilizm va huquqiy idealizm.
8. Huquqiy nigilizmni bartaraf qilish masalalari.

8.1. HUQUQIY ONG TUSHUNCHASI, TARKIBIY ELEMENTLARI

Huquqiy ong bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda, eng avvalo, “ong” va “ijtimoiy ong” kabi kategoriyalarning mohiyatini anglash zarur. Ong deganda oddiy ruhiy in’ikos emas, balki ijtimoiy rivojlangan inson tomonidan voqelikni ruhiy aks ettirishning oliy shakli tushuniladi. Ongga tegishli belgilardan uning quyidagi ta’rifi kelib chiqadi: ong faqat shaxsgagina xos bo‘lgan, miyaning til va nutq yordamida voqelik aksini umumlashtiradigan, maqsadga muvofiq, konstruktiv hamda ijodiy namoyon bo‘ladigan oliy funksiyadir. Ong, shuningdek kishining ruhiy, siyosiy, falsafiy nuqtai nazarlari, diniy, badiiy qarashlarining ham majmui hisoblanadi. Ijtimoiy ong deganda mana shular tushuniladi.

O‘z navbatida, ijtimoiy ongning turli shakllari mavjud bo‘lib, kishilar ular yordamida ijtimoiy va tabiiy borliqni o‘rganadi. SHu jihatdan olganda, tegishli adabiyotlarda siyosiy, axloqiy, estetik, diniy, huquqiy ong shakllari ajratib ko‘rsatiladi. Huquqiy ong ijtimoiy ongning shakllaridan biridir. Ayni paytda ijtimoiy ongning shakli sifatida huquqiy ong ham unga xos bo‘lgan barcha xususiyatlarga ega.

Huquqiy ongni ijtimoiy ongning boshqa sohalari (siyosiy, axloqiy, estetik va boshqalar)ga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, huquqiy ong insonlarning ijtimoiy hayotning yuridik ahamiyatli hodisalar (amaldagi qonunchilik, yuridik amaliyot, insonlar va fuqarolarning huquq va erkinliklari)ga oid baholovchi ruhiy munosabatini ifodalovchi huquqiy tasavvurlari, qarashlari, g‘oyalari, hislari, hayajonlari majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, huquqiy ong fuqarolarning huquqiy ijtimoiylashuvi jarayonlari natijalarini, jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibot holatini, joriy huquq tizimining alohida qismlarini yoki to‘laligicha o‘zini o‘zgartirishga bo‘lgan ehtiyojni o‘zida ifoda etadigan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. SHuningdek, u huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotining muhim ko‘rsatkichi vazifasini bajaradi.

Хуқуқий онг – бу ижтимоий онгнинг шаклларида бири бўлиб, кишиларда ҳуқуққа, қонунчиликка, ҳуқуқ-тартиботга ва

бошқа ҳуқуқий ҳодисаларга нисбатан бўлган ғоялар, ҳис-туйғулар, тасаввурлар йиғиндисиدير.

Huquqiy ong tarkibiga to'rtta baholash bilan bog'liq munosabat kiradi. Bular – huquq va qonun hujjatlari (uning prinsiplari, shakllari, institutlari)ga nisbatan; atrofda gilarining huquqiy xatti-harakati (masalan, jinoyatchilik, davlat hokimiyati tuzilmalarining o'zaro munosabatlari xususiyati) ga nisbatan; huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularning faoliyatiga nisbatan; o'zining huquqiy xatti-harakatiga nisbatan munosabatdir⁸.

Huquqiy ong, birinchidan, huquqning jamiyat ehtiyojlarini ifodalovchi manbaidir; ikkinchidan, huquqni ijtimoiy voqelikka tatbiq etishning zarur omillaridan biridir; uchinchidan, shaxslarning xulq-atvori huquq normalariga qay darajada mos kelishini tushunib olishga ko'maklashadi, baholash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Huquqiy ongning asosiy tarkibiy elementlari: **huquqiy ruhiyat** (psixologiya) va **huquqiy mafkura** (ideologiya).

Huquqiy ruhiyat (psixologiya) – bu alohida ijtimoiy guruh, shaxs yoki butun jamiyatda stixiyali ravishda vujudga keladigan huquqiy tuyg'ular, hissiyotlar, kayfiyatlar, fikrlar yig'indisidan iborat bo'lgan huquqiy ongning tarkibiy elementi. **Huquqiy ruhiyat** jamiyatdagi mavjud huquqiy muhitning bevosita ta'siri ostida vujudga keladi va huquqiy ongning boshlang'ich pog'onasi hisoblanadi. SHaxs huquqiy ongining aynan shu darajasidan huquqiy reallikni anglash, u bilan dastlabki tanishuvi boshlanadi.

Huquqiy ruhiyat davlat va jamiyatning huquqiy asoslarini mustahkamlash, huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish hamda ularga qarshi kurash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologiya bilimlarini har tomonlama chuqur egallash, ko'nikmalar hosil qilish huquqshunosning yuksak muomala madaniyatini ta'minlaydi. Psixologik madaniyat huquqshunoslik faoliyati samarasini oshiribgina qolmay, uning insonparvarlik mohiyatini namoyon etadi.

Huquqiy mafkura – bu muayyan ijtimoiy guruhlarning, jamiyatning huquqiy qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari va talablarining ilmiy tizimlashtirilgan ifodasidir.

Huquqiy mafkura g'oyalar, konsepsiyalar, huquqiy tamoyillar, huquqni rivojlantirish istiqbollari baholash, huquqiy aktlarni qabul qilishning maqsadlari, vazifalari ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Huquqiy mafkura huquqni bilish darajasi va tabiatiga ko'ra huquqiy ruhiyatdan ancha yuqori turadi. Agar huquqiy ruhiyat huquqiy hodisalarning tashqi, ko'pincha hissiy jihatini, muayyan bir qismini qayd etadigan bo'lsa, huquqiy mafkura huquqning mohiyatini, ijtimoiy mazmunini, tabiatini ochib berishga, uni mukammal madaniy-tarixiy falsafa va aqida ko'rinishida taqdim etishga intiladi. Shu jihatdan Gegelning huquq falsafasi, davlat va huquqning

⁸ Гранат Н.Л. Правосознание и правовая культура. // Теория права и государства. Учебник (Под ред. проф. В.В.Лазарева).- М., -1996. С.180-181.

tabiiy-huquqiy, pozitivistik ta'limotlari, boshqa ko'pgina huquqiy konsepsiyalar huquqiy mafkura sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish konsepsiyasi huquqiy mafkuraga yaqqol misol bo'la oladi. Bunday davlat va jamiyat demokratiya, inson huquqlarini ta'minlash, insonparvar va adolatli huquq-tartibot to'g'risidagi ham umuminsoniy, ham milliy tasavvurlarga mos kelishi kerak. Mazkur holatda huquqiy davlat ta'limoti milliy davlatchiligimizni rivojlantirishning mafkuraviy asosi bo'lib xizmat qiladi⁹.

8.2. HUQUQIY ONGNING TURLARI VA DARAJALARI

Huquqiy ong sub'ektlariga ko'ra individual huquqiy ong, guruhiy huquqiy ong, ijtimoiy huquqiylarga ong tasniflash mumkin.

Individual huquqiy ong – bu har bir shaxs, alohida insonga xos huquqiy bilimlar, baholar, hissiyotlar va tuyg'ular majmui hisoblanadi. Har bir inson turli bilish qobiliyati, shaxsiyatining turli psixologik ko'rinishlari oqibatida amaldagi huquqni o'zicha qabul qiladi, uni baholaydi, qonuniy yoki qonunga zid ravishda xatti-harakat qilish istagini bildiradi. Individual huquqiy ong fuqarolar tomonidan yuridik ahamiyatga molik xatti-harakatlar sodir etilganda, huquq va erkinliklar amalga oshirilganda, qonuniy manfaatlar himoya qilinganda, turli ko'rinishdagi huquqiy hujjatlar tayyorlashda namoyon bo'ladi.

Alohida ijtimoiy guruhlarning huquqiy ongi ko'p jihatdan moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqishda ishtirok etishiga, ushbu ne'matlarni taqsimlash va iste'mol qilish usullariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy qatlam va sinflarning ijtimoiy huquqiy ongi faol hayotda jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar tomonidan qabul qilinadigan murojaatnoma, deklaratsiya, dasturlarda, normativ-huquqiy hujjatlarda, ijtimoiy qatlam, sinf mafkurachilarining ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish orqali va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy huquqiy ong – bu jamiyat yoki uning alohida ijtimoiy tabaqalari, sinflari tomonidan ilgari suriladigan huquqiy tasavvurlar, tamoyillar, tushunchalar, nazariyalar, hissiyotlar yig'indisidir. Hozirgi jamiyatning asosiy huquqiy tamoyillari sirasiga mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ijodiy va boshqa faoliyat turlarining teng huquqliligi, insonparvarlik, erkinlik, huquq ustuvorligini tan olish kabilarni kiritish mumkin.

Huquqiy ong saviyasiga, ya'ni darajasiga ko'ra, odatiy huquqiy ong, ilmiy huquqiy ong, professional (kasbiy) huquqiy onglarga tasniflanadi.

Odatiy huquqiy ong bevosita kishilarning hayotiy shart-sharoitlari, ularning hayotiy tajribalari asosida shakllanadi. Unda ruhiy elementlar, ya'ni hissiyot, ehtiroslar muhim rol o'ynaydi.

⁹ Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Тошкент: Адолат, 2007. – 916 б.

Professional (kasbiy) huquqiy ong – huquqshunoslar, ya'ni maxsus yuridik ma'lumot va tayyorgarlikning amaliy tajribasi talab qilinadigan kasb egalarining huquqiy ongidir. Huquqshunoslar uchun huquqiy bilimlarga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Ushbu bilimlar fuqarolar darajasidan ancha yuqori bo'lishi, huquq tamoyillari va normalari yuzasidan ma'lumotlarning ko'lami, teranligi, rasmiylashtirilgan mohiyati bilan ajralib turishi, eng muhimi, ular shu bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Professional huquqshunoslar ongi siyosiy, huquqiy qarashlar, bilimlar, his-tuyg'ular, qadriyatlar va huquqiy ongning boshqa tarkibiy qismlarini tashkil qiluvchi tizimlar sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy huquqiy ong – huquqni tizimga solib, nazariy o'zlashtirishda ifodalanuvchi g'oyalar, konsepsiyalar, qarashlardan iborat. Bunday huquqiy ongga ega shaxslar sifatida yuridik yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot institutlari, oliy yuridik o'quv yurtlari tizimida faoliyat ko'rsatuvchi huquqshunos olimlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

8.3. HUQUQIY ONGNING FUNKSIYALARI

Huquqiy ongning funksiyalari deganda shaxsning huquqiy doirada ijtimoiy faol yurish-turishiga ta'sir etuvchi asosiy yo'nalishlar tushuniladi. Huquqiy ong funksiyalari tushunchasini uning sub'ekti faoliyati natijasida yuzaga keladigan tizimlashgan g'oyalar sifatida ta'riflash mumkin.

Huquqiy ongning huquqiy tartibga solish mexanizmidagi maqsadlariga ko'ra uning funksiyalarini quyidagicha tasniflash mumkin: bilish funksiyasi, baholash funksiyasi, huquqiy modellashtirish (bashorat qilish) funksiyasi, tartibga solish funksiyasi, g'oyaviy-tarbiyaviy funksiya va boshqalar.

Endi huquqiy ongning yuqorida qayd etilgan funksiyalari mazmuniga e'tibor qaratamiz. Huquqiy ong funksiyalari ichida, dastavval uning bilish funksiyasini tahlil etishni mantiqiylik qoidalari taqozo etadi.

Huquqiy ongning bilish funksiyasi amaldagi huquqni, ya'ni hozirgi zamon huquqini har taraflama o'rganishni, uning xususiyatlarini, prinsiplarini, asosiy institutlarini hamda jamiyatdagi mavjud boshqa ijtimoiy normalar bilan o'zaro aloqasini o'rganishdan iboratdir. Ayni paytda huquqiy ongning bilish funksiyasi amaldagi huquqni o'rganish bilan cheklanmaydi.

Huquqiy ongning baholash funksiyasi umumiy tarzda amaldagi huquqqa baho berishda ifodalanib, u o'z ichiga huquqning, uning alohida institutlarining, alohida normalarining samaraliligi haqidagi bahoni, ularning ahamiyati, hayotda kerakligi, fuqaro manfaatiga mosligi yo mos emasligi, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishi, o'zida adolat, tenglik, erkinlik kabi umuminsoniy qadriyatlarini ifodalaganligi nuqtai nazaridan beriladigan baholarni oladi. Bilish-baholash funksiyasi huquq sub'ektlarining xatti-harakatini, faoliyatini huquqqa mosligi nuqtai nazaridan baholashni o'z ichiga oladi. SHaxslar doimo amaldagi huquqqa, atrofdagilarning xatti-harakatiga, sud, prokuratura, notariat,

advokatura, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, tadbirkorlar faoliyatiga muayyan darajada baho berib keladi.

Huquqiy ongning **huquqiy modellashtirish funksiyasi**. Adabiyotlarda ushbu funksiya bashoratlash funksiyasi deb ham yuritiladi. Ma'lumki, huquqning yaratilishida huquqiy ongning o'rni juda ahamiyatli. SHu bois huquqiy ong huquq normalarini yaratishning muayyan bir vositasi sifatida maydonga chiqadi. Huquqiy ong amaldagi huquqni takomillashtirish, uni zamon talab va ehtiyojlari asosida mukammallashtirishda ko'rsatma, mo'ljal, belgilovchi rolni o'taydi.

Zero, yangi huquq normasini yaratish yoki amaldagi huquq normalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, ularni takomillashtirish haqidagi fikrlar, qarashlar dastlab huquq ijodkorligi jarayonida bevosita va bilvosita qatnashadigan tegishli sub'ektlarning huquqiy ongida vujudga kelib shakllanadi. So'ngra huquqiy ong orqali o'tgan fikrlar tegishli tartib va asoslarda huquqiy normalarda o'zining ifodasini topadi.

Huquqiy ongning **tartibga solish funksiyasi** o'ziga xos o'rin tutadi. Zotan, amaldagi huquq normalariga fuqarolarning rioya etishlarida yuqori darajadagi huquqiy ongning o'rni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qonun normalarida mustahkamlangan qoidalar har bir huquq sub'ektlarining ongli irodaviy faoliyati orqali ro'yobga chiqadi. Fuqarolarda qonun normalariga, uning talablariga hurmat hissi, ularning to'g'ri va zaruriy qoidalar ekanligiga ichki ishonchi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning ijro etilishi darajasi ham o'shanga monand ravishda bo'ladi. Jamiyada huquqiy ong darajasi qanchalik baland bo'lsa, shunchalik qonuniylik kuchayadi, insonlarda qonunlarning zarurligi va foydaliligi haqida fikrlar mustahkamlanadi, ularda huquqbuzarlikning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasizlik yondashuvi shakllanadi.

Huquqiy ongning yana bir muhim funksiyasi **g'oyaviy-tarbiyaviy funksiyadir**. Huquqiy ong harakati doirasida mazkur funksiyaning ahamiyati muhimdir. Chunki huquqiy ong insonda qonunga itoatkorlikni, amaldagi huquqiy norma va qoidalarga rioya etish zarurligini, bunday xulq-atvor faqat huquq sub'ekti uchun emas, balki jamiyat uchun ham foydali ekanligini chuqur anglab etish va ichdan ishonish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Fuqarolar qonun normalariga rioya etishlari uchun ular qonunning jamiyat uchun kerak, zarur va foydali ekanligini, unda umumiy manfaatlar mujassamligini chuqur tushuna bilishlari kerak. Basharti fuqaroda qonunlarning kerakligi, qadr-qimmatini haqidagi fikri, ichki ishonchi chuqur bo'lmasa, bu holda turli hayotiy holatlar va vaziyatlarda qonunga itoatkorlik doirasidan chiqib ketish xavfi mavjud bo'ladi¹⁰.

Huquqiy ongning g'oyaviy-tarbiyaviy funksiyasiga butun insoniyat uchun qadrlil bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etish xos bo'ladi. Adolat,

¹⁰ Қаранг: Халилов Э.Х. Ижтимоий турмушда ҳуқуқий онгнинг ўрни. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 48.; Дмитриев Ю.А. Правосознание и правовая культура. / Теория государства и права. Под. ред. А.С.Пиголкина. – Москва: Юрайт-Издат, 2006. – С.548.

qonunga itoatkorlik, insonparvarlik, mehr-muruvvat, muhtojlarga yordam kabi asriy qadriyatlar xalqimizning azaliy qadriyatlari hisoblanadi va ular bugungi kun huquqiy tizimida o'zining ifodasini topgan.

8.4. HUQUQIY MADANIYAT: TUSHUNCHASI, TUZILISHI, DARAJALARI

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va manfaatlariga rioya etish, huquqiy normalarni bajarish, huquqiy talablarni bilish hamda ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishga oid barcha masalalar kishilarning huquqiy madaniyati darajasiga bog'liqdir. Jamiyatning huquqiy ustqurmasida huquqiy madaniyat hodisasi, huquqiy hayotning darajasi alohida o'rin tutadi.

Хуқуқий маданият – бу кишиларнинг ҳуқуқий билим даражаси, ҳуқуққа нисбатан онгли муносабати, ҳуқуқни ҳурмат қилиши ва унга риоя қилишидир. Ҳуқуқий маданият жамият умумий маданиятининг узвий таркибий қисмидир.

Shu bois **huquqiy madaniyat** deganda jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqeligi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ong rivojida erishilganlik darajasini ifodalovchi ma'naviy-axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topadigan qonunga itoatgo'ylik va mamlakatda huquqiy-tartibot muhitini o'rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishi tushuniladi.

Sub'ektiv tarkibiga ko'ra shaxs (individual), guruh, jamiyat huquqiy madaniyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Shaxs huquqiy madaniyati huquqni hurmat qilish, huquqdan lozim darajada xabardorlikni nazarda tutadi. Huquqiy madaniyatga ega shaxs: 1) yuridik normalarni muayyan darajada bilishi; 2) ijobiy huquqiy ong egasi bo'lishi, ya'ni huquqni hurmat qilishi; 3) huquqni hurmat qilishga asoslangan xulq-atvor bilan tavsiflanadi.

Guruh huquqiy madaniyati ayrim ijtimoiy guruhlarga, xususan, professional yuristlarga xos. U mazkur guruhning huquqiy ongiga bog'liq. Unga jamiyatda e'tirof etilgan huquqiy qadriyatlar, ayrim shaxslarning huquqiy intilishlari bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatning huquqiy madaniyati – bu jamiyat yaratgan ma'naviy qadriyatlarning tarkibiy qismidir. U o'z ichiga huquqiy muloqot va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy vositalaridan foydalanish bilan bog'liq xulq-atvor hamda harakatlarning barcha turlarini qamrab oladi. U ijtimoiy ong darajasi, qonunchilikning holati va xususiyati, mamlakatda mavjud huquqiy tartibotning mustahkamlik darajasi bilan belgilanadi. Jamiyatning huquqiy madaniyati aholining umumiy madaniy darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, aholi madaniyatining siyosiy, ma'naviy, estetik va boshqa turlari bilan o'zaro aloqador hamda inson (fuqaro) huquqlari va erkinliklarining to'liqligi, rivojlanganligi va ta'minlanganligi; qonuniylik va huquqiy tartibot holati; jamiyatda yuridik fan va yuridik ta'limning rivojlanish darajasi bilan tavsiflanadi.

Yuqoridagilar bilan birga, sub'ektlarning huquqiy madaniyati saviyasi (darajasi)ga ko'ra uning odatdagi, professional (kasbiy), nazariy turlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Odatdagi daraja huquqiy madaniyat kishilarning kundalik hayoti doirasi bilan chegaralanadi. Kishilar undan o'z kundalik faoliyatida sub'ektiv huquqlarni ro'yobga chiqarish, zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarishda foydalanadi.

Kasbiy darajadagi huquqiy madaniyat yuridik faoliyat bilan o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida doimiy shug'ullanuvchi shaxslarga xosdir. Mazkur daraja huquqni bilish va huquqiy muammolar, huquqiy faoliyatning maqsad va vazifalarini tushunish darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

Nazariy daraja – bu nafaqat huquqni bilish, balki uning teran xossalari va qadriyatleri, amal qilish mexanizmi, huquqning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tushunishning yuksak darajasidir.

8.5. HUQUQIY TARBIYA – HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING ZARUR SHARTI

Huquqiy tarbiya huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi va o'zgarishida muhim vosita hisoblanadi. Huquqiy tarbiya huquqiy bilimlarni yoyish, to'g'ri xulqning muhimligi va qimmatini, ularni qabul qilish va keyinchalik o'zlashtirib olish maqsadida shaxs va jamiyat hayotidagi qonuniylik va boshqa huquqiy holatlardan iborat.

Хуқуқий тарбия – бу жамият аъзоларининг юриш-туриш маданиятига ва онгига ҳуқуқ ҳақидаги билимларни доимий равишда мақсадга мувофиқ таъсир этиш орқали сингдириб бориш жараёнидир.

Huquqiy tarbiya – bu huquqiy tajriba almashish bo'yicha davlat, jamoat tashkilotlari, alohida fuqarolarning bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyati: huquq normalariga rioya qilish, ularni bajarish va bu normalardan foydalanishni ta'minlovchi muayyan ijobiy tasavvurlar, qarashlar, qadriyatlarni tushunish, yo'l-yo'riqlarni shakllantirish maqsadida shaxs ongi va xulq-atvoriga doimiy ta'sir o'tkazib borishdir.

Huquqiy targ'ibot, huquqiy ta'lim, yuridik amaliyot va o'zini o'zi tarbiyalash **huquqiy tarbiya vositalariga** kiradi. Huquqiy ta'sir mexanizmining tarkibiy elementi bo'lgan huquqiy tarbiyaga, shuningdek huquqiy munosabatlarda sub'ektlarning axloqi va huquqiy ongiga ta'sir qiluvchi vosita sifatida ham qarash mumkin. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha vositalarni qo'llash asosida huquq haqidagi axborotlarni etkazish, qabul qilish, o'zgartirish va undan foydalanish hamda uni amalga ro'yobga chiqarishni ko'zda tutuvchi huquqiy xabardorlikni amalga oshirish masalalari yotadi.

Huquqiy tarbiya metodlari. Tarbiyaviy jarayon oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun metodlar, usullar va vositalarning turli birikmalaridan foydalanish mumkin. Huquqiy tarbiya vositalari va shakllari bilan bir qatorda tarbiya metodlarini, shuningdek ularni qo'llashning ilmiy

asoslantirilgan tavsiyalarini tadqiq etish huquqiy tarbiya nazariyasini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega. Yuridik fanda huquqiy tarbiyaning asosiy va qo'shimcha metodlari farqlanadi. Bunda asosiy metodlarga ishontirishdan tashqari namuna va odatlantirishga o'rgatish, qo'shimcha metodlarga esa bosh vazifasi asosiy metodlarning harakatini kuchaytirish va ta'sirini qo'shimcha oshirish bo'lgan rag'batlantirish metodlari kiradi. Rag'batlantirish metodlari taqdirlash va jazolash kabilarni o'z ichiga oladi.

8.6. HUQUQIY NIGILIZM VA HUQUQIY IDEALIZM

Nigilizm (lotincha "nihil" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "hech narsa", "inkor" degan ma'noni anglatadi). **Huquqiy nigilizm** shaxslarning, ijtimoiy guruhlarning muayyan huquqiy qadriyatlarga, normalarga, belgilangan tartib-qoidalarga salbiy munosabatini, mensimaslik va ishonchsizlik kayfiyatini ifodalaydi.

Хуқуқий нигилизм жамият ҳуқуқий тараққиётининг тизимли ва мақсадга мувофиқ ривожланишига жиддий хавф туғдирувчи ҳамда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятнинг юксалишига тўсиқ бўлувчи салбий ходисалардан биридир.

Huquqiy nigilizm quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

nazariy shakl (olimlar, mutafakkirlar, siyosatshunoslar tomonidan muayyan manba

larda huquqni inkor qilinishi);

amaliy shakl (faol va sust (passiv)).

Faol huquqiy nigilizm – ijtimoiy munosabatlarda huquqni ochiqdan-ochiq inkor qilish;

Sust huquqiy nigilizm – jamiyatdagi kishilar tomonidan amaldagi huquq normalarini mensimaslik.

Хуқуқий идеализм – ҳуқуқнинг ижтимоий муносабатларга таъсир кўрсатиш имкониятларига ортикча баҳо бериб юборилиши билан ажралиб турадиган ҳуқуқий онг ҳолатидир.

Huquqiy nigilizm holatida qonunlar nazar-pisand qilinmaydi, ular ochiq-oydin buziladi, ijro etilmaydi, qadrlanmaydi, izzat-hurmat qilinmaydi. Huquqiy idealizmدا, aksincha, qonunlarga barcha muammolarni bir zumda hal qilishga qodir mo'jizakor kuchga ega bo'lgan hujjat sifatida qaraladi.

Huquqiy nigilizm va huquqiy idealizm bitta ildizdan, ya'ni yuridik bilimsizlikdan, rivojlanmagan va buzilgan huquqiy ongdan, siyosiy-huquqiy madaniyat etishmasligidan oziq oladi. Mazkur holatda huquqiy ong deformatsiyasining yuqoridagi shakllari bir-biriga nisbatan qarama-qarshi yo'nalishga egadek ko'rinsada, pirovard natijada ular birlashadi va huquqiy ongning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. N.Matuzovning ta'biri bilan

aytganda, bizning oldimizda bitta medalning ikki tomoni namoyon bo‘ladi¹¹. Garchi huquqiy idealizm ijtimoiy voqelikda nisbatan kamroq namoyon bo‘lsada, ushbu hodisa davlat va jamiyatga xuddi huquqiy nigilizm singari ziyon etkazadi.

8.7. HUQUQIY NIGILIZMNI BARTARAF QILISH MASALALARI

Huquqiy nigilizm jamiyat huquqiy taraqqiyotining tizimli hamda maqsadga muvofiq rivojlanishiga jiddiy xavf tug‘diruvchi hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishiga to‘siq bo‘luvchi salbiy hodisalardan biridir. Bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy nigilizm holatlarining oldini olish masalasiga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Uni mumkin qadar kamaytirishning maxsus vositalariga: qabul qilinayotgan qonunlarning lozim darajadagi sifatini ta‘minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash, sudning rolini oshirish va sud-huquq islohotlarini amalga oshirish, aholini huquqiy tarbiyalash, yuridik ta‘lim va tarbiyani davr talablari bilan muvofiq holatga keltirish kabilar kiradi. SHu bilan birga, huquqni muhofaza qilish tizimi barcha sub‘ektlarining huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish bo‘yicha izchil ish olib borish lozim. Bevosita maqsad – qonuniy xulq-atvorga, shu jumladan fuqarolarning qonuniy xulq-atvori, yuristlar va boshqa davlat xizmatchilarining o‘z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida yuridik ahamiyatga molik vaziyatlarda kasbiy faolligiga erishishdir.

Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda davlat idoralari, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida qator institutlar va markazlar faol ish olib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, Adliya vazirligi huzuridagi Respublika yuristlar malakasini oshirish markazi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, Toshkent davlat yuridik universiteti kabilar shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda shaxs huquqiy ongi va madaniyatini, uning huquqiy faolligini, huquqiy ta‘lim va tarbiya tizimining mustahkam qonunchilik asoslarini belgilovchi qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini alohida qayd etib o‘tish zarur.

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish jarayonida olib borilayotgan islohotlar ijtimoiy munosabatlarning, shu jumladan, shaxs – jamiyat – davlat munosabatlari tizimining mazmun va mohiyatini muayyan darajada o‘zgarishiga olib kelganligini qayd etish joiz. Ayniqsa, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolarning ishtiroki doirasining kengayayotganligi, bunda fuqarolik jamiyati institutlari, ya‘ni siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining ham shaxs siyosiy-huquqiy faolligini kafolatlovchi, ham davlat hokimiyati va mansabdor shaxslar ustidan jamoat nazoratini o‘rnatuvchi tuzilma sifatidagi o‘rni va ahamiyati oshib borayotganligini kuzatish mumkin.

¹¹ Матузов Н.И. Правовой нигилизм и правовой идеализм/ Теория государства и права. Курс лекций / Под ред. Н.И.Матузова и А.В.Малько. – М., 2001. –С.712.

Nazorat uchun savollar

1. Huquqiy madaniyat tushunchasini muhokama qiling. Uning ahamiyatini amaliy misollar yordamida izohlang.

2. Huquqiy ong tushunchasini muhokama qiling. Uning ahamiyatini amaliy misollar yordamida izohlang.

3. Huquqiy madaniyat va huquqiy ong tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligini misollar yordamida izohlang.

4. Huquqiy tarbiya tushunchasi va uning vositalarini tushuntiring. Uning jamiyat hayotidagi tutgan o‘rnini yoritib bering.

5. Huquqiy nigilizm va huquqiy idealizm tushunchalarini yoritib va ularni atroflicha muhokama qilib, farqli jihatlarini ko‘rsating.

MAVZU YUZASIDAN TEST SAVOLLARI

1) Ҳуқуқ ва унинг ҳаётда амалга ошиши тўғрисидаги кишиларнинг тасаввурлари ва ҳисларини ифодаловчи ижтимоий онгнинг бир шакли - бу

- A) ҳуқуқий онг
- B) ахлоқий онг
- C) сиёсий онг
- D) эстетик онг
- E) диний онг

2) Қуйидагиларнинг қайси бири ҳуқуқий онгнинг белгиси эмас?

- A) ҳуқуқий онгда ҳуқуқ билан боғлиқ бўлган жамият ҳаётининг ходисаларнинг ифодаланиши
- B) ҳуқуқий онгда юридик тушунчалар ва категориялар воситаси билан ходисаларнинг ифодаланиши
- C) Давлат томонидан расмий мустаҳкамланганлик
- D) Ижтимоий онгнинг бир шакли
- E) Ҳуқуқий онгдаги ворислик

3) Ҳуқуқий маданият даражасига қараб ҳуқуқий онг қайси турларга бўлинади?

- A) илмий, оддий-кундалик, касбий
- B) ижтимоий, шахсий, бадиий
- C) индивидуал, оммавий, ёшлар
- D) ҳуқуқий, назарий, эстетик
- E) шахсий, гуруҳий, профессионал

4) Қуйидаги келтирилган кетма-кетликнинг қайси бири тўғри ифодаланган?

- A) ҳуқуқий онг, ҳуқуқий тарбия ва ҳуқуқий маданият
- B) ҳуқуқий тарбия, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият
- C) ҳуқуқий маданият. ҳуқуқий тарбия ва ҳуқуқий онг
- D) ҳуқуқий онг, ҳуқуқий маданият ва ҳуқуқий тарбия
- E) тўғри жавоб берилмаган

5) Ҳуқуқий маданиятнинг мазмунини нима ташкил қилади?

- A) ҳуқуқий фаоллик
- B) қонунга риоя қилиш одати
- C) барча жавоблар тўғри
- D) ҳуқуқни билиш
- E) ҳуқуққа муносабат

6) Ҳуқуқий тарбиянинг маҳсулини кўрсатинг?

- A) ҳуқуқий онг
- B) ҳуқуқий мафкура
- C) ҳуқуқий психология
- D) тўғри жавоб берилмаган
- E) барча жавоблар тўғри

7) Ҳуқуқий тарбия билан шуғулланувчи органларни кўрсатинг?

- A) ички ишлар органлари
- B) Прокуратура органлари
- C) фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари
- D) барча жавоблар тўғри
- E) оммавий ахборот воситалари

8) Ҳуқуқий мафкура нима?

- A) жамият ҳодисаларига бўлган муносабатни акс эттирувчи қарашлар ва тасаввурлар йиғиндиси
- B) инсонларнинг ҳуқуқий ҳис қилиши ва унга бўлган ҳиссий муносабатлари
- C) турли ижтимоий гуруҳларнинг қонунга бўлган ҳиссий муносабатлар йиғиндиси
- D) инсонларнинг ҳуқуқий ҳодисага нисбатан қарашлари ва тасаввурларининг илмий тизими
- E) тўғри жавоб берилмаган

9) Қуйидагилардан қайси бири ҳуқуқий маданият кўрсаткичлари ҳисобланмайди?

- A) Ҳуқуқни қўлловчи муассасаларнинг иш даражаси
- B) Адолат, эркинлик талабларига жавоб берувчи қонун ҳужжатлари
- C) Фуқаролар ва мансабдор шахслар ҳуқуқий онгининг даражаси, уларнинг ҳуқуқий кўрсатмаларга риоя қилиш эътиқоди
- D) Жамоатчилик назоратининг мавжудлиги
- E) Тўғри жавоб берилмаган

10) Қуйидагиларнинг қайси бири ҳуқуқий психологиянинг асосини ташкил қилади?

- A) барча жавоблар тўғри
- B) фаолият мақсади
- C) ҳиссиёт, эмоция
- D) кайфият, иллюзия
- E) жамоат манфаати

9-MAVZU. HUQUQ NORMALARI

Mavzuning asosiy yo‘nalishlari:

1. Huquq normasi tushunchasi, belgilari.
2. Huquq normasining tuzilishi: gipoteza, dispozitsiya va sanksiya.
3. Normativ-huquqiy hujjatlarda huquq normalarini bayon etish usullari.
4. Huquq normalarini turli asoslarga ko‘ra tasniflash.

9.1. HUQUQ NORMASI TUSHUNCHASI VA BELGILARI

Huquq normasi yuridik fan, xususan, davlat va huquq nazariyasining fundamental kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Huquq normasi huquqiy tizimning barcha elementlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir tomondan, u huquq ijodkorligi, shu jumladan qonunchilik jarayonining mahsuli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u huquqni qo‘llash jarayoni orqali amalga oshirilib, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish vositasiga aylanadi, shuningdek huquq normasi huquqiy munosabatlarning andozasi, modeli sifatida maydonga chiqadi. Huquq normalari yig‘indisi jamiyat huquqiy tizimining normativ asosini, ya’ni o‘zagini tashkil qiladi.

Jamiyatda qaror topadigan yangi munosabatlar ularni tartibga solishga qaratilgan tegishli huquq normalarini yaratilishiga turtki beradi. O‘z navbatida, bu huquq normalari yangi munosabatlarni qonuniy jihatdan mustahkamlaydi, muhofaza qiladi va rivojlantiradi. Xuddi shu ma’noda huquq normalari jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shadi, xizmat qiladi. “Norma” so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib, “qoida”, “namuna” degan ma’nolarni anglatadi.

Ҳуқуқ нормаси – давлат томонидан ўрнатиладиган ёки маъқулланадиган, муайян шаклда ифодаланадиган, ижтимоий муносабатни тартибга солишга қаратилган умуммажбурий ҳуқуқ-атвор қондаси.

Huquq tizimining barcha elementlari (norma, institut, soha) huquq normasi bilan chambarchas bog‘liqlikda mavjud bo‘ladi. Boshqacha aytganda, huquq normasi huquqiy tizimning asosini, boshlang‘ich hujayrasini tashkil etadi. SHu sababli unda, avvalambor, huquq mazmunining asosiy xususiyatlari ifodalanadi.

Huquq normalari ijtimoiy normalar sifatida kishilarning o‘zaro munosabatlaridagi xulq-atvor normalari jumlasiga kiradi. Bu ruxsat berish, cheklash, taqiqlash yoki pozitiv huquqqa xos majburiyatlar qoidasini o‘z ichiga oluvchi qoidadir. Huquq normasi – ijtimoiy hodisa sifatida huquqning asosiy, muhim qismi, butun huquqiy tizimning bosh tushunchasidir. Huquqning shakllanishi va amalga oshirilish jarayoni, qonunlar, barcha yuridik tushunchalar va tuzilishlar, hatto nazariya ham o‘z zamirida bevosita yoki bilvosita huquq normasiga ega bo‘ladi.

Huquq normasining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. Irodaviy xarakterga egaligi. Unda jamiyatning davlat irodasi, manfaati, maqsadi aks etadi. Mazkur iroda ijtimoiy voqelikning ijtimoiy-iqtisodiy, milliy, ma’naviy, tabiiy va boshqa shart-sharoitlar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

2. Normativligi. Huquq normasining normativligi jamiyat rivojlanishining muayyan davrida tipik va barqaror holatda bo‘lgan hamda o‘zining takroriyligi va umumiyliigi bilan tavsiflanadigan kishilarning munosabatlari va harakatlarini tartibga solishida namoyon bo‘ladi.

3. Davlat bilan o‘zaro bog‘liqligi. Huquq normalari davlat tomonidan o‘rnatiladi, ma’qullanadi, o‘zgartiriladi yoki bekor qilinadi. O‘z navbatida, davlatning jamiyat hayotining turli yo‘nalishlaridagi faoliyati huquq normalari bilan chegaralanadi va tartibga solinadi. Huquq normalarining bajarilishi davlat tomonidan ta’minlanadi.

4. Umummajburiyligi. Bu shuni anglatadiki, huquq normalari barcha huquq sub’ektlariga qaratilgan bo‘ladi va ushbu normalar ular tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

5. Rasmiy va shaklan aniqlikka egaligi. Huquq normasi umumijtimoiy iroda sifatida davlat tomonidan o‘rnatilgan rasmiy yuridik hujjatlar shaklida (normativ-huquqiy hujjatlar, normativ shartnoma va boshqalar) ifodalanadi. SHuningdek, boshqa ijtimoiy normalardan farqli ravishda huquq normalari aks etgan normativ-huquqiy hujjatlar muayyan rekvizitlarga ega bo‘ladi (qabul qilingan vaqti, joyi, ro‘yxat raqami, nomi va boshqalar).

6. Tizimlilik. Tizim so‘zi yunoncha “systeme” terminidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida “yaxlit”, “qismlardan iborat” degan ma’nolarni bildiradi. Mazkur belgi huquq normasining muayyan tarkibiy qismlarning mantiqiy, izchil va mutanosiblikda ekanligini anglatadi.

9.2. HUQUQ NORMASINING TUZILISHI: GIPOTEZA, DISPOZITSIYA VA SANKSIYA

Huquq normasi kichik tizimlardan, ya’ni o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat bo‘ladi. Ularning bo‘linishi yuzasidan turli xil qarashlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, barcha huquqshunos olimlar tomonidan huquq norma elementlari 3 ta (gipoteza, dispozitsiya va sanksiya) ekanligi yakdil qabul qilinadi. Huquq normasining tarkibiy elementlari o‘rtasida o‘zaro yuridik-mantiqiy bog‘lanish, yuridik-texnika qoidalariga asoslangan holda ifodalanish, mantiqiy izchillik hamda tizimlilik mavjud. Qolaversa, u huquqiy jihatdan umumiy mazmun asosida bir butunlikni, yaxlitlikni hosil qiladi. Biroq ular ayrim huquq sohalarida huquq

normasining elementlari sifatida to'liq holatda, birgalikda uchramaydi (Konstitutsiyaning ta'xis etuvchi normalarida dispozitsiya shaklida). Bunday holatlarda normativ-huquqiy hujjatning tegishli moddalari mohiyatini anglab etish huquqning ichki tuzilishi bilan bog'liq nazariy qoidalar asosida ijobiy hal etilishi mumkin. Huquq normalarining gipoteza, dispozitsiya va sanksiyaga bo'linishi mantiqiy norma deb ta'riflanadi. Huquq normasi nazariy fikrlash vositasida shakllantiriladi va o'zining timsolida ushbu formulani ifodalaydi: "Agar... bo'lsa, unda..., aks holda esa... bo'ladi"¹².

Huquq normasining dastlabki qismi bo'lgan gipoteza "faraz yordamida xatti-harakatning mavhum varianti konkret "hayotiy" hodisaga, ma'lum bir shaxsga, vaqtga, joyga "bog'lanadi". Farazda mustahkamlangan har bir vaziyat (holat) xulq-atvor qoidasiga "hayot nafasini kiritadi", uni alohida hodisa darajasiga ko'taradi"¹³. SHuningdek, "gipotezada huquq normasida belgilangan qoida qay sharoitda va qay holatda hamda kim tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatiladi.

Гипотеза хуқуқ нормасининг бир қисми бўлиб, унда дипозицияда кўрсатилган қоиданинг кучга кириши учун зарур бўлган аниқ ҳаётий ҳолат (воқеа, ҳаракат, ҳодисалар) ўз ифодасини топади"

Shuningdek, gipoteza huquq normasining harakatini, amal qilish shartini ko'rsatuvchi (vaqt, joy, sub'ekt va boshqalar) yuridik faktlarni ifoda etuvchi tarkibiy qism sifatida ham e'tirof etiladi.

Ta'kidlash lozimki, gipoteza matni "agar", "agarda", "u holatda" kabi so'zlari yoki shunga yaqin so'zlar bilan boshlanishi ham mumkin. O'z navbatida, gipoteza ham bir necha turlarga bo'linadi.

Huquq normalarining amal qilishi bilan bog'liq bo'lgan bitta shart-sharoit aks etgan gipoteza **oddiy gipoteza** hisoblanadi. Masalan, Prezident O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig'ilishida *qasamyod qabul qilgan paytdan boshlab* o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 92-modda).

Murakkab gipotezada esa huquq normasining amal qilishi ikki yoki undan ortiq holatlarning mavjud yoki mavjud emasligiga bog'liq ekanligi ko'rsatiladi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga *o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi* saylanishi mumkin" Ushbu normadan ko'rinib turibdiki, prezidentlikka nomzod uchun bir qancha talablar belgilangan. Ularning biri mavjud bo'lmasligining o'zi normani amal qilishiga to'sqinlik qiladi.

Диспозиция хуқуқ нормасининг бир қисми бўлиб, унда гипотезада кўрсатилган ҳолатлар мавжуд бўлганида хуқуқ субъектлари риюя этишлари лозим бўлган хатти-ҳаракат қоидаси (хуқуқ ва мажбуриятлари) ифодаланган бўлади.

¹² Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2018. – B. 257.

¹³ Исломов З.М. Давлат ва хуқуқ назарияси / масъул муҳаррирлар: Х.Раҳмонкулов, академик, ю.ф.д., проф., Х.Бобоев, ю.ф.д.,проф.-Т.: Адолат, 2007. Б.672.

Alternativ (muqobil) gipoteza esa huquq normalarining amal qilishi sanab o‘tilgan shart-sharoitlardan biriga bog‘liq ekanligini bayon etadi. Masalan, “*Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar*” (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 66-modda).

Dispozitsiya lotincha “disposition” so‘zidan olingan bo‘lib, “joylashuv”, “joylashgan”; inglizcha “disposition” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “farmoyish”, “farmoyish berish” ma’nolarini anglatadi¹⁴. Bu yuridik normaning o‘zagi, huquqqa muvofiq xulq-atvor namunasi, modelidir. Biroq dispozitsiya tartibga solish xususiyatlarini gipoteza va sanksiya bilan birgalikdagina namoyon eta oladi, harakatda bo‘ladi. Yurish-turish qoidasining ifodalanishiga ko‘ra dispozitsiyalar oddiy, murakkab va muqobil hamda xulq-atvor qoidalarini bayon qilishning to‘laligi bo‘yicha tavsiflovchi, blanket va havola etuvchi dispozitsiyalarga bo‘linadi.

Oddiy dispozitsiya xulq-atvor, yurish-turishning konkret variantini, uning mazmunini to‘la ochib bermagan holda ko‘rsatib o‘tadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasi mazmuniga binoan, O‘zbekiston Respublikasi xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Murakkab dispozitsiya huquqiy munosabat sub’ektining sub’ektiv huquq va yuridik majburiyatlarining keng doirasini o‘z ichiga qamrab oladi, ya’ni bunda huquq sub’ektining huquqlari yoki majburiyatlari sanab o‘tiladi.

Muqobil dispozitsiyada xulq-atvor, yurish-turishning bir nechta variantlari ko‘rsatib o‘tiladi va munosabat ishtirokchilari ulardan biriga amal qilishlari mumkin yoki shart. Masalan, Jinoyat protsessual kodeksining 385-moddasiga binoan, prokuror yoki uning o‘rinbosari ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishini ko‘pi bilan besh sutkada ko‘rib chiqishi va quyidagi qarorlardan birini qabul qilishi shart: 1) ishni sudga yuborish uchun asoslar mavjud deb topib, ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlash; 2) o‘z qarori bilan ayblov mazmunidan ayrim bandlarni chiqarib tashlash, engilroq jinoyatni nazarda tutuvchi qonunni qo‘llash va shu o‘zgartirishlar bilan ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlash; 3) qo‘shimcha tergov o‘tkazish uchun ishni o‘z ko‘rsatmalari bilan surishtiruvchi yoki tergovchiga qaytarish; 4) surishtiruv o‘tkazilgan jinoyat ishini tergovga tegishlilik qoidalari buzilganligi aniqlanganda dastlabki tergov organiga o‘tkazish; 5) ishni yuritishni to‘xtatish; 6) ishni tugatish; 7) amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritish.

Tavsiflovchi dispozitsiya – huquq sub’ektlarining sub’ektiv huquq va yuridik majburiyatlari hamda xatti-harakatlarining to‘liq bayonini ifoda etiladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 169-moddasi “O‘g‘rilik”, ya’ni o‘zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish (qonunda, garchand bu mantiqan o‘rinli

¹⁴ Ўзбекистон юридик энциклопедияси / Нашр учун масъул Р.А. Муҳитдинов ва бошқ.; масъул муҳаррир Н.Тойчиев. –Т.: Адолат, 2010. Б. 140.

bo'lmada, talon-taroj qilish deb yozilgan). Bunda norma dispozitsiyasi hammaga tushunarli bo'lishi uchun ma'lum bir ma'noda, qisqa shaklda izoh beriladi.

Blanket dispozitsiya huquq normasida ko'rsatilgan huquq sub'ektlarining sub'ektiv huquq va yuridik majburiyatlarining mazmunini aniqlash uchun boshqa hujjatlarning normalarida belgilangan tegishli qoidalarga havola qiladi. Masalan, Jinoyat kodeksida yong'in xavfsizligi, texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan (Jinoyat kodeksi, 257-modda). Ushbu qoidalarning mazmuni Jinoyat kodeksida emas, balki normani qo'llashda murojaat qilish zarur bo'lgan boshqa normativ hujjatlarda ochib beriladi.

Havola etuvchi dispozitsiya deganda qo'llanayotgan huquq normasi mansub bo'lgan normativ-huquqiy hujjatning boshqa normasiga (masalan, Jinoyat kodeksining 110-moddasi – “Qiyinash”) yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatga murojaat etishni nazarda tutuvchi dispozitsiya havola etuvchi dispozitsiya sifatida tushuniladi.

Sanksiya huquq normasining mantiqiy-yakunlovchi qismi hisoblanadi. Sanksiya lug'aviy jihatdan “qat'iy qaror” degan ma'noni bildirib, lotin tilidagi “sanstio” va ingliz tilidagi “sanstion” so'zlaridan olingan.

Санкция – диспозицияда кўрсатилган талабларни бажармаганлик учун берилиши мумкин бўлган таъсир чораси ёки таъсир этилган ҳаракатни содир этганлик учун рағбатлантиришнинг тури ва ўлчови ҳисобланади.

Sanksiyalarda ifodalangan salbiy oqibatlarining aniqligiga qarab mutlaq aniq, nisbatan aniq va kumulyativ sanksiyali normalar ajratiladi.

Mutlaq aniq sanksiyali huquq normalarida davlatning aniq bitta majburlov chorasi ko'rsatiladi. Masalan, transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefonidan foydalanishi *eng kam ish haqining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi* (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, 128¹-modda).

Nisbatan aniq sanksiyali huquq normalari esa turli xil jazo turlaridan birini yoki huquqiy ta'sir choralaridan birini qo'llashni nazarda tutadi. Masalan, haydovchilarning korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qarashli transport vositalaridan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishi *eng kam ish haqining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi* (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, 141-modda).

Kumulyativ sanksiyali huquq normalari o'zida asosiy jazodan tashqari qo'shimcha jazo berilishini ham nazarda tutadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasida “Jazo tizimi” belgilangan bo'lib, unga ko'ra jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan muayyan huquqdan mahrum qilish faqat asosiy jazo sifatidagina emas, balki qo'shimcha jazo tariqasida ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish odam o'lishiga sabab bo'lsa, *muayyan*

huquqdan mahrum qilib, etti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan (O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 266-modda).

9.3. HUQUQ NORMALARINI TURLI ASOSLARGA

KO'RA TASNIFLASH

Huquq normalari ularda mustahkamlangan qoidalarning xarakteriga qarab **huquq va vakolat beruvchi, majburiyat yuklovchi va taqiqlovchi (man qiluvchi) normalarga** ajratiladi:

1. Huquq sub'ektiga muayyan harakatlarni sodir etish mumkinligini ko'rsatuvchi huquq normalari **huquq va vakolat beruvchi normalar** deyiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega..."

2. Huquq sub'ektiga muayyan harakatlarni sodir etish lozimligi (shartligi) ni ko'rsatuvchi huquq normalari **majburiyat yuklovchi normalar** deyiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar" deyilgan va bu qoida majburiyat yuklash xarakteriga ega.

3. Huquq sub'ektiga muayyan xatti-harakatlarni sodir etishni man qiluvchi normalar **taqiqlovchi normalar** deb ataladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi" degan qoida bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Bulardan tashqari, huquq normalari boshqa bir qator mezonlar asosida ham tasniflanadi. Jumladan, huquq normalari o'zida xatti-harakatni shakllantirishning mavhumligiga qarab **abstrakt** (mavhum) va **kazuistik normalarga**, gipotezada mustahkamlangan holatning faktik jihatlari aniq yoki nisbiy ekanligiga qarab **aniq va nisbiy aniq normalarga**, gipotezaning hajmiga qarab **oddiy, murakkab va alternativ normalarga**, dispozitsiyaning aniqligiga qarab **mutlaq aniq, nisbatan aniq va blanket normalarga**, huquq normalari sanksiyalarning aniqligiga qarab **mutlaq aniq va nisbatan aniq normalarga** ham bo'linadi.

Huquqiy tartibga solish usuliga ko'ra **imperativ va dispozitiv normalarga**, sub'ektlariga qarab **umumiy va maxsus normalarga**, harakatlanish hududiga qarab **mamlakatning butun hududida va mahalliy miqyosda amal qiluvchi normalarga** ajratiladi.

Shuningdek, huquq sohalari nuqtai nazaridan huquq normalarining konstitutsiyaviy, ma'muriy-huquqiy, fuqaroviy-huquqiy, jinoiy-huquqiy, xalqaro va boshqa turlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Huquq normasi tushunchasi, belgilari va xususiyatlarini izohlab bering.
2. Huquq normasining modellashtirish va tipiklashtirish xususiyatlarini tahlil qilish orqali uning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish borasidagi funksiyasini muhokama qiling.
3. Huquq normasining gipotezasi tushunchasi, turlari va o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering. Turlari bo'yicha qonunchilikdan misollar keltiring.
4. Huquq normasining dispozitsiyasini izohlang hamda turlari bo'yicha qonunchilikdan misollar keltiring.
5. Sanksiya va uning turlari va o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering. Turlari bo'yicha qonunchilikdan misollar keltiring.

MAVZUNYUZASIDAN TEST SAVOLLARI

- 1) Қўллаш усулига кўра санкциянинг қандай турлари мавжуд?**
 - A) жазоловчи
 - B) ҳуқуқни танлаш
 - C) барча жавоблар тўғри
 - D) ҳуқуқни муҳофаза қиладиган
 - E) ҳуқуқий ваколат берувчи

- 2) Санкциянинг қайси тури судга қонунда кўрсатилган бир неча жазодан бирини тайинлаш имконини беради?**
 - A) мутлоқ аниқ санкция
 - B) нисбий аниқ санкция
 - C) кумулятив санкция ва нисбий аниқ санкция
 - D) фақат муқобил санкция
 - E) Тўғри жавоб берилмаган

- 3) Барча ижтимоий нормаларга қандай белгилар хос?**
 - A) Ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи восита
 - B) Мажбурий хулқ-атвор қоидаси
 - C) Кишилар онгли-иродавий фаолиятининг натижаси
 - D) Давлат мажбурлов кучининг таъминланиши
 - E) Расмий шаклда ифодаланиш

- 4) Ҳуқуқий тартибга солиш усулига кўра ҳуқуқ нормалари қандай турларга бўлинади?**
 - A) Императив ва диспозитив
 - B) Тавсия этадиган ва коллизия
 - C) Умумий ва маҳаллий миқёсда ҳаракат қилувчи
 - D) Декларатив ва дефинитив
 - E) Тўғри жавоб берилмаган

- 5) Қандай нормаларга "Ҳакам нормалар" дейилади?**
 - A) Дефинитив нормаларга

- В) Коллизион нормаларга
- С) Декларатив нормаларга
- Д) Диспозитив нормаларга
- Е) Тўғри жавоб берилмаган

6) Ҳаракат доирасига кўра ҳуқуқ нормалари қандай турларга бўлинади?

- А) Умумий ва махсус
- В) Декларатив ва дефинитив
- С) диспозитив ва императив
- Д) Умумий ва маҳаллий миқёсда ҳаракат қилувчи
- Е) Тўғри жавоб берилмаган

7) Ҳуқуқ нормасининг қайси элементи давлат мажбурият чораларини кўллашни кўрсатади?

- А) фақат диспозиция
- В) гипотеза ва санкция
- С) барча жавоблар тўғри
- Д) фақат гипотеза
- Е) фақат санкция

8) Ҳуқуқ нормалари субъектга кўра қандай нормаларга бўлинади?

- А) Умумий ва махсус
- В) Умумий ва маҳаллий миқёсда ҳаракат қилувчи
- С) Диспозитив ва императив
- Д) Тавсия этадиган ва коллизион
- Е) Декларатив ва дефинитив

9) Норматив ҳуқуқий ҳужжатлар хусусиятига кўра ҳуқуқ нормалари қандай турларга бўлинади?

- А) маълум ва номаълум муддатга амал қилувчи нормалар
- В) моддий ва процессуал нормалар
- С) қонун ости ҳужжатларида белгиланган ва қонун шаклида чиқариладиган нормалар
- Д) тартибга солувчи ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи нормалар
- Е) императив, диспозитив ва коллизион нормалар

10) Санкция нима?

- А) ҳуқуқий норма бузилган ҳолда ҳуқуқ бузган шахсга қўллананиладиган давлат мажбурият чорасининг тури ҳисобланади
- В) ҳуқуқий нормаларнинг таркибий унсури бўлиб, унинг диспозицияси амалга ошишини белгиловчи ҳаётий шароит
- С) ҳуқуқ субъектларининг ҳуқуқ ва мажбуриятларини белгилайди ва уларнинг хатти-ҳаракатлари вариантларини ифодалайди
- Д) Барча жавоблар тўғри

Е) ҳуқуқ субъектларининг фақатгина мажбуриятларини белгилайди

10-MAVZU. HUQUQ SHAKLLARI (MANBALARI)

Mavzuning asosiy yo‘nalishlari:

1. Huquq shakllari (manbalari) tushunchasi va turlari.
2. Huquqiy odat – huquqning qadimgi manbasi sifatida.
3. Huquqiy pretsedent tushunchasi, turlari.
4. Normativ-huquqiy hujjat – huquqning manbasi.
5. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari.
6. Normativ shartnomalar – huquqning maxsus manbasi sifatida.
7. Normativ-huquqiy hujjatlarning vaqt, hudud va shaxslarga nisbatan amal qilishi.
8. Xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikda implementatsiya qilish masalalari.
9. O‘zbekiston Respublikasida huquqning asosiy manbalari.

10.1. HUQUQ SHAKLLARI (MANBALARI) TUSHUNCHASI VA TURLARI

Yuridik adabiyotlarda huquq manbasi bilan birga, “huquq shakli” atamasi ham keng va yonma-yon qo‘llaniladi. Ushbu atamalarning kundalik, ilmiy va professional doirada bir xil mazmunda tushunilishi va shu asosda qo‘llanilishi, ular o‘rtasidagi farqli holatlarni anglamaslikka hamda bu tushunchalarni sinonim sifatida qabul qilishga olib keladi.

“Huquq manbasi” va “huquq shakli” kategoriyalarining yuridik tabiatini tushunishda, avvalo, “manba” va “shakl” so‘zlarining lug‘aviy ma‘nosiga e‘tibor qaratish zarur. Jumladan, “manba” (arabcha – boshlanish; ibtido) ko‘chma ma‘noda esa biror narsa, ish-harakatning yuzaga kelishi, faoliyat uchun asos-omil bo‘lgan narsa; sabab degan ma‘nolarni bildiradi. “SHakl” esa (arabcha – ko‘rinish, rasm, tarz) biror-bir narsa yoki predmetning tashqi ko‘rinishi, mazmunining ifodalanishi kabi ma‘nolarni anglatadi¹⁵.

Huquq manbasi muayyan rasmiy bir shaklga ega bo‘lishi uchun, albatta, bunday manba davlat tomonidan e‘tirof etilishi va tegishli huquq ijodkorligini amalga oshiruvchi vakolatli organlar tomonidan rasman e‘tirof etilishi, ya‘ni mustahkamlab qo‘yilishi kerak.

Xorijlik huquqshunos olim G.Kelzenning fikricha, “huquq manbasi” keng mazmunga ega. Huquq manbasi tushunchasi odob-axloqqa oid me‘yorlar, siyosiy prinsiplar, huquqiy doktrinalar, huquqshunos mutaxassislar fikrlarini anglatadi¹⁶.

Huquqning manbasi deganda umumiy ma‘noda huquqni ifoda etilish shakli tushuniladi. Huquqiy hodisa sifatida huquq manbasini **uch xil ma‘noda** tushunish mumkin: **moddiy ma‘noda** – bu jamiyatdagi mulkchilik shakllari, moddiy shart-

¹⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортик, сўз ва сўз бирикмаси. –Т.: “Ўзбекистан миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.535., 2008. – Б.537.

¹⁶ Қаранг: Kelsen H. General theory of law and state. The Lawbook Exchange, Ltd., 2009. – P.131.

sharoitlar, jamiyat a'zolarining qiziqishlari va manfaatlari; **mafkuraviy ma'noda** – bu turli huquqiy mafkura va ta'limotlar, huquqiy ong; **maxsus yuridik ma'noda** – bu huquqning shakllari. Huquqning quyidagi shakllari mavjud: huquqiy odat, normativ-huquqiy hujjat, huquqiy pretsedent, normativ shartnomalar va boshqalar.

10.2. HUQUQIY ODAT – HUQUQNING QADIMGI MANBASI SIFATIDA

Tarixan huquqning dastlabki manbai (shakli) bo'lib huquqiy odat hisoblanadi.

Хуқуқий одат – узоқ давр мобайнида амалда бўлиш натижасида шакллانган ва давлат томонидан умуммажбурий қоида сифатида тан олинган юриш-туриш қоидасидир.

Har qanday odat ham huquqiy odatga aylana olmaydi, balki ma'lum bir guruh yoki butun jamiyatning manfaatlariga javob bera oladigan va davlat tomonidan sanksiyalangan odatgina huquqiy odat bo'lishi mumkin. Huquqning manbalari tizimida huquqiy odatning roli va o'rni turli davlatlarda turlicha bo'lgan. Davlat yuzaga kelishi bilan qonunlar, farmoyishlar, sud pretsedentlari, ma'qullangan urf-odatlar va hokazolar ko'rinishida o'rnatilgan pozitiv huquq tizimini shakllantirgan. Lekin maxsus siyosiy tashkilot sifatida davlat vujudga kelgunga qadar ham insoniyatga odat huquqi normalari bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning muayyan tajribasi shakllangan edi.

Huquqiy odat boshqa ijtimoiy normalardan o'zining davlat tomonidan tasdiqlangani, bajarilishining majburiyligi va davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanishiga qarab ajralib turadi. Mamlakatimizda ham huquqiy odat muayyan darajada huquq manbasi sifatida e'tirof etilgan. Xususan, Qurbon va Ro'za hayiti, Navro'z kabi milliy qadriyatlarimiz rasmiy ravishda bayram sifatida e'tirof etilib, mehnat qonunchiligida dam olish kunlari sifatida rasmiy belgilab qo'yildi.

Milliy qonunchiligimizda tegishli ijtimoiy munosabatlarga odat normalarini qo'llash mumkinligi haqida so'z boradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 6-moddasi "Ish muomalasi odatlari. Mahalliy odat va an'analar" deb nomlanadi. Unga ko'ra tadbirkorlik faoliyatining biron-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo'llaniladigan, qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan xulq-atvor qoidasi, biron-bir hujjatda yozilganligi yoki yozilmaganligidan qat'i nazar, ish muomalasi odati deb hisoblanadi. Fuqarolik qonun hujjatlarida tegishli normalar bo'lmagan taqdirda, bu munosabatlarni tartibga solishda mahalliy odat va an'analar qo'llaniladi. Tegishli munosabat ishtirokchilari uchun majburiy bo'lgan qonun hujjatlari normalariga yoki shartnomaga zid bo'lgan ish muomalasi odatlari, mahalliy odat va an'analar qo'llanilmaydi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 8-moddasida oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an'analarning qo'llanilishi bilan bog'liq qoidalar o'z ifodasini topgan. Xususan, qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari tamoyillariga zid bo'lmagan mahalliy urf-odat va an'analar qo'llaniladi.

10.3. HUQUQIY PRETSEDENT TUSHUNCHASI, TURLARI

Ko'pgina mamlakatlarda huquqning boshqa manbalari bilan muayyan munosabatlarni tartibga solishning imkoni bo'lmagan hollarda huquqni

qo‘lovchilar tomonidan tegishli huquq qoidasini yaratishga zarurat tug‘ilgan. Huquqning bunday manbalari qatoriga huquqiy pretsedentni kiritish mumkin.

Huquqiy pretsedentning sud va ma‘muriy pretsedent shakllari mavjud. Huquqiy pretsedentning sud pretsedenti shakli AQSH, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Kanada va YAngi Zelandiya kabi umumiy huquq amalda bo‘lgan davlatlarda huquqning manbasi sifatida keng qo‘llaniladi.

Хуқуқий прецедент (лот. “*praecedens*” – аввалгиси, олдингиси) – суд ёки маъмурий органнинг ёзма ёки оғзаки қарори бўлиб, бу қарор келгусида барча шунга ўхшаш ишларни кўриб чиқиш ва ҳал қилиш учун асос бўладиган намуна

Pretsedent avval sodir bo‘lgan vaziyat yana yuzaga kelganda qanday yo‘l tutish lozimligini anglatadi va o‘ziga xos namuna sifatida qabul qilinishi tushuniladi. Sud ishlari bilan bog‘liq pretsedentga sud pretsedenti deb qaraladi. Sud pretsedenti – bu muayyan ish bo‘yicha sudning shunday qaroriki, u boshqa sudyalarga kelgusida shunga o‘xshash ishlarni hal qilishda qanday qaror qabul qilish lozimligini ko‘rsatadi¹⁷.

Sud qarori bilan bog‘liq shakllangan huquq normalari ingliz huquqida pretsedent huquqi (*case law*)ga kiritilgan. Ushbu ma‘noda “pretsedent” atamasi sud ishidan boshqa narsani anglatmaydi, ya‘ni bu sud tomonidan tugatilishi mumkin (fuqarolik ishida) yoki lozim (jinoyat ishida) bo‘lgan protsessual ish yuritish yoxud u yoki bu ishning bevosita sud majlisida muhokama etilishidir. SHu bois sud qarorlariga pretsedent huquqi sifatida ham qaraladi.

Ingliz huquqining asosiy manbai sifatida sud pretsedentini tan oluvchi umumiy doktrina XIX asrning ikkinchi yarmida shakllangan. Bunga qadar esa sudyalalar o‘z qarorlari bilan huquq normalarini o‘rnatishlari mumkinligi haqida tasavvur qilish qiyin edi, chunki jamiyat huquqiy ongida huquqning manbai sifatida mamlakat odatlari va an‘analarini tan oluvchi va sud pretsedentini huquq manbai qatoriga kiritishni istisno qiluvchi qarash hukm surib kelgan.

Huquqqa bunday yondashuvga ko‘ra sudyalalar huquq qanday mavjud bo‘lsa, uni shunday qabul qilishlari lozim bo‘lgan. SHu sababli sudlar o‘z qaror (pretsedent)lariga majburiy pretsedent, ya‘ni huquq manbai sifatida emas, balki faqat huquq normasining mavjudligini muayyan ishlar bo‘yicha chiqarilgan qarorda qanday shakllangan bo‘lsa, shunday ko‘rinishda tasdiqlovchi qat‘iy isbot sifatida qaragan. Vaqt o‘tishi bilan ingliz sudlari o‘xshash ishlar bo‘yicha avval chiqarilgan sud qarorlariga e‘tibor bilan qaray boshlagan. Nihoyat sudya Park *Mirehouse v. Rennel* (1833) ishida yuqoridagi yondashuvni quyidagicha ifodalagan: “pretsedentlar qanday bo‘lsa, o‘sha tarzda e‘tiborga olinishi lozim, sudyalalar esa ularni rad etishlari va umuman analogiyadan bosh tortishlari mumkin emas”.

Hozirda amal qilib kelayotgan sud pretsedentlarining majburiyligi to‘g‘risidagi ta‘limot quyidagi ikki muhim holat ta‘sirida shakllangan:

birinchidan, 1865 yilda Londondagi sudlarning tashabbusiga ko‘ra maxsus Kengash va Huquqiy jamiyat tashkil etilgan. Ushbu muassasalarga yuqori turuvchi

¹⁷ Қаранг: Ҳайитбоев Ф.П., Нажимов М.К. Ҳозирги замон асосий ҳуқуқий тизимлари / Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. З.М.Исломов. Ўқув қўлланма. –Т.:ТДЮИ, 2008. –Б.67.

sud instansiyalarining qarorlarini ularning har bir nashrlarini majburiy professional nazorat ostiga olgan holda nashr etib borish yuklangan. Bu vaqtga qadar bunday nashr etish xususiy tartibda amalga oshirib kelingan. Ba'zi nashrlar aniq ma'lumotlarni kafolatlagan bo'lsa, boshqalari esa ishonarli bo'lmagan. Ko'p sud qarorlari umuman nashr etilmay qolgan.

ikkinchidan, 1873 – 1875 yillarda qabul qilingan sudlar tuzilishi to'g'risidagi qonunlar asosida sudlar yagona markazlashgan tizimining tashkil etilishi. Pretsedent huquqi tizimining amal qilishi ingliz sudlarining yagona tizimga birlashishlarini va ularning bir-birlariga muayyan tarzda quyidan yuqoriga qarab bo'ysunish tartibining joriy etilishini taqozo etgan.

Hozirgi vaqtda Angliya huquqini yaratishdagi sudlarning roli masalasi nazariy jihatdan bahsli hisoblanadi. Muayyan nizo bo'yicha qonun qabul qilinmaganligi bois sud odil sudlovni amalga oshirishdan voz kechishi mumkin emasligini belgilovchi qoida tan olinadi. SHu sababli, sud qonunchilik yo'li bilan tartibga solinmagan huquq sohasida qaror qabul qilishi lozim bo'lsa, bunda uning ishni mohiyat bo'yicha hal qilish uchun zarur bo'lgan normani yaratishdan boshqa iloji qolmaydi. Boshqacha aytganda, bunday holatda sud qarorlari huquq manbaiga aylanadi.

Pretsedent huquqi sudyalarning tegishli yuqori turuvchi sudlar qarorlariga rioya qilishlari majburiyatini belgilovchi vertikal tartib asosida amal qiladi. YUqori turuvchi sudlar qarorlari barcha quyi turuvchi sudlar uchun majburiy, biroq ular yuqori turuvchi sudlarni bir-biriga bog'liq qilib qo'ymaydi.

Buyuk Britaniya hozirgi zamon huquq tizimining rivojlanishida pretsedentning roli ancha yuqori. Aytish lozimki, statut huquqi mamlakatda pretsedent huquqi va pretsedent huquqiy madaniyatining shakllangan muhitida rivojlanmoqda. SHu sababli, pretsedent huquqi an'analarda kasbiy jihatdan tarbiyalangan sudyalar, albatta, qonunda u yoki bu atamaning boshqacha mazmuni maxsus izohlanmasa, qonunchilik kategoriyalarini pretsedent huquqida qanday tushunilsa, shunday qabul qiladi.

10.4. NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT – HUQUQNING MANBASI

Normativ-huquqiy hujjatlar huquq manbalari tizimida alohida o'ringa ega. Boshqa huquq manbalariga nisbatan normativ-huquqiy hujjatlarning quyidagi afzal jihatlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

birinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar bayon etishning muayyan qoidalariga asoslanib yaratilganligi bois ularda huquq normalari aniq ifoda etiladi. Bu esa normativ-huquqiy hujjatlardagi qoidalarni turli ma'nolarda tushunishning oldini oladi va uni bir xil qo'llanilishini ta'minlaydi. Aynan shu jihat huquqning rasman aniqlik xususiyatiga mos keladi.

ikkinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar birgalikda qonunchilikning yaxlit bir tizimini tashkil qiladi. Har bir normativ-huquqiy hujjat qonunchilikning ierarxik tizimida o'zining belgilangan o'rniga ega bo'lib, boshqa hujjatlar bilan birga muayyan munosabatlarni kompleks asosda tartibga solishga qaratilgan bo'ladi. Normativ-huquqiy hujjatlar huquqning muayyan sohasi doirasida qabul qilinadi. Bu esa zarur holatlarda tegishli normativ hujjatlarni izlab topishni osonlashtiradi. Huquq sohasi doirasidagi hujjatlar o'rtasida bo'shliq va ziddiyatlar

yuzaga kelishining oldini oladi. Normativ-huquqiy hujjatlarning ushbu jihati huquqning tizimlilik xususiyatiga mos keladi.

uchinchidan, normativ-huquqiy hujjatlarni boshqa huquq manbalaridan farqli o'laroq tez va qisqa muddatlarda qabul qilish, o'zgartirishlar kiritish yoki zarur holatlarda bekor qilish mumkin. Buning natijasida normativ-huquqiy hujjatlar boshqa huquq manbalariga nisbatan ijtimoiy taraqqiyotning ehtiyojlariga ko'proq mos keladi. Normativ-huquqiy hujjatlarning ushbu jihati tezkorlik deb nomlanadi va u huquqning o'zgaruvchanlik xususiyatiga mos keladi.

Норматив-хуқуқий ҳужжат – ваколатли давлат органи (ёки мансабдор шахс)нинг белгиланган тартибда қабул қилган, ижтимоий муносабатларни тартибга солишга қаратилган, умуммажбурий тусдаги қоидаларни ўрнатувчи, ўзгартирувчи ёки бекор қилувчи юридик ҳужжати.

O'z navbatida, davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan chiqarilgan barcha huquqiy hujjatlar ham normativ-huquqiy hujjat bo'la olmaydi. Faqatgina umumiy huquq va majburiyatlarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi hujjatlarga normativ-huquqiy hujjat sifatida e'tirof etiladi.

Normativ-huquqiy hujjatning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

davlat nomidan qonunda belgilangan tartibda qabul qilinadi;

vakolatli sub'ektlarning huquq ijodkorligi faoliyati mahsuli hisoblanadi;

barcha uchun umummajburiy qoidalarini o'rnatadi, o'zgartiradi (takomillashtiradi) yoki bekor qiladi;

maxsus protsessual tartibda amalga oshiriladi;

rasmiy shaklga ega (qonun, farmon, qaror va boshqalar);

muayyan turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi;

huquqiy qoidaning mazmuni, ya'ni huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari bayon etiladi;

unda mustahkamlangan qoidalar bajarilmagan yoki buzilgan taqdirda muayyan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi va qoida bo'yicha davlatning majburlov kuchi ishga solinadi.

10.5. NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNING TURLARI

Normativ-huquqiy hujjatlarni tasniflash turli asoslar, ya'ni, huquqiy tartibga solish predmeti yoki tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarning turi, normativ hujjat amal qiladigan hudud, ularning yuridik kuchi, mazmuni, nomlanishi, amal qilish xususiyati, norma ijodkorligi sub'ektlari doirasi nuqtai nazaridan amalga oshiriladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar muayyan bir tizim bo'lib, ushbu tizim ularning yuridik kuchiga asoslangan holda tashkil topadi. SHuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarning farqi quyidagi uchta jihat bilan bog'liq: normativ-huquqiy hujjatlar tomonidan hal etiladigan masalalarning mazmuni va xilma xilligi; yuridik tabiati yoki yuridik kuchiga ko'ra bir-biridan farq qilishi; normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayoni va tartibining turlichaligi.

Mazkur normaning mazmunidan normativ-huquqiy hujjatlarning ikki turga, ya'ni qonun va qonunosti hujjatlariga bo'linishi ko'rinib turibdi. Xususan, Qonunning 6-moddasida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari quyidagicha ifodalangan: "Normativ-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlaridir va ular O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir".

Normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchiga qarab har birini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Konstitutsiya – (lotincha “conctitutio” – o‘rnatish, tuzilish) moddiy ma’noda, avvalo, inson va fuqaro huquqlari hamda erkinliklarini e’lon qiluvchi va kafolatlovchi, shuningdek ijtimoiy tuzum, boshqaruv shakli, davlat tuzilishi, hokimiyatning markaziy va mahalliy organlarini tashkil etish asoslarini, ularning vakolatlari, o‘zaro munosabatlarini, davlat ramzlari va poytaxtini belgilaydigan qonun hujjati, hujjatlar yoki konstitutsiyaviy odatlar majmui.

O‘z yuridik tabiati va mohiyatiga ko‘ra Konstitutsiya boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan quyidagi muhim jihatlari bilan ajralib turadi: birinchidan, Konstitutsiya maxsus sub’ekt tomonidan yoki uning nomidan o‘rnatiladi; ikkinchidan, konstitutsiyaviy qoidalar ta’sis etuvchi, yo‘naltiruvchi, birlamchi ahamiyatga ega; uchinchidan, konstitutsiyaviy tartibga solish o‘z hajmining keng qamrovliligi bilan tavsiflanadi, ya’ni u nihoyatda muhim va keng ko‘lamdagi ijtimoiy munosabatlar doirasiga ta’sir ko‘rsatadi; to‘rtinchidan, Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga, ya’ni ustuvorlikka, oliy yuridik kuchga, o‘ziga xos muhofaza shakliga, maxsus tarzda qabul qilinish va o‘zgartirish tartibiga ega¹⁸.

Qonun – davlat hokimiyatining oliy vakillik va qonunchilik hokimiyati organi tomonidan yoki bevosita xalqning xohish - irodasiga ko‘ra (masalan, *referendum* o‘tkazish yo‘li bilan) qabul qilingan, qoida tariqasida eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik hujjat. Qonun davlat huquq tizimining negizini tashkil etadi, davlatning boshqa organlari normativ hujjatlariga nisbatan oliy yuridik kuchga ega bo‘ladi. Qonun muhim deb hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasidir.

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasida O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini ifodalovchi norma quyidagicha ifodalangan: “O‘zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinishi mumkin. Kodekslar O‘zbekiston Respublikasining qonunlari bilan tasdiqlanadi”.

¹⁸ Одилқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. –Т.: Шарқ, 2002. –Б.22-23.

Qonunosti hujjati qonunga asosan va uning ijrosini ta'minlash yuzasidan chiqariladi. Qonunosti hujjatlari umummajburiy tusdagi (normativ) va umummajburiy tusga ega bo'lmagan (normativ bo'lmagan) huquqiy hujjatlarga bo'linadi.

10.6. NORMATIV SHARTNOMALAR – HUQUQNING MAXSUS MANBASI SIFATIDA

Huquq manbalari tizimida ijtimoiy munosabat ishtirokchilari o'rtasida o'zaro aloqalarni tartibga soluvchi huquqning shakli sifatida normativ shartnomalar alohida mavqega ega. Normativ shartnomalar asosan xalqaro munosabatlarda huquq manbai sifatida maydonga chiqadi. Xalqaro shartnoma – davlatlararo yoki boshqa shaxslar o'rtasida o'zaro kelishuv bo'lib, xalqaro huquq asosida tartibga solinadi. Xalqaro shartnomalar tuzilgan vaqtda yoki tan olingan (ratifikatsiya qilingan)da uning matnida ifodalangan majburiyatlarni taraflar bajarishi shartligi belgilab qo'yiladi. Ayrim holatlarda davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnomalar amal qilish muddati tugamasdan ham bekor qilinishi mumkin. Bu xalqaro huquqda denonsatsiya qilish deb nomlanadi. Vena konvensiyasining 2-moddasida xalqaro shartnoma tushunchasi quyidagicha ifodalangan: “SHartnoma – bu davlatlar o'rtasidagi kelishuv bo'lib, yozma ravishdagi xalqaro huquq bilan tartibga solinadi”¹⁹.

Икки ёки ундан ортиқ мустақил ҳуқуқ субъектлари ўртасида тузиладиган ҳамда уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини ўрнатадиган, ўзгартирадиган ёки бекор қиладиган оғзаки ёки ёзма шаклда ифодаланадиган ва тузиладиган битимларга **норматив шартномалар** дейилади.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida xalqaro huquq normalari ustuvorligi prinsipining mustahkamlanganligi xalqaro huquq va milliy huquqiy tizimning o'zaro samarali va ta'sirchan huquqiy aloqasiga zamin yaratdi. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi – respublikaning bir yoki bir necha davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro huquqning boshqa sub'ektlari bilan xalqaro munosabatlar sohasidagi huquq va majburiyatlariga doir teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvidir.

Xalqaro shartnomalar: shartnoma, bitim, konvensiya, protokol, pakt, akt, memorandum, deklaratsiya, xatlar va notalar almashuvi deb nomlanishi mumkin. Xalqaro shartnomalar unda ishtirok etuvchi sub'ektlarning soniga qarab ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar bo'ladi. Xalqaro shartnomalar mazmuniga qarab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shartnomalar bo'lishi, shuningdek boshqa masalalar bo'yicha tuzilishi mumkin. Muddatiga qarab shartnomalar muddatli va muddatsiz bo'ladi. Xalqaro shartnomalar boshqa turlarda ham tuzilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish huquqi davlatga tegishlidir. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari quyidagicha: O'zbekiston Respublikasi nomidan davlatlararo shartnomalar; O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan hukumatlararo shartnomalar;

¹⁹ Қапанг: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/law_treaties.shtml

O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari nomidan idoralararo shartnomalar tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilinadi. Quyidagilar: O‘zbekiston Respublikasining hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risidagi shartnomalari; davlatlararo munosabatlarning asoslari to‘g‘risidagi shartnomalar; O‘zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyatiga daxldor masalalar bo‘yicha shartnomalar; kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan o‘zaro voz kechish to‘g‘risidagi shartnomalar; tinchlik shartnomalari va kollektiv xavfsizlik to‘g‘risidagi shartnomalar; O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan hududiy chegaralanishi to‘g‘risidagi shartnomalar; O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo ittifoqlarda, xalqaro tashkilotlarda va boshqa birlashmalarda ishtiroki to‘g‘risidagi shartnomalar; ijrosi amaldagi qonunlarning o‘zgartirilishini yoki yangi qonunlar qabul qilinishini taqozo etadigan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalarni belgilaydigan xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilinadi.

Tuzish vaqtida tomonlar kelgusida uni ratifikatsiya qilish to‘g‘risida kelishib olgan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari ham xuddi shunday ratifikatsiya qilinadi. Oliy Majlis O‘zbekiston Respublikasining boshqa xalqaro shartnomalarini ham ratifikatsiya qilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan yoki u vakolat bergan organlar tomonidan xalqaro moliya institutlari bilan tuzilgan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro zayom va kafolatli shartnomalari ratifikatsiya qilinmaydi va O‘zbekiston Respublikasi uchun imzolangan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi.

10.7. NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNING VAQT, HUDUD VA SHAXSLARGA NISBATAN AMAL QILISHI

Normativ-huquqiy hujjatlar vaqt, hudud va shaxslarga nisbatan amal qilish doirasiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 30-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarning kuchga kirish tartibi belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, normativ-huquqiy hujjatlar, agar hujjatlarning o‘zida kechroq muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, ular rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi. Qonunning 31-moddasida normativ-huquqiy hujjatning orqaga qaytish kuchi belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, normativ-huquqiy hujjatlar orqaga qaytish kuchiga ega emas va ular amalga kiritilganidan keyin yuzaga kelgan ijtimoiy munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi. Qayd etish kerakki, ushbu normaga nisbatan istisno holatlar mavjud. O‘zbekiston Respublikasining qonuni u amalga kiritilishiga qadar yuzaga kelgan ijtimoiy munosabatlarga nisbatan qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan hollardagina tatbiq etiladi. Agar O‘zbekiston Respublikasining qonuni sodir etilgan paytda javobgarlikka sabab bo‘lmagan yoki engilroq javobgarlikka sabab bo‘lgan xatti-harakatlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarligini joriy etishni yoki kuchaytirishni nazarda tutsa yoxud yuridik va jismoniy shaxslarga moddiy zarar etkazsa, qonunga orqaga qaytish kuchini berish mumkin emas.

Normativ-huquqiy hujjat, agar uning matnida boshqacha izoh berilmagan bo'lsa, muddatsiz amal qiladi. Normativ-huquqiy hujjatning amal qilish muddati butun hujjat uchun yoki uning qismlari uchun belgilanishi mumkin. Bunday holda normativ-huquqiy hujjat yoxud uning qismi qaysi muddatga yoki qanday hodisa yuz berguniga qadar o'z kuchini saqlab qolishi ko'rsatilishi kerak.

Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ belgilangan muddat tugaguniga qadar yoki hodisa yuz berguniga qadar hujjat yoki uning qismining amal qilishini yangi muddatga, boshqa hodisa yuz berguniga qadar uzaytirish to'g'risida yoxud normativ-huquqiy hujjat qonun hujjatlariga, o'tkazilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlariga, jamiyatdagi barqaror huquqiy munosabatlarga muvofiq bo'lgan taqdirda hujjat (uning qismi)ga muddatsiz tus berish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjat yoki uning qismining amal qilishi uni qabul qilgan organ yoxud uning yuqori turuvchi organi tomonidan muayyan muddatga yoki muayyan hodisa yuz berguniga qadar to'xtatib turilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjat yoki uning qismi quyidagi hollarda o'zining amal qilishini tugatadi:

normativ-huquqiy hujjat yoki uning qismi mo'ljallangan muddat tugaganda yoki hodisa yuz berganda;

normativ-huquqiy hujjat yoki uning qismi qonunda belgilangan tartibda Konstitutsiyaga xilof yoxud haqiqiy emas deb topilganda;

normativ-huquqiy hujjat yoki uning qismi o'z kuchini yo'qotgan deb topilganda;

normativ-huquqiy hujjat yoki uning qismi bekor qilinganda.

Normativ-huquqiy hujjatlarning **shaxslar buyicha** amal qilishi deganda ularning jismoniy va yuridik shaxslarga, ya'ni O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslariga, shuningdek o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirganda chet el yuridik shaxslariga, O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tatbiq etiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning **hudud** bo'yicha amal qilishi uni qabul qilgan organning yurisdiksiyasi bilan belgilanadi. Qoida tariqasida, normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatning butun hududiga nisbatan tatbiq etiladi. Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ uning hudud bo'yicha amal qilishi doirasini cheklab qo'yishi mumkin.

Davlat hududi tushunchasiga quyidagilar kiradi: quruqlik, suv hududlari, havo bo'shlig'i, xorijdagi elchixonalar va vakolatxonalar egallab turgan hudud, muayyan davlat bayrog'i ostida bo'lgan dengiz, daryo, havo va kosmik kemalar hududi.

10.8. XALQARO HUQUQ NORMALARINI MILLIY QONUNCHILIKDA IMPLEMENTATSIYA QILISH MASALALARI

Milliy huquqiy tizimda xalqaro huquq normalarini tizimlashtirish, unifikatsiya qilish, turkumlashning reja va dasturlarini ishlab chiqish, ratifikatsiya va denonsatsiya qilingan hujjatlarni belgilangan tartibda kuchga kiritishdan so'ng milliy qonunchilikka tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha qonun ijodkorligi bilan shug'ullanish, ularning normalarini milliy qonunchilik orqali

bajarish mexanizmlarini ijtimoiy hayotga tatbiq etishda muhim omil bo'ladi. SHu jihatdan qaraganda, implementatsiya – qonun ijodkorlik faoliyatining ustuvor sohasi bo'lishi bilan bir qatorda, har bir davlatning suveren huquqi sifatida uni amalga oshirishning milliy-huquqiy va tashkiliy mexanizmlarining samaradorligiga erishish istiqbolli vazifadir.

Ta'kidlash joizki, xalqaro huquq normalarini amalga oshirish uchun "implementatsiya" (uyg'unlashtirish) atamasidan keng foydalaniladi. *Implementatsiya* (ingl. "implementation" – amalga oshirish, joriy etish, bajarish) – xalqaro shartnomalarni (xalqaro huquqiy) davlat ichida amaliy joriy qilish xalqaro huquqiy normalarni milliy qonunlar va qonunosti aktlarga aylantirish yo'li bilan amalga oshiriladi, bir qator davlatlarda ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar o'z-o'zidan milliy qonunchilikning qismi bo'lib qoladi²⁰. Xalqaro shartnoma normalarini implementatsiya qilish – ikki bosqichli jarayondir: o'zgartirib o'tkazish va ijro etish.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro huquq normalarining implementatsiya qilinishi davlat organi tomonidan huquqiy akt qabul qilinishi orqali amalga oshiriladi. Demak, respublikamiz a'zo bo'lgan xalqaro shartnomalar milliy qonunchilikka implementatsiya qilinmaguncha qo'llanilmaydi. SHu o'rinda yana bir qoidani eslatib o'tish lozim, ya'ni ko'pchilik qonunlar yoki kodekslarda "xalqaro shartnomalarda boshqacha holat nazarda tutilgan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi" degan qoida mustahkamlangan. Masalan, Fuqarolik kodeksining 7-moddasida "Agar xalqaro shartnoma yoki bitimda fuqarolik qonun hujjatlaridagiga karaganda boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo'llaniladi".

Ta'kidlash joizki, xalqaro shartnomalarni milliy huquqqa implementatsiya qilish turli mamlakatlarda turlicha usullarda amalga oshiriladi. Ba'zi mamlakatlarda xalqaro shartnomalar ularning huquqiy tizimlarining uzviy qismi deb e'lon qilinadi (AQSH, Gollandiya, Rossiya). Xususan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasida belgilanishicha, "xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari va Rossiya Federatsiyasining xalqaro shartnomalari mamlakat huquqiy tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi" (15-moddaning 4-bandi); Fransiya va Italiyada xalqaro huquq normalari mamlakat milliy huquqidan ustuvor deb tan olinadi; uchinchi toifa mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Hindiston) xalqaro shartnomalar parlamentning yangi yoki qo'shimcha normativ-huquqiy hujjat qabul qilishi orqali implementatsiya qilinadi.

Nazorat uchun savollar

1. Huquqning shakli va manbasi o'rtasidagi nisbat masalalarini muhokama eting.
2. Normativ-huquqiy hujjat turlari va o'ziga xos jihatlarini yoritib bering.
3. Qonun nima va uning normativ-huquqiy hujjatlar tizimidagi o'rnini tushuntirib bering.
4. Qonun hujjatlari o'rtasidagi ziddiyatlar va ularni hal etish yo'llarini atroflicha yoritib bering.
5. Qonun osti hujjatlarining turlarini muhokama qiling.

²⁰ Юридик энциклопедия. –Т.: Шарқ, 2001. – Б.184.

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ТЕСТ САВОЛЛАРИ

1. Ҳуқуқ манбаси муайян расмий бир шаклга эга бўлиши учун...

- A. Давлат томонидан эътироф этилиши
- B. Ваколатли органлар томонидан расман эътироф этилиши
- C. Ҳуқуқий доктринада эътироф этилиши
- D. A ва B жавоблар тўғри

2. Жамиятдаги мулкчилик шакллари, моддий шарт-шароитлар, жамият аъзоларининг қизиқишлари ва манфаатларини ҳисобга олиниши ҳуқуқ манбасининг қандай маънодаги турига киради.

- A. Моддий маънода
- B. Мафкуравий маънода
- C. Юридик маънода
- D. Сиёсий маънода

3. Тарихан ҳуқуқнинг дастлабки манбаи қайси жавобда берилган.

- A. Куръон
- B. Одат
- C. Авесто
- D. Прецедент

4. Инглиз ҳуқуқининг асосий манбаи сифатида суд прецедентини тан олувчи умумий доктрина қачон шаклланган

- A. IX асрнинг иккинчи ярмида
- B. XX асрнинг иккинчи ярмида
- C. XIX асрнинг иккинчи ярмида
- D. XII асрнинг иккинчи ярмида

5. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг хусусиятлари қайси жавобда хато берилган.

- A. Давлат номидан қонунда белгиланган тартибда қабул қилинади.
- B. Махсус процессуал тартибда амалга оширилмайди.
- C. Расмий шаклга эга
- D. Барча учун умуммажбурий қоидаларни ўрнатади

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ГЛОССАРИЙЛАР

ҲУҚУҚНИНГ МАНБАСИ - умумий маънода ҳуқуқни ифода этилиш шакли тушунилади. Ҳуқуқий ҳодиса сифатида ҳуқуқ манбасини **уч хил маънода** тушуниш мумкин: **моддий маънода** – бу жамиятдаги мулкчилик шакллари, моддий шарт-шароитлар, жамият аъзоларининг қизиқишлари ва манфаатлари; **мафкуравий маънода** – бу турли ҳуқуқий мафкура ва таълимотлар, ҳуқуқий онг; **махсус юридик маънода** – бу ҳуқуқнинг шакллари. Ҳуқуқнинг қуйидаги шакллари мавжуд: ҳуқуқий одат, норматив-ҳуқуқий ҳужжат, ҳуқуқий прецедент, норматив шартномалар ва бошқалар.

ҲУҚУҚИЙ ОДАТ – узоқ давр мобайнида амалда бўлиш натижасида шаклланган ва давлат томонидан умуммажбурий қоида сифатида тан олинган юриш-туриш қоидасидир.

ҲУҚУҚИЙ ПРЕЦЕДЕНТ (лот. “praecedens” – аввалгиси, олдингиси) – суд ёки маъмурий органнинг ёзма ёки оғзаки қарори бўлиб, бу қарор келгусида барча шунга ўхшаш ишларни кўриб чиқиш ва ҳал қилиш учун асос бўладиган намуна нормадир.

НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТ – ваколатли давлат органи (ёки мансабдор шахс)нинг белгиланган тартибда қабул қилган, ижтимоий муносабатларни тартибга солишга қаратилган, умуммажбурий тусдаги қоидаларни ўрнатувчи, ўзгартирувчи ёки бекор қилувчи юридик ҳужжати.

КОНСТИТУЦИЯ – (лотинча “constitutio” – ўрнатиш, тузилиш) моддий маънода, аввало, инсон ва фуқаро ҳуқуқлари ҳамда эркинликларини эълон қилувчи ва кафолатловчи, шунингдек ижтимоий тузум, бошқарув шакли, давлат тузилиши, ҳокимиятнинг марказий ва маҳаллий органларини ташкил этиш асосларини, уларнинг ваколатлари, ўзаро муносабатларини, давлат рамзлари ва пойтахтини белгилайдиган қонун ҳужжати.

ҚОНУН – давлат ҳокимиятининг олий вакиллик ва қонунчилик ҳокимияти органи томонидан ёки бевосита халқнинг хоҳиш - иродасига кўра (масалан, *референдум* ўтказиш йўли билан) қабул қилинган, қоида тариқасида энг муҳим ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи юридик ҳужжат.

НОРМАТИВ ШАРТНОМАЛАР - Икки ёки ундан ортиқ мустақил ҳуқуқ субъектлари ўртасида тузиладиган ҳамда уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини ўрнатадиган, ўзгартирадиган ёки бекор қиладиган оғзаки ёки ёзма шаклда ифодаланадиган ва тузиладиган битимларга айтилади.

ИМПЛЕМЕНТАЦИЯ (ингл. “implementation” – амалга ошириш, жорий этиш, бажариш) – халқаро шартномаларни (халқаро ҳуқуқий) давлат ичида амалий жорий қилиш халқаро ҳуқуқий нормаларни миллий қонунлар ва қонуности актларга айлантириш йўли билан амалга оширилади, бир қатор давлатларда ратификация қилинган халқаро шартномалар ўз-ўзидан миллий қонунчиликнинг қисми бўлиб қолади

11-MAVZU.HUQUQ IJODKORLIGI

Mavzuning asosiy yo‘nalishlari:

1. Huquq ijodkorligi – huquq yaratishning murakkab jarayoni sifatida.
2. Huquq ijodkorligi tushunchasi, turlari va prinsiplari.
3. Qonun ijodkorligi jarayoni tushunchasi va bosqichlari.
4. Huquq ijodkorligi jarayonida yuridik texnikaning roli.
5. O‘zbekistonda qonun ijodkorligi jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari.

11.1. HUQUQ IJODKORLIGI – HUQUQ YARATISHNING MURAKKAB JARAYONI SIFATIDA

Huquq ijodkorligi jarayonida yangi huquq normalari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Bunda huquq manbalarida birinchi navbatda, davlat hokimiyati organlari faoliyatining maqsadi, vazifalari va funksiyalarining mazmuni hamda huquqiy doiradagi muayyan ijtimoiy munosabatlarda huquq sub'ektlarining huquq va majburiyatlari o'z ifodasini topadi.

Albatta, huquq ijodkorligi haqida gap ketganda ushbu faoliyat davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy shakllaridan biri ekanligini nazarda tutish lozim. Chunki jamiyatga davlat rahbarligi ko'rinishlaridan biri bo'lgan huquq ijodkorligi yoki qonun yaratuvchilik ishi davlat faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Binobarin, muayyan bir davlatning maqsadi, vazifasi, tipi, davlat hokimiyatini amalga oshirish va tashkil etish shakllaridan qat'i nazar, huquq ijodkorligi davlat tomonidan amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham huquq ijodkorligi – jamiyat va davlatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, vakolatli sub'ektlarning normativ-huquqiy hujjatlarini belgilangan tartibda shakllantirish va qabul qilishni qamrab oluvchi jarayondir. Huquq ijodkorligining murakkab jarayon ekanligini quyidagilar orqali ko'rish mumkin:

- 1) huquqiy tartibga solishni talab etadigan ijtimoiy munosabat, vaziyat yoki jarayonni anglash, o'rganish va tahlil etish;
- 2) muayyan normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan organ yoki mansabdor shaxs (sub'ekt)ni aniqlash;
- 3) qabul qilinishi nazarda tutilayotgan aktning shaklini tanlash;
- 4) tegishli protsedura doirasida normativ-huquqiy hujjatni tayyorlash, qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki bekor qilish;
- 5) qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatni huquq sub'ektlari e'tiboriga etkazish.

11.2. HUQUQ IJODKORLIGI TUSHUNCHASI, TURLARI VA PRINSIPLARI

Huquq ijodkorligi – bu, eng avvalo, vakolatli davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, ularga o'zgartirish kiritish yoki ularni bekor qilishga qaratilgan faoliyati.

Xuquq ijodkorligi turlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- bevosita huquq ijodkorligi (umumxalq referendum);
- davlat organlarining huquq ijodkorligi (Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va boshqalar);
- alohida mansabdor shaxslarning huquq ijodkorligi (Prezident, vazirlar, hokimlar va boshqalar);
- mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquq ijodkorligi.

Huquq ijodkorligi huquq normalarini yaratish, takomillashtirish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan davlat faoliyati shakli singari o'ziga xos jarayon sifatida asosiy qoidalar – prinsiplarga egadir.

Huquq ijodkorligi jarayonining ustuvor qoidalari, avvalo, mamlakatning Konstitutsiyasi va qonunlaridan kelib chiqadi hamda huquq nazariyasi va yuridik texnikaga tayanadi.

Huquq ijodkorligining predmeti xalq xohish-irodasini aks ettirgan umummajburiy xulq-atvor qoidalarini yaratish hisoblanadi. O‘z navbatida, ushbu faoliyat davlat va jamiyat qurilishining konstitutsiyaviy asoslariga tayanib, ma’lum bir prinsiplarga rioya qilgan holda amalga oshirilishi zarur. Ular qatorida ilmiylik, professionalizm, qonuniylik, demokratizm, oshkoralik va tezkorlik kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Ilmiylik prinsipi haqida gap borganda kamida ikki jihat nazarda tutiladi. Birinchidan, huquq ijodkorligi puxta ilmiy strategiyaga tayanishi zarur. Bunday strategiya umumdavlat miqyosida shakllantiriladi. Uni, odatda, davlat yuqori hokimiyat organlari huzuridagi tadqiqot institutlari amalga oshiradi. Ikkinchidan, muayyan normativ-huquqiy hujjat matni ustida ish borganda huquq normasini yaratish va ifodalashda (mazmunan hamda yuridik texnika nuqtai nazaridan), avvalo, ilmiy tavsiyalar inobatga olinishi lozim. Bundan maqsad – ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda mumkin qadar qo‘proq samaraga erishishdir.

Huquq ijodkorligining prinsiplari bilan bir qatorda uning sub’ektlari va turlari haqida ham tasavvurga ega bo‘lish muhim ahamiyatga molikdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan sub’ektlar hisoblanadi.

11.3. QONUN IJODKORLIGI JARAYONI TUSHUNCHASI VA BOSQICHLARI

Qonun ijodkorligi vakolatli davlat organining qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilishga qaratilgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatidir. Mazkur faoliyat ijodiy jarayon bo‘lib, bunda xalqning irodasi aniqlanadi, shakllantiriladi va belgilangan tartibda qonun darajasiga ko‘tariladi. Qonun va qonun chiqarish bilan bog‘liq faoliyat jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim o‘rin tutgan.

Qonunlarning eng asosiy ijtimoiy vazifasi – jamiyatda tartib, intizom va barqarorlikni ta’minlashdan iborat.

Қонун – бу ваколатли давлат органи томонидан ёки референдум ўтказиш йўли билан белгиланган тартибда қабул қилинадиган, олий юридик кучга эга бўлган, энг муҳим ва барқарор ижтимоий муносабатларни тартибга солишга қаратилган норматив-ҳуқуқий ҳужжат.

Qonun ijodkorligi jarayoni deganda qonun chiqaruvchi hokimiyat organining o‘z vakolatidan kelib chiqqan holda qonunni qabul qilish, uni o‘zgartirish yoki jamiyat hayotida uzoq muddat davomida amalda bo‘lib, ijro etilishi odatiy holga aylangan odat, axloq yoki boshqa ijtimoiy normalarni sanksiyalashga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

Qonun ijodkorligi jarayoni – qonun chiqaruvchi hokimiyat organining qonunchilikda belgilangan tartibda qonunlar yaratishga, amaldagi qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga qaratilgan, shuningdek eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig‘indisi bo‘lib, u qonun bilan tartibga solinishi

zarur bo'lgan munosabatlarni aniqlash, qonun loyihasini tayyorlash, uni muhokama etish, qabul qilish va e'lon qilishni o'z ichiga oladi.

1. Qonunchilik tashabbusi – bu muayyan davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonun chiqarish masalasini qo'yish va uning loyihasini ko'rib chiqish uchun qonun chiqaruvchi organga taqdim etish huquqidir. Qonun chiqarish tashabbusi – qonun chiqarish jarayonining ilk bosqichi. Ushbu jarayon qizg'in sa'y-harakatlarga asoslanadi, ular natijasida qonun chiqaruvchi organga qonunchilik yuzasidan tegishli takliflar kiritiladi, parlament esa mazkur takliflar asosida yangi qonun chiqarish, amaldagisini o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqishga qabul qiladi.

Qonunchilik tashabbusi huquqi – Konstitutsiyada belgilangan vakolatli organlar, tashkilotlar va shaxslar tomonidan muayyan qonun loyihasini yoki yangi qonun qabul qilish to'g'risida, shuningdek amaldagi qonunni o'zgartirish yoxud uni bekor qilish to'g'risidagi taklifni Oliy Majlis e'tiboriga taqdim etilishi va parlamentning bu masalani belgilangan tartibda ko'rib chiqish haqida tegishli qaror qabul qilishidir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlarining ancha keng doirasi belgilangan. Xususan, Konstitutsiyada muvofiq qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Bosh prokurori ega. Qonun loyihalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasining "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilab qo'yilgan.

2. Qonun loyihasi muhokamasi. Qonun loyihasini ishlab chiqish va muhokama etish qonun yaratish jarayonining alohida va muhim bosqichidir. Bu bosqich qonun chiqaruvchi organga qonun loyihasi taqdim etilib, kun tartibiga kirganidan so'ng boshlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha a'zolari umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

Qonun loyihasining asosiy muhokamasi Qonunchilik palatasining plenar majlislarida amalga oshiriladi. Qonunchilik palatasi qonun loyihasini, qoida tariqasida, uch o'qishda ko'rib chiqadi. Qonun loyihasini Qonunchilik palatasi majlislarida birinchi o'qishda ko'rib chiqish chog'ida mazkur qonun loyihasini qabul qilish zarurati, qonun loyihasining konsepsiyasi, uning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi, shuningdek qonunni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar va moliyalash manbalari to'g'risidagi masala muhokama qilinadi.

Qonunchilik palatasi muhokama natijalari bo'yicha qonun loyihasini maromiga etkazish va keyingi o'qishda ko'rib chiqish uchun palataga kiritish muddatini belgilagan holda uni birinchi o'qishda qabul qilish yoki qonun

loyihasini rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Qonunchilik palatasi muhokamasiga qonun loyihasining muqobil variantlari kiritilgan taqdirda ular bir vaqtda ko'rib chiqilishi kerak. Qonunchilik palatasi deputatlarining qaror qabul qilish uchun talab qilinadigan eng ko'p miqdordagi ovozini to'plagan qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilingan hisoblanadi. Qonun loyihasining qolgan variantlari Qonunchilik palatasi tomonidan rad etilgan deb topiladi.

Mas'ul qo'mita qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash chog'ida tushgan takliflarni umumlashtiradi. U asosli deb topgan takliflar qonun loyihasining matniga kiritiladi. Qonun loyihasi Qonunchilik palatasida ikkinchi o'qishda ko'rib chiqilayotganida mas'ul qo'mita ma'qullagan takliflar ham, ma'qullamagan takliflar ham muhokama qilinadi. Qonun loyihasi bo'yicha ovoz berish moddama-modda o'tkaziladi. Qonunchilik palatasi muhokama natijalari bo'yicha qonun loyihasini maromiga etkazish va keyingi o'qishda ko'rib chiqish uchun palataga kiritish muddatini belgilagan holda uni ikkinchi o'qishda qabul qilish yoxud qonun loyihasini rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Uchinchi o'qishda qonun loyihasi muhokama qilinmasdan yaxlitligicha ovozga qo'yiladi. Qonun loyihasi birinchi yoki ikkinchi o'qishda qabul qilingan taqdirda, mas'ul qo'mitaning taklifiga binoan, qonunni keyingi o'qish tartib-taomillarini istisno etgan holda qabul qilish to'g'risidagi masala ovozga qo'yilishi mumkin.

3. Qonunni qabul qilish. Qonunni Qonunchilik palatasi palata deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qiladi. Qonunchilik palatasi qabul qilgan qonun o'n kun ichida Senatga ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Senatga qonun bilan birga qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish chog'ida taqdim etilgan hujjatlar yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq:

a) qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanishi lozim;

b) Senat tomonidan rad etilgan qonun Qonunchilik palatasiga qaytariladi va agar qonunni qayta ko'rib chiqishda palata deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun parlament tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga palata tomonidan yuboriladi;

v) Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan palatalar yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishlari mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdagi tartibda ko'rib chiqilishi kerak. Konstitutsiyaga o'zgartishlar kiritish, konstitutsiyaviy qonunni qabul qilish parlamentning har bir palatasidagi umumiy ovozlar sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozini talab etadi. Odatdagi qonunlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunni Senat ko'rib chiqadi hamda uni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Senat tomonidan rad etilgan va Qonunchilik palatasiga qaytarilgan qonun, agar quyi palata deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan shu qonunni yana ma'qullasa,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun tasdiqlash uchun Senatga yuboriladi.

Senat kelishuv komissiyasining takliflarini qabul qilgan taqdirda qonun Qonunchilik palatasi tomonidan odatdagi tartibda qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Qonunni Qonunchilik palatasida qayta ko‘rib chiqishda kelishuv komissiyasining bayonnomasida mavjud bo‘lgan takliflarga muhokama qilinadi. Kelishuv komissiyasining loaqal bitta taklifi rad etilgan taqdirda Qonunchilik palatasi, Senat kelishuv komissiyasiga yangi takliflarni taqdim etish uchun palata tomonidan ma‘qullangan tuzatishlarni inobatga olgan holda ishni davom ettirishni taklif qilishi mumkin. Agar Senat qonunni kelishuv komissiyasining tahririda ma‘qullamasa, u rad etilgan qonun sifatida Qonunchilik palatasiga qaytarilishi kerak. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida”gi Qonunning 15¹-moddasida Senat tomonidan rad etilgan qonunni Qonunchilik palatasi tomonidan qayta ko‘rib chiqish tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, Senat tomonidan rad etilgan qonun Qonunchilik palatasi tomonidan bir oylik muddatda qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Mas‘ul qo‘mita Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan xulosa beradi. Mas‘ul qo‘mitaning xulosasi olinganidan keyin qonunni Qonunchilik palatasi tomonidan qayta ko‘rib chiqish masalasi belgilangan tartibda Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibiga kiritiladi.

Senat tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko‘rib chiqishda Qonunchilik palatasi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun belgilangan tartibda kelishuv hay‘atini tuzish;

qonunni Qonunchilik palatasi tomonidan avvalgi qabul qilingan tahrirda qabul qilish;

qonunni Qonunchilik palatasining qayta ko‘rib chiqishidan olib tashlash.

Agar Qonunchilik palatasi Senat tomonidan rad etilgan qonunni Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan yana ma‘qullasa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e‘lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganigacha qadar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi aniqlanadi.

4. Qonunni imzolash va e‘lon qilish. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kuni dan e‘tiboran o‘n kundan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma‘qullagan qonun imzolanishi va e‘lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga o‘n

kun ichida yuboriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o‘ttiz kun ichida imzolanadi va e‘lon qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qaytariladi. Agar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko‘rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qonunni yana ma‘qullasa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e‘lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a‘zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdagi tartibda ko‘rib chiqilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o‘z e‘tirozlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan ma‘qullansa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘n to‘rt kun ichida imzolanishi va e‘lon qilinishi kerak.

Qabul qilingan va Prezident imzolagan qonunning matni Oliy Majlisga saqlash va e‘lon qilish uchun yuboriladi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari agar hujjatning o‘zida boshqa muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 28-moddasida “Normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e‘lon qilinishi kerak. Rasmiy e‘lon qilinmagan qonun asosida hech kim hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas” deb belgilab qo‘yilgan. Zero, normativ-huquqiy hujjatlarning e‘lon qilinishi ular qo‘llanilishining majburiy shartidir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, “Xalq so‘zi” va “Narodnoe slovo” gazetalari, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi normativ-huquqiy hujjatlar e‘lon qilinadigan rasmiy manbalar hisoblanadi.

11.4. HUQUQ IJODKORLIGI JARAYONIDA YURIDIK TEXNIKANING ROLI

Normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish murakkab va davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan mas‘ul vazifadir. Normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilishda qator talablarga amal qilinishi lozim. Bunday talablar yuridik texnika qoidalarni qo‘llashda namoyon bo‘ladi.

Юридик техника – бу ваколатли давлат органлари ва мансабдор шахслар томонидан норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни

ишлаб чиқиш, қабул қилиш, расмийлаштириш, амалдагиларига тегишли ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш, эскиларини бекор қилишда ҳамда индивидуал юридик ҳужжатлар, яъни ҳуқуқни қўллаш ҳужжатларини қабул қилиш жараёнида фойдаланиладиган услублар, усуллар, йўллар ва воситалар, шунингдек амалий кўникмалар мажмуидан иборат.

Yuridik texnikaning eng muhim talablaridan biri – bu har bir yaratilgan qonun, eng avvalo, mantiqiy izchillikka asoslangan holda bir-biriga bog‘liq va har biri oldingi normaning mazmunidan kelib chiqadigan normalar tizimidan iborat bo‘lishidir. Ya’ni har bir norma yaxlit bir tizimning mustaqil, biroq o‘zigacha va o‘zidan keyingi normalarga mazmunan bog‘liq birligi sifatida joylashtirilishi lozim.

Bunda normativ-huquqiy hujjatning, jumladan, qonun hujjatining biron-bir normasi boshqa normaga mazmunan zid kelmasligini ta’minlash muhim ahamiyatga egadir. Har bir norma yagona tizimning bo‘g‘ini sifatida umumiy qonun hujjati yo‘nalishiga mos kelishi lozim. Biroq bu fikr bir normativ-huquqiy hujjat ichida ziddiyat bo‘lmasa bo‘ldi degani emas, albatta. Alohida olingan normativ-huquqiy hujjat yaxlit qonunchilik tizimidagi barcha huquqiy normalarga zid kelmasligi lozim. Demak, huquqiy tizimda o‘zaro ziddiyatlar bo‘lmasligiga erishish muhim ahamiyatga egadir.

Normativ-huquqiy hujjatlarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish qoidalari bir qator qonun va qonunosti hujjatlarida belgilab qo‘yilgan. Xususan, qonun hujjatlariga ko‘ra normativ-huquqiy hujjatning matni lo‘nda, oddiy va ravon tilda bayon etilishi lozim. Bunda, normativ-huquqiy hujjatda foydalaniladigan tushunchalar va atamalar turlicha izohlash imkoniyatini istisno etadigan, ularning qonun hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona mazmunda qo‘llanilishi talab etiladi. Ayni paytda eskirgan va ko‘p ma’noni anglatadigan so‘zlar va iboralar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar, kinoyalari qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmasligi lozim.

Albatta normativ-huquqiy hujjatlarning hayotiyligini ta’minlashda uni amalga oshirishning huquqiy vositalari, shu jumladan moliyalashtirish manbalari, rag‘batlantirish, mukofotlash va nazorat qilish chora-tadbirlari ko‘rsatilishi muhimdir. Shuningdek, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning, mansabdor shaxslar hamda fuqarolarning majburiyatlarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatda ushbu majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik choralari, agar bunday choralar qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan bo‘lsa yoki alohida normativ-huquqiy hujjatda belgilanmasligi kerak bo‘lsa, nazarda tutilishi zarur. Aks holda ushbu hujjatlar deklarativ xarakterga ega bo‘lib, ularning ijrosini amaliyotda ta’minlash mexanizmlari sust bo‘lib qoladi.

Normativ-huquqiy hujjat uning qabul qilinishi sabablari va maqsadlariga oid tushuntirishni qamrab olgan muqaddimaga ega bo‘lishi mumkin. Ayni paytda muqaddimaga huquqiy normalar kiritilmasligini ham aytib o‘tish zarur.

Normativ-huquqiy hujjatlarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishda huquq normalarini qism, bo‘lim, kichik bo‘lim, bob, paragraf, moddalarga ajratib

berish muhim ahamiyatga ega. Xususan, huquq normalari ifodalangan moddalar tartib raqamiga ega bo‘lib, o‘z navbatida, u qismlar, bandlar, kichik bandlar va xatboshilarni qamrab olishi mumkin.

Zarur hollarda normativ-huquqiy hujjatda yuridik, texnik va boshqa maxsus atama va tushunchalar, shuningdek qo‘llanilgan qisqartmalarning izohi beriladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishda ularning hajmini kengayib ketishining oldini olish, takrorlashlarga yo‘l qo‘ymaslik, tartibga solinadigan munosabatlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda havola (blanket norma)lar qo‘llaniladi. SHu bilan birga, havolalar aniq bo‘lishi va normativ-huquqiy hujjatni yoxud uning alohida qoidalarini ko‘rsatishi kerak.

Normativ-huquqiy hujjatlarning qonuniyligi va rasmiyligini ta‘minlashda ularning rekvizitlari muhim o‘rin tutadi. Amaldagi qonunchilikka binoan normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi rekvizitlarga ega bo‘lishi talab etiladi:

hujjatning turi va nomi;

hujjat qabul qilingan joy, sana, raqam;

tegishli normativ-huquqiy hujjat matnini tasdiqlashga rasman vakolati bo‘lgan shaxsning lavozimi, imzosi, ismining bosh harfi va familiyasi.

Ayni paytda qabul qilinayotgan har qanday normativ-huquqiy hujjatlarda uning kuchga kirish muddati ko‘rsatilishi lozim.

Yuridik texnika qoidalaridan yana biri bu normativ-huquqiy hujjatlarning til qoidalariga mos holda tayyorlanishidir. Shu bois normativ-huquqiy hujjatlar matnini tayyorlashda adabiy tilning muhim shakli hisoblanadigan qonun tili qoidalariga qat‘iy amal qilish lozim. O‘z navbatida, qonun tili alohida maxsus bir til tushunchasini anglatmaydi. U “qonun tili” deb nomlansada, milliy adabiy tilning ajralmas bir tarkibiy qismi hisoblanadi. “Qonunchilik tili”, “qonun tili” atamalari shu ma‘nodaki, unda qonun chiqaruvchining o‘z fikrini va majburiy huquqiy normalarni ifodalashda til vositalaridan qanday foydalanishi tushuniladi. Til jamiyatdagi barcha masalalar bo‘yicha insonlarning o‘zaro muomala vositasi bo‘lsa, qonun tili esa uning muhim bir tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy hayotning qonun, huquq ish ko‘radigan sohasiga taalluqlidir²¹.

Ma‘lumki, har qanday qonun o‘z matniga egadir. Matn esa, o‘z navbatida, mantiqiy, grammatik asoslarga ega bo‘lib, ular yordamida matnda mujassamlashgan axborot tegishli huquq sub‘ektiga etkaziladi. Qonunchilik matnining lingvistik asosini so‘z, so‘z birikmalari, gap kabi leksik, sintaktik birliklar tashkil qiladi. Qonun matnining grammatik tarkibiy elementlari sifatida orfografiya (imlo qoidalari) va punktuatsiya (tinish belgilari tizimi) ni ko‘rsatish mumkin. Grafik standartlar esa qonun matni, uning tarkibiy qismlariga lo‘ndalik va tuzilmaviylik xususiyatini beradi. Binobarin, qonun matnining barcha elementlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini to‘ldirib turadi. Huquq normalarini grammatik jihatdan to‘g‘ri bayon qilish, o‘z navbatida qonunchilik hujjatlarini tuzish va ular bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

²¹ Қаранг: Саидов А.Х., Кўчимов Ш.Н. Қонунчилик техникаси асослари. –Т.: Адолат, 2001. –Б.40–41.

Qonun ijodkorligida adabiy til me'yorlariga to'liq rioya qilish lozim. Qonunchilik tiliga rasmiy uslub, ya'ni aniqlik, oddiylik, lo'ndalik, kabi xususiyatlar tegishlidir. Huquqiy voqelik rasmiyatchiliksiz bo'lmaydi, chunki huquq bilan o'rnatilgan tartibot rasman shakllantirilgan andozasiz mavjud bo'la olmaydi.

Qonun hujjatlari aholining keng doirasiga qaratilgan bo'ladi. SHu bois qonunchilik tilining o'ta murakkab va sun'iy tarzda katta hajmli bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Binobarin, qonunchilik hujjatlari aniq va tushunarli bo'lishi hamda ular kelajakda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilganligi va davlat irodasini ifodalashi bilan ham tavsiflanadi.

Shu bilan birga, bugungi kunda ilmiy va texnologik taraqqiyot hamda rivojlanish jarayonlarining jadal sur'atlar bilan kechayotganligi huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar va o'z-o'zidan qonun tilining ham murakkablashuviga olib keladi. Shu jihatdan qaraganda, bunday sharoitlarda qonunchilik tilini oddiy tarzda bayon etish va barcha uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash ancha murakkab masaladir. Bundan tashqari, qonun tilini sun'iy va maqsadga muvofiq bo'lmagan tarzda soddalashtirish ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Mazkur faoliyatda yuridik, siyosiy, ilmiy atamalarni o'z o'rnida, qo'llash amaliyot uchun muhim ahamiyat asb etadi. Qonun matnining qisqa va muxtasar ifodalanishi, uning mazmun mohiyatini tushunish bilan birga amaliyotda ijrosini ta'minlashni ham engillashtiradi.

Nazorat uchun savollar

1. Huquq ijodkorligi – huquq yaratishning murakkab jarayoni sifatidagi o'rniga huquqiy baho bering.
2. Huquq ijodkorligi jarayonida yuridik texnikaning roliga atroflicha yoritib bering.
3. Huquq ijodkorligining turlarini ifodalang va ularga izoh bering.
4. Qonun ijodkorligi jarayonidagi ilmiylik, professionalizm, qonuniylik, demokratizm, oshkoralik va tezkorlik tamoyillarini izohlang.
5. Qonun ijodkorligi jarayonining prinsiplari va bosqichlarini muhokama eting.

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ТЕСТ САВОЛЛАРИ

1.Хуқуқ ижодкорлиги турлари қайси жавобда тўғри берилган.

А.Бевосита ҳуқуқ ижодкорлиги

В.Давлат органларининг ҳуқуқ ижодкорлиги

С.Алоҳида мансабдор шахсларнинг ҳуқуқ ижодкорлиги

Д.Хамма жавоблар тўғри

2.Хуқуқ ижодкорлиги жараёнининг устувор қоидалари, аввало, мамлакатнинг Конституцияси ва қонунларидан келиб чиқади ва яна нималарга таянади

А. Имплементацияга

- В. Ҳуқуқ назарияси ва юридик техникага
- С. Давлат назарияси ва юридик коллизияга
- Д. Юридик техникага

3. Ҳуқуқ ижодкорлигининг принциплари билан бир қаторда унинг субъектлари ва турлари қайси жавобда берилган

- А. Ўз.Р Олий Мажлисининг палаталари,
- В. Ўз.Р Президенти
- С. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси
- Д. Хамма жавоблар тўғри

4. Қонун чиқариш жараёнининг илк босқичи қайси жавобда берилган

- А. Қонун муҳокамаси
- В. Қонунни ёзиш
- С. Қонун чиқариш ташаббуси
- Д. Қонунни 3 марта ўқиш

5. Қонун лойиҳасининг асосий муҳокамаси Қонунчилик палатасининг қандай мажлисларида амалга оширилади.

- А. Пленар
- В. Фракция
- С. Қўмигада
- Д. Тўғри жавоб йўқ

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ГЛОССАРИЙЛАР

ҲУҚУҚ ИЖОДКОРЛИГИ – бу, энг аввало, ваколатли давлат органларининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни яратиш, уларга ўзгартириш қиритиш ёки уларни бекор қилишга қаратилган фаолияти.

ПРИНЦИП – бирор назария, таълимот, дунёқараш ва шу кабиларнинг дастлабки, асосий қонун-қоидаси; фаолият учун асос қилиб олинадиган бош ғоя, қонун-қоида.

ҚОНУН – бу ваколатли давлат органи томонидан ёки референдум ўтказиш йўли билан белгиланган тартибда қабул қилинадиган, олий юридик кучга эга бўлган, энг муҳим ва барқарор ижтимоий муносабатларни тартибга солишга қаратилган норматив-ҳуқуқий ҳужжат.

ҚОНУН ИЖОДКОРЛИГИ ЖАРАЁНИ деганда қонун чиқарувчи ҳокимият органининг ўз ваколатидан келиб чиққан ҳолда қонунни қабул қилиш, уни ўзгартириш ёки жамият ҳаётида узоқ муддат давомида амалда бўлиб, ижро этилиши одатий ҳолга айланган одат, ахлоқ ёки бошқа ижтимоий нормаларни санкциялашга қаратилган фаолияти тушунилади.

ҚОНУНЧИЛИК ТАШАББУСИ – бу муайян давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг қонун чиқариш масаласини қўйиш ва унинг

лойиҳасини кўриб чиқиш учун қонун чиқарувчи органга тақдим этиш ҳуқуқидир.

ЮРИДИК ТЕХНИКА – бу ваколатли давлат органлари ва мансабдор шахслар томонидан норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш, қабул қилиш, расмийлаштириш, амалдагиларига тегишли ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш, эскиларини бекор қилишда ҳамда индивидуал юридик ҳужжатлар, яъни ҳуқуқни қўллаш ҳужжатларини қабул қилиш жараёнида фойдаланиладиган услублар, усуллар, йўллар ва воситалар, шунингдек амалий кўникмалар мажмуидан иборат.

12-MAVZU.

HUQUQ TIZIMI VA HUQUQIY TIZIM

Mavzuning asosiy yo‘nalishlari:

1. Huquqiy tizim tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi.
2. Huquq tizimi tushunchasi va tuzilishi.
3. Huquq sohasi va huquq instituti tushunchalari.
4. Huquq tizimini sohalarga ajratish asoslari.
5. Moddiy va protsessual huquq.
6. Huquq tizimini xususiy va ommaviy huquqqa ajratish.
7. O‘zbekiston huquq tizimining asosiy sohalari tavsifi.
8. Huquq tizimi va qonunchilik tizimi.
9. Qonunchilikni tizimlashtirish tushunchasi va turlari.

12.1. HUQUQIY TIZIM TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY TUZILISHI

Huquqiy tizim deganda muayyan bir mamlakatda amalda bo‘lgan ob‘ektiv huquq tushuniladi. Boshqacha aytganda, muayyan mamlakatning huquqiy tizimi ushbu davlatning hududida amal qiladigan va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqdir. Bugungi kunda siyosiy xaritada 200 dan ortiq davlat mavjudligini e‘tiborga oladigan bo‘lsak, demak, shuncha huquqiy tizim shakllangan.

“Huquqiy tizim” atamasi quyidagi uch ma’nodan qo‘llaniladi:

- ijtimoiy-iqtisodiy ma’nodan (bunda u umuman “huquqning ijtimoiy-iqtisodiy turi” tushunchasiga to‘g‘ri keladi);
- biror mamlakatning huquqiy tizimi ma’nosida;
- turli mamlakatlar huquqiy tizimlarining birligi ma’nosida.

Huquqiy tizimlarning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: roman-german (kontinental) huquq oilasi; umumiy (anglo-sakson) huquq oilasi; Skandinaviya mamlakatlarining huquqiy tizimlari; Lotin Amerikasi mamlakatlarining huquqiy tizimlari; Uzoq SHarq mamlakatlarining huquqiy tizimlari; diniy-an‘anaviy huquq oilasi; sotsialistik huquq oilasi; aralash huquqiy tizimlar.

Tizim yunoncha “systeme” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida “yaxlit”, “qismlardan iborat” degan ma’nomlarni anglatadi.

Huquqiy tizimning tarkibiy qismlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) normativ xususiyatga ega bo'lgan tarkibiy elementlar:
a) huquq; b) huquq tizimi; v) huquqiy prinsiplar; g) huquqning manbalari;

2) harakatda (muayyan jarayon orqali) ifodalanadigan tarkibiy elementlar:
a) huquq ijodkorligi; b) huquqni amalga oshirish, qo'llash jarayoni; v) huquqiy munosabatlar; g) huquqiy tartibga solish mexanizmi;

3) g'oyaviy – mafkuraviy mazmunga ega bo'lgan elementlar:
a) huquqiy ong; b) huquqiy madaniyat; v) huquqiy mafkura; g) huquqiy siyosat; d) yuridik fan; e) qonuniylik muhiti va huquqiy tartibot rejimi;

4) tashkiliy – tarkibiy elementlar: a) yuridik muassasalar, ya'ni huquqiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar²².

12.2. HUQUQ TIZIMI TUSHUNCHASI

Хуқуқ тизими – бу ижтимоий муносабатларнинг характери билан боғлиқ бўлган ҳуқуқнинг ички тузилиши бўлиб, у ҳуқуқ нормалари, ҳуқуқ институтлари ва ҳуқуқ соҳаларининг қатъий илмий изчилликда жойлашган тартибидир.

Huquq tizimining quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

– huquq tizimi muayyan jamiyatda amalda bo'lgan huquqning ob'ektiv sifatidir, uni avvaldan belgilangan reja asosida barpo etish mumkin emas;

– huquq tizimi to'raligicha huquq normalari bilan mustahkamlanadigan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tizimiga muvofiq keladi. SHu jihatdan olganda, huquq ijtimoiy hodisa sifatida nafaqat o'zida, balki ichki tuzilishi orqali ham jamiyat xususiyatlarini ifoda etadi;

– huquq tizimi tarixiy o'zgaruvchan, u jamiyat taraqqiyoti bilan mutanosib ravishda tadrijiy jarayonlarni bosib o'tadi;

– huquq tizimi tarkibiga kiruvchi o'zaro aloqada bo'lgan sohalar bir-birini takrorlamaydi va aksincha bir-birini to'ldiradi;

– huquq tizimi ijtimoiy munosabatlar mazmuni bilan bog'liq holda, ob'ektiv ravishda shakllanadi;

– huquq tizimi yaxlit tizim sifatida huquqning ichki tuzilishini, ya'ni bu tizim qanday ichki “qurilma”dan iboratligini ko'rsatadi;

– huquq tizimi uni tashkil etuvchi yuridik normalarning muayyan guruhlarga birlashishini ko'rsatadi;

– huquq tizimi huquq normalari va uning guruhlari o'zaro farqlanishini ko'rsatadi;

– huquq tizimi ijtimoiy munosabatlarning xususiyati va ularning o'ziga xosligi huquq normalarining ham ma'lum darajada ixtisoslashuvini taqozo etadi.

²² Одилқориев Х.Т., Якубов Ш.У. Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий кадриятлар: Монография. – Т.: SMI-ASIA, 2010. – Б. 27-30.

Huquq tizimining quyidagi tarkibiy qismlari mavjud: a) huquq normasi; b) huquq instituti; s) huquq sohasi.

12.3. HUQUQ SOHASI VA HUQUQ INSTITUTI TUSHUNCHALARI

Huquq normasi – davlat tomonidan o‘rnatiladigan yoki ma’qullanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy xulq-atvor qoidasi. Huquq normasi – huquq tizimining eng asosiy, dastlabki tarkibiy qismi bo‘lib, davlat joriy etgan, bajarilishi jamiyatning barcha a’zolari uchun majburiy bo‘lgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yurish-turish qoidasidir. Huquq normasi umumiy, ya’ni hammaga taalluqlidir. Unda sub’ektlarning huquq va majburiyatlari, rag‘batlantirish yoki bajarmaganlik uchun ta’sir choralari belgilanadi.

Huquq institutlari – bu o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari guruhidir. Masalan, fuqarolik huquqi sohasida – mulk huquqi instituti, jinoyat huquqi sohasida – davlatga qarshi jinoyatlar instituti kabilar amal qiladi. Ushbu huquq institutlari o‘zlari tegishli bo‘lgan huquq sohasining ichki tarkibiy qismidir. O‘z navbatida, yuqoridagi misolda birinchisi – mulkiy munosabatlarni, ikkinchisi davlatga qarshi jinoyat qilishdan kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning mustaqil guruhini tashkil etadi. Bu sohadagi huquq institutlari birlashib, muayyan huquq sohasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Huquq sohasi – bu ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi huquq normalari va huquq institutlarining yig‘indisidir. Masalan, moliyaviy munosabatlar moliya huquq sohasi bilan, mehnat munosabatlari mehnat huquqi sohasi bilan, er bilan bog‘liq munosabatlar er huquqi sohasi bilan tartibga solinadi va hokazo. Huquq sohasi – huquq tizimining asosiy qismi va mustaqil bo‘g‘ini. Har bir huquq sohasida tegishli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning prinsip va qoidalari bayon etiladi.

12.4. HUQUQ TIZIMINI SOHALARGA AJRATISH ASOSLARI

Huquq tizimini sohalarga ajratishda huquqiy tartibga solish predmeti va metodi muhim mezon vazifasini o‘taydi.

Huquqiy tartibga solish predmeti deganda huquq normalari ta’siri doirasida bo‘lgan munosabatlar tushuniladi. Ya’ni huquqiy jihatdan tartibga solinishi zarur bo‘lgan har qanday ijtimoiy munosabat huquqiy tartibga solish predmetini tashkil etadi.

Huquqiy tartibga solish metodi – mavjud ijtimoiy munosabatlarga huquqning ta’sirida qo‘llaniladigan usullar, vositalar majmuidir. Huquqiy tartibga solish predmeti huquq normalari bilan qanday munosabatlar tartibga solinishini anglatsa, huquqiy tartibga solish metodi esa ushbu munosabatlar qanday usul va vositalar yordamida tartibga solinishini bildiradi. Huquqiy tartibga solish metodi huquqni sohalarga ajratishda tartibga solish predmeti kabi birlamchi ahamiyatga ega bo‘lmasada, ularning huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirishda muhim hissa qo‘shadi.

Tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasiga oid, ya'ni predmet bo'yicha amaldagi huquq sohalari ko'pincha o'zaro juda yaqin bo'lib, ayrim hollarda hatto shaklan bir-biriga mos ham keladi.

Huquq sohalarida ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etishning quyidagi metodlaridan, ya'ni buyruq yoki ko'rsatma, man etish yoki taqiqlash va ruxsat berish kabilardan foydalaniladi.

Masalan, ma'muriy huquq uchun davlat-hokimiyat ko'rsatmalari berish metodi, fuqarolik huquqi uchun tenglik, ruxsat berish metodi, mehnat huquqi uchun adolatli taqdirlash va rag'batlantirish metodi, jinoyat huquqi uchun jazo tahdidi bilan man etish metodi va boshqalar.

12. 5. MODDIY VA PROTSESSUAL HUQUQ

Moddiy huquqni amalga oshirish shakllari va tartibini, uni himoya qilish shartlarini mustahkamlovchi protsessual huquqdan farqli o'laroq moddiy huquq ijtimoiy munosabatlarga ularni to'g'ridan-to'g'ri, bevosita huquqiy tartibga solish orqali ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Moddiy huquq normalari mulkchilik shakllarini, mol-mulk va shaxslarning yuridik holatini, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil etish tartibi va ularning tuzilmasini, huquqbuzarliklar uchun javobgarlik asoslari va ularning chegaralarini belgilaydi.

Huquq tizimida huquqning moddiy (fuqarolik, jinoyat huquqi) va protsessual (fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual huquqi) tarmoqlari farqlanadi. Biroq aksariyat hollarda huquqning ayni bir sohasi (ko'pincha qonunchilik tarmog'i) moddiy-huquqiy normalarni ham, protsessual-huquqiy normalarni ham o'z ichiga qamrab oladi (masalan, konstitutsiyaviy, ma'muriy, moliya, mehnat, soliq, bojxona huquqi).

Moddiy va protsessual huquq o'rtasida aniq chegara mavjud emas, ayrim huquq institutlari aralash xususiyatga ega. Masalan, vakillik bir vaqtning o'zida ham moddiy, ham protsessual huquq instituti hisoblanadi, da'vo qo'zg'atish muddatining o'tishi roman-german huquqiy tizimida moddiy huquqqa, anglo-sakson huquqiy tizimida esa protsessual huquqqa kiradi.

Процессуал хуқуқ – хуқуқларни амалга ошириш, мажбуриятларни бажариш ва ижро этиш тартибини белгиловчи нормалар. Процессуал хуқуқ моддий хуқуқ нормаларини қўллаш жараёни ва тартибини белгиловчи нормалар йиғиндисидир. Хусусан, ушбу нормалар жиноий, фуқаролик, иқтисодий, маъмурий хуқуқбuzарлик ишларини кўриб чиқиш ва ҳал этиш тартибини белгилаб беради. Жиноят-процессуал кодекси, Фуқаролик процессуал кодекси, Иқтисодий процессуал кодексида кўрсатилган нормалар шулар жумласидандир.

12.6. HUQUQ TIZIMINI XUSUSIY VA OMMAVIY HUQUQQA AJRATISH

Roman-german huquq oilasi xususiyatlaridan biri huquqning ommaviy va xususiy huquqqa bo'linishidir. Xususiy huquq alohida shaxslarning ehtiyojini qondirish va manfaatini himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, ommaviy huquq davlatning umumiy manfaatlarini muhofaza etadi. Xususiy va ommaviy huquqning shakllanishi qadimgi Rim huquqiga borib taqaladi. Unda Jus publicum va jus privatum ajratilgan bo'lib, ularga Rim yuristlari tavsif bergan. Xususan, Ulpianning fikriga ko'ra, ommaviy huquq – Rim davlatining mavqei va maqomiga (“ad statum rei Romanae spectat”), xususiy huquq esa alohida shaxslar manfaatiga taalluqlidir (“ad Singulorum utilitatem”).

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida qonun jamiyatga ta'sir ko'rsatishning asosiy vositasi bo'ladi, huquq esa ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vazifasini bajaradi.

Har qanday davlat milliy huquqiy tizim bo'lishini taqozo etadi. Uning asosiy belgisi – ommaviy va xususiy huquq, markaziy vazifasi esa fuqarolik jamiyatidagi xususiy va umumiy (ommaviy) manfaatlarining eng maqbul nisbatini kafolatlashdir. Ommaviy va xususiy manfaatlar barcha zamonlarda eng liberal demokratik jamiyatlardan tortib totalitar jamiyatlargacha mavjud bo'lgan. Xususiy va ommaviy manfaatlar nisbati, shu jumladan ommaviy va xususiy huquqning qo'llanish darajasi konstitutsiyaviy, siyosiy, iqtisodiy tuzum, birinchi navbatda mulkka egalik qilishning shakli, shuningdek mulkning ba'zi shaxslarga tegishliligi yoki umumiy mulk bo'lishi bilan bog'liq. Ommaviy va xususiy huquq bir-biridan yuridik xususiyati, ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qilish usullari bilan farq qiladi. Ommaviy huquq davlat qatnashgan munosabatlarni tartibga soladi. Bu esa imperativ normalar orqali amalga oshadi. Ommaviy huquq jamiyatni boshqarish, davlat iqtisodiyotini tashkil qilish, aholini ijtimoiy muhofaza etish, shuningdek, fuqarolarning hayoti, sog'lig'i hamda umumiy va xususiy mulklarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Xususiy huquq esa davlat qatnashmaydigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Huquqning bu turida sub'ektlar o'rtasidagi munosabat muvofiqlashtirish va avtonom usulda amalga oshiriladi. Xususiy huquqda normalar dispozitiv xususiyatga ega bo'ladi. Xususiy huquq fuqarolarning shaxsiy hayoti, ijtimoiy munosabatlari, shuningdek tovar-pul munosabatlari, mehnat munosabatlarini o'z ichiga oladi. Huquqning bu turida davlat faqat xususiy huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarda qatnashadi.

Masalan, fuqarolik huquqiy munosabatlarida davlat mulk egasi sifatida yoki xususiy huquq bilan tartibga solinadigan ommaviy manfaatlar va boshqa munosabatlarni hal qilishda xususiy huquqdan foydalanadi. Fuqarolik va mehnat munosabatlarida erkin raqobatni shakllantirish, monopoliyani tugatish, iqtisodiy jihatdan zaifroq bo'lgan tomonning manfaatlarini himoya qilish maqsadida ommaviy huquq normalari qo'llaniladi.

Ommaviy va xususiy huquqning o'zaro ta'siri natijasida fuqarolik huquqining mehnat huquqi, ekologiya, ya'ni tabiiy resurslardan foydalanish huquqi kabi sohalar ajratiladi.

Demak, **ommaviy huquq** – bu umumiy ommaviy va davlat manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan huquq sohalaridir. Masalan, konstitutsiyaviy, jinoyat,

ma'muriy huquq va boshqalar. **Xususiy huquq** – bu alohida shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) ehtiyojini qondirish va manfaatini himoya qilishga qaratilgan huquq sohalari. Masalan, fuqarolik, oila, mehnat huquqi va boshqalar.

12.7. HUQUQ TIZIMI VA QONUNCHILIK TIZIMI

Huquq tizimi va qonunchilik tizimi tushunchalarini o'zaro nisbati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, huquq tizimi ham, qonunchilik tizimi ham bitta fenomen, ya'ni huquqni ifodalaydi; biri ichki, ikkinchisi esa tashqi tomondan;

ikkinchidan, huquq tizimi va qonunchilik tizimi shakl va mazmun jihatdan o'zaro bog'liq;

uchinchidan, huquq tizimi qonunchilikni tizimlashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, qonunchilikni tizimlashtirishning oliy shakli bo'lmish kodekslashtirish sohaviy asoslarda amalga oshiriladi. Aksariyat ko'pchilik kodekslashtirilgan huquqiy hujjatlar huquqning muayyan sohalariga muvofiq keladi;

to'rtinchidan, huquq tizimi va qonunchilik tizimi har qanday demokratik davlat huquqiy tizimining mazmun-mohiyatini ifoda etadi;

beshinchidan, huquq tizimi va qonunchilik tizimining o'zaro aloqadorligi ijtimoiy munosabatlar tizimini huquqiy tartibga solishning yanada sifatli hamda samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Qonunchilik huquqni ifoda etishning tashqi shakli sifatida tizimlashtirilishi lozim bo'lgan hodisadir. Tizimlashtirish qonunchilikdan foydalanishni sezilarli darajada engillashtiradi, aholi uchun muayyan qulayliklar yaratadi. Qonunchilik tizimi huquqning tashqi ifodasi sifatida uning ichki tuzilishini ifodalovchi huquq tizimi bilan o'zaro bog'liq. Biroq ularning o'zaro ta'siri doim ham to'g'ri baholanavermaydi. Masalan, ko'pchilik olimlar huquqning sohalarga ajratilishini qonunchilikning tizimlashtirilishi darajasiga bog'liq deb hisoblamaydi hamda uning ob'ektiv omillar ta'sirida amalga oshirishini ta'kidlaydilar. Haqiqatan ham, qonunchilikning tizimlashtirilishi yoki kodekslashtirilishi yangi huquq sohasini yaratmaydi. Masalan, Havo kodeksi, Shaharsozlik kodekslarining mavjudligi hali ularga mutanosib huquq sohalarining ham mavjudligidan dalolat bermaydi. Yoki aksincha huquqning hamma sohalariga ham "o'z" kodekslariga ega emas.

H.Odilqorievning fikricha, qonunchilik ikki xil ma'noda qo'llaniladi: 1) qonunchilik – bu davlat hokimiyati organi tomonidan qonunlar chiqarishga qaratilgan o'z funksiyasini amalga oshirish usuli; 2) qonunchilik – bu mamlakatda amal qiluvchi barcha normativ-huquqiy hujjatlar yig'indisi²³. Demak, huquq normalarini birlashtirgan normativ-huquqiy hujjatlar qonunchilik tizimini tashkil etadi. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasi mazmuniga muvofiq qonunchilikning vertikal tizimi quyidagi tartibda joylashgan normativ-huquqiy hujjatlardan iborat: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O'zbekiston Respublikasining qonunlari; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari; O'zbekiston

²³ Одилқориев Х.Т. Ўзбекистонда қонун чиқариш жараёни. -Т.: Ўзбекистон, 1995. –Б.10.

Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari; vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari; mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Huquq va qonunchilik tizimlari o‘zaro uzviy bog‘liq tushuncha va hodisalar hisoblansada, ularning har biri muayyan jihatlarda o‘z mustaqilligini saqlab qoladi. Bunday mustaqillik darajasi har ikki tushunchaning belgilarini o‘zaro taqqoslash asosida aniqlanadi. Har ikki hodisa ham davlat va huquq nazariyasining tadqiqot ob‘ekti ekanligini inobatga olsak, ularni o‘rganishda keng tarqalgan usullardan biri qiyosiy-huquqiy metoddan foydalanish ahamiyatga molikdir.

Huquq tizimi, ya’ni huquqiy tartibga solish predmeti va metodi yagonaligi mezonni bo‘yicha tartiblashtirilgan norma (sohalar, tarmoqchalar, huquq institutlari, umumiy va maxsus qismlar)lar ijtimoiy munosabatlarni har tomonlama tartibga solish maqsadida tarkib topadi. Qonunchilik tizimi, ya’ni ijtimoiy hayot ehtiyojlari taqozo etgan ob‘ektiv mezonlar asosida muayyan tartibga keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar (va ularning qismlari – bo‘lim, bob, modda, qism, band, xatboshi va boshqalar) esa ijtimoiy boshqaruv jarayonida huquq normalaridan samarali foydalanish maqsadlarida shakllanadi.

12.8. QONUNCHILIKNI TIZIMLASHTIRISH TUSHUNCHASI VA TURLARI

Huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o‘zgarishi va bekor bo‘lishi bilan bog‘liq masalalar juda keng normativ-huquqiy hujjatlar doirasi bilan tartibga solinadi. Mazkur hujjatlarni qo‘llash jarayonini engillashtirish va shu asosda huquqiy tartibga solishning samaradorligini oshirishda qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar (qonunchilik)ni tizimlashtirish ularni tartibga solish va takomillashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyat bo‘lib, u mazkur hujjatlarni belgilangan va o‘zaro ichki bog‘langan tizim holiga keltirishni anglatadi. Binobarin, normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, qonunchilikni eskirgan aktlar va o‘zaro qarama-qarshi normalardan xalos etish, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanishni engillashtirish va soddalashtirish, jamiyatning huquqiy madaniyati va huquqiy ongi darajasini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- qonunchilikni rivojlantirish va yanada takomillashtirish;
- normativ-huquqiy hujjatlarni to‘g‘ri anglash va qo‘llash;
- zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat (norma)ni topishni engillashtirish;
- joriy qonunchilikdagi ziddiyatlar, noaniqliklar, takrorlanishlar, bo‘shliqlarni bartaraf etish;
- huquqiy munosabat sub‘ektlarining huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish va boshqa.

Kodifikatsiya – bu normativ-huquqiy hujjatlarni ularning mazmuniga o‘zgartirish kiritish orqali mantiqiy asosda yagona hujjatga tizimlashtirishdir. Kodifikatsiya qilish jarayonida eskirgan normalar tugatiladi, butun huquq tizimidagi ziddiyatlar bartaraf etiladi, huquqiy bo‘shliqlar to‘ldiriladi.

Kodifikatsiya qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni kodekslar chiqarish yo'li bilan tizimga solish hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni kodifikatsiyalash quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

Birinchidan, kodifikatsiyalash faoliyati bilan faqat vakolatli huquq ijodkorligi organlari konstitutsiyaviy va boshqa qonuniy vakolatlar asosida shug'ullanadi.

Ikkinchidan, kodifikatsiyalash natijasida oldin amalda bo'lganlaridan jiddiy farqlanuvchi normalarni o'z ichiga olgan yangi normativ-huquqiy hujjat yaratiladi.

Uchinchidan, kodifikatsiyalashtirilgan hujjat yig'ma hujjat hisoblanadi. Chunki, unda oldin turli hujjatlarda aks etgan, lekin ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir sohasini tartibga solishga xizmat qilgan normalar bir joyga jamlanadi.

To'rtinchidan, kodifikatsiyalangan hujjat ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasida amal qiluvchi hujjatlar tizimida asosiysi hisoblanadi.

Beshinchidan, kodifikatsiyalash natijasida yaratiladigan normativ-huquqiy hujjatlar ijtimoiy munosabatlarni uzoq vaqt davomida tartibga solishga mo'ljallangan. Ular ijtimoiy hayotdagi ehtimol tutilgan o'zgarishlarni hisobga olib, kelajakda yuzaga keladigan yanada takomillashgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Fanda kodifikatsiyalangan hujjatlar o'z mazmuni va nomiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

a) qonun asoslari – bu huquqning muayyan sohasi yoxud davlat boshqaruvi muayyan doirasining muhim qoidalarini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatdir. Kodifikatsiyalashning bunday shakli federativ yoki ittifoq davlatlarida qo'llaniladi.

b) kodeks – ijtimoiy hayotning asosiy sohalarida amal qiluvchi hamda huquqiy tizimning barqarorligini talab etuvchi kodifikatsiyalashgan hujjatlarning eng keng tarqalgan turidir (Fuqarolik kodeksi, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi va hokazolar).

Inkorporatsiya (lot. Incorporatio) – tizimlashtirishning bir turi bo'lib, bunda kodifikatsiyadan farqli o'laroq amaldagi qonunlar, farmonlar, hukumat qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuniga biron-bir o'zgarish kiritilmasdan, ular xronologik, alifbo, mavzu bo'yicha yoki o'zgacha tartibda (masalan, huquq sohalarini bo'yicha) tizimga solib nashr qilinadi. Qonunlarni inkorporatsiya qilish orqali tizimlashtirish deyarli barcha davlatlarda amalga oshiriladi. Ular ko'p jildli shaklda nashr etilib, qonunlarning chiqarilgan vaqtiga qarab (xronologik), alfavit tartibida va boshqa sifat hamda belgilariga qarab joylashtiriladi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida chiqarilgan qonunlar O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari degan ko'p jildli xronologik to'plam sifatida nashr etilgan edi. SHu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining to'plamida muayyan muddat davomida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar inkorporatsiya shaklida tizimlashtirib boriladi.

Inkorporatsiyaning uni amalga oshiradigan sub'ektlar doirasiga ko'ra uch turi mavjud: rasmiy, norasmiy va ofitsioz. **Rasmiy inkorporatsiya** deganda

normativ-huquqiy hujjatni chiqargan organ tomonidan to'plam va majmua shaklida tizimlashtirish tushuniladi. **Norasmiy inkorporatsiyada** tizimlashtirilgan to'plamlar tuzish buning uchun maxsus vakolati bo'lmagan idora va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi (masalan, yuridik nashriyotlar tomonidan yoki ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan tizimlashtirish). **Ofitsioz inkorporatsiya** deganda normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish vakolatiga ega bo'lgan idoralar tomonidan umumlashtirilishi va to'plam yoki majmua qilib chiqarilishi tushuniladi (odatda, bunday tizimlashtirish Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi). Inkorporatsiyaning eng yuqori ko'rinishi – qonunlar va boshqa muhim normativ-huquqiy hujjatlarni to'plab, qat'iy tartib asosida mavzuli (predmetli) tizimlashdir. Bunda amaldagi barcha qonun hujjatlari yoki qonun hujjatlarining ma'lum bir sohasi, institutiga tegishli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar muayyan tartibda joylashtirib chiqiladi.

Konsolidatsiya – bu tizimlashtirishning shunday shaklidirki, bunda normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuniga o'zgartirishlar kiritilmaydi, lekin bu hujjatlar mustaqil yuridik akt sifatida o'zining kuchini yo'qotadi. Konsolidatsiya normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirishning inkorporatsiya va kodifikatsiya o'rtasidagi oraliq shakli hisoblanadi. Konsolidatsiya natijasida bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan turli xil yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar umumlashtiriladi va shu asosda keraksiz takrorlanish hamda ziddiyatlar bartaraf etiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Huquq tizimi tushunchasi va tarkibiy elementlarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bering.
2. Huquq tizimini sohalarga ajratishda huquqiy tartibga solish predmeti va metodilarini izohlang
3. Huquq institutlari va huquq sohalarining o'zaro farqli tomonlarini muhokama qiling.
4. Qonunchilikni tizimlashtirishda kodifikatsiyalashning amaliy ahamiyati va ijobiy tomonlarini izohlab bering
5. Milliy huquqiy tizim tushunchasi, tarkibiy qismlarini ko'rsatib bering.

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ТЕСТ САВОЛЛАРИ

1.Хуқуқий тизимнинг таркибий қисмлари қайси жавобда тўғри берилган

- А.Норматив хусусиятга эга бўлган таркибий элементлар
- В.Ҳаракатда ифодаланмайдиган таркибий элементлар
- С.Ғоявий, сиёсий, мафқуравий элементлар
- Д.Ташкилий, ҳуқуқий таркибий элементлар:

2.Хуқуқ тизимининг энг асосий, дастлабки таркибий қисми қайси жавобда берилган.

- А.Хуқуқ соҳаси
- В.Моддий ҳуқуқ

С. Ҳуқуқ гипотезаси

Д. Ҳуқуқ нормаси

3. Ўзаро боғлиқ бўлган бир турдаги ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи ҳуқуқ нормалари гуруҳи қайси жавобда берилган.

А. Ҳуқуқ соҳалари

В. Моддий ҳуқуқ

С. Ҳуқуқ институтлари

Д. Ҳуқуқ нормаси

4. Ҳуқуқ субъектларининг ҳуқуқ ва бурчлари, уларнинг ҳуқуқий ҳолати, ҳуқуқий тартибга солиш доирасини белгилайди.

А. Процессуал ҳуқуқ нормалари

В. Моддий ҳуқуқ нормалари

С. Ҳуқуқ институтлари

Д. Тўғри жавоб берилмаган

5. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тизимлаштириш ваколатига эга бўлган идоралар томонидан умумлаштирилиши ва тўплам ёки мажмуа қилиб чиқарилиши нима дейилади.

А. Официоз инкорпорация

В. Консолидация

С. Кодификация

Д. Официоз консолидация

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ГЛОССАРИЙЛАР

ҲУҚУҚ ТИЗИМИ – бу ижтимоий муносабатларнинг характери билан боғлиқ бўлган ҳуқуқнинг ички тузилиши бўлиб, у ҳуқуқ нормалари, ҳуқуқ институтлари ва ҳуқуқ соҳаларининг қатъий илмий изчилликда жойлашган тартибидир.

ҲУҚУҚ НОРМАСИ – давлат томонидан ўрнатиладиган ёки маъқулланадиган, муайян шаклда ифодаланадиган, ижтимоий муносабатни тартибга солишга қаратилган умуммажбурий хулқ-атвор қондаси. Ҳуқуқ нормаси – ҳуқуқ тизимининг энг асосий, дастлабки таркибий қисми бўлиб, давлат жорий этган, бажарилиши жамиятнинг барча аъзолари учун мажбурий бўлган, ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи юриш-туриш қондасидир.

ҲУҚУҚ ИНСТИТУТЛАРИ – бу ўзаро боғлиқ бўлган бир турдаги ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи ҳуқуқ нормалари гуруҳидир. Масалан, фуқаролик ҳуқуқи соҳасида – мулк ҳуқуқи институти, жиноят ҳуқуқи соҳасида – давлатга қарши жиноятлар институти кабилар амал қилади. Ушбу ҳуқуқ институтлари ўзлари тегишли бўлган ҳуқуқ соҳасининг ички таркибий қисмидир.

ХУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ ПРЕДМЕТИ ДЕГАНДА ҳуқуқ нормалари таъсири доирасида бўлган муносабатлар тушунилади. Яъни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиниши зарур бўлган ҳар қандай ижтимоий муносабат ҳуқуқий тартибга солиш предмети ташкил этади.

МОДДИЙ ХУҚУҚ – ижтимоий муносабатларни тартибга солишни таъминловчи ҳуқуқ нормалари тизими. Моддий ҳуқуқ нормалари ҳуқуқ субъектларининг ҳуқуқ ва бурчлари, уларнинг ҳуқуқий ҳолати, ҳуқуқий тартибга солиш доирасини белгилайди.

ПРОЦЕССУАЛ ХУҚУҚ – ҳуқуқларни амалга ошириш, мажбуриятларни бажариш ва ижро этиш тартибини белгиловчи нормалар. Процессуал ҳуқуқ моддий ҳуқуқ нормаларини қўллаш жараёни ва тартибини белгиловчи нормалар йиғиндиси. Хусусан, ушбу нормалар жиноий, фуқаролик, иқтисодий, маъмурий ҳуқуқбузарлик ишларини кўриб чиқиш ва ҳал этиш тартибини белгилаб беради.

Кодификация – бу норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни уларнинг мазмунига ўзгартириш киритиш орқали мантиқий асосда ягона ҳужжатга тизимлаштиришдир. Кодификация қилиш жараёнида эскирган нормалар тугатилади, бутун ҳуқуқ тизимидаги зиддиятлар бартараф этилади, ҳуқуқий бўшлиқлар тўлдирилади. Кодификация қонунлар ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни кодекслар чиқариш йўли билан тизимга солиш ҳисобланади.

13-MAVZU. HUQUQIY MUNOSABATLAR

Mavzuning asosiy yo‘nalishlari:

1. Huquqiy munosabatlar tushunchasi va turlari.
2. Huquqiy munosabatlarning belgilari.
3. Huquqiy munosabatlarning yuzaga kelish asoslari. Yuridik faktlar tushunchasi va turlari.
4. Huquqiy munosabatlarning tarkibiy tuzilishi: sub'ekt, ob'ekt, sub'ektiv huquq va yuridik majburiyatlar.
5. Huquqiy layoqat va muomala layoqati

13.1. HUQUQIY MUNOSABATLAR TUSHUNCHASIVA TURLARI

Jamiyatda huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, natijada bu ijtimoiy munosabatlar huquqiy shaklga ega bo‘ladi va huquqiy munosabatlarga aylanadi. Huquqiy munosabatlarni to‘g‘ri tushunib olish uchun ijtimoiy munosabatlar tushunchasini yaxshi bilib olish lozim. Ijtimoiy munosabatlar bu – kundalik hayotda insonlar o‘rtasida vujudga keladigan turli shakldagi o‘zaro aloqalardir.

Ijtimoiy munosabatlarning sub'ektlari ijtimoiy uyushmalar, tashkilotlar va alohida shaxslar bo‘lishi mumkin. Huquqiy munosabat tushunchasi huquqning insonlar yurish-turishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini beradi. Huquqiy munosabatlar doirasida jamiyat hayoti va faoliyati barqaror tartibga solingan va rivojlangan holatga erishadi.

Huquqiy munosabatlar – shaxslar o‘rtasidagi yuridik aloqa bo‘lib, bu ularning o‘zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. O‘zaro huquq va burchsiz huquqiy munosabat vujudga kelmaydi. Huquqiy munosabatlar – bu ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari bilan tartibga solingan bir qismi bo‘lib, ularning sub’ektlari sub’ektiv huquq va sub’ektiv yuridik majburiyatlarga ega bo‘lishadi.

Huquqiy munosabatlar yuzaga kelishi uchun moddiy va yuridik asoslar, ya’ni ijtimoiy munosabatni tartibga soladigan tegishli huquq normasi, tomonlarning huquq va muomala layoqatiga ega bo‘lishlari hamda yuridik fakt mavjud bo‘lishi kerak.

Huquqiy adabiyotlarda huquqiy munosabatlar tushunchasi, belgilari va ularni tasniflash me’zonlariga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjuddir.

Huquqiy munosabatlar – bu huquqiy normalar yordamida tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar. Huquqiy normalar o‘zgalarning vazifa va funksiyalarini huquqiy munosabatlar orqali amalga oshiradilar, huquqiy munosabatlarni tartibga solish bilan huquq hayotga tadbiiq etiladi.

Huquqiy munosabatlar – huquq normalari asosida vujudga keladigan ijtimoiy munosabat bo‘lib, uning ishtirokchilari davlat tomonidan ta’minlanadigan sub’ektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo‘ladilar.

13.2. HUQUQIY MUNOSABATLARNING BELGILARI

Ijtimoiy munosabatlarning bir ko‘rinishi bo‘lgan huquqiy munosabatlar quyidagi belgilarga ega bo‘ladi:

1. Huquqiy munosabatlarda ishtirok qiluvchi tomonlar – sub’ektlar o‘zlariga tegishli sub’ektiv huquq va yuridik majburiyatlarni amalga oshiradilar. Bu munosabatlarning mazmuni tomonlarning xohish-irodasi asosida huquq normalarining amal qilishi, shuningdek, huquqni amalga oshiruvchi organlar qarorlariga ko‘ra belgilanadi. Huquqiy munosabatlar ishtirokchilari, odatda o‘zlari mustaqil o‘zaro huquq va majburiyatlar mazmunini belgilab oladilar.

2. Huquqiy munosabatlar, odatda ikki tomonlama munosabatni anglatadi. Har qanday huquqiy munosabatlarda ikki tomon, ya’ni huquqqa va majburiyatga ega tomonlar ishtirok etadi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasida sotuvchi xaridorga mahsulotni berish majburiyatiga va uning qiymatini to‘lashni talab qilish huquqiga, xaridor esa belgilangan narxni to‘lash majburiyatiga va sotib olingan ashyoni talab qilish huquqiga egadir.

3. Huquqiy munosabatlar murakkab bo‘lgan tarkibiy tuzilishga ega. Unga sub’ekt, ob’ekt va huquqiy munosabatning mazmuni kiradi. Huquqiy munosabatlarning mazmuni ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘ladi. Ma’lumki, huquqiy munosabatlarning yuridik va faktik mazmun tushunchasi mavjuddir.

Huquqiy munosabatning yuridik mazmuni huquqqa ega shaxsning ma’lum harakatlari sodir etish imkoniyati, majbur shaxsning esa ma’lum harakatlari zarurligi yoki taqiqlangan harakatlarni sodir etishdan o‘zini tiyishidan iborat bo‘lsa, faktik mazmun huquq va majburiyatlar amalga oshadigan xatti-harakatlarda ko‘rinadi.

Huquqiy munosabat mazmuni – sub’ektiv yuridik huquq va majburiyatlardir. Sub’ektiv huquq va unga muvofiq keladigan majburiyat huquq

egasi va majbur tomon o'rtasidagi yuridik aloqadir. Bitta huquqiy munosabat bir yoki bir necha huquqiy aloqadan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi asosida vujudga keladigan huquqiy munosabatda kamida ikkita huquqiy aloqa mavjud: birinchi – xaridorning mahsulot olish huquqi va sotuvchining mahsulot etkazib berish majburiyati, ikkinchisi – sotuvchining mahsulot uchun uning qiymatini olish huquqi va sotuvchining mahsulot uchun kelishilgan qiymatini to'lash majburiyati.

Huquqiy munosabatlar tasnifi turli asoslarga ko'ra amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, huquq normalari kabi ularni ham sohalar bo'yicha tasniflash mumkin: konstitutsiyaviy, fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy va boshqalar. Bunday tasnifning asosini ijtimoiy munosabatlarning alohida sohalariga xos bo'lgan tomonlar tashkil qiladi. Mazmuniga qarab huquqiy munosabatlar umumtartibga soluvchi, regulyativ va qo'riqlovchi turlarga bo'linadi. Umumtartibga soluvchi huquqiy munosabatlar bevosita qonundan paydo bo'ladi va gipotezasida hech qanday yuridik faktlar ko'rsatilmagan huquq normalaridan kelib chiqadi. Bunday normalar kimlarga mo'ljallangan bo'lsa, ularning barchasiga hech qanday shartlarsiz bir xil huquq va majburiyatlar keltirib chiqaradi.

Huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi sub'ektlarni aniqlashtirish darajasiga yoki bog'liqligiga ko'ra huquqiy munosabatlar nisbiy va absolyut bo'lishi mumkin. Nisbiy huquqiy munosabatlarda har ikkala tomon aniqlangan bo'ladi. Absolyut huquqiy munosabatlarda esa faqat huquqqa ega tomon aniq belgilangan bo'ladi, majburiyat yuklangan tomon esa sub'ektiv huquqning buzilishidan o'zini tiyishga majbur bo'lgan shaxs nazarda tutiladi. Majburiyat xususiyatiga ko'ra huquqiy munosabatlar faol va sust turlarga bo'linadi. Faol turdagi huquqiy munosabatlarda bir tomon belgilangan ijobiy xatti-harakatlarni sodir etishga majbur bo'ladi, boshqa tomonda esa bu harakatlarni bajarishni talab qilish huquqi mavjud bo'ladi. Sust turdagi huquqiy munosabatlarda esa majburiyat huquq normalari tomonidan taqiqlangan harakatlarni sodir etishdan o'zini tiyishdan iboratdir.

13.3. HUQUQIY MUNOSABATLARNING YUZAGA KELISH ASOSLARI. YURIDIK FAKTLAR TUSHUNCHASI VA TURLARI

Huquqiy munosabatlarni yuzaga kelishi uchun tegishli asoslar mavjud bo'lishi kerak. Huquqiy munosabatlarni vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishiga asos bo'ladigan muayyan hayotiy hodisa yoxud harakatlarga yuridik faktlar deyiladi.

Ko'rib chiqilayotgan faktlar yuridik deb atalishining sababi, ular huquq normalarida ko'rsatib o'tilgan bo'ladi. Gipotezada ko'rsatilgan faktlar ro'y bergan paytda u kuchga kiradi, ya'ni bu norma kimga qaratilgan bo'lsa, o'sha shaxslar dispozitsiyada ko'rsatilgan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Vakolat beruvchi va majburlovchi huquqiy normaning dispozitsiyasida faol tomonning xatti-harakati qanday bo'lishi yoki qanday bo'lish kerakligi ko'rsatiladi. Huquqiy norma dispozitsiyasidagi ko'rsatmaga binoan sodir etiladigan xatti-harakatlari huquq va majburiyatlarni amalga oshiruvchi yuridik faktlar deb tan olinadi. Huquq va majburiyatlarni o'rnatish bilan birga dispozitsiya yuridik faktlarni ko'rsatib o'tadi.

Bundan tashqari, faktlar yuridik deb tan olinishi uchun huquq normasi bilan

birga tomonlarning o‘zaro huquq va majburiyatlar mazmunini belgilab beradi.

Ko‘pchilik hollarda huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi uchun yuridik faktlarning tarkibi bo‘lishi talab qilinadi, ya‘ni ikki va undan ortiq yuridik faktlar yig‘indisi bo‘lishi darkor, ularning yig‘indisi yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ba‘zan huquq normalari huquqiy oqibatlarni ma‘lum holatning mavjudligi bilan emas, balki uning yo‘qligi bilan ham bog‘laydi. Masalan, muayyan huquqiy munosabatda huquq subekti tomonidan sub‘ektiv majburiyatini bajarmasligi buzilgan huquq himoyasi uchun protsessual munosabatlar kelib chiqishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuridik faktlar tasnifi. Yuridik faktlar turli-tuman hayotiy hodisalardan iborat bo‘lganligi sababli ularni turli asoslarga ko‘ra tasniflash mumkin. Yuridik faktlarni ular keltirib chiqaradigan oqibatlar va ularning irodaviy mazmuniga ko‘ra turlarga bo‘lish katta ahamiyatga egadir.

Keltirib chiqaradigan oqibatiga ko‘ra yuridik faktlar huquqni yaratuvchi, huquqni o‘zgartiruvchi va huquqni bekor qiluvchi turlarga bo‘linadi.

Huquqni yaratuvchi faktlar huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradi. Bularga fuqarolik-huquqiy bitimlar, mehnat shartnomasining tuzilishi, oila huquqi normalariga binoan nikoh qurish, jinoyat-huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradigan jinoyi xatti-harakatlar sodir etilishi va boshqalar.

Huquqni o‘zgartiruvchi faktlar huquqiy munosabatlarni o‘zgartiradi. Masalan, boshqa ishga o‘tish tomonlar o‘rtasidagi mehnat-huquqiy munosabatlari mazmunini o‘zgartiradi, lekin bunda huquqiy munosabatlar saqlanib qoladi.

Huquqni bekor qiluvchi faktlar huquqiy munosabatlar to‘xtatilishini taqozo etadi. Shaxs sub‘ektiv huquqini amalga oshirsa yoki majburiyat bajarilsa, huquqiy munosabatlar barham topadi. Lekin huquqiy munosabatlar nafaqat huquq amalga oshirilganda yoki majburiyat bajarilganda to‘xtashi, balki shaxsning o‘limi yoki ashyoning nobud bo‘lishi natijasida ham to‘xtashi mumkin.

Irodaviy belgisiga ko‘ra yuridik faktlar hodisalarga va qilmishlarga bo‘linadi.

Hodisalar – bu shunday yuridik faktlarki, ularning sodir bo‘lishi huquqiy munosabatlar sub‘ektlarining xohish-irodasiga bog‘liq emas. Masalan, zilzila, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar.

Qilmishlar yoki xatti-harakatlar – bu insonlarning yurish-turishi, ular ongi va irodasining ifodasi. Qilmishlar huquqqa mos va huquqqa xilof harakatlarga bo‘linadi. Huquqqa mos hatti-harakatlar amaldagi normalar doirasida sodir etiladi. Ular individual yuridik aktlarga va yuridik qilmishlarga bo‘linadi. Individual yuridik aktlar insonlarning huquqiy oqibatga yo‘naltirilgan qarorlaridir. Ularga huquqni qo‘llash aktlari, tashkilotlar o‘rtasidagi shartnomalar, fuqarolik-huquqiy bitimlar, fuqarolarning arizalari va boshqa huquqiy oqibatni keltirib chiqaradigan xatti-harakatlar kiradi. Yuridik qilmishlar insonlarning real hayotiy munosabatlari mazmunini tashkil qiladigan yurish-turishidir. Yuridik qilmishlar ko‘rsatilgan oqibatlarga erishish uchun yo‘naltirilgan yoki yo‘naltirilmaganidan qat’i nazar huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Huquqqa xilof xatti-harakatlar – bu jinoyatlar va huquq normalariga qarshi qilingan xatti-harakatlar.

Harakatsizlik – bu insonlarning tashqi ifodaga ega bo‘lmagan passiv yurish-

turishidir. Harakatsizlik huquqqa mos va huquqqa xilof ko‘rinishida bo‘ladi.

Ko‘pchilik hollarda huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi uchun murakkab yuridik faktlarning tarkibi bo‘lishi talab qilinadi, ya‘ni ikki va undan ko‘p yuridik faktlarning yig‘indisi bo‘lishi lozim, chunki ularning yig‘indisi yuridik oqibatlarni keltirib chiqarishiga olib keladi.

13.4. HUQUQIY MUNOSABATLARNING TARKIBIY TUZILISHI: SUB’EKT, OB’EKT, SUB’EKTIV HUQUQ VA YURIDIK MAJBURIYATLAR

Ma‘lumki, huquqiy munosabatarning dastlabki elementi bu – huquqiy munosabatlarning sub’ektlari.

Huquqiy munosabatlar sub’ektlari–huquqiy munosabatlarning sub’ektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo‘lgan ishtirokchilari.

Huquqiy normalar asosida huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan, ya‘ni sub’ektiv huquqlar va majburiyatlarga ega shaxslar yoki tashkilotlar huquq sub’ektlari bo‘lishi mumkin.

Huquq sub’ekti – bu qonunga binoan huquqqa ega bo‘lish va zimmasiga yuridik majburiyatlarni olish layoqatiga ega bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxslar.

Jismoniy shaxslar – bular muayyan davlat fuqarolari, xorijiy davlatlar fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

Huquq sub’ektlilik – huquqiy normalarda belgilangan huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo‘lish layoqati. Bu murakkab yuridik tushuncha bo‘lib, ikki elementdan tashkil topgan : huquqiy layoqat va muomala layoqati.

Fuqarolar – huquqning turli sohalariga oid huquqiy munosabatlarning sub’ektlari bo‘lib, ular konstitutsiyaviy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy, oila, mehnat, moliyaviy, protsessual va boshqa munosabatlarga kirishadilar. Fuqarolarning ijtimoiy va huquqiy faolligi ularning jamiyatda, ijtimoiy guruhlarda hamda mehnat jamoalarida tutgan o‘rinlari, ularning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlari bilan bog‘liqdir.

Fuqarolarning huquqiy holati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan asosiy huquqlar, erkinliklar va majburiyatlarni o‘z ichiga olgan huquq sub’ektlilik bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqiy maqomi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan me‘yorlariga mos keladi.

Huquq va erkinliklar qonunlarni qo‘llashning ma‘no-mazmunini va tartibini, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarining hamda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarini faoliyatini aniqlab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolarning qonun va sud oldida teng huquqliligini belgilaydi, insonning hayoti, sog‘ligi, sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, uy-joy, harakat erkinligi yashash joylarini tanlash huquqini, vijdon, so‘z erkinligi, mitinglar va namoyishlar o‘tkazish huquqini hamda davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish, tadbirkorlik faoliyati erkinligi, xususiy mulk huquqi va boshqa huquq hamda erkinliklarning huquqiy kafolati hisoblanadi.

Asosiy qonunimizga ko‘ra, har bir inson mehnatga bo‘lgan layoqatlarini ishga solish, ijtimoiy ta‘minot kafolati, uy-joy, sog‘liqni saqlash va ta‘lim, ijod

erkinligi hamda huquq va erkinliklarni sud tomonidan himoya qilish huquqiga ega bo'lish huquqiga ega.

Konstitutsiyada o'rnatilgan soliq va to'lovlarni to'lash, tabiatni va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarga e'tibor berish hamda Vatanni himoya qilish, qonunlarga muvofiq harbiy xizmatni o'tash masalalari qat'iy belgilab qo'yilgan.

Huquq sub'ektlari ierarxiyasida dastlab davlat turadi, so'ngra davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari. Davlat tashkilotlari turli funksiyalarni bajarish uchun tashkil qilinadi. Ularni huquq sub'ekti sifatida uch guruhga bo'lish mumkin:

1) boshqaruv funksiyalari va vakolatlariga ega bo'lgan davlat organlari. Odatda ular ma'muriy, er, jinoiy qonunlar, protsessual- huquqiy munosabatlar sub'ektlari sifatida faoliyat yuritadilar. Davlat organlarining huquqiy maqomi aniq vakolatlar majmuiga egalik bilan, ya'ni tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan huquq va majburiyatlar majmui bilan tavsiflanadi;

2) hokimiyat vakolatlari bilan bog'liq bo'lmagan ijtimoiy-madaniy faoliyat bilan shug'ullanadigan muassasalar. Bunday muassasalar o'z vazifalarini bajarish uchun huquq va majburiyatlar majmuasiga ega bo'ladi va davlat byudjeti bo'yicha bog'liq bo'ladi;

3) xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanadigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yoki tezkor boshqaruv huquqiga ega bo'lgan korxonalar.

Davlat tashkilotlari fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bevosita hokimiyat vakolatlari bilan bog'liq bo'lmagan vazifalarni bajaruvchi yuridik shaxslar sifatida qatnashadi.

Huquq sub'ekti sifatida nodavlat tashkilotlari siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sohalarda faoliyat olib boradilar.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy aholi tomonidan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar, kommunal mulkka egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish masalalari bo'yicha mustaqil qaror qabul qiladi. Biroq ko'pincha ijtimoiy jamoalar davlat va jamoat tashkilotlari orqali harakat qiladi.

Yuridik shaxslar – qonun bo'yicha fuqarolik huquqlari va majburiyatlarining sub'ekti bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalar.

Yuridik shaxslar – o'z mulkida, xo'jalik yuritishda va operativ boshqaruvda alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotlar.

13.5. HUQUQIY LAYOQAT VA MUOMALA LAYOQATI

Huquqiy layoqat – bu shaxs tomonidan qonun bilan nazarda tutilgan sub'ektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo'lish layoqati.

Muomala layoqati – shaxsning huquq normalarida ko'zda tutilgan huquq va majburiyatlarga ega bo'lish, ularni o'z harakatlari bilan amalga oshirish layoqati va yuridik imkoniyati.

Huquqiy layoqatning turlari – bu o'z harakatlari bilan fuqarolik-huquqiy bitimlarda ishtirok qilish layoqati va delikt layoqati – sodir etilgan huquqbuzarlik

uchun huquq normalarida ko'zda tutilgan yuridik javobgarlik tortilish mumkinligi.

Huquqiy layoqat va muomala layoqatini farqlash, asosan, fuqarolik huquqi uchun xosdir, chunki fuqaroning huquqiy layoqati uning tug'ilishi bilan va muomala layoqati – shaxs muayyan yoshga etishi bilan boshlanadi.

Huquqiy munosabatlar ob'ektlari – bu huquqiy munosabat sub'ektlarining qiziqishlari, manfaatlari yoki himoya qilish uchun huquq va majburiyatlari qaratilgan narsa, ashyo yoxud qadriyatlar.

Huquqiy munosabat ob'ektlari bo'lishi mumkin:

- moddiy qadriyatlar;
- nomoddiy qadriyatlar;
- ma'naviy ijod mahsullari;
- huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining faoliyati natijalari;
- qimmatbaho qog'ozlar, hujjatlar va boshqalar.

Sub'ektiv huquq – huquq normalarida ko'zda tutilgan huquqiy munosabat ishtirokchilarining mumkin bo'ladigan doiradagi xulq-atvori bo'lib, sub'ektning o'z shaxsiy manfaatlarini qondirishiga imkon beradigan yuridik choralardir.

Yuridik majburiyat – huquqiy normalarda ko'zda tutilgan, huquqiy munosabatlar ishtirokchilari tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan huquqiy xatti-harakatlar doirasi.

Sub'ektiv huquqning quyidagi belgilari mavjud:

1. Sub'ektiv huquq – bu imkoniyat darajasidagi xulqning ko'rinishi. Sub'ektiv huquq – bu mumkin bo'lgan xulq, ya'ni uning tashuvchisi uchun har doim tanlash imkoniyati mavjud: ma'lum tartibda harakat qilish yoki qilmaslik;

2. Tahlil qilinayotgan huquqning mazmuni huquq normalari va yuridik faktlar tomonidan o'rnatiladi;

3. Sub'ektiv huquqning amalga oshirilishi boshqa ikkinchi tomonning majburiyatlari bilan ta'minlanadi; ba'zi hollarda ikkinchi tomonning bu majburiyati sub'ektiv huquqni buzuvchi harakatlardan saqlanishini taqozo etsa, ba'zi hollarda esa aksincha, ya'ni u shaxs tomonidan olingan majburiyatlarini bajarilishini taqozo etadi;

4. Sub'ektiv huquq vakolatli shaxsga uning manfaatlarini qondirish uchun beriladi;

5. Sub'ektiv huquq nafaqat imkoniyatdan, balki vakolatli shaxsning yuridik yoki faktik xulqidan iborat bo'ladi.

Sub'ektiv huquq – murakkab hodisa bo'lib, o'z ichiga bir qator huquqiy vakolatlarini qamrab oladi. Bularga:

- shaxsiy faktik harakatlarga nisbatan bo'lgan huquq;
- yuridik harakatlarga nisbatan bo'lgan huquq;
- talab qilish huquqi;
- kuch ishlatishga moyillik huquqi.

Sub'ektiv yuridik majburiyat – sub'ektning sodir etishi lozim bo'lgan xatti-harakati turi va o'lchovi.

Yuridik majburiyat – bu huquqiy munosabat ishtirokchilarining tegishli huquqiy normaga asosan o'zlarining burchi bo'lgan harakatni amalga oshirishlari va muayyan harakatlarni sodir etishdan o'zlarini tiyishlari.

Yuridik majburiyatlarning quyidagi belgilari mavjud:

- zarur bo'lgan choralar;
 - huquq normalari talablariga ko'ra yoki yuridik faktlar asosida o'rnatiladi;
 - majburiyat vakolatli tomonning manfaatlarini ko'zlab o'rnatiladi;
 - majburiyat – nafaqat majburiy hol bo'libgina qolmasdan, balki u majburiyat olgan shaxsning real faktik xulqidir;
 - majburiyatga ega shaxsning oldida tanlash imkoniyati bo'lmaydi.
- Yuridik majburiyatni bajarmaslik yoki uni to'la bajarmaslik huquqni buzish hisoblanadi va davlat tomonidan choralar ko'rishni taqozo etadi.

Yuridik majburiyatlar uchta asosiy shaklga ega:

- taqiqlangan harakatlardan o'zini tutish;
- muayyan harakatlarni sodir etish;
- tashkiliy, mulkiy va shaxsiy xarakterga ega bo'lgan huquqlardan chegaralanish.

Nazorat uchun savollar

1. Huquqiy munosabatlarning qanday o'ziga xos belgilari mavjudligini muhokama qiling.
2. Huquqiy munosabatlarning mazmunini va uning elementlarini muhokama eting.
3. Huquqiy munosabatlarning o'z mazmuniga ko'ra turlarini muhokama qiling
4. Huquqiy munosabatlarning huquq ob'ekti, huquq sub'ekti, yuridik faktlar (harakat va hodisalar), sub'ektiv huquq va yuridik majburiyat elementlarini izohlang.
5. Huquqiy prezumpsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qiling.

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ТЕСТ САВОЛЛАРИ

1.Ижтимоий муносабатларнинг субъектлари.....

- А. Ижтимоий уюшмалар,
- В. Ташкилотлар
- С. Алоҳида шахслар
- Д. Хамма жавоблар тўғри

2.Шахслар ўртасидаги юридик алоқа бўлиб, бу уларнинг ўзаро ҳуқуқ ва мажбуриятларида ифодаланади....-

- А.Ижтимоий муносабатлар
- В.Ҳуқуқий муносабатлар
- С.Ходисалар
- Д. Ҳуқуқий ва муомала лаёқати

3.Келтириб чиқарадиган оқибатига кўра юридик фактлар....

- А. Ҳуқуқни яратувчи, ҳуқуқни ўзгартирувчи, ҳуқуқни бекор қилувчи
- В. Ҳуқуқни бузувчи, ҳуқуқни қиёсловчи ва ҳуқуқни бекор қилувчи

- С. Ҳуқуқни яратувчи, ҳуқуқни бузувчи ва ҳуқуқни бекор қилувчи
- Д. Ҳуқуқни қиёсловчи, ҳуқуқни бузувчи ва ҳуқуқни инкор қилувчи

4. Иродавий белгисига кўра юридик фактлар.....

- А. Фалокат ва бахтсиз ҳолат
- В. Айб ва иқрорлик
- С. Ҳодиса ва қилмиш
- Д. Қилмиш ва тасодиф

5. Ҳуқуқ субъектлилики – ҳуқуқий нормаларда белгиланган ҳуқуқий муносабатларнинг иштирокчиси бўлиш лаёқати қайси жавобда берилган

- А. Ҳуқуқий лаёқат
- В. Муомала лаёқати
- С. Ҳуқуқий легитимлик
- Д. Ҳуқуқ субъектлилики

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ГЛОССАРИЙЛАР

ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАР – бу ҳуқуқий нормалар ёрдамида тартибга солинадиган ижтимоий муносабатлар. Ҳуқуқий нормалар ўзгаларнинг вазифа ва функцияларини ҳуқуқий муносабатлар орқали амалга оширадиган, ҳуқуқий муносабатларни тартибга солиш билан ҳуқуқ ҳаётга тадбиқ этилади.

ҲОДИСАЛАР – бу шундай юридик фактларки, уларнинг содир бўлиши ҳуқуқий муносабатлар субъектларининг хоҳиш-иродасига боғлиқ эмас. Масалан, zilzila, сув тошқини ва бошқа табиий офатлар.

ҲУҚУҚ СУБЪЕКТИ – бу қонунга биноан ҳуқуққа эга бўлиш ва зиммасига юридик мажбуриятларни олиш лаёқатига эга бўлган жисмоний ёки юридик шахслар.

ЖИСМОНИЙ ШАХСЛАР – булар муайян давлат фуқаролари, хорижий давлатлар фуқаролари, шунингдек, фуқаролиги бўлмаган шахслар.

ҲУҚУҚ СУБЪЕКТЛИЛИК – ҳуқуқий нормаларда белгиланган ҳуқуқий муносабатларнинг иштирокчиси бўлиш лаёқати. Бу мураккаб юридик тушунча бўлиб, икки элементдан ташкил топган : ҳуқуқий лаёқат ва муомала лаёқати.

ЮРИДИК ШАХСЛАР – ўз мулкда, хўжалик юритишда ва оператив бошқарувда алоҳида мол-мулкка эга бўлган ҳамда ўз мажбуриятлари юзасидан ушбу мол-мулк билан жавоб берадиган, ўз номидан мулккий ёки шахсий номулкий ҳуқуқларга эга бўла оладиган ҳамда уларни амалга ошира оладиган, мажбуриятларни бажара оладиган, судда даъвогар ва жавобгар бўла оладиган ташкилотлар.

ҲУҚУҚИЙ ЛАЁҚАТ – бу шахс томонидан қонун билан назарда тутилган субъектив ҳуқуқ ва юридик мажбуриятларга эга бўлиш лаёқати.

МУОМАЛА ЛАЁҚАТИ – шахснинг ҳуқуқ нормаларида кўзда тутилган ҳуқуқ ва мажбуриятларга эга бўлиш, уларни ўз ҳаракатлари билан амалга ошириш лаёқати ва юридик имконияти.

СУБЪЕКТИВ ҲУҚУҚ – ҳуқуқ нормаларида кўзда тутилган ҳуқуқий муносабат иштирокчиларининг мумкин бўладиган доирадаги хулқ-атвори бўлиб, субъектнинг ўз шахсий манфаатларини қондиришига имкон берадиган юридик чоралардир.

ЮРИДИК МАЖБУРИЯТ – ҳуқуқий нормаларда кўзда тутилган, ҳуқуқий муносабатлар иштирокчилари томонидан амал қилиниши зарур бўлган ҳуқуқий хатти-ҳаракатлар доираси.

14-MAVZU. HUQUQNI AMALGA OSHIRISH

Mavzuning asosiy yo‘nalishlari:

1. Huquqni amalga oshirish tushunchasi va shakllari.
2. Huquq normasini qo‘llash – huquqni amalga oshirishning muhim shakli sifatida.
3. Huquq normalarini qo‘llash jarayoni bosqichlari.
4. Huquqni qo‘llash hujjatlari tushunchasi, xususiyati va turlari.
5. Huquqni qo‘llash hujjatlarining normativ-huquqiy hujjatlardan farqlari.
6. Huquqdagi bo‘shliqlar va ularni bartaraf qilish yo‘llari.
7. Huquq analogiyasi va qonun analogiyasi.
8. Qonun hujjatlari o‘rtasidagi kolliziyalar va ularni hal etish usullari.

14.1. HUQUQNI AMALGA OSHIRISH TUSHUNCHASI VA SHAKLLARI

Huquq normalari hayotda amalga oshirilsagina, u mazmun kasb etadi va jamiyat uchun ahamiyatga ega bo‘ladi. Agarda huquq ijtimoiy voqelikda namoyon bo‘lmasa, o‘z funksiyalarini to‘laqonli ravishda bajara olmaydi.

Amalga oshirish so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib (“gealis”), “moddiylashtirish” va tatbiq etish ma‘nosini anglatadi. Hozirgi paytda realizatsiya qilish biron-bir rejani, dasturni, loyihani amalga oshirish degan ma‘noni anglatadi.

Ҳуқуқни амалга ошириш – бу давлат томонидан юридик жиҳатдан мустақкамланган ва кафолатланган имкониятларнинг амалга оширилиши бўлиб, ҳуқуқ нормаларини кишилар ва уларнинг ташкилотлари фаолиятида ҳаётга татбиқ этилишидир.

Huquq nomoddiy ko‘rinishga ega bo‘lsa ham, u kishilarning faoliyatlarida, faol xulqi va yurish-turishlarida, ularning moddiy va ma‘naviy qadriyatlardan foydalanganlarida tatbiq etilib moddiylashadi.

Huquq prinsiplari va normalari faqat hayotga tatbiq etilgan, huquq sub’ektlari harakatlarida amalga oshgan taqdirdagina huquq oliy ijtimoiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, huquqiy jamiyatda har bir fuqaro, davlat organi va mansabdor shaxs huquqqa rioya etish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Huquqni amalga oshirish shakllari.

Huquqni amalga oshirishning normativ-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan qoidalarni qo‘llanish darajasiga ko‘ra:

huquqiy faoliyat davomida amalga oshiriladigan umumiy vazifalar va tamoyillar o'z ifodasini topgan qonunlar hamda moddalarning muqaddimalarida ko'zda tutilgan umumiy ko'rsatmalarni tatbiq etish;

huquq sub'ektlarining huquqiy maqomini va vakolatlar doirasini o'rnatuvchi umumiy normalarni tatbiq etish;

muayyan huquqiy munosabatlarga oid huquq normalarini tatbiq etish.

Huquqni amalga oshirish sub'ektlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- individual;
- jamoa tomonidan.

Huquq normalariga rioya qilish. Huquq sub'ektlarining muayyan huquq normalariga rioya etishlari orqali taqiqlovchi normalar amalga oshiriladi. Huquq normalarini amalga oshirishning mazkur shakli mazmuni shundaki, bunda huquq sub'ekti qonunchilik bilan taqiqlangan harakatlarni sodir etishdan o'zini tiyib turadi. Masalan, yo'l harakati qoidalariga amal qilgan holda svetoforning qizil chirog'idan o'tmaslik.

Huquq normalarini bajarish. Huquqni amalga oshirishning ushbu shakli huquq sub'ektlaridan majburiy ko'rsatmalarni hayotga joriy etish bilan bog'liq faol harakatlarni talab qiladi. Masalan, fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdir.

Huquq normalaridan foydalanish. Huquqdan foydalanish huquq sub'ektlarining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatidir. Ayni paytda huquq sub'ektlari o'zlarining irodasi bo'yicha belgilangan huquqlardan ixtiyoriy ravishda foydalanadi. Masalan, fuqarolar kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadir.

Huquq normalarini qo'llash. Huquq normalarini qo'llash vakolatli davlat organi yoki mansabdor shaxslar tomonidan muayyan huquqiy vaziyatlar uchun individual aniq ko'rsatma (qaror, buyruq, farmoyish) chiqarish orqali huquq normalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Masalan, muayyan shaxsni ishga qabul qilish to'g'risida buyruq, sudning hal qiluv qarori, hukmi.

14.3. HUQUQ NORMASINI QO'LLASH – HUQUQNI AMALGA OSHIRISHNING MUHIM SHAKLI SIFATIDA

Хуқуқни қўллаш – хуқуқ нормалари талабини амалга оширишнинг асосий шакллари дан биридир. Хуқуқни қўллаш фаолияти хуқуқ нормасини тўла-тўқис татбиқ этиш учун ваколатли орган ёки мансabdор шахсинг аралашуви талаб этилган ҳолларда заруриятга айланади. Хуқуқни қўллаш фаолияти ҳокимият характери га эга. Унда қарор (яъни хуқуқни қўллаш ҳужжати) тегишли органнинг иродаси маҳсули сифатида намоён бўлади.

Huquqni qo'llash belgilari:

- 1) davlat hokimiyati funksiyasini qo'llash vakolatiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi;
- 2) individual xarakterga ega;

3) muayyan huquqiy oqibatlarini – sub’ektiv huquq, majburiyatlar, javobgarlikni o’rnatishga yo’naltirilgan bo’ladi;

4) maxsus belgilangan protsessual shakllarda amalga oshiriladi;

5) individual xarakterga ega bo’lgan yuridik qaror chiqarish bilan yakunlanadi.

14.4. HUQUQ NORMALARINI QO’LLASH JARAYONI BOSQICHLARI

Huquqni qo’llash jarayoni o’z ichiga quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1) huquq normalari bilan tartibga solinishi lozim bo’lgan yuridik ishning faktik tomonini o’rganish va o’rnatish;

2) ko’rilayotgan yuridik ishga mos keladigan huquq normasini tanlab olish;

3) ko’rilayotgan yuridik ishga mos keladigan huquq normasining mazmunini aniqlash va uni sharhlash;

4) ko’rilayotgan masalaga oid tanlab olingan huquq normasini qo’llashga qaratilgan akt chiqarish;

5) huquqni qo’llash akti chiqarilgandan so’ng uning bajarilishini ta’minlash chora-tadbirlarini ko’rish;

6) huquqni qo’llash aktining amalda bajarilishini tekshirish va uning ustidan nazorat o’rnatish.

14.5. HUQUQNI QO’LLASH AKTLARI TUSHUNCHASI, XUSUSIYATI VA TURLARI

Хуқуқни қўллаш акти – бу юридик иш бўйича муайян шахс(лар)нинг хуқуқларини, мажбуриятларини ва у(лар)нинг юридик жавобгарлик даражасини белгиловчи, юридик фактлар ва хуқуқ нормаларига асосланиб ваколатли орган ёки мансабдор шахс томонидан чиқариладиган хуқуқий акт.

Yuridik ishni hal etish huquq ijodkorligi hujjatlariga nisbatan bo’ysunuvchi maqomga ega bo’lgan huquqni qo’llash aktlarida qayd etiladi. Ular huquq normalariga asoslanadi hamda normativ-huquqiy hujjatlarni amalga oshirish jarayoniga individual normativ ta’sirini o’tkazish maqsadini ko’zlaydi.

Huquqni qo’llash aktlarining xususiyatlari:

- vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan chiqarilishi;
- aktlar qat’iy individuallashtirilganligi, ularning muayyan shaxs va vaziyatlarga nisbatan qaratilganligi;

- davlat tomonidan ta’minlanishi;

- huquqni qo’llash aktlarining bir marotaba qo’llanilishi va shu bilan o’z vazifasini tamomlashi (ya’ni uning o’z kuchini yo’qotishi).

Huquqni qo’llash aktlarining turlari:

- parlament aktlari;

- davlat boshlig’i aktlari;

- ijro hokimiyati organlarining aktlari;

- sud hokimiyati organlarining aktlari;

- mahalliy vakillik hokimiyat organlarining aktlari;
- korxonalar, tashkilot, muassasa rahbarlarining aktlari.

Huquqni qo'llash aktlari **asoslantirilganlik, qonuniylik va maqsadga muvofiqlik** tamoyillari talablariga javob berishi lozim.

14.6. HUQUQDAGI BO'SHLIQLAR VA ULARNI BARTARAF QILISH YO'LLARI

Davlat va huquq hodisalari jamiyatdagi boshqa voqeliklar bilan birgalikda doimo rivojlanishda bo'ladi. Binobarin, jamiyat hayotiga ta'sir qiluvchi omillar natijasida ijtimoiy munosabatlar murakkablashib boradi. Bu esa huquq ijodkorining huquq tizimini mazkur jarayonga mos ravishda muntazam shakllantirib va takomillashtirib borishini talab etadi. Huquq normalari mavjud va kelgusi ijtimoiy munosabatlarni qanchalik e'tiborga olgan holda yaratilmasin, bunda jamiyatdagi barcha o'zgarishlarning doirasini qamrab olish imkoniyati mavjud emas.

Milliy qonunchilikda qonun hujjatlarida bo'shliq mavjud bo'lsa, qonun yoki huquq analogiyasi qo'llanilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 5-moddasiga asosan fuqarolik huquqiy munosabatlari qonun hujjatlari yoki taraflarning kelishuvi bilan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan hollarda fuqarolik qonun hujjatlarining o'xshash munosabatlarni tartibga soluvchi normasi qo'llaniladi (qonun o'xshashligi). Agar qonun o'xshashligidan foydalanish mumkin bo'lmasa, taraflarning huquq va burchlari fuqarolik qonun hujjatlarining umumiy negizlari va mazmuni (huquq o'xshashligi)ga hamda odillik, oqillik va adolat talablariga amal qilgan holda belgilanadi.

Хуқуқдаги бўшлиқ – бу ҳуқуқий доирадаги ижтимоий муносабатларнинг амалдаги қонунчиликда ҳуқуқ нормалари билан қисман ёки тўлиқ тартибга солинмаганлиги. Хуқуқдаги бўшлиқни тўлдириш усуллари: янги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни яратиш; ҳуқуқ ёки қонун аналогиясини қўллаш.

14.7. HUQUQ ANALOGIYASI VA QONUN ANALOGIYASI

Huquq analogiyasi – bu muayyan yuridik ish (munosabat)ni huquqning asosiy tamoyillari va ma'nosidan kelib chiqqan holda ko'rib hal etish.

Qonun analogiyasi – bu o'z ahamiyati va harakatlariga ko'ra o'xshash bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni (o'zini emas) tartibga solishga qaratilgan muayyan yuridik ishni huquq normalari asosida hal etish.

Huquqni qo'llash sub'ektlari qonun va huquq analogiyasidan foydalanishda quyidagi bir qator talablarga rioya qilishlari lozim:

birinchidan, ko'rib chiqilayotgan ish (munosabat) huquqiy tartibga solish doirasida bo'lishi va uning huquqiy hal etilishining talab qilinishi;

ikkinchidan, qonun hujjatlarida tegishli huquq normasining mavjud emasligi;

uchinchidan, qonun hujjatlarida o'xshash vaziyatlarni tartibga soluvchi normalarni topish va shu asosda ishni hal etish (qonun analogiyasi), agar bunday norma mavjud bo'lmagan holatlarda huquqning umumiy tamoyillariga asoslanib ishni hal etish (huquq analogiyasi);

to'rtinchidan, ish bo'yicha chiqarilgan huquqni qo'llash hujjatida tegishli vaziyat yuzasidan qonun yoki huquq analogiyasini qo'llash zaruratini asoslantirgan holda tushuntirish berish.

14.9. QONUN HUJJATLARI O'RTASIDAGI KOLLIZIYALAR VA ULARNI HAL ETISH USULLARI

Davlat ijtimoiy hayotning muhim sohalariga huquqiy ta'sir o'tkazish, ya'ni ushbu sohalar doirasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish orqali kelib chiqishi mumkin bo'lgan turli xil ziddiyatli holat va bo'shliqlarning oldini olib boradi.

Huquq nazariyasida **“kolliziya”** atamasi huquq normalari o'rtasidagi nomuvofiqlik, tafovut va ziddiyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Qonun hujjatlari o'rtasidagi kolliziyalar – bu muayyan turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi tafovut, qarama-qarshilik, nomuvofiqlik va ziddiyatlardir.

Qonun hujjatlari o'rtasidagi kolliziyalar huquqni tushunishda turli xil yondashuvlar, qarashlarning mavjudligida va milliy huquq tizim doirasidagi turli normalarning to'qnashuvida yuzaga keladi.

Qonun hujjatlari o'rtasidagi kolliziyalarning belgilari:

- jamiyat ijtimoiy rivojlanishida ob'ektiv tarzda yuzaga keladigan qarama-qarshilik va ziddiyatlar bilan bog'liq;
- o'zining formal xarakterga egaligi;
- muayyan turdagi ijtimoiy munosabatlarning bir qator huquq normalari bilan tartibga solingan holdagina yuzaga kelishi;
- huquq sub'ektlarining o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi va boshqalar.

Qonun hujjatlari o'rtasidagi kolliziyalarning kelib chiqishiga quyidagi omillarni sabab sifatida ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, ob'ektiv, ya'ni ijtimoiy munosabatlarning doimiy tarzda rivojlanib va o'zgarib borishi natijasida yuzaga keladi. Bunda huquq ijodkori doim ham tegishli o'zgarishlarga mos ravishda huquq normalarini shakllantirib borishga ulgurmasligi mumkin. Ikkinchidan, sub'ektiv, ya'ni etarli tarzda huquqiy madaniyat, demokratik an'analar va tajribaning mavjud emasligi; qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning sifat darajasi pastligi; huquqdagi bo'shliqlarning mavjudligi; huquq ijodkorligi jarayonining lozim darajada muvofiqlashmaganligi; normativ-huquqiy hujjatlarning qat'iy va to'liq tizimlashtirilmaganligi; tegishli davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatidagi kamchiliklar; byurokratizm va boshqa omillarda yuzaga kelishi mumkin.

Qonun hujjatlari o'rtasidagi kolliziyalarning Konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlari, qonunlar va qonunosti hujjatlari, bir organ tomonidan qabul qilingan turli hujjatlar, turli xil organlar tomonidan qabul qilingan hujjatlar hamda umumiy va maxsus hujjatlar o'rtasida yuzaga keladigan turlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Tegishli adabiyotlar va mavjud amaliyotni tahlil qilish orqali qonunchilikdagi kolliziyalarni bartaraf etishning quyidagi usullarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- ziddiyatli hujjatlar o‘rniga yangi normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish;
- ziddiyatli normativ-huquqiy hujjatlardan bittasini bekor qilish;
- joriy hujjatga o‘zgartirish va aniqlik kiritish;
- kollizion norma va tamoyillarni ishlab chiqish;
- kollizion holatlarda yuzaga keladigan bahslarni sud tartibida ko‘rib chiqish (Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud);
- huquq normalari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida mazkur normalarni sharhlash;
- huquq normalarini uyg‘unlashtirish va qonunchilikni tizimlashtirish va boshqalar.

Nazorat uchun savollar

1. Huquqni amalga oshirish shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
2. Huquqni qo'llash aktlarining turlarini va o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
3. Huquqni qo'llash jarayoni o'z ichiga qanday bosqichlarni qamrab olishini muhokama qiling.
4. Huquqni qo'llash – huquqni amalga oshirish shakli sifatidagi xususiyatlarini yoritib bering.
5. Qonundagi kolliziyalar tushunchasi, sabablari va bartaraf etish yo'llarini muhokama qiling.

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ТЕСТ САВОЛЛАРИ

1. Хуқуқни амалга ошириш субъектларига кўра қуйидаги турлари қайси жавобда берилган.

- А. Индивидуал, жамоа
- В. Жамоа, пропорционал
- С. Ваколатли, компетенциявий
- Д. Пропорционал, компетенциявий

2. Хуқуқни қўллаш белгилари қайси жавобда нотўғри берилган.

- А. Индивидуал характерга эга
- В. Махсус белгиланган процессуал шаклларга эга эмас
- С. Махсус белгиланган процессуал шаклларда амалга оширилади
- Д. Барча жавоблар тўғри

3. Хуқуқни қўллаш актларининг турлари қайси жавобда тўғри берилган

- А. Парламент актлари;
- В. Давлат бошлиғи актлари;
- С. Ижро ҳокимияти органларининг актлари;
- Д. Хамма жавоблар тўғри

4. Муайян юридик иш (муносабат)ни хуқуқнинг асосий тамойиллари ва маъносидан келиб чиққан ҳолда кўриб ҳал этиш.

- А. Қонун аналогияси
- В. Юридик коллизия
- С. Инкорпорация
- Д. Хуқуқ аналогияси

5. Қонун ҳужжатлари ўртасидаги коллизияларнинг белгилари қайси жавобда тўғри берилган

- А. Жамият ижтимоий ривожланишида объектив тарзда юзага келадиган қарама-қаршилик ва зиддиятлар билан боғлиқ эмас;
- В. Ўзининг формал характерга эга эмаслиги;
- С. Муайян турдаги ижтимоий муносабатларнинг бир қатор хуқуқ нормалари билан тартибга солинган ҳолдагина юзага келиши;
- Д. хуқуқ субъектларининг ўз хуқуқ ва мажбуриятларини амалга ошириш жараёнида муайян қийинчиликларни келтириб чиқармайди.

MAVZU ЮЗАСИДАН ГЛОССАРИЙЛАР

ХУҚУҚНИ АМАЛГА ОШИРИШ – бу давлат томонидан юридик жиҳатдан мустаҳкамланган ва кафолатланган имкониятларнинг амалга оширилиши бўлиб, ҳуқуқ нормаларини кишилар ва уларнинг ташкилотлари фаолиятида ҳаётга татбиқ этилишидир.

ХУҚУҚНИ ҚЎЛЛАШ – ҳуқуқ нормалари талабини амалга оширишнинг асосий шаклларида биридир. Ҳуқуқни қўллаш фаолияти ҳуқуқ нормасини тўла-тўқис татбиқ этиш учун ваколатли орган ёки мансабдор шахснинг аралашуви талаб этилган ҳолларда заруриятга айланади.

ХУҚУҚНИ ҚЎЛЛАШ АКТИ – бу юридик иш бўйича муайян шахс(лар)нинг ҳуқуқларини, мажбуриятларини ва у(лар)нинг юридик жавобгарлик даражасини белгиловчи, юридик фактлар ва ҳуқуқ нормаларига асосланиб ваколатли орган ёки мансабдор шахс томонидан чиқариладиган ҳуқуқий акт.

ХУҚУҚДАГИ БЎШЛИҚ – бу ҳуқуқий доирадаги ижтимоий муносабатларнинг амалдаги қонунчиликда ҳуқуқ нормалари билан қисман ёки тўлиқ тартибга солилмаганлиги. Ҳуқуқдаги бўшлиқни тўлдириш усуллари: янги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни яратиш; ҳуқуқ ёки қонун аналогиясини қўллаш.

ХУҚУҚ АНАЛОГИЯСИ – бу муайян юридик иш (муносабат)ни ҳуқуқнинг асосий тамойиллари ва маъносидан келиб чиққан ҳолда кўриб ҳал этиш.

ҚОНУН АНАЛОГИЯСИ – бу ўз аҳамияти ва ҳаракатларига кўра ўхшаш бўлган ижтимоий муносабатларни (ўзини эмас) тартибга солишга қаратилган муайян юридик ишни ҳуқуқ нормалари асосида ҳал этиш.

ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИ ЎРТАСИДАГИ КОЛЛИЗИЯЛАР – бу муайян турдаги ижтимоий муносабатларни тартибга солишга қаратилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ўртасидаги тафовут, қарама-қаршилик, номувофиқлик ва зиддиятлардир.

15-MAVZU. HUQUQ NORMALARINI SHARHLASH

Mavzuning asosiy yo‘nalishlari:

1. Huquq normalarini sharhlash tushunchasi va turlari.
2. Rasmiy va norasmiy sharhlash.
3. Huquq normalarini sharhlash usullari.
4. Huquq normalarini hajmiga ko‘ra sharhlash.
5. Huquq normalarini sharhlash hujjatlari.

15.1. HUQUQ NORMALARINI SHARHLASH TUSHUNCHASI

Ҳуқуқ нормаларини шарҳлаш – бу ҳуқуқ нормаларининг мақсади, мазмун ва моҳиятини аниқлаш ҳамда тушунтиришга йўналтирилган фаолият.

Huquqni sharhlash maxsus yuridik kategoriya sifatida o'zining alohida mazmun va mohiyatiga ega. Amaliyotda huquq normalarining to'g'ri tatbiq etilishi uchun ularni sharhlash zarur bo'ladi. SHu asosda huquq normalarining matndagi ifodasi bilan qo'llanilayotgan ijtimoiy munosabat mazmun-mohiyatining bir-biriga mos kelishi aniqlanadi.

Huquqni sharhlash jarayonidagi muhim jihat bu muayyan normaning matni hisoblanadi. Chunki aynan unda nafaqat qonun chiqaruvchining, balki davlatning ob'ektiv ravishda normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan irodasi ifodalanadi.

Sharhlash – muayyan faoliyat, jarayon (aqliy-irodaviy, tashkiliy) bo'lib, u o'z ichiga ikkita mustaqil jihatni, ya'ni **anglab olish** (o'zi uchun) va **tushuntirishni** (boshqalar uchun) qamrab oladi.

Huquq normalarini sharhlash quyidagi bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

birinchidan, mazkur faoliyat natijasida har qanday yozma manbalarning emas, balki huquq normalarining mazmun va mohiyati sharhlanadi;

ikkinchidan, huquq normalarini sharhlash huquqiy tartibga solishning zaruriy sharti sifatida maydonga chiqadi;

uchinchidan, qonunda belgilangan hollarda mazkur faoliyat vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi;

to'rtinchidan, sharhlash natijalariga majburiylik tusi beriladigan bo'lsa, maxsus huquqiy (sharhlash) hujjatlar bilan mustahkamlab qo'yiladi.

15.2. RASMIY VA NORASMIY SHARHLASH

Normativ-huquqiy hujjatlarda aks etgan huquq normalarining ruhi bilan uni ifoda etish usuli va shakli o'rtasida to'la uyg'unlikka doimo ham erishib bo'lmaydi. Bunday holatlarda yuzaga kelgan tafovutlarni hal etish asosan sharhlash usuli orqali amalga oshiriladi. Tushuntirish natijasida kelib chiqadigan yuridik oqibatlariga ko'ra sharhlashni rasmiy va norasmiy turlarga ajratish mumkin.

Rasmiy sharhlash vakolatli sub'ektlar, ya'ni davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, u maxsus hujjatlar bilan mustahkamlanadi va huquq sub'ektlari uchun majburiy xarakterga ega bo'ladi. SHarhlashning bunday turi yuridik ahmiyatga ega bo'ladi va tegishli huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Mazkur sharhlash, o'z navbatida, huquqni amalga oshiruvchilarni huquq normalarini bir xil ma'noda tushunish va aynan qo'llashga yo'naltiradi.

O'zbekiston Respublikasining **“Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonuni** 43-moddasiga ko'ra normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash normativ-huquqiy hujjatda noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llanilgan taqdirda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga rasmiy sharhni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi beradi. Qonun osti hujjatlari normalariga rasmiy sharhni ularni qabul qilgan organlar beradi. Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash jarayonida ularga normalarni aniqlashtirishga qaratilgan tuzatishlar, o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Normativ sharhlash keng doiradagi shaxs va hodisalarga qaratiladi. Bunday sharhlash huquq ijodkorligi sub'ektlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Normativ sharhlashning quyidagi turlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

autentik sharhlash (aktini chiqargan organ tomonidan amalga oshiriladi);

legal sharhlash (vakolatli sub'ekt tomonidan beriladi).

Kazual sharhlash ham rasmiy hisoblansada, u umummajburiy xarakterga ega bo'lmaydi va muayyan hodisaga nisbatan huquq normasini qo'llash jarayonida amalga oshiriladi. U aniq bir ishni vakolatli organ tomonidan ko'rib chiqilayotgan paytda beriladi va qoida tariqasida aynan ushbu ish uchun majburiy xarakterga ega bo'ladi.

Norasmiy sharhlash o'z vazifasiga ko'ra bevosita huquq normalarini sharhlash vakolatiga ega bo'lmagan sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday sub'ektlar sifatida ilmiy muassasalar, olimlar, nodavlat tashkilotlari, amaliyot xodimlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Ular huquq normalarini tushuntirishni tavsiya va maslahat berish kabi shakllarda amalga oshiradi. Tushuntirishning bunday turi yuridik jihatdan majburiy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Norasmiy sharhlashning **ilmiy (doktrinal)**, **malakali (professional)** va **oddiy** ko'rinishlari mavjud.

Ilmiy (doktrinal) sharhlash – bu huquq sohasidagi mutaxassislar, olimlar tomonidan amalga oshiriladigan va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan norasmiy sharhlash turi. Nazariy sharhlash huquqshunos olimlarning maqolalari, monografiyalari va boshqa ishlarida o'z aksini topadi. Bunday sharhlashning o'ziga xos xususiyati sifatida ilmiy yondashuvga asoslanganligini ko'rsatish mumkin. Amaliyotchi yuristlar uchun majburiy bo'lmaganiga qaramay bunday sharhlash huquq normalarini tushunish va qo'llashda, bir xillikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Malakali (professional) sharhlash – bu amaliyotchi yuristlar (advokat, prokuror, sudya va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladigan sharhlash turi.

Oddiy sharhlash – maxsus huquqiy bilimga ega bo'lmagan har qanday shaxs tomonidan huquqni anglash va tushuntirish.

15.3. HUQUQ NORMALARINI SHARHLASH USULLARI

Huquq normasini sharhlash usullari – bu huquq normasining mazmuni va mohiyati hamda unda aks etgan huquq ijodkorining irodasini anglash imkonini beradigan usul va vositalar majmuidir.

Grammatik usul – bu normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va matnini til qoidalariga asosan tahlil qilib berishdir. SHarhlashning bunday usuli orqali qo'llaniladigan alohida iboralarning ahamiyati hamda tushunchalar mazmuni aniqlanadi. Bunda, eng avvalo, qonunshunos ushbu tushunchalarga qanday mazmun baxsh etganligini aniqlash muhimdir.

Tizimli sharhlash usulida muayyan ijtimoiy munosabatni tartibga soluvchi huquq normasi aniq bir hujjat doirasi bilan cheklanilmaydi. Bunda tegishli munosabatni tartibga soluvchi barcha normativ-huquqiy hujjatlar doirasi mazmunan sharhlanadi.

Normativ-huquqiy hujjat, eng avvalo, mantiqiy muntazamlikka asoslangan holda bir-biriga bog‘liq va har biri oldingi normaning mazmunidan kelib chiqadigan normalar tizimidan iborat bo‘lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, har bir norma qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat – yaxlit bir tizimning mustaqil, biroq o‘zigacha va o‘zidan keyingi normalarga mazmunan bog‘liq birligi sifatida joylashishi zarur.

Tizimli sharhlash usulida huquq normasining ma’no va mazmuni uning normativ-huquqiy hujjatdagi, huquq normasi, huquq instituti, huquq sohasi va butun huquq tizimidagi o‘rni va roli, o‘zaro nisbati orqali aniqlanadi. Tizimli sharhlash yordamida normalar va hujjatlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan tafovut, ziddiyat, nomuvofiqlik va qarama-qarshiliklar, bo‘shliqlar aniqlanadi. Bunday sharhlash natijasida rasman bekor qilinmagan, biroq amalda boshqalari bilan almashtirilganligi sababli ahamiyatsiz, foydalanilmay qolgan huquq normalari ham aniqlanadi.

Tizimli sharhlash jarayonida ayrim qonunlarda uchraydigan “qonunchilikka asosan”, “qonun hujjatlarida belgilangan tartibda”, “qonun hujjatlariga muvofiq” degan jumalarning mazmun-mohiyati ham ochib berilishi lozim. Chunki bularning mavjudligi muayyan ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi oxirigacha tugallanmaganligidan va ushbu havolaki normalarning huquqiy ahamiyatga ega emasligidan dalolat beradi. Bu esa huquq normasini ijtimoiy munosabatga to‘g‘ri tatbiq etish va sharhlashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. SHu bois qonun hujjatlarida huquqiy munosabatlar yuzasidan xulq-atvorning qanday bo‘lishi to‘g‘risidagi qoidalar aniq, qat’iy va to‘liq berilishi maqsadga muvofiq.

Mantiqiy usul – bu normativ-huquqiy hujjatlarni mantiq fanining qoidalari asosida sharhlashdir. Mantiqiy sharhlash qonun va normadagi so‘zlarning tom ma’nosini aniqlashga emas, balki qonunshunos ifodalab bermoqchi bo‘lgan va aniq so‘z shaklida ko‘rsatib qo‘yilmagan qoidaning mohiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Mantiqiy sharhlash orqali qonunning ikki xil talqin qilinishi kelib chiqishi mumkin. Ularning birinchisi qonunning asl mohiyati bo‘lsa, ikkinchisi esa mantiqiy sharhlash orqali aniqlangan mohiyat. Mantiqiy sharhlash usulini faqat bitta qonunni sharhlash uchungina emas, balki qonunlar tizimini sharhlash va u orqali ma’lum bir xulosaga kelish uchun ham qo‘llash mumkin.

Tarixiy-siyosiy usul – huquq normasini qabul qilish jarayonidagi muayyan tarixiy va siyosiy shart-sharoitlarni tahlil qilish yordamida sharhlash. Bu normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish maqsadini, uning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, joyi, vaqti va normativ-huquqiy hujjatni qo‘llash amaliyotini aniqlab olishni taqozo etadi.

Tarixiy-siyosiy sharhlash davlat manfaatlari va ularni himoya qilish bilan uzviy bog‘liq. Qonunchilikning siyosiy maqsadini tushunish, uning tarixini bilish ishning sifatli va bir maqsadga qaratilgan bo‘lishiga yordam beradi.

Funksional usul – huquq normasi tatbiq etiladigan shart-sharoit va omillarga asoslanib qilinadigan sharhlash. Muayyan holatlarda huquq normasi mazmunini aniqlash uchun faqat uning rasmiy tahlili va uni amalga oshirishning umumiy shartlarini e’tiborga olishning o‘zi etarli emas. Bunda sharhlashni amalga oshiruvchi sub’ekt norma amalga oshiriladigan shart-sharoitlar va omillarni ham hisobga olishi lozim. Eng avvalo, bu baho beruvchi deb nomlanadigan atamalar

(“uzrli sabablar”, “jiddiy zarar”, “katta ziyon”, “oxirgi zarurat”)ga taalluqli. Joyi, vaqti va boshqa omillarni hisobga olib, bir xil holatlar uzrli yoki uzrsiz deb, jiddiy yoki engil deb e’tirof etilishi mumkin va hokazo. Ba’zi holatlarda huquq ijodkori muayyan sharoitlarni hisobga olish vazifasini yuklaydi, ya’ni funksional sharhlashga murojaat etishga majbur qiladi. Jumladan, ma’naviy zarar hajmini belgilashda adolat va oqillik talablari, shuningdek ma’naviy zarar keltirgan daliliy holatlar e’tiborga olinishi lozim.

Maxsus-yuridik usul – maxsus yuridik bilimlar asosida qonunchilikda qo’llanilgan yuridik terminlarning mazmunini tushuntirib berish.

15.4. HUQUQ NORMALARINI HAJMIGA KO‘RA SHARHLASH

Huquqni amalga oshirish jarayonida shunday holatlar uchraydiki, bunda huquq normasini sharhlovchi sub’ekt bir qarashda qonun matnidan kelib chiqadigan normaning haqiqiy mazmunini mumkin bo‘lganidan yo torroq, yoki aksincha kengroq tushunish lozim bo‘ladigan vaziyat bilan to‘qnashadi. SHu bois huquq normalarini aynan, kengaytirilgan va cheklangan sharhlash zarurati tug‘iladi.

Huquq normalarini aynan sharhlash sharhlanayotgan huquq normasi ma’nosini tushunish huquq manbai matniga to‘liq mos kelishida o‘z ifodasini topadi. Bunday sharhlashning natijasi huquqiy ko‘rsatmaning so‘zlardagi ifodasiga to‘liq mos keladi. YA’ni qonun shakli bilan uning mazmuni bir-biriga to‘g‘ri kelganligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kengaytirilgan sharhlash huquq normasi ma’nosi uning matndagi ifodasidan kengroq bo‘lgan holatlarda amalga oshiriladi. Kengaytirilgan sharhlashni talab qiluvchi holatlar ro‘yxatida ko‘pincha “va hokazo”, “va boshqalar” degan so‘zlar uchraydi.

Cheklangan sharhlashda huquq normasining so‘zda ifodalangan va rasmiylashtirilgan ma’nosi uning mantiqiy ma’nosi va mazmunidan keng bo‘lgan hollarda qo’llaniladi. Ayrim hollarda huquq normasining mazmuni uning matndagi ifodasidan torroq bo‘lishi mumkin.

15.5. HUQUQ NORMALARINI SHARHLASH HUJJATLARI

Huquq normalarini sharhlash maxsus faoliyat bo‘lib, u rasmiy ko‘rinishga ega bo‘lishi, shuningdek hujjatlar matni shaklida ifodalanishi mumkin. Bunday hujjatlar rasmiy hujjat bo‘lib, ular vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan qabul qilinadi. Ushbu hujjatlar huquq normalarining mazmunini to‘g‘ri va aniq shaklda o‘rnatishga qaratilgan bo‘ladi.

Huquq normalarini sharhlash hujjatlari huquqiy hujjatlarning bir turi bo‘lib, u quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1) u yangi huquq normalarini yaratmaydi, ularni bekor qilmaydi va amaldagi huquq normalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritmaydi;

2) mazkur hujjatlar amaldagi huquq normalarini aniqlashtiradi, ularni qanday tushunish va qo‘llash lozimligini ko‘rsatib beradi;

3) ushbu hujjatlar mustaqil ahamiyatga ega bo‘lmasdan, balki o‘zi sharhlayotgan huquq normalari bilan birgalikda amalda bo‘ladi;

4) mazkur hujjatlar sharhlanayotgan huquq normalari bilan tartibga solinadigan sub’ektlar xatti-harakatlariga emas, balki ularni qo‘llayotgan organlarga qaratilgan bo‘ladi;

5) huquq normalarini rasmiy sharhlash aktlari majburiy xarakterga ega bo'ladi, chunki ularni qabul qilgan davlat organlari va mansabdor shaxslar davlat hokimiyati vakolatiga ega va boshqalar.

Huquq normalarini sharhlash hujjatlarini quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin:

- huquq sohalari bo'yicha (konstitutsiyaviy-huquqiy, jinoyat huquqiy, ma'muriy-huquqiy);

- qabul qilgan sub'ektga ko'ra (autentik, ya'ni huquq normasini qabul qilgan organning o'zi tomonidan va legal, ya'ni vakolat berilgan sub'ekt tomonidan. Masalan, qonun normalarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan sharhlanishi);

- ifoda etish shakliga ko'ra (yozma shakldagi huquqni sharhlash aktlari muayyan rasmiy rekvizitlarga ega bo'ladi);

- yuridik ahamiyati bo'yicha (normativ sharhlash aktlari va kazual holatlarga nisbatan chiqariladigan sharhlash hujjatlari) va boshqalar.

Nazorat uchun savollar

1. Huquq normalarini hajmiga ko'ra sharhlashga izoh bering.
2. Huquq normalarini sharhlashning amaliy ahamiyatini izohlang.
3. Huquq normalarining tizimli usulda sharhlashning xususiyatlarini va ijobiy tomonlarini muhokama qiling.
4. Huquqni sharhlashning ob'ektiv zaruriyati nimalarda ko'rinadi? Fikringizni asoslang.
5. Huquqni sharhlash usullari va uning turlarini atroflicha tavsiflab bering.

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ТЕСТ САВОЛЛАРИ

1. Хуқуқ нормаларининг мазмун ва моҳиятини аниқлашга қаратилган фаолият

- A) хуқуқни амалга ошириш
- B) юридик коллизия
- C) хуқуқ нормаларини шархлаш
- D) либераллаштириш

2. Хуқуқни англаш усуллари қайси жавобда берилган

- A) грамматик
- B) орфографик
- C) сиёсий
- D) ҳаммаси тўғри

3. Норматив ҳуқуқий ҳужжатларни тил қоидалари асосида таҳлил қилиш

- A) тизимли
- B) грамматик
- C) функционал
- D) расмий

4. Юридик нормани бошқа юридик нормалар солиштириш қайси усулда амалга оширилади

- A) грамматик
- B) тизимли
- C) тарихий
- D) мантиқий

5. Логик усулда шархлаш қайси фан асосида амалга оширилади

- A) фалсафа
- B) кибернетика
- C) мантиқ
- D) политология

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ГЛОССАРИЙ

ҲУҚУҚ НОРМАЛАРИНИ ШАРҲЛАШ – бу ҳуқуқ нормаларининг мақсади, мазмун ва моҳиятини аниқлаш ҳамда тушунтиришга йўналтирилган фаолият.

ШАРҲЛАШ – муайян фаолият, жараён (ақлий-иродавий, ташкилий) бўлиб, у ўз ичига иккита мустақил жиҳатни, яъни *англаб олиш* (ўзи учун) ва *тушунтиришни* (бошқалар учун) қамраб олади.

РАСМИЙ ШАРҲЛАШ - ваколатли субъектлар, яъни давлат органлари ва мансабдор шахслар томонидан амалга оширилади, у махсус ҳужжатлар билан мустаҳкамланади ва ҳуқуқ субъектлари учун мажбурий характерга эга бўлади.

НОРМАТИВ ШАРҲЛАШ - кенг доирадаги шахс ва ҳодисаларга қаратилади. Бундай шархлаш ҳуқуқ ижодкорлиги субъектлари томонидан амалга оширилиши мумкин.

КАЗУАЛ ШАРҲЛАШ - ҳам расмий ҳисоблансада, у умуммажбурий характерга эга бўлмайди ва муайян ҳодисага нисбатан ҳуқуқ нормасини қўллаш жараёнида амалга оширилади. У аниқ бир ишни ваколатли орган томонидан кўриб чиқиладиган пайтда берилади ва қоида тариқасида айнан ушбу иш учун мажбурий характерга эга бўлади.

НОРАСМИЙ ШАРҲЛАШ - ўз вазифасига кўра бевосита ҳуқуқ нормаларини шархлаш ваколатига эга бўлмаган субъектлар томонидан амалга оширилади. Бундай субъектлар сифатида илмий муассасалар, олимлар, нодавлат ташкилотлари, амалиёт ходимларини кўрсатиб ўтиш мумкин.

ГРАММАТИК УСУЛ – бу норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмуни ва матнини тил қоидаларига асосан таҳлил қилиб беришдир. Шархлашнинг бундай усули орқали қўлланиладиган алоҳида ибораларнинг аҳамияти ҳамда тушунчалар мазмуни аниқланади. Бунда, энг аввало, қонуншунос ушбу тушунчаларга қандай мазмун бахш этганлигини аниқлаш муҳимдир.

ТИЗИМЛИ ШАРҲЛАШ усулида муайян ижтимоий муносабатни тартибга солувчи ҳуқуқ нормаси аниқ бир ҳужжат доираси билан чекланилмайди. Бунда тегишли муносабатни тартибга солувчи барча норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар доираси мазмунан шарҳланади.

16-MAVZU.

HUQUQIY XULQ-ATVOR. HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK

Mavzuning asosiy yo'nalishlari:

1. Huquqiy xulq-atvor tushunchasi va turlari.
2. Huquqbuzarlik tushunchasi, belgilari va turlari.
3. Huquqbuzarlikning yuridik tarkibi.
4. Yuridik javobgarlik: tushunchasi, belgisi, turlari.
5. Yuridik javobgarlik maqsadi, funksiyalari va prinsiplari.
6. Yuridik javobgarlikni istisno qiluvchi holatlar.
7. O'zbekiston Respublikasida yuridik javobgarlikni liberallashtirish borasidagi sud-huquq islohotlari.

16.1. HUQUQIY XULQ-ATVOR TUSHUNCHASI VA TURLARI

Shaxs xulq-atvori, xatti-harakatlari nihoyatda rang-barang. Ular turli sabab va maqsadlardan kelib chiqadi, har xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Shaxsning huquq normalari bilan tartibga solinadigan huquqiy xulq-atvori, xatti-harakati o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Shaxsning huquqiy xulq-atvori – bu shaxs tomonidan huquq normalariga mos keladigan xatti-harakatlarning amalga oshirilishidir. Yana bu qonunga itoat etuvchi xatti-harakat hamdir.

Хуқуқий хулқ-атвор – бу ҳуқуқ нормаларига мос келадиган, юридик оқибатларни келтириб чиқарадиган, ижтимоий фойдали аҳамиятга эга бўлган, ҳуқуқ субъектларининг онгли равишдаги хулқидир.

Huquq nuqtai nazaridan xulq-atvor huquqqa mos keluvchi, yuridik betaraf va huquqqa zid keluvchi bo'lishi mumkin.

Huquqiy xulq-atvorning quyidagi uch ko'rinishi mavjud:

1. Faol huquqiy xulq-atvor.
2. Odatiy huquqiy xulq-atvor.
3. Passiv (marginal) huquqiy xulq-atvor.

Faol huquqiy xulq atvor – bu shaxsning tashabbuskorlik bilan amalga oshiradigan ma'lum maqsadga qaratilgan qonunga mos faoliyati. Huquqiy faollikni namoyon etish shakllari turli xil bo'lib, huquq sub'ektlarining o'z vazifalariga munosabatlarida, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllanishida hamda ularning faoliyatida ishtirok etishlarida, norma ijodkorligi jarayonida qatnashishlarida, davlat tuzilmalari bilan hamkorlik qilishlarida va boshqalarda ko'rinadi.

Odatdagi huquqiy xulq-atvor – bu kundalik hayotda kishilarning huquq normalariga mos keladigan xulqi bo'lib, bu xulq doirasida fuqarolar o'zlarining

huquqiy majburiyatlarinigina bajaradi, muayyan ko‘rinishdagi yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarni amalga oshiradi.

Sust huquqiy xulq-atvor – huquqiy ta’sir etish tahdidi mavjud bo‘lmaganda fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklaridan foydalanmasligida namoyon bo‘ladi. Bunga misol qilib, fuqarolarning saylovlarda ishtirok etmasligini ko‘rsatish mumkin.

Huquqiy xulq o‘zining barcha ko‘rinishlarida shaxsning har tomonlama uyg‘unlashuviga muhim turtki bo‘ladi hamda uning ijodiy va intellektual mahoratini va qobiliyatini o‘sishiga, ma’naviy-huquqiy sifatlari shakllanishiga yordam beradi.

16.2. HUQUQBUZARLIK TUSHUNCHASI, BELGILARI VA TURLARI

Bunday qilmish qonun bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar etkazishi yoki zarar etkazish xavfini tug‘dirishi mumkin. **Хуқуқбузарлик** – бу ҳуқуқ ва муомала лаёқатига эга субъект томонидан ҳаракат ёки ҳаракатсизлик кўринишида содир этиладиган, ҳуқуқ нормалари талабларига зид келувчи ҳамда шахсга, мулкка, давлатга ва бутун жамиятга зарар келтирувчи ижтимоий хавфли қилмишдир.

Huquqbuzarlikning asosiy belgilari:

- jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy xavfli;
- huquqqa zid xarakterga ega;
- aybli qilmish;
- zararli oqibat keltirib chiqaradi;
- kishilarning erki va ongiga bog‘liq bo‘lgan holda, ular tomonidan harakat yoki harakatsizlik shaklida amalga oshiriladi va boshqalar.

Ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra huquqbuzarlikning jinoyat (o‘g‘rilik, firibgarlik, odam o‘ldirish va boshqalar) hamda nojo‘ya ish ko‘rinishidagi turlari mavjud.

Nojo‘ya ish ko‘rinishidagi huquqbuzarlik, o‘z navbatida, fuqarolik-huquqiy (moddiy zarar etkazish, majburiyatni bajarmaslik va boshqalar), ma’muriy-huquqiy (mayda bezorilik, yo‘l harakati qoidalarini buzish va boshqalar), intizomiy-huquqiy (ishga kelmaslik, kech qolish va boshqalar)ga bo‘linadi.

16.3. HUQUQBUZARLIKNING YURIDIK TARKIBI

Huquqbuzarlikning tarkibiy elementlari:

- ob’ekti (huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar);
- ob’ektiv tomoni (huquqning buzilishi va uning ijtimoiy xavfliligi);
- sub’ekti (huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar);
- sub’ektiv tomoni (huquqbuzarlik oqibatidan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli qilmishga bo‘lgan ongli-ruhiy munosabat).

Huquqbuzarlik ob’ekti – bu huquq bilan tartibga solinadigan va muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyatlarning *umumiy, maxsus va bevosita* ob’ektlari farqlanadi.

Huquqbuzarlikning ob’ektiv tomoni – bu huquqqa zid xatti-harakatning tashqi belgisidir. Aynan shunday belgiga asosan huquqbuzarlik haqida, u qanday ro‘y bergani va qanchalik zarar keltirgani haqida mulohaza yuritish mumkin bo‘ladi.

Huquqbuzarlikning ob'ektiv tomonini tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

1) nojo'ya harakat – ya'ni inson irodasi va aql-zakovati nazoratida bo'lgan va harakatda yoki harakatsizlikda ifodalanadigan xulq-atvordir. Harakat – kishining faol xatti-harakati, harakatsizlik – passiv xulq-atvor. SHaxs harakat qilishga majbur bo'la turib, ya'ni o'z huquqiy majburiyatlarini bajarishi kerak bo'lgani holda harakatsizlikka yo'l qo'yishi huquqbuzarlikka kiradi.

2) xatti-harakatning huquqqa zidligi, ya'ni yuridik normalar ko'rsatmalariga zidligi tufayli huquq tomonidan taqiqlanadi. Huquqqa zidlik, ya'ni xatti-harakatning qonun bilan taqiqlanishi uch xil usulda ifodalanadi:

birinchisi, to'g'ridan-to'g'ri taqiqlash orqali (mehnat qonun hujjatlariga binoan zararli mehnat sharoitlaridagi og'ir ishlarda ayollar mehnatidan foydalanish taqiqlanadi);

ikkinchisi, normada huquqqa zid xatti-harakat aniqlanib, uni sodir etganlik uchun jazo chorasi belgilanganida bilvosita taqiq orqali (bunda yozma ifodalangan yoki oddiygina nomi keltirilgan xatti-harakat qonun bilan taqiqlanadi; chunonchi, Jinoyat kodeksining Maxsus qismi normalari bunga misol bo'la oladi);

uchinchisi, huquqiy normada ijobiy, qonunda ifodalangan xatti-harakatni bayon etish orqali (bunday vaziyatda xatti-harakatning boshqa, unga qarama-qarshi turi maqsadga muvofiq bo'lmaydi va shuning uchun taqiqlangan xatti-harakat hisoblanadi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotuvchi xaridorga buyumni, xaridor esa sotuvchiga pulni berishga majbur bo'ladi, biroq bu – xatti-harakatning boshqa turiga ko'ra – pul yoki buyumning berilmasligi taqiqlanadi deganidir).

3) qilmish natijasida etkazilgan zarar (zararli oqibat) – huquqbuzarlik natijasida yuzaga keladigan salbiy va shuning uchun nomaqbul oqibatdir. Ushbu salbiy oqibatlar mulkiy (mulkdan ayrilish, boy berilgan foyda), nomulkiy (haqoratlash, bo'hton), ijtimoiy (o'z huquqini amalga oshirish imkoniyatidan mahrum bo'lish), shaxsiy (hayotdan ko'z yumish, sog'liqqa zarar etkazish) va boshqa xususiyatga ega bo'lishi mumkin.

4) huquqqa qarshi qilmish va zararli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish. Huquqdagi sababiy bog'lanish – hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik bo'lib, ulardan biri – zaruratni ikkinchisi – oqibatni tug'diradi.

SHuningdek, huquqbuzarlikning ob'ektiv tomoni haqida gapirganda uning joyi, vaqti, usuli va muhit masalalariga ham e'tibor qaratish lozim.

Huquqbuzarlik sub'ekti – bu huquqqa zid aybli qilmishni sodir etgan shaxs, ya'ni huquqbuzardir. Har qanday shaxs ham huquqbuzarlik sub'ekti hisoblanmaydi, faqat o'z qilmishiga javob bera oladigan, aqli raso shaxsgina shunday sub'ekt sifatida tan olinadi.

Huquqbuzarlikning sub'ektiv tomoni. Sodir qilingan qilmishiga nisbatan shaxsning ruhiy munosabati bo'lib, uning zaruriy belgisi aybdir.

Ayb – huquqbuzarning huquqqa xilof xatti-harakatiga va uning ijtimoiy xavfli oqibatiga nisbatan qasd yoki ehtiyotsizlik ko'rinishidagi munosabati.

Qasd – shaxsning huquqqa xilof xatti-harakatni sodir qilayotganida bu harakat (harakatsizlik)ning huquqqa xilofligini, ijtimoiy xavfliligini, uning

oqibatini anglashi yoki tushunishi (to'g'ri qasd) yoki bu munosabatning ma'lum oqibatni keltirib chiqarishiga ongli ravishda yo'l qo'yishi (egri qasd).

Ehtiyotsizlik – shaxsning xatti-harakatlari natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarning oldini olishni nazarda tutib, beparvolik bilan o'ziga o'zi ishonib harakat (harakatsizlik) qilishi.

16.4. YURIDIK JAVOBGARLIK TUSHUNCHASI, BELGISI, TURLARI

Yuridik javobgarlik huquqbuzarlikning turlariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: jinoiy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy, intizomiy-huquqiy.

Юридик жавобгарлик – бу ҳуқуқбузарга нисбатан ҳуқуқ нормаларида кўзда тутилган санкциялар асосида давлатнинг мажбурлов чораларини қўллашдир. Бу чоралар шахсий (озодликдан маҳрум этиш), мулкӣй (жарима), ташкилий (муайян ҳуқуқдан маҳрум этиш, ишдан бўшатиш) характерга эга бўлиши мумкин.

Jinoiy va fuqarolik-huquqiy javobgarlikni belgilash sud tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik javobgarlik quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- yuridik javobgarlik davlat majburlov choralari bilan bog'liq;
- yuridik javobgarlik huquqbuzarlik bilan bog'liq;
- yuridik javobgarlik huquqbuzar uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi (ozodlikdan, ota-onalikdan mahrum bo'lish yoki sodir etilgan qilmishi uchun jarima to'lash va boshqalar);
- huquq normalarining sanksiyasida o'rnatiladi.

16.6. YURIDIK JAVOBGARLIKNI ISTISNO QILUVCHI HOLATLAR

Yuridik javobgarlikni istisno qiluvchi holatlar tegishli soha qonun hujjatlarida o'z aksini topgan bo'lib uning quyidagi turlarini ko'rsatib o'tish mumkin: zaruriy mudofaa; oxirgi zarurat; buyruqni yoki boshqacha tarzdagi rasmiy vazifani bajarish; muomalaga layoqatsizlik va boshqalar.

Zaruriy mudofaa mudofaalanuvchining yoxud boshqa shaxsning huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini g'ayrihuquqiy tajovuz qilayotgan shaxsga zarar etkazish yo'li bilan himoya qilish hisoblanadi. Sodir etilgan harakatlar zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketishiga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, huquqbuzarlik deb hisoblanmaydi.

Zaruriy mudofaa huquqi fuqarolarning davlat va jamoat manfaatlariga, fuqarolarga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga har qanday tajovuzlardan himoya qilishga oid normalarni ro'yobga chiqarishning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. Zaruriy mudofaa holatida etkazilgan zarar, agar bunda mudofaa chegarasidan chiqilmagan bo'lsa, qoplanmaydi.

Agar g'ayriqonuniy tajovuzdan himoyalaniش paytida himoyalaniuvchi uchinchi shaxsga zarar etkazgan bo'lsa, bu zarar tajovuz qilgan shaxs tomonidan qoplanishi lozim.

Oxirgi zarurat nuqtai nazaridan harakat yoki harakatsizlikni huquqbuzarlik deb baholashda uning chegarasidan chetga chiqmaslik muhim jihat hisoblanadi. Ya'ni keltirilgan zarar oldi olingan zarardan oshib ketmasligi kerak. Shuningdek, boshqa vositalar orqali xavfning oldini olish mumkin bo'lmasligi kerak. Faqat

shundagina oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmish huquqbuzarlik deb topilmaydi.

Muomalaga layoqatsizlik ham yuridik javobgarlikni istisno qiluvchi holatlar sifatida e'tirof etilib, u jismoniy shaxsning yoshi yoki ruhiy holatiga ko'ra o'z huquqlarini to'liq amalga oshira olmaslik, o'z zimmasiga majburiyatlar olish qobiliyatiga ega emasligida namoyon bo'ladi. Jismoniy shaxsning muomalaga layoqatliligi masalasiga faqat sud tomonidan huquqiy baho beriladi.

Nazorat uchun savollar

1. Huquqiy xulq-atvorning elementlarini izohlab bering.
2. Huquqbuzarlikning asosiy belgilarini muhokama qiling.
3. Huquqbuzarlikning yuridik tarkibini yoritib bering. Misollar keltiring.
4. Yuridik javobgarlikni istisno qiluvchi holatlarni izohlab bering.
5. Yuridik javobgarlikning belgilarini izohlab bering.

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ТЕСТ САВОЛЛАРИ

6. Хулқ атвор турлари қайси жавобда берилган

- A) фаол
- B) сууст
- C) одатдаги
- D) ҳаммаси тўғри

7. Ҳуқуқбузарлик объектив томонининг элементлари қайси жавобда берилган

- A) ҳуқуққа қарши қилмиш
- B) зарарли оқибат
- C) жой вақт, мухит
- D) ҳаммаси тўғри

8. Ҳуқуқбузарлик субъектив томоннинг зарурий белгиси

- A) жиноят
- B) айб
- C) ҳуқуқбузарлик
- D) қилмиш

9. Ижтимоий хавфлилик даражасига кўра ҳуқуқбузарлик:

- A) ҳаракат ҳаракатсизлик
- B) айбга иқдорлик
- C) жиноят, ножўя иш
- D) ҳаммаси тўғри

10. Ҳуқуқий жавобгарлик ҳуқуқбузарликни турларига кўра:

- A) жисмоний ҳуқуқий
- B) фуқаролик ҳуқуқий
- C) интизомий ҳуқуқий
- D) ҳаммаси тўғри

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ГЛОССАРИЙЛАР

ХУҚУҚИЙ ХУЛҚ-АТВОР – бу ҳуқуқ нормаларига мос келадиган, юридик оқибатларни келтириб чиқарадиган, ижтимоий фойдали аҳамиятга эга бўлган, ҳуқуқ субъектларининг онгли равишдаги хулқидир.

ХУҚУҚБУЗАРЛИК – бу ҳуқуқ ва муомала лаёқатига эга субъект томонидан ҳаракат ёки ҳаракатсизлик кўринишида содир этиладиган, ҳуқуқ нормалари талабларига зид келувчи ҳамда шахсга, мулкка, давлатга ва бутун жамиятга зарар келтирувчи ижтимоий хавfli қилмишдир.

ХУҚУҚБУЗАРЛИК СУБЪЕКТИ – бу ҳуқуққа зид айбли қилмишни содир этган шахс, яъни ҳуқуқбузардир. Ҳар қандай шахс ҳам ҳуқуқбузарлик субъекти ҳисобланмайди, фақат ўз қилмишига жавоб бера оладиган, ақли расо шахсгина шундай субъект сифатида тан олинади.

ХУҚУҚБУЗАРЛИКНИНГ СУБЪЕКТИВ ТОМОНИ - Содир қилинган қилмишига нисбатан шахснинг руҳий муносабати бўлиб, унинг зарурий белгиси айбдир.

АЙБ – ҳуқуқбузарнинг ҳуқуққа хилоф хатти-ҳаракатига ва унинг ижтимоий хавfli оқибатига нисбатан қасд ёки эҳтиётсизлик кўринишидаги муносабати.

ҚАСД – шахснинг ҳуқуққа хилоф хатти-ҳаракатни содир қилаётганида бу ҳаракат (ҳаракатсизлик)нинг ҳуқуққа хилофлигини, ижтимоий хавfliлигини, унинг оқибатини англаши ёки тушуниши (тўғри қасд) ёки бу муносабатнинг маълум оқибатни келтириб чиқаришига онгли равишда йўл кўйиши (эгри қасд).

ЭҲТИЁТСИЗЛИК – шахснинг хатти-ҳаракатлари натижасида келиб чиқиши мумкин бўлган оқибатларнинг олдини олишни назарда тутиб, бепарволик билан ўзига ўзи ишониб ҳаракат (ҳаракатсизлик) қилиши.

ЮРИДИК ЖАВОБГАРЛИК – бу ҳуқуқбузарга нисбатан ҳуқуқ нормаларида кўзда тутилган санкциялар асосида давлатнинг мажбурлов чораларини қўллашдир. Бу чоралар шахсий (озодликдан маҳрум этиш), мулккий (жарима), ташкилий (муайян ҳуқуқдан маҳрум этиш, ишдан бўшатиш) характерга эга бўлиши мумкин.

17-MAVZU.

HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MECHANIZMI

Mavzuning asosiy yo'nalishlari:

1. Huquqiy tartibga solish mexanizmi tushunchasi, uning asosiy elementlari.
2. Huquqiy tartibga solish va huquqiy ta'sir etish.
3. Huquqiy vositalar tushunchasi, belgilari va turlari.
4. Huquqiy rejimlar tushunchasi, belgilari va turlari
5. Huquqiy rag'batlantirish tushunchasi, xususiyati, funksiyasi va turlari.
6. Huquqiy imtiyozlar tushunchasi, xususiyati, funksiyalari va turlari.
7. Huquqiy tartibga solish samaradorligi, belgilari va uni ta'minlanish asoslari.

17.1. HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MEKANIZMI TUSHUNCHASI, UNING ASOSIY ELEMENTLARI

Хуқуқий тартибга солиш механизми – жамиятдаги турли хил ижтимоий муносабатларни маълум кетма-кетликда хуқуқий тартибга солишга ёрдамлашувчи хуқуқий воситалар тизими.

Huquqiy tartibga solish mexanizmi jamiyatdagi turli-tuman ijtimoiy munosabatlarga muntazam ravishda va muayyan ketma-ketlikda ta'sir etish jarayonidir. Huquqiy tartibga solish jarayoni – ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etish, ularni amalga oshirish, rivojlantirish va takomillashtirishning qat'iy belgilangan tartibidir. Huquqiy tartibga solish har qanday ijtimoiy jarayon singari o'zining boshlanish va nihoyalanih nuqtalariga ega. Bu jarayon davlat tomonidan huquqiy normalar yaratishdan boshlanadi. Huquqiy norma xalqning davlat idorasini o'zida ifodalovchi, uni huquqiy munosabat ishtirokchilariga etkazuvchi vosita sifatida vujudga keladi va amal qiladi.

Huquqiy tartibga solish jarayonini ***uch asosiy bosqichga*** ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy munosabatlarni me'yorga soluvchi yuridik normaning yaratilish bosqichi.
2. Huquqiy normaning amal qilish bosqichi.
3. Yuridik normada nazarda tutilgan holatlar, huquq va majburiyatlar vujudga kelganda sub'ektiv huquq va yuridik majburiyatlarning amalga oshirilish bosqichi.

Ko'rsatilgan uch bosqichdan tashqari yana bog'lovchi qo'shimcha bosqich, ya'ni *huquqni qo'llash* haqida gapirish lozim.

Huquqiy tartibga solish jarayonining uch bosqichiga uchta muhim element (huquqiy hodisa) muvofiq keladi:

- a) huquq normalari;
- b) huquqiy munosabatlar;
- v) sub'ektiv huquq va yuridik majburiyatlarni amalga oshirish hujjatlari.

Yuqorida zikr etilgan qo'shimcha bosqichga muvofiq tarzda huquqiy tartibga solish mexanizmidagi qo'shimcha element – *huquqni qo'llash hujjatlari* maydonga chiqadi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmining har bir elementi, o'z navbatida, o'ziga xos kichik tizimni tashkil etadi. Chunonchi:

– huquq normalarining yaratilish bosqichiga muvofiq keladigan tizimga huquqiy ong, huquq ijodkorligi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni tizimlashtirish, yuridik texnika va boshqalar kiradi;

– huquq normalarining amal qilish bosqichidagi huquqiy munosabatlar tizimiga huquq sub'ekti, yuridik faktlar, umumiy va konkret munosabatlar kiradi;

– huquq va majburiyatlarni amalga oshirish tizimiga huquqiy munosabat qatnashchilarining muayyan xatti-harakatlari, huquqni qo'llash hujjatlari kiradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan tizimlarni huquqiy tartibga solish jarayonining bo‘g‘inlari deb atash mumkin. Ushbu jarayonda amal qiladigan elementlarning bir butunligi huquqiy tartibga solish mexanizmini tashkil etadi²⁴.

17.2. HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Huquqiy tartibga solish – huquqiy vositalar yordamida amalga oshiriladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda ularni rivojlantirish maqsadida ushbu ijtimoiy munosabatlarga samarali, tashkiliy-huquqiy ta’sir ko‘rsatish jarayonidir.

Huquqiy tartibga solish kishilarning xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarga huquqiy vositalar yordamida maqsadli ta’sir etish hamdir. Huquqiy tartibga solishning muhim xususiyati shundaki, u ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining yuridik huquq va majburiyatlarini belgilaydi, huquqlar ro‘yobga chiqarilishini va majburiyatlar bajarilishini ta’minlaydi.

17.3. HUQUQIY VOSITALAR TUSHUNCHASI, BELGILARI VA TURLARI

Huquqiy vositalar sifatida huquq normalari va prinsiplari, huquqni qo‘llash aktlari, shartnomalar, yuridik faktlar, sub’ektiv huquq va yuridik majburiyatlar, taqiqlar, imtiyozlar, rag‘batlantirish va jazo choralari, huquq va majburiyatlarni amalga oshirish hujjatlari va boshqalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Хуқуқий воситалар – бу муайян кўрсатмаларда ва хатти-ҳаракатларда намоён бўладиган хуқуқий ҳодиса бўлиб, унинг ёрдамида хуқуқ субъектларининг манфаатлари амалга оширилади ва ижтимоий фойдали мақсадларга эришиш

Huquqiy vositalarning quyidagi belgilari mavjud:

1. Ular huquq sub’ektlarining manfaatlarini amalga oshirishning va ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishni ta’minlashning umumlashgan yuridik uslublari hisoblanadi (aynan ushbu holatda huquqning ijtimoiy qimmatini namoyon bo‘ladi).

2. Huquqiy vositalar huquqning axborot – energetik sifati va resurslarini o‘zida namoyon qiladi. Ular, o‘z navbatida, huquqiy munosabat ishtirokchilarining manfaatlarini amalga oshirish yo‘lida turgan to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘ladi.

3. Huquqiy vositalar huquqning ta’sir etish va huquqiy tartibga solish mexanizmi hamda huquqiy rejimlarning asosiy faoliyat yurituvchi qismi hisoblanadi.

4. Huquqiy vositalar yuridik oqibatlarga, muayyan natijalarga va u yoki bu darajada huquqiy tartibga solishning samaradorligiga olib keladi.

5. Davlat tomonidan ta’minlanadi.

Huquqiy vositalarni quyidagi bir qator mezonlar bo‘yicha tasniflash mumkin:

– murakkablik darajasiga ko‘ra huquqiy vositalar birlamchi va kompleks turlarga bo‘linadi. Bunda birlamchi huquqiy vositalar sifatida sub’ektiv huquq va yuridik majburiyatlar, rag‘batlantirish va jazolash, imtiyoz va taqiqlarni ko‘rsatib

²⁴ Одилқориев Х.Т., Тультеев И.Т. ва бошқ. Давлат ва хуқуқ назарияси. Дарслик / проф. Х.Т.Одилқориев таҳрири остида. – Т.: Шарқ, 2009. – Б.475-477.

o'tish mumkin. Kompleks xarakterdagi huquqiy vositalar esa shartnoma, huquq normalari, huquq institutlari, huquqiy rejim va boshqalardan iborat bo'ladi;

- amalga oshirish funksiyalariga ko'ra: tartibga solish (reguliyativ) va muhofaza etish;

- huquqiy tartibga solish predmetiga ko'ra: konstitutsiyaviy, ma'muriy, jinoiy va boshqalar;

- yuridik tavsifiga ko'ra: moddiy va protsessual;

- normalarni qo'llash natijasida kelib chiqadigan oqibatlarining ahamiyatiga ko'ra: oddiy (masalan, jarima) va maxsus (masalan, umrbod ozodlikdan mahrum etish);

- amalda bo'lish muddatiga ko'ra: doimiy (masalan, fuqarolik) va vaqtinchalik (masalan, mukofot);

- huquqiy tartibga solish turiga ko'ra: normativ (masalan, huquq normalarida belgilab quyilgan taqiqlar) va individual (masalan, huquqni qo'llash aktlari);

- axborot-ruhiy yo'nalishiga ko'ra: rag'batlantiruvchi (imtiyozlar) va cheklovchi (masalan, muayyan xatti-harakatni to'xtatib qo'yish) va boshqalar.

17.4. HUQUQIY REJIMLAR (TARTIBLAR) TUSHUNCHASI, BELGILARI VA TURLARI

Bugungi kunda huquqiy rejim tushunchasi yuridik fan sohasida tobora mustahkam o'ringa ega bo'lmoqda. Huquqiy rejimni muayyan ob'ektning belgilangan holati, undan foydalanish, egalik qilish, tasarruf etish hamda tegishli sohada yuzaga keladigan munosabatlarning tartibi sifatida tavsiflash mumkin.

Хуқуқий режим – давлат томонидан хуқуқ нормалари кўринишида ўрнатиладиган хуқуқий тартибга солишнинг махсус усули.

Yuqoridagi ta'rifdan ham ko'rinib turibdiki, huquqiy rejim muayyan tartibning mavjudligi bilan bog'liqdir. O'z navbatida, tartib bir harakatdan keyin boshqa harakatni amalga oshirishning texnologik ketma-ketligini namoyon etadi.

Huquqiy rejimlar jamiyat hayotining muayyan sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar guruhini barqaror normativ tartibga solishni ta'minlaydi hamda muayyan ob'ektlardan samarali foydalanishga ko'maklashadi²⁵.

Har qanday huquqiy rejimning samarali faoliyati, birinchidan, mantiqiy asoslantirilgan, ikkinchidan, oldingi harakatdan keyin qonuniy va ketma-ketlik asosida harakat qilish zarurligini ko'zda tutadi.

Huquqiy rejimlarning quyidagi belgilari mavjud:

- ular qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi va amal qilishi davlat tomonidan ta'minlanadi;

- ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini maxsus shaklda tartibga solishni maqsad qilib qo'yadi;

- muayyan huquqiy vositalardan tashkil topgan huquqiy tartibga solishining maxsus tartibini namoyon etadi;

²⁵ Малько А.В., Родионов О.С. Правовые режимы в российском законодательстве // Журнал российского права. 2001. – № 9.

– alohida huquq sub'ektlarining manfaatlarini amalga oshirish uchun qulay yoki noqulay shart-sharoitlarni belgilab beradi.

17.5. HUQUQIY RAG'BATLANTIRISH TUSHUNCHASI, XUSUSIYATI, FUNKSIYASI VA TURLARI

Ma'lumki, kishilar ongi va xohish-irodasiga huquq yordamida ta'sir ko'rsatish ko'rinishlaridan biri bu muayyan faoliyat turlarini rag'batlantirish usuli hisoblanadi. **Huquqiy rag'batlantirish** – hurmatga sazovor ixtiyoriy xulq-atvorni yuridik ma'qullash shakli va chorasidir. Mazkur choraning ko'rilishi natijasida sub'ekt taqdirlanadi, uning uchun ijobiy oqibatlar ro'y bergan sanaladi.

Xususan, mamlakatimizda davlat mukofotlari va faxriy unvonlar – davlatning iqtisod, fan, madaniyat, san'at, Vatanni himoya qilish va ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi yuksak xizmatlari uchun fuqarolarni rag'batlantirishning oliy shaklidir.

Ayni paytda huquqiy rag'batlantirishning qator belgilari mavjud. Avvalambor, huquqiy rag'batlantirish hurmatga sazovor va taqdirlashga loyiq xulq-atvor bilan bog'liq bo'ladi. Bunda shaxs davlat va jamiyat oldidagi o'z xizmatlari uchun shunday hurmatga sazovor bo'ladi. Ko'pincha rag'batlantirish bilan bog'liq hujjatning mazmunida xizmat to'g'risida bevosita fikr yuritiladi. SHu bois xizmat va rag'batlantirish o'rtasidagi bog'lanish yana bir karra ta'kidlanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasida tegishli sohada o'rnak ko'rsatgan xodimlar uchun "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" va boshqa unvonlar nazarda tutiladi.

Rag'batlantirishga loyiq xizmat deganda sub'ekt o'z vazifalarini namunali bajarishi yoki umume'tirof etilgan foydali natijaga erishishi bilan bog'liq bo'lgan va rag'batlantirishni qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi qonuniy xatti-harakat tushuniladi.

Rag'batlantirishga loyiq xizmat asosan quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi:

- ijtimoiy faol xulq-atvor va ijobiy vazifalarni bajarishda;
- shaxsning o'z burchiga vijdonan munosabatda bo'lishida;
- shaxs o'z vazifalarini namunali bajarishi yoki umume'tirof etilgan foydali natijaga erishishida va boshqalar.

Rag'batlantirishning belgilari quyidagilardan iborat:

1. Xatti-harakat bilan bog'liq bo'ladi. Bunda rag'batlantirish, shaxsga tartibga soluvchi ta'sir ko'rsatar ekan, ijtimoiy foydali xulq-atvorning muayyan turini qat'iy belgilamaydi, balki rag'batlantirish to'g'risidagi normada ko'rsatilgan oqibatlar maqbul va foydali ekanligiga ishora qiladi.

2. Rag'batlantirish choralari ijobiy xulq-atvorni yuridik jihatdan ma'qullaydi.

3. Rag'batlantirish jamiyat uchun ham, rag'batlantirilayotgan sub'ekt uchun ham foydali bo'lib, ularni ijobiy oqibatlar bilan qanoatlantirgan holda turli manfaatlarini uyg'unlashtiradi.

4. Rag'batlantirish ta'sirchan yuridik vosita hisoblanadi.

Huquqiy rag'batlantirish nazorat qiluvchi, da'vat etuvchi, axborot berish, kafolatlash, taqsimlash va tarbiyalash funksiyalarini bajaradi. Huquqiy rag'batlantirishning nazorat funksiyasi shaxsning muayyan faoliyatini muvofiqlashtiradi, da'vat etish funksiyasi majburiyatlarni oshirib bajarishga va

ijtimoiy foydali ijobiy harakatlar sodir etishga da'vat qiladi. Baholash funksiyasi yordamida boshqaruvchi organ muayyan shaxsning taqdirlashga sazovor xulq-atvorini rasman ijobiy baholaydi, uni tan oladi va ma'qullaydi, faoliyatning jamiyat uchun foydalilik darajasini aks ettiradi. Kafolatlash funksiyasi intizom va tartibni mustahkamlash uchun qulay shart-sharoit yaratishni nazarda tutsa, taqsimlash funksiyasi namunali xulq-atvor uchun rag'batlantirish choralari mustahkamlab, sub'ektlarning shaxsiy manfaatlarini ifodalovchi muayyan ne'matlardan foydalanish shartlarini ham belgilaydi. Tarbiyalash funksiyasi shaxsda ijobiy ruhiy kayfiyat va qoniqish hissini uyg'otadi, kishilarni tashabbuskorlikka, fidokorona mehnatga, ijodiy faoliyatga ruhlantiradi. SHunday qilib, rag'batlantirish fuqarolarda huquqiy ong, yuksak huquqiy madaniyat va ma'naviy fazilatlar shakllanishiga ko'maklashadi.

Shu o'rinda rag'batlantiruvchi sanksiyalar ko'plab normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanganligini qayd etib o'tish maqsadga muvofiq. Bunga O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (180-modda – Mehnat uchun rag'batlantirish), O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi (102-modda

– Rag'batlantirish choralari) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar misol bo'la oladi.

17.6. HUQUQIY IMTIYOZLAR TUSHUNCHASI, XUSUSIYATI, FUNKSIYALARI VA TURLARI

Mamlakatimizda demokratik yangilanishlar sharoitda davlat boshqaruvida ma'muriy usullar emas, balki ko'p jihatdan iqtisodiy usullar ustunlik qiladi. Bunday sharoitda imtiyozlarning ahamiyati ortadi. Zotan, aksariyat imtiyozlar hayot faoliyatining turli jabhalari, chunonchi, tadbirkorlik, moliya va ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va demografik, madaniy va xayriya va boshqa sohalardagi soliqlar bilan bog'liq bo'ladi.

Хуқуқий имтиёз деганда субъектга ўз манфаатларини тўлароқ қондириш имконини берувчи ва қўшимча, алоҳида ҳуқуқлар (афзалликлар) беришда ёки мажбуриятлардан озод қилишда ифодаланувчи субъект ҳолатини қонуний равишда энгиллаштириш тушунилади.

Imtiyozlar, eng avvalo, ijtimoiy chora hisoblanadi. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda salbiy holatlarga barham berish va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholining ko'p sonli qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozlar tizimi tubdan o'zgartirib borilmoqda. SHu bilan birga, O'zbekiston huquqiy tizimida davlat qurilishi, mahalliy o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish va boshqa vazifalarni hal qilish uchun imtiyozlardan tobora faolroq foydalanilmoqda. Bu jihatlar so'nggi yillarda huquqiy imtiyozlarning maqomi ancha oshganligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, endilikda imtiyozlar aholi muayyan guruhlarining holatini tenglashtiruvchi yuridik vositaga, ijtimoiy yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash usuliga aylanib bormoqda.

Huquqiy imtiyozlar uchun quyidagi belgilar muhim hisoblanadi:

a) huquqiy imtiyozlar sub'ektlarning manfaatlarini yanada to'laroq qondirilishi, ularning hayot sharoitlari engillashtirilishi bilan tavsiflanadi;

b) huquqiy imtiyozlar umumiy qoidadan istisno tariqasida qo'llaniladi va yuridik tabaqalashtirish usuli sifatida amal qiladi. Chunki imtiyozlar, avvalambor, shaxs maxsus huquqiy maqomining muhim qismi, sub'ektning asosiy huquq va erkinliklarini yuridik yo'sindagi alohida imkoniyatlar bilan to'ldirish mexanizmidir;

v) huquqiy imtiyozlar vakolatli davlat organlari tomonidan huquqiy hujjatlarda huquq ijodkorligining demokratik prinsiplariga muvofiq belgilab qo'yilgan istisno tariqasidagi qoidalar sifatida amal qiladi. Odatda, imtiyozlar huquqni qo'llash hujjatlari bilan emas, balki normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo'yiladi.

Huquqiy imtiyozlarning asosiy maqsadi shaxs, ijtimoiy guruhlar va davlat manfaatlarini muvofiqlashtirish hisoblanadi. Ana shu asosiy maqsadga erishishga qaratilgan **huquqiy imtiyozlar** kompensatsiya qiluvchi va rag'batlantiruvchi funksiyalarni bajaradi.

Huquqiy imtiyozlarning turlari quyidagilardan iborat:

– huquqiy tartibga solish premetiga ko'ra: konstitutsiyaviy, fuqarolik, ekologik va boshqalar;

– hajmiga ko'ra: asosiy, qisman va qo'shimcha;

– harakat qilish vaqtiga ko'ra: doimiy va vaqtinchalik;

– mazmuniga ko'ra: moddiy-huquqiy, ma'naviy.

17.7. HUQUQIY TARTIBGA SOLISH SAMARADORLIGI, BELGILARI VA UNI TA'MINLANISH ASOSLARI

Хуқуқий тартибга солиш самарадорлиги – бу хуқуқий тартибга солиш мақсади билан эришилган натижа ўртасидаги нисбатдир. Муауван davlatda amalda bo'lgan huquqiy tartibga solish mexanizmining samaradorligi ushbu jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy omillar bilan belgilanadigan vaziyatga bog'liq bo'ladi.

Huquqiy tartibga solish samaradorligi keng va serqirrali tushuncha bo'lib, uning tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– amaldagi qonunchilik tizimining sifat jihati;

– huquqni qo'llash faoliyatining samaradorligi;

– huquqni qo'llash sub'ektlarining huquqiy ongi darajasi;

– aholining huquqiy ongi va madaniyati darajasi.

Huquqiy tartibga solish samaradorligini ta'minlashning quyidagi asoslarini ko'rsatib o'tish mumkin:

– huquq ijodkorligi faoliyatini yanada takomillashtirish, ya'ni bunda qonunchilik taxnikasiga qat'iy amal qilish, ijtimoiy manfaatlarni to'laroq e'tiborga olish hamda huquq normalari amalda bo'ladigan jamiyatdagi ob'ektiv qonuniyatlarni hisobga olish;

– huquqni qo'llash jarayonini takomillashtirish. Bunda huquq ijodkorligi va huquqni qo'llashning samarali uyg'unligini ta'minlash hamda jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibotni qaror toptirish;

- huquq sub'ektlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish va boshqalar.

Nazorat uchun savollar

1. Huquqiy tartibga solish mexanizmida huquq normasi, huquqiy munosabat, individual hujjatlar va huquqiy ong o'rtasidagi munosabatlarni muhokama qiling.

2. Huquqiy tartibga solish samaradorligi va uni ta'minlash asoslarini atroflicha yoritib bering.

3. Huquqdagi rag'bat, imtiyoz va cheklashlarning bir-biridan farqli

4. Qonun osti hujjatlarining ijtimoiy munosabatlarini tartibga solishda qonunlardan farqini izohlab bering.

5. O'zbekistonda huquqiy tartibga solish samaradorligini ta'minlanish asoslarini muhokama qiling.

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ГЛОССАРИЙЛАР

ХУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ МЕХАНИЗМИ – жамиятдаги турли хил ижтимоий муносабатларни маълум кетма-кетликда ҳуқуқий тартибга солишга ёрдамлашувчи ҳуқуқий воситалар тизими.

ХУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ – ҳуқуқий воситалар ёрдамида амалга ошириладиган ижтимоий муносабатларни тартибга солиш, муҳофаза қилиш, ижтимоий эҳтиёжлардан келиб чиққан ҳолда уларни ривожлантириш мақсадида ушбу ижтимоий муносабатларга самарали, ташкилий-ҳуқуқий таъсир кўрсатиш жараёнидир.

ХУҚУҚИЙ ВОСИТАЛАР – бу муайян кўрсатмаларда ва хатти-харакатларда намоён бўладиган ҳуқуқий ҳодиса бўлиб, унинг ёрдамида ҳуқуқ субъектларининг манфаатлари амалга оширилади ва ижтимоий фойдали мақсадларга эришиш таъминланади.

ХУҚУҚИЙ РЕЖИМ – давлат томонидан ҳуқуқ нормалари кўринишида ўрнатиладиган ҳуқуқий тартибга солишнинг махсус усули.

ХУҚУҚИЙ РАҒБАТЛАНТИРИШ – ҳурматга сазовор ихтиёрий ҳуқ-атворни юридик маъқуллаш шакли ва чорасидир. Мазкур чоранинг кўрилиши натижасида субъект тақдирланади, унинг учун ижобий оқибатлар рўй берган саналади.

ХУҚУҚИЙ ИМТИЁЗ деганда субъектга ўз манфаатларини тўлароқ қондириш имконини берувчи ва кўшимча, алоҳида ҳуқуқлар (афзалликлар) беришда ёки мажбуриятлардан озод қилишда ифодаланувчи субъект ҳолатини қонуний равишда енгиллаштириш тушунилади.

ХУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ САМАРАДОРЛИГИ – бу ҳуқуқий тартибга солиш мақсади билан эришилган натижа ўртасидаги нисбатдир.

18-MAVZU. QONUNIYLIK VA HUQUQIY TARTIBOT

Mavzuning asosiy yo'nalishlari:

1. Qonuniylik tushunchasi va prinsiplari.
2. Qonuniylik kafolati tushunchasi va turlari.
3. Huquqiy tartibot tushunchasi va uning ob'ektiv zaruriyati.

18.1. QONUNIYLIK TUSHUNCHASI VA PRINSIPLARI

Qonuniylik va huquqiy tartibot birinchi navbatda shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Qonuniylik va huquq-tartibotning holatiga qarab shaxs erkinligi darajasi, uning huquq va erkinliklarining haqiqiyliги, demokratiyaning darajasi va chinakamligi belgilanadi. Bugungi kunda shaxs manfaatlarini davlat uchun ustuvorlik kasb etayotgan ekan, qonuniylik va huquqiy tartibotning bu tomoni ham davlat faoliyatining muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash huquqiy davlatni shakllantirishning zarur sharti va vositasi hamda uning muhim tarkibiy qismlaridir. Mustahkam qonuniylik va huquq ustunligiga asoslangan tartib o'rnatilgan taqdirdagina davlat chinakam huquqiy bo'ladi.

Qonuniylikning mazmuni quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Jamiyat va davlatda huquqiy qonunchilikning mavjudligini bildiradi, bu amaldagi qonunlar ideal huquqni, huquq prinsiplarini, umuminsoniy qadriyatlar, erkin demokratik jamiyat va huquqiy davlatga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida ifodalashi demakdir.

2. Qonunlarning huquqiyliги Konstitutsiya va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning xalqaro huquq prinsiplari va normalariga, xalqaro andozalarga, insonning ajralmas huquqlariga mos kelishini bildiradi.

3. Normativ-huquqiy hujjatlar tizimi ierarxiyasiga tatbiqan Konstitutsiya va qonunlar oliy yuridik kuchga ega. Ushbu holat qonunlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan qonunosti hujjatlarning qat'iy ravishda ularga mos bo'lishini taqozo etadi.

4. Konstitutsiya va boshqa qonunlar amal qilishining samarali himoyasi qonuniylikni anglatadi.

Qonuniylik – bu huquq sub'ektlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarga to'la va aniq amal qilinishidir.

Qonuniylik – huquq va hokimiyat, huquq va davlatning uzviy bog'liqligida o'z ifodasini topadigan, ijtimoiy-siyosiy hayotga huquqiy tus beradigan keng ma'nodagi siyosiy-huquqiy hodisa.

Qonuniylikning asosiy tamoyillari:

Қонунийлик – ижтимоий ҳаётда ҳуқуқ ва қонун устуворлигидан, ижтимоий муносабатларнинг барча иштирокчилари томонидан ҳуқуқ нормаларини оғишмай амалга ошириш, мансабдор шахслар фаолиятидаги ҳуқуқбузарлик ва

зўравонликка қарши изчил курашиш, жамиятда тартиб ва уюшқоқликни таъминлашдан иборат ижтимоий-сиёсий

Қонунийлик – ижтимоий ҳаётда ҳуқуқ ва қонун устуворлигидан, ижтимоий муносабатларнинг барча иштирокчилари томонидан ҳуқуқ нормаларини оғишмай амалга ошириш, мансабдор шахслар фаолиятидаги ҳуқуқбузарлик ва зўравонликка қарши изчил курашиш, жамиятда тартиб ва уюшқоқликни таъминлашдан иборат ижтимоий-сиёсий

1. Konstitutsiya va qonunlarning boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan ustunligi.

2. Huquq sub'ektlarining qonun va sud oldidagi tengligi.

3. Hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatida zo'ravonlikka yo'l qo'yilmasligi.

4. Inson (fuqarolar) huquq va erkinliklarini kafolatlanganligi.

5. Normativ-huquqiy hujjatlarni mamlakatning butun hududida bir xil qo'llanilishi va talqin etilishi.

6. Maqsadga muvofiqlikning qonuniylikka qarshi qo'yilmasligi.

7. Qonuniylikning madaniyat bilan uzviy bog'liqligi.

Adabiyotlarda huquqiy qonuniylik haqida ham gap yuritiladi. Huquqiy qonuniylik prinsipi – huquq normalariga ijtimoiy munosabatlarning barcha sub'ektlari tomonidan rioya qilish rejimi “yozilgan” huquqni haqiqiy huquqqa aylantirish usuli, inson va jamiyat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari amalga oshirilishini kafolatlash shakli.

18.2. QONUNIYLIK KAFOLATI TUSHUNCHASI VA TURLARI

Qonuniylikni amalga oshirish kafolatining turlari:

1) iqtisodiy (jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, mulkchilikning turli shakllari, iqtisodiy erkinlik va boshqalar);

2) **Қонунийлик кафолати** – бу қонун ва қонун ости ҳужжатлари амал қилишини таъминловчи, фуқароларнинг ҳуқуқларини ҳамда давлат, жамият манфаатларини тўсиқларсиз амалга оширувчи усуллари, шарт-шароитларидир.

3) siyosiy (konstitutsiyaviy tuzumning demokratlashtirilish darajasi, jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy plyuralizm (fikrlar xilma-xilligi) ko'ppartiyaviylik, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi va boshqalar);

4) tashkiliy (qonun hujjatlariga amal qilinishini nazorat qiluvchi maxsus organlar, ya'ni sud, ichki ishlar, prokuratura va boshqalarning faoliyati);

5) huquqiy (qonuniylikni amalga oshirish uchun barcha huquqiy normalarni bajarish, huquqbuzarliklarning oldini olish, uni buzgan kishilarga nisbatan tegishli jazo choralarini qo'llash);

6) jamoatchilik (jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolarning qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashda ishtirok etishi).

18.3. HUQUQIY TARTIBOT TUSHUNCHASI VA UNING OB'EKTIV ZARURIYATI

Ҳуқуқий тартибот – бу ҳуқуқ субъектларининг ҳуқуқ нормаларида белгиланган қоидаларга тўла ва аниқ риоя қилишлари натижасида ўрнатиладиган ижтимоий муносабатлар тизимидир. Ҳуқуқ, қонунийлик, ҳуқуқ-тартибот давлат ва жамият ҳаёти учун муҳим аҳамият касб этади.

Huquqiy tartibotning xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- u huquq normalarida ko‘zda tutilgan bo‘ladi;
- muayyan huquq normalarini hayotga tatbiq etish natijasida yuzaga keladi;
- davlat tomonidan ta‘minlanadi;
- kishilar hayotini engillashtirib, ularning yanada erkin bo‘lishlari hamda ijtimoiy munosabatlarni tashkiliy jihatdan yuzaga kelishi va amalda bo‘lishi uchun shart-sharoit yaratadi;
- qonuniylikning natijasi sifatida yuzaga chiqadi.

Nazorat uchun savollar

1. Qonuniylik va huquqiy tartibotni ta‘minlashda huquqning rolini ko‘rsatib bering.
2. Qonuniylik tamoyillari va kafolatlarini muhokama eting.
3. Qonuniylikning asosiy tamoyillaridan biri sifatida maqsadga muvofiqlikning qonuniylikka qarshi qo‘yilmasligi yuridik amaliyotda qay darajada namoyon bo‘lishini muhokama qiling.
4. Huquqiy tartibot xususiyatlariga tushuncha bering.
5. Qonunlar va huquqiy qonuniylik tushunchalarini muhokama qiling

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ТЕСТ САВОЛЛАРИ

11. Қонунийлик кафолати қайси жавобда берилган

- A) қонунни амал қилишини таъминлаш
- B) қонуности актларини амалга қилишини таъминлаш
- C) давлат манфаатларини тўсиқларсиз амалга ошириш
- D) ҳамма жавоблар тўғри

12. Қонунийликни амалга ошириш кафолатининг турлари қайси жавобда берилган

- A) иқтисодий, маънавий, сиёсий
- B) ҳуқуқий, ташкилий, таркибли
- C) жамоатчилик, ҳуқуқий, атшкилий
- D) моддий, ҳуқуқий, сиёсий

13. Қонун ва қонун ости актларига амал қилинишини назорат қилувчи махсус органлар фаолияти

- A) ташкилий
- B) сиёсий
- C) маданий

D) ҳуқуқий

14. Ҳуқуқий жавобгарликни таъминлаш қайси жавобда берилган

A) адолатлилик

B) инсонпарварлик

C) қонунийлик

D) ҳамма жавоб тўғри

15. Кишиларнинг ҳуқуқ-атвори ва ижтимоий муносабатларга ҳуқуқий воситалар ёрдамида мақсадли таъсир этиш

A) ҳуқуқий тартибга солиш

B) ҳуқуқий амалга ошириш

C) ҳуқуқни рағбатлантириш

D) ҳуқуқни тадбиқ этиш

MAVZU YOZASIDAN GLOSSARIYLAR

ҚОНУНИЙЛИК – бу ҳуқуқ субъектлари томонидан норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга тўла ва аниқ амал қилинишидир. Қонунийлик – ҳуқуқ ва ҳокимият, ҳуқуқ ва давлатнинг узвий боғлиқлигида ўз ифодасини топадиган, ижтимоий-сиёсий ҳаётга ҳуқуқий тус берадиган кенг маънодаги сиёсий-ҳуқуқий ҳодиса

ҚОНУНИЙЛИК – ижтимоий ҳаётда ҳуқуқ ва қонун устуворлигидан, ижтимоий муносабатларнинг барча иштирокчилари томонидан ҳуқуқ нормаларини оғишмай амалга ошириш, мансабдор шахслар фаолиятидаги ҳуқуқбузарлик ва зўравонликка қарши изчил курашиш, жамиятда тартиб ва уюшқоқликни таъминлашдан иборат ижтимоий-сиёсий режимдир.

ҚОНУНИЙЛИК КАФОЛАТИ – бу қонун ва қонун ости ҳужжатлари амал қилишини таъминловчи, фуқароларнинг ҳуқуқларини ҳамда давлат, жамият манфаатларини тўсиқларсиз амалга оширувчи усуллари, шарт-шароитларидир.

ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБОТ – бу ҳуқуқ субъектларининг ҳуқуқ нормаларида белгиланган қоидаларга тўла ва аниқ риоя қилишлари натижасида ўрнатиладиган ижтимоий муносабатлар тизимидир. Ҳуқуқ, қонунийлик, ҳуқуқ-тартибот давлат ва жамият ҳаёти учун муҳим аҳамият касб этади.

19-MAVZU.

DAVLAT VA HUQUQNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA YO‘LLARI

Mavzuning asosiy yo‘nalishlari

1. Davlat va huquqning rivojlanish istiqbollari
2. Fuqarolik jamiyati tushunchasi, belgilari

3. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asoslari
4. Huquqiy davlat tushunchasi, belgilari va prinsiplari.
5. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari.

19.1. DAVLAT VA HUQUQNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Davlat va huquqning rivojlanish istiqbol va yo'llari haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, shuni qayd etish lozimki, bugungi kunda jahonning aksariyat rivojlangan davlatlari demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan bormoqdalar. Jumladan, Avstriya, Germaniya, SHveysariya, va YAponiya kabi davlatlar demokratik huquqiy davlatni shakllantirish borasida katta muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqdalar. Biz tanlab olgan yo'l ham demokratik yo'l bo'lib, Konstitutsiyamizning muqaddimasida belgilab qo'yilgan insonparavar demokratik huquqiy davlat barpo etishdir.

Ma'lumki, demokratik huquqiy davlatni rivojlangan fuqarolik jamiyatisiz shakllantirib bo'lmaydi. Endi demokratik huquqiy davlatning tarkibiy qismi bo'lgan fuqarolik jamiyati tushunchasi, belgilari va uning tuzilishiga to'xtalib o'tamiz.

19.2. FUQAROLIK JAMIYATI TUSHUNCHASI, BELGILARI

Fuqarolik jamiyati – bu shunday jamiyatki, unda kishilar o'zaro bog'liqdirlar, bir-birlari bilan mustaqil ravishda munosabatda bo'ladilar.

Фуқаролик жамияти – бу ахлоқий, диний, миллий, ижтимоий-иқтисодий, оилавий муносабатлар ва институтлар йиғиндиси бўлиб, улар ёрдамида индивидлар, гуруҳлар, жамият аъзоларининг эҳтиёжлари ва манфаатлари қондириладиган ва таъминланадиган жамият.

Bunday jamiyatda ijtimoiy ma'naviy va madaniy hayotni ta'minlash, uni rivojlantirib avloddan-avlodga etkazish davlat bilan jamoat birlashmalarining, shaxs bilan jamoatning munosabatlarini ma'lum darajada mustaqil olib borish orqali amalga oshiriladi. Fuqarolik jamiyatida shaxs ijtimoiy munosabatlarda, o'zining shaxsiy xususiyatlarini yo'qotmasdan ishtirok etadi, har bir shaxs o'zligini namoyon qilib, faoliyatining shakl va turlarini erkin tanlaydi.

Huquqshunos olim Z. Islomov fuqarolik jamiyati to'g'risida to'xtalib, quyidagi fikr-mulohazalarni bildirib o'tgan: "Fuqarolik jamiyati – bu shaxsiy hukmronlik rejimiga, ob'ektiv taraqqiyot qonunlarini rad etuvchi volyuntarizmga, sinfiy dushmanlikka, totalitarizmga, odamlar ustidan zulmkorlikka o'rin bo'lmagan, qonun, axloq, insonparvarlik va adolat prinsiplari hurmat qilinadigan erkin, huquqiy demokratik, yuksak ma'naviyatga erishgan jamiyatdir. Yana bu – aralash iqtisodiyotga ega bo'lgan ko'p ukladli raqobatga asoslanagn jamiyat, tashabbusga asoslangan tadbirkorlik, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining oqilona muvozanati ta'minlangan jamiyatdir"²⁶.

Professor X. Odilqoriev fuqarolik jamiyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat

²⁶ Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси/ Дарслик. – Т.: Адолат, 2007. – Б.92-93.

hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyat"²⁷.

19.3. FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOIIY, IQTISODIY, SIYOSIY VA MA'NAVIY ASOSLARI

Fuqarolik jamiyatining turli sohalarda institutlari mavjud bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ma'naviyat sohasida – fuqarolik jamiyatining institutlari: fan, madaniyat va maorif tashkilotlari hamda turli ijodiy uyushmalar;
- iqtisodiy sohada – turli tashkilot, korxonalar va muassasalar;
- siyosiy sohada – siyosiy partiyalar va harakatlar;
- ijtimoiy sohada – oila va kishilarning turli mehnat uyushmalari;
- axborot sohasida – ommaviy axborot vositalari.

Fuqarolik jamiyatida xususiy mulkchilik g'oyat katta ahamiyatga ega. Chunki u mulkdor sifatida davlat hokimiyatiga nisbatan o'zini mustaqil sezadi, u qonunda ko'rsatilgan asoslarda o'z manfaatlarini hisobga olib, xohlagan ishi bilan shug'ullanishi, istagan kasbini tanlashi, o'zi tanlagan joyida yashashi mumkin.

19.4. HUQUQIY DAVLAT TUSHUNCHASI, BELGILARI VA PRINSIPLARI

Хуқуқий давлат – хуқуқий асосда ташкил топадиган ва жамият ҳаётининг барча соҳаларида хуқуқ устуворлик қиладиган давлат.

Ma'lumki, huquqiy demokratik davlat barpo etish uchun fuqarolik jamiyati shakllangan bo'lishi kerak. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati o'zaro bog'liq, bir-birini taqozo etuvchi ijtimoiy hodisalardir.

Huquqiy davlat to'g'risidagi g'oyalar asrlar davomida shakllangan. Bu g'oyalar qadimgi davrning Aristotel, Sitseron kabi mutafakkirlarining asarlarida o'z ifodasini topgan edi. Keyinchalik XVII–XVIII asrlarga kelib, huquqiy davlat g'oyasiga yana e'tibor kuchaydi va bu g'oya asosida butun bir ta'limot – huquqiy davlat nazariyasi yaratildi. Huquqiy davlat nazariyasining shakllanishiga G.Gegel, SH.Monteske, I.Kant, R.fon Mol va boshqa olimlar katta hissa qo'shganlar. Huquqiy davlat nazariyasi asoschilardan biri Immanuil Kant huquqiy davlat tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Davlat huquqiy qonunlarga bo'ysunish asosida yashovchi ko'plab odamlarning uyushmasidir"²⁸.

Qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. Qonunlar hayotiy, amaliyot bilan uzviy bog'liq bo'lishi va undan kelib chiqmog'i lozim. Qonun bozor munosabatlariga o'tishning barcha amal qilishi kerak bo'lgan etakchi prinsiplaridan biridir. U hayotning barcha sohalari qonunning qat'iy hukmdorligini nazarda tutadi.

Jamiyatning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati huquqiy davlatning muhim omili va shartidir.

²⁷ Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. –Т.: Шарқ, 2002. – Б.171–172.

²⁸ Теория государства и права: Курс лекций / Под ред. Н.И.Матузова и А.В.Малько. – М.: Юристъ, 2002. – С.251.

Huquqiy adabiyotlarda huquqiy davlatning quyidagi asosiy belgi va xususiyatlarini ko'rsatib o'tilgan:

1. Hokimiyatning bo'linishi, ya'ni bir davlat kichik tizimining funksiyasini boshqasi bilan almashtirilishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi;
2. Fuqarolik jamiyatining mavjudligi;
3. Biron-bir bo'g'in yoki institutda hokimiyat vakolatlarining to'planib qolishiga to'sqinlik qiluvchi monopoliyaga qarshi mexanizmlarning yaratilishi;
4. Konstitutsiyaviy qonunning ustunligi va bevosita amal qilishi;
5. Davlat hokimiyati suverenligini qonunda belgilash va uni hayotga tatbiq etish;
6. Saylash huquqi normalari asosida qonun chiqaruvchi organlarni shakllantirish hamda qonunlarda davlat irodasini shakllanishini va ifodalanishini nazorat qilish;
7. Ichki qonunlarning xalqaro huquq umume'tirof etgan normalar va prinsiplarga muvofiqligi;
8. Ijtimoiy munosabatlar barcha sub'ektlarining, har kimning o'zboshimcha qarorlaridan huquqiy kafolatlanganligi;
9. Huquqiy davlatchilikni ta'minlashning namunasi, modeli va vositasi sifatida sudning ustunligi;
10. Qonunlarning huquqqa muvofiqligi va davlat hokimiyati tizimini huquqiy tashkil etish;
11. Fuqarolar huquqlari va majburiyatlarining birligi;
12. Davlat va shaxsning o'zaro mas'uliyati"²⁹.

Huquqiy davlatning muhim xususiyati davlat va shaxs o'zaro munosabatlarning huquqiy tusda bo'lishidir. SHuni anglash joizki, shaxsning huquqi va erkinligi – bu insonning ajralmas bir qismi, ijtimoiy tuzumning mahsulotidir. Buningsiz huquqiy davlatning asosi bo'ladigan fuqarolik jamiyatiga erishib bo'lmaydi.

19.5. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT QURISH VA FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakat hayotida ulkan siyosiy voqea bo'ldi. Mamlakatimizning Asosiy qonunida davlat tuzumi prinsiplarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyatni rivojlantirishning iqtisodiy negizlari va strategik yo'nalishlari va boshqa masalalar mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyada davlat hokimiyati organlarining avvalgi totalitar tuzumdan mutlaqo farq qiladigan, hokimiyatlarning, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining bo'linishi prinsipiga asoslangan tizimi yaratilganligi ko'rsatib o'tilgan. Albatta, har bir davlat huquqiy va demokratik tarzda shakllanishi uchun ushbu hokimiyatning bo'linishi tamoyiliga amal qilishi lozim.

²⁹ Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси/ Дарслик. – Т.: Адолат, 2007. – Б.124–125.

Huquqiy demokratiya qaror topar ekan, unda respublika aholisining barcha qatlamlari manfaatlari, barcha ijtimoiy guruhlarning milliy va madaniy haq-huquqlari muhofaza etiladi.

Mustaqil O‘zbekiston o‘z xalqi tanlab olgan yo‘l-ochiq erkin bozor iqtisodiyotiga asoslanadigan odil jamiyat, kuchli demokratik huquqiy davlat qurish yo‘lidan bosqichma bosqich olg‘a bormoqda. Biz barpo etayotgan davlat, avvalo, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida taraqqiy etgan boshqa xalqlar erishgan tajribalarga va o‘zimizga xos milliy an‘analarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanmoqda.

Ma‘lumki, mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish, inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash, davlatimizni demokratik davlat darajasiga ko‘tarish, taraqqiy topgan mamlakatlar va xalqlarning hayot darajasiga etkazib borishdir.

Respublikamizda demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lida demokratik islohotlarni yanada jadallashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilingan va unda beshta ustuvor yo‘nalishlar ko‘rsatib o‘tilgan:

– “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;

– Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari;

– Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;

– Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari;

– Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar”³⁰.

Yaqin istiqbolda mazkur farmonda ko‘rsatib o‘tilgan ustuvor yo‘nalishlarda belgilab qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirilishi, mamlakatimizda qonun ustuvorligiga, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlanishiga, iqtisodiyotni rivojlanishiga, aholi turli qatlamlari turmush tarzining yuksalishiga hamda respublikamizni demokratik huquqiy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining o‘zaro nisbati va aloqalarini izohlab bering.

2. Fuqarolik jamiyati tushunchasidan kelib chiqib uning asosiy belgilarini izohlab bering.

3. Fuqarolik jamiyati shakllantirishda O‘zbekiston huquq tizimi asosiy sohalarining o‘ziga xos tomonlarini izohlab bering.

4. Fuqarolik jamiyati, uning asosiy belgi va xususiyatlarini izohlab bering.

³⁰ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил 6 (766) -сон, 70-модда.

5. O'zbekistonda huquqiy davlatning asosiy belgilari va prinsiplari nimalarda namoyon bo'lishini muhokama qiling.

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ТЕСТ САВОЛЛАРИ

16. Жамият ва давлат томонидан белгиланган ва ҳуқуқий нормаларда ўз аксини топган талабларини бажариш зарурияти

- A) мажбурият
- B) бурч
- C) эркинлик
- D) зарурият

17. Фуқаролик жамиятининг таркибий элементлари қайси жавобда берилган

1. Оила. 2. Махалла. 3. Дин черков. 4. Нодавлат таълим. 5. Тарбия тизими. 6. Суд. 7. Мактаб.

- A) 1,3,5
- B) 5,6,7
- C) 2,3,4
- D) 1,2,3

18. Давлат ҳуқуқий асосда ташкил топадиган ва жамият ҳаётининг барча соҳаларида ҳуқуқ устиворлик қиладиган давлат

- A) ҳуқуқий давлат
- B) дунёвий давлат
- C) диний давлат
- D) авторитар давлат

19. Шахс ҳуқуқий мақомининг элементлари қайси жавобда тўғри берилган.

- 1. Ҳуқуқ ва мажбуриятлар.
- 2. Ҳуқмдорлик.
- 3. Ҳуқуқ ижодкорлиги.
- 4. Юридик амалиёт.
- 5. Юридик жавобгарлик.
- 6. Ҳуқуқий тамойиллар.

- A) 1,3,2,5
- B) 1,5,2,6
- C) 1,6,4,3
- D) 1,3,6,5

20. Ҳуқуқий тартибга солиш механизмининг таркибий элементлари қайси жавобда берилган

- 1. Ҳуқуқ нормалари.
- 2. Ҳуқуқ ижодкорлиги.
- 3. Юридик амалиёт.
- 4. Ҳуқуқий нигилизм.
- 5. Ҳуқуқий хулқ.
- 6. Ҳуқуқий онг.

- A) 3,5,2
- B) 4,1,6
- C) 1,5,6
- D) 5,3,1

МАВЗУ ЮЗАСИДАН ГЛОССАРИЙЛАР

ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ – бу ахлоқий, диний, миллий, ижтимоий-иқтисодий, оилавий муносабатлар ва институтлар йиғиндиси бўлиб, улар ёрдамида индивидлар, гуруҳлар, жамият аъзоларининг эҳтиёжлари ва манфаатлари қондириладиган ва таъминланадиган жамият.

ҲУҚУҚИЙ ДАВЛАТ – ҳуқуқий асосда ташкил топадиган ва жамият ҳаётининг барча соҳаларида ҳуқуқ устуворлик қиладиган давлат.

ҚОНУННИНГ УСТУВОРЛИГИ – ҳуқуқий давлатнинг асосий принциpidир. Қонунлар ҳаётий, амалиёт билан узвий боғлиқ бўлиши ва ундан келиб чиқмоғи лозим. Қонун бозор муносабатларига ўтишнинг барча амал қилиши керак бўлган етакчи принципларидан биридир. У ҳаётнинг барча соҳаларида қонуннинг қатъиян ҳукмдорлигини назарда тутди.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.

2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

4. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T., 2017. – 592 b.

5. Mirziyoev SH.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. 2017 yil 8 dekabr.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (2022). – T.: O‘zbekiston.

2. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 92 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 52-son, 583-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y., 12-son, 213-modda, 2017 y., 24-son, 487-modda, 37-son, 978-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y., 12-son, 215-modda, 2003 y., 5-son, 67-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 37-son, 978-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y., 9-10-son, 136-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 24-son, 487-modda, 37-son, 978-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y., 9-10-son, 137-modda; O‘zbekiston

Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 24-son, 487-modda, 37-son, 978-modda.

7. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y., 9-10-son, 138-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 39-son, 457-modda.

8. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 1-2-son, 10-modda; 2004 y., 1-2-son, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 16-son, 162-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017 y., 13-son, 194-modda, 15-son, 242-modda.

9. O'zbekiston Respublikasining "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 41-son, 406-modda; 2014 y., 20-son, 222-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018 y., 03/18/459/0536-son.

3. Asosiy adabiyotlar

1. Axmedshaeva M. Davlat mexanizmi va hokimiyatlar bo'linishi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYUI, 2005. – 66 b.

2. Axmedshaeva M., Najimov M. Huquq nima? – T.: TDYUI, 2003. – 35 b.

3. Davlat va huquq nazariyasi / mas'ul muharrirlar H.B.Boboiev, H.T.Odilqoriev. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. – 528 b.

4. Islamov Z. *Общество. Государство. Право. (Voprosy teorii)*. – T.: Adolat, 2001. – 695 s.

5. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2007. – 916 b.

6. Lazarev V.V., Lipen S.V., Saidov A.X. Teoriya gosudarstva i prava. Uchebnik / pod red. akad. Abduraxmanova K.X. – M.: Ros. ekon. akad., 2008. – 620 s.

7. Odilqoriev X.T., Tulteev I.T. va boshq. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik / prof. X.T.Odilqoriev tahriri ostida. – T.: Sharq, 2009. – 592 b.

8. Odilqoriev X. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: Adolat, 2022. – 528 b.

9. Saydullaev SH. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –Toshkent: TDYUU, 2018. -220 b.

10. Saburov N. Davlat va huquq nazariyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: TDYI, 2008. – 108 b.

11. Saburov N. Davlat va huquq nazariyasi (savollar, ta'riflar, tushuncha va atamalar). – T.: TDYUI, 2005. – 95 b.

12. Saburov N., Najimov M. Davlat va huquq nazariyasi. Nazorat shakllari bo'yicha sinovga tayyorgarlik ko'rish uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: TDYUI, 2009. – 150 b.

13. Saidov A., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi. I jild. – T.: Adolat, 2001. – 336 b.

14. Saidov A., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi. II jild. – T.: Adolat, 2001. – 560 b.

4. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Alekseev S.S. Izbrannoe: nauka prava, obshchestvennye problemy, publitsistika. – M.: Statut, 2003. – 480 s.

2. Javliev N.B. Huquqning mohiyati: an’anaviy va zamonaviy nazariyalar. O‘quv-qo‘llanma. – T.: TDYUI, 2010. – 96 b.

3. Islamov Z.M. Problemy vlasti: ee ponimanie, naznachenie, sotsialnaya sennost. – T.: TGYUI, 2003. – 244 s.

4. Najimov M.K. Norma ijodkorligi. Darslik. – T.: TDYUU, 2018. – 181 b.

5. Najimov M.K. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat. – T.: TDYUU, 2018. – 66 b.

6. Najimov M.K. Davlat funksiyalari. – T.: TDYUU, 2018. – 64 b.

7. Odilqoriev X.T., Yakubov SH.U. Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadriyatlar. Monografiya. – T.: SMI-ASIA, 2010. – 400 b.

8. Saburov N., Saydullaev SH. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: TDYUI, 2011. – 172 b.

9. Hayitboyev F., Najimov M. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari (qiyosiy huquqshunoslik). – T.: TDYU, 2018. – 229 b.

5. Xorijiy adabiyotlar

1. Hans Kelzen. General theory of law and state. – Cambridge: Harvard University Press, 2009. – 517 p.

2. Scott Veitch, Emilios Christodoulidis, Lindsay Farmer. Jurisprudence Themes and Concepts. Second edition. – London: Routledge publication, 2012. – 305 p.

3. Hart H.L.A. The Concept of Law. 3rd edition. – Oxford: Oxford university press, 2012. – 333 p.

6. Elektron ta’lim resurslari

1. <http://www.tsul.uz>

2. <http://www.norma.uz>

3. <http://www.gov.uz>

4. <http://www.lex.uz>

5. <http://www.lawbook.ru>

6. <http://www.lawlibrary.ru>